O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEVA MAFTUNA AZAMATOVNA

TURKIY TILLAR TERMINOLOGIYASI TIZIMIDA O‘ZBEK VA QIRG‘IZ TILSHUNOSLIK TERMINLARINING O‘RNI

Monografiya

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand – 2026

UO‘K: 811.512.133+811.512.154:81'373.46

Ubaydullayeva Maftuna Azamatovna. Turkiy tillar terminologiyasi tizimida o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarining o‘rni. Monografiya. - Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2026. - 144 bet.

*Ushbu monografiya **“Turkiy tillar terminologiyasi tizimida o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarining o‘rni”** mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi tilshunoslik terminlarining shakllanishi, taraqqiyoti, struktur-semantik xususiyatlari, terminologik tizimdagi o‘rni hamda o‘zaro umumiy va farqli jihatlari qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etilgan.*

Tadqiqotda termin va terminologiya tushunchalarining nazariy asoslari, ularning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, terminologiya maktablarining ilmiy qarashlari hamda zamonaviy terminshunoslikning asosiy tamoyillari tahlil qilingan. Xususan, terminning aniqlik, tizimlilik, bir ma’nolilikka intilish, definitsion muayyanlik, ekspressivlikdan xolilik, funksional va kognitiv xususiyatlari yoritilgan. Terminologik tizimlarning shakllanishida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy omillarning roli ochib berilgan.

Monografiyada ilgari surilgan ilmiy xulosalar turkiy tillar terminologiyasini qiyosiy o‘rganish, o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarini tizimlashtirish va me’yorlashtirish, terminologik lug‘atlar yaratish, qardosh tillar terminologik tizimlarining umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot materiallaridan terminshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, umumiy tilshunoslik, leksikologiya, tarjimashunoslik fanlarini o‘qitishda, shuningdek, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalar tomonidan foydalanish mumkin.

Mas’ul muharrir:
filologiya fanlari doktori, professor **I.K.Mirzayev**
Taqrizchilar:
professor **B.Muxitdinova**
filologiya fanlari doktori, dotsent **O.Anorqulova**

Ushbu monografiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2026-yil 30-iyundagi 12-sonli bayonnomasi qaroriga asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-292-63-7

© Ubaydullayeva Maftuna Azamatovna, 2026
© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2026

SO‘Z BOSHI

Til – millatning tarixiy xotirasi, tafakkuri, ma’naviy olami va ilmiy salohiyatini o‘zida mujassam etgan beqiyos ijtimoiy hodisadir. Insoniyatning ilmiy tafakkuri, fan va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi yangilanishlar, avvalo, tilda, xususan, uning terminologik tizimida o‘z aksini topadi. Shu ma’noda terminlar nafaqat muayyan fan sohasiga oid tushunchalarni nomlovchi til birliklari, balki ilmiy bilimlarni tizimlashtirish, konseptuallashtirish va ilmiy kommunikatsiyani ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida terminologiya masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi, fanlararo aloqalarning kuchayishi, xorijiy tillardan yangi terminlarning kirib kelishi, mavjud terminlarni milliy til imkoniyatlari asosida qayta ko‘rib chiqish va me’yorlashtirish jarayonlari terminologik tizimni muntazam tadqiq etishni taqozo etadi. Hozirgi davrda o‘zbek va qirg‘iz tillari terminologiyasida bir tomondan xalqaro va o‘zlashma birliklardan foydalanish, ikkinchi tomondan esa milliy tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi terminlar yaratishga intilish jarayoni parallel ravishda kechmoqda.

O‘zbek va qirg‘iz tillari umumturkiy til makonining qardosh va tarixiy jihatdan yaqin ikki vakili sifatida ko‘plab umumiy lingvistik xususiyatlarga ega. Har ikki til terminologik tizimining shakllanishida qadimgi turkiy leksik qatlam, Sharq ilmiy-madaniy muhiti, arab va fors tillari ta’siri, keyingi davrlarda esa rus tili hamda xalqaro terminologik qatlam muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy muhiti, milliy til siyosati va ilmiy maktablari ta’sirida o‘ziga xos terminologik xususiyatlar ham shakllangan.

Turkiy tillarning qiyosiy o‘rganilishi uzoq tarixiy an’anaga ega. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari hamda Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi bebaho ilmiy meroslari turkiy tillarni qiyoslash, ularning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash borasidagi qadimiy ilmiy an’analarning yorqin namunasidir. Bugungi tilshunoslikda mazkur an’ana zamonaviy qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, funksional-semantik va kognitiv yondashuvlar asosida davom ettirilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarini qiyosiy o‘rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki qardosh

tillarning umumiyligi va o‘ziga xosligini faqat fonetik, leksik yoki grammatik qurilish misolida emas, balki ilmiy tushunchalarni ifodalovchi terminologik tizim orqali ham kuzatish mumkin. Terminlarning shakliy tuzilishi, kelib chiqishi, semantik mazmuni, yasash modellari, qo‘llanish doirasi va terminologik tizimdagi funksional o‘rni ikki tilning tarixiy hamda zamonaviy taraqqiyot xususiyatlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur monografiya ana shunday ilmiy ehtiyojdan kelib chiqib, o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarini qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning muhim jihati shundaki, unda terminlar faqat shakliy o‘xshashlik asosida emas, balki ularning konseptual mazmuni, terminologik tizimdagi o‘rni, funksional vazifasi va kognitiv xususiyatlari asosida qiyoslanadi. Bunday yondashuv qardosh tillar terminologiyasining umumiy va milliy xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Monografiyada, xususan, oliy ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” va “Азыркы кыргыз адабий тили” darsliklari materiallari asosida o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarining qiyosiy-strukturaviy tahlili amalga oshirilgan. Fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, morfemika va so‘z yasalishiga oid terminlarning shakllanishi, semantik mazmuni, struktur xususiyatlari va qo‘llanish tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot natijalari o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminologiyasi o‘rtasida sezilarli umumiyliklar mavjudligini, ayni paytda terminlarning nomlanishi, tasniflanishi va izohlanishida muayyan tafovutlar borligini ko‘rsatadi. Masalan, fonetik terminlar tahlilida har ikki tilda umumiy ilmiy tushunchalarning turlicha nomlanishi va ayrim masalalarning turli darajada yoritilishi kuzatiladi. So‘z yasalishiga oid terminlar qiyosida esa o‘zbek tilshunosligida ayrim derivatsion tushunchalarning funksional-semantik va struktur jihatdan batafsil ishlab chiqilgani, qirg‘iz tilshunosligida esa derivatsion munosabatlarni ifodalovchi milliy terminlarning faol qo‘llanishi namoyon bo‘ladi.

Monografiyaning ilmiy qiymati shundaki, unda o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminologiyasi yaxlit tizim sifatida qaralib, uning shakllanish omillari, tarixiy taraqqiyoti, struktur-semantik tabiati va zamonaviy qo‘llanish xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Bunday tadqiqotlar nafaqat ikki qardosh til terminologiyasining o‘ziga xosligini aniqlash, balki umumturkiy terminologik tizimning shakllanish

va rivojlanish qonuniyatlarini belgilash uchun ham muhim nazariy asos bo‘la oladi.

Ayniqsa, bugungi kunda milliy terminologiyani takomillashtirish, ilmiy atamalarni tartibga solish va me’yorlashtirish, ta’lim jarayonida yagona hamda aniq terminologik mezonlarni qaror toptirish masalalari dolzarb bo‘lib turgan bir paytda mazkur monografiyaning amaliy ahamiyati yanada ortadi. O‘zbek va qirg‘iz terminologiyasini qiyosiy o‘rganish kelgusida ikki tilli lingvistik lug‘atlar yaratish, terminologik ma’lumotlar bazalarini shakllantirish, qardosh tillar bo‘yicha qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun ham muhim zamin yaratadi.

Muallifning mazkur tadqiqoti turkiy tillar terminologiyasini o‘rganishga o‘ziga xos hissa bo‘lib, unda tilshunoslik terminlarining tabiati, shakllanishi va taraqqiyotini qiyosiy aspektda anglashga intilish mujassam. Ishda ilgari surilgan ilmiy qarashlar va xulosalar o‘zbek hamda qirg‘iz tilshunosligi, qiyosiy tilshunoslik, terminshunoslik va turkologiya yo‘nalishidagi izlanishlar uchun muayyan nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Umid qilamizki, ushbu monografiya o‘zbek va qirg‘iz tillarining terminologik boyligini qiyosiy o‘rganishga qiziqadigan mutaxassislar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar hamda oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun foydali ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi, mazkur tadqiqot qardosh turkiy tillarning mushtarak ilmiy-lisoniy imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglash, ularning milliy o‘ziga xosligini asrab-avaylash va zamonaviy ilmiy terminologiyani takomillashtirish yo‘lidagi izlanishlarga munosib turtki beradi.

I BOB.TERMIN VA TERMINOLOGIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Mamlakatimiz keyingi yillarda taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi, dunyoning eng rivojlangan davlatlari bilan turli sohalardagi aloqasi kuchaydi, ilm-fanda jahon andozalariga mos yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. Bularning barchasi ilmiy yo‘nalishlarda, ta’lim tizimida o‘z aksini topa boshladi. Ilm-fan, iqtisodiyot, ishlab chiqarishdagi jadal taraqqiyot, madaniyat, huquq, tibbiyot, axborot texnologiyalari kabi sohalarning globallashuvi va kundalik hayotimizdan muhim o‘rin egallashi natijasida inson faoliyatining turli sohalariga oid bo‘lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi termin va terminologiya bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Kundalik turmushimizdan muhim o‘rin egallagan axborot texnologiyalari tufayli yuzlab yangi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar tilimizga kirib kelmoqda va muqim o‘rnashmoqda. Biz zamonaviy axborot davrida yashamoqdamiz va tilimizning ichki va tashqi manbalar asosida boyib borishi tabiiy hol, albatta. Shunday ekan, inson faoliyatining barcha sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan, ma’lum bir sistemaga solingan terminologik jamlanmaga ega bo‘lish har bir kasb mukammalligi, samaradorligini ta’minlovchi omilga aylandi. Masalaga ana shu nuqtayi nazaridan yondashilsa, termin va terminologiya masalalarini o‘rganish, tilimizga kirib kelayotgan yangi terminlarning nutqiy faoliyatimizga singib ketishi, tilimizda shu tushunchani ifodalaydigan muqobil lisoniy variantlarning mavjud yoki mavjud emasligi, termin sifatida qabul qilingan so‘zning nazarda tutilgan ehtiyojni qoplay olishi yoki olmasligi har doim tilshunoslar zimmasiga ularni nazorat qilish vazifasini yuklaydi. Shu tufayli tilimizdagi ilm-fan, texnika, san’at, madaniyat bilan bog‘liq sohalarga oid terminlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish doimo muhim hisoblanadi va ayniqsa, tilshunoslik terminlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganishga qiziqish tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

1.1.Tilshunoslikda termin va terminologiya tushunchalari talqini

Termin va terminologiya hodisalarining ilmiy jihatdan o‘rganilishi zamonaviy tilshunoslikning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tushunchalar faqat bugungi ilmiy

taraqqiyot jarayonining natijasi sifatida emas, balki insoniyatning olamni anglash, bilimlarni tizimlashtirish va ularni lisoniy vositalar orqali ifodalash ehtiyoji asosida shakllangan uzoq tarixiy jarayon mahsuli sifatida qaraladi. Jamiyat taraqqiyotining har bir davrida yangi ilmiy tushunchalarning yuzaga kelishi ularni nomlash, farqlash va muayyan tizim doirasida ifodalash zaruratini keltirib chiqargan. Aynan shu ehtiyoj terminlarning shakllanishi, rivojlanishi hamda fan sohalari doirasida mustahkamlanishiga asos bo‘lgan. Shu jihatdan ham termin tushunchasining tarixiy taraqqiyot yo‘lini o‘rganish faqat terminologiya fanining nazariy asoslarini belgilash bilan cheklanmaydi, balki ilmiy tafakkurning shakllanish usullarini, inson bilimlarini tartibga solish jarayonlarini ham anglash imkonini beradi.

“Termin” lotin tilidagi “terminus” so‘zidan olingan bo‘lib, “chegara”, “had”, “ajratuvchi nuqta”, “belgilangan chiziq” ma’nolarini bildiradi. Qadimgi rim madaniyatida Terminus yer chegaralarini himoya qiluvchi iloh nomi sifatida ham keltirilgan bo‘lib, ushbu etimologik asos terminning mohiyatini anglashda muhim nazariy ahamiyatga egadir. Sababi termin ham muayyan ilmiy tushunchaning chegaralarini belgilaydi uni boshqa tushunchalardan farqlash imkonini beradi. Terminning asosiy vazifasi nafaqat nomlash, balki ilmiy konseptni aniq chegaralashdan iboratdir. Bu haqda lotin tili etimologiyasiga oid lug‘atlarda ham qayd etilgan bo‘lib, jumaladan, T.Ch.Lewis, Charles Shortlar[1] tomonidan tuzilgan “A Latin Dictioanary (**Dictionary yozilmaydimi? Bir qarang!)**” lug‘atida *termunus (**terminus yazilmaydimi?**)* so‘zi “chegara”, chegara belgisi”, “oxirgi nuqta” ma’nolarida izohlanadi. Bundan tashqari “Oxford Latin Dictionary”[2] lug‘atida ham ushbu birlikning dastlabki ma’nosi chegaralangan makon, belgilangan nuqta kabi ma’nolarni anglatishi keltirilgan.

Etimologik jihatdan qaralganda, terminning “chegara” ma’nosi uning keyingi ilmiy talqinlarida ham o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Zamonaviy terminologiya nazariyasida termini muayyan fan sohasiga oid tushunchani aniq va bir ma’noli qilib ifodalovchi til birligi sifatida izohlanadi. Shunday ekan, lotincha *terminis* so‘zining dastlabki semantik mazmuni bilan bugungi ilmiy talqin o‘rtasida uzviy semantik bog‘liqlik mavjud. Biroq tarixiy taraqqiyot davomida termin tushunchasi faqat “chegarani belgilovchi so‘z” sifatida emas, balki ilmiy bilimlarni

[1] Lewis, C. T., Charles Short (1879). A Latin Dictionary Founded on Andrews' Edition of Freund's Latin Dictionary. Oxford: Clarendon Press. https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.147309/page/n3/mode/2up

[2] Oxford Latin Dictionary. Oxford: Oxford University Press. – 1968. https://archive.org/details/oxford-latin-dictionary/page/6/mode/2up

tizimlashtirish, mantiqiy tasniflash va ilmiy kommunikatsiyani ta’minlovchi vosita sifatida ham shakllangan. Mazkur o‘zgarishlar terminologiya yo‘nalishining keyingi rivojlanish bosqichlarida yanada yaqqol namoyon bo‘lgan.

Bizga ma’lumki, terminologiyaning alohida fan sifatida shakllanishi XX asrga to‘g‘ri kelsa-da, termin tushunchasining nazariy ildizlari qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Antik davr mutafakkirlari ilmiy bilish jarayonida tushuncha va nom o‘rtasidagi munosabatni izohlashga alohida e’tibor qaratganlar. Ko‘proq Platon va Aristotel asarlarida keyinchalik terminologiya nazariyasining rivojlanishiga asos bo‘lgan muhim g‘oyalar uchraydi. Buyuk faylasuf Platon til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish jarayonida nomlarning tabiiy yoki shartli xarakterga ega ekanligi haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan. Uning “Kratel”[3] nomli dialogida har bir nom muayyan mohiyatni ifodalashi kerakligi ta’kidlangan. Platonning fikricha, haqiqiy bilimga erishish uchun narsalarning mohiyatini anglash zarur, nom esa ushbu mohiyatni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Garchi Platon “termin” haqida bevosita nazariy ta’limot yaratmagan bo‘lsa-da, ilmiy nomlashning aniqligi va tushuncha bilan bog‘liqligi haqidagi qarashlari keyinchalik terminologik nazariyalarning falsafiy asoslaridan biriga aylangan. Ayniqsa, ilmiy terminning asosiy talablaridan biri bo‘lgan motivlanganlik(nomning tushuncha mohiyatiga mos kelishi) masalasi Platonning til falsafasidagi qarashlariga mos keladi.

Aristotelning “Metafizika”[4] asarida tushuncha, mohiyat va nom munosabatlari yanada keng qamrovda tahlil qilingan bo‘lib, uning fikricha, ilmiy bilish narsalarning mohiyatini anglashdan boshlanadi va bu jarayonda aniq tushunchalar hamda ularni ifodalovchi nomlar muhim vosita hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan Aristotelning ilmiy tasnif va tushunchalarni aniqlashga oid qarashlari zamonaviy terminologiyada mavjud bo‘lgan quyidagi tamoyillarga asos bo‘lgan: *tushunchalarning tizimliligi; tushunchalar o‘rtasidagi ierarxik munosabat; terminning muayyan konseptga bog‘liqligi; ilmiy ifodaning aniqligi.* Antik davr mutafakkirlari terminologiyani mustaqil fan sifatida ishlab chiqmagan bo‘lsalar-da, ilmiy tushuncha, ta’rif va nomlash tamoyillarini izohlash orqali terminologiyaning falsafiy negizini yaratganlar. Shuning uchun

[3] Plato. (1997). Complete Works. Edited by John M. Cooper. Indianapolis: Hackett Publishing Company. (Cratylus dialogi). https://www.amazon.com/Plato-Complete-Works/dp/0872203492

[4] Aristotle. (1984). *The Complete Works of Aristotle: The Revised Oxford Translation*. Edited by Jonathan Barnes. Princeton: Princeton University Press. https://developers.cloudflare.com/cloudflarechallenges/troubleshooting/challenge-solve-issues/

ham terminologiya tarixini antik davr falsafasidan ajratgan holda o‘rganib bo‘lmaydi.

Bizningcha, o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etishda aynan mana shu tarixiy-nazariy yondashuvlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki har qanday terminologik tizim milliy til imkoniyatlari, ilmiy tafakkur taraqqiyoti va muayyan fan sohasining konseptual tuzilishi bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, termin tushunchasi dastlab lingvistik emas, balki falsafiy va mantiqiy kategoriya sifatida shakllangan. Antik davr olimlari uchun asosiy masala termin yaratish emas, balki tushuncha va nom o‘rtasidagi munosabatni aniqlash bo‘lgan. Aynan shu yondashuv asosida keyinchalik terminologiyaning nazariy poydevorini tashkil etadi. Bizning nazarimizda, termin tushunchasining tarixiy rivojlanishini o‘rganishda uni faqat XX asr terminologiya maktablari bilan cheklash ilmiy jihatdan yetarli emas deb bilamiz. Chunki terminologiya nazariyasining dastlabki ildizlari qadimgi falsafiy tafakkurga borib taqaladi. Platon va Aristotel tomonidan ilgari surilgan nomlash, tushunchalarni tasniflash va mantiqiy aniqlik tamoyillari keyinchalik terminologiya nazariyasining fundamental usullari sifatida rivojlangan. Shu sababli terminning zamonaviy mohiyatini anglash uchun uning tarixiy-falsafiy shakllanishini atroflicha tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz.

Terminologiyaning alohida ilmiy fan sifatida shakllanishi ilm-fan va texnika taraqqiyotining jadalashgan davri bilan bevosita bog‘liqdir. XX asrning boshlariga qadar terminlar maxsus tadqiqot obyekti sifatida emas, balki leksikologiya, mantiq, falsafa hamda ilmiy uslub doirasida tahlil qilingan. Biroq ilmiy bilimlar hajmining ortishi, yangi fan tarmoqlarining vujudga kelishi va xalqaro ilmiy aloqalarning kengayishi natijasida maxsus leksik birliklarni tizimlashtirish hamda ularni yagona mezonlar asosida tartibga solish zarurati yuzaga kelgan. Mana shu ehtiyoj terminologiyaning ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Turli davlatlarda terminologiya nazariyasining rivojlanishi bir xil tarixiy va ijtimoiy sharoitda kechmagan. Har bir ilmiy maktab muayyan mamlakatning ilmiy an’analari, til siyosati, iqtisodiy taraqqiyoti va fanlararo hamkorlik ehtiyojlari ta’sirida o‘ziga xos nazariy yondashuvni ishlab chiqqan. Natijada terminologiya yo‘nalishida yagona konsepsiya emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi va ayrim jihatlarda farqlanuvchi bir necha ilmiy maktablar vujudga kelgan. Hozirgi

terminshunoslikda Vena, Moskva, Praga va Kanada maktablari, shuningdek, kognitiv terminologiya yo‘nalishi eng muhim nazariy oqimlar sifatida e’tirof etiladi.

Zamonaviy terminologiya nazariyasining ilmiy asoslarini yaratishda avstraliyalik olim Eugen Wüsterning ilmiy faoliyati alohida ahamiyatga egadir. U terminologiyani mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirgan va uning nazariy hamda metodologik asoslarini ishlab chiqqan olim sifatida e’tirof etiladi. Wüster tomonidan yaratilgan “Umumiy terminologiya nazariyasi” (General Theory of Terminology)[5] nomli asari zamonaviy terminshunoslikning mumtoz namunasi hisoblanib, ko‘plab mamlakatlarda terminologik tadqiqotlar uchun nazariy poydevor vazifasini bajargan. Wüster nazariyasining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, termin, eng avvalo, muayyan ilmiy tushunchani ifodalovchi til birligidir. Shu sababli terminni yaratish yoki tanlashda uning tashqi shakli emas, balki ifodalanayotgan ilmiy tushunchaning mazmuni asosiy mezon hisoblanadi. Olimning fikriga ko‘ra, “terminologik tizimni shakllantirish jarayoni avvalo ilmiy tushunchalarni aniqlash, ularni mantiqiy jihatdan tasniflash va o‘zaro bog‘liqligini belgilashdan boshlanishi kerak. Faqat shundan keyingina ushbu tushunchalarga mos terminlarni tanlash yoki yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi”[6], deydi. Vena terminologiya maktabida termin yaratish va qo‘llashning bir qator nazariy tamoyillari ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan eng muhimi Wüster tomonidan ilgari surilgan “bir tushuncha–bir termin”[7] tamoyilidir. Ushbu tamoyilga ko‘ra, har bir ilmiy tushuncha faqat bitta termin orqali ifodalanishi lozim bo‘lgan. Biroq keyingi tadqiqotchilardan M.T.Cabre, V.M.Leychik, R.Temmermanlar tabiiy tillarda bu tamoyil har doim ham to‘liq amalga oshmasligini ta’kidlaganlar. Chunki terminlarning ko‘p ma’noliligi, sinonimiyasi va fanlararo qo‘llanilishi tabiiy til taraqqiyotining ajralmas xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Wüster tomonidan ilgari surilgan ushbu tamoyillar keyinchalik terminologiyani me’yorlashtirish sohasida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, ISO 704 (Terminology work–Principles and methods) hamda ISO 1087 (Terminology work – Vocabulary) xalqaro standartlarini ishlab chiqishda aynan Vena

[5] https://www.isko.org/cyclo/terminology.htm

[6] Gerhard Budin. Wüsters Allgemeine Terminologielehre – ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaft, Logik, Ontologie, Informatik und den Sachwissenschaften. Publication sur OpenEdition Books : 13 janvier 2025. – B.246-252. file:///C:/Users/User/Desktop/woster.pdf

[7] Mitja Trojar. Wüster’s View of Terminology. Slovenski jezik – Slovene Linguistic Studies 11 (2017): 55–85. https://www.academia.edu/34943245/W%C3%BCsters_View_of_Terminology.

maktabining nazariy qarashlariga tayanilgan bo‘lib, ushbu standartlar bugungi kunda ko‘plab davlatlarda ilmiy va texnik terminologiyani tartibga solishda qo‘llanilmoqda. Vena maktabining yondashuvi, ayniqsa, texnika, muhandislik, tibbiyot va tabiiy fanlar terminologiyasini me’yorlashtirishda yuqori samara bergan. Sababi ushbu sohalarda terminning aniqligi, bir ma’noliligi ilmiy axborotni to‘g‘ri yetkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Shuning uchun ham Wüster terminologik tizimni imkon qadar qat’iy me’yorlar asosida shakllantirish zarurligini asoslab bergan. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Vena maktabining ayrim nazariy qarashlari tanqidiy bahola boshlangan. Tadqiqotchilar tabiiy tillarda terminlarning mutlaq bir ma’noliligini ta’minlash amaliy jihatdan har doim ham mumkin emasligini ta’kidlaganlar. Ilm-fanning rivojlanishi, fanlararo integratsiyaning kuchayishi hamda terminlarning turli kommunikativ vaziyatlarda qo‘llanishi natijasida ularning semantik hajmi kengayishi yoki yangi ma’nolar kasb etishi mumkin. Shu sababli Wüster nazariyasi terminologiyaning ideal holatini ifodalasa-da, terminlarning tabiiy til tizimidagi barcha funksional xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Shunga qaramay, Vena terminologiya maktabining terminshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni beqiyosdir. Ushbu maktab terminni oddiy leksik birlik emas, balki ilmiy tushunchalar tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qilish tamoyilini ilmiy muomalaga olib kirgan. Natijada terminni o‘rganishda uning shakliy xususiyatlaridan ko‘ra, ifodalanayotgan konseptual mazmunni va terminologik tizimdagi o‘rni muhim mezon sifatida qarala boshlandi. Bizning nazarimizda, ushbu nazariya o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarini qiyosiy-tipologik tahlilini amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Chunki qiyosiy tahlilda terminlarning faqat tashqi shakliga tayanish yetarli emas. Asosiy e’tibor ularning ifodalayotgan ilmiy tushunchasi, terminologik tizimdagi vazifasi va mazmuniy mosligiga qaratilishi lozim. Aynan shunday yondashuv tildagi tilshunoslik terminlarining umumiy va farqli jihatlarini ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi.

Yuqorida tahlilga tortilgan Vena terminologiya maktabi vakillari tomonidan terminologiyaning konseptual va mantiqiy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lsa, XX asrning o‘rtalaridan boshlab Moskva terminologiya maktabi ushbu yo‘nalishni lingvistik nuqtayi nazardan yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu maktab vakillari terminni faqat ilmiy tushunchaning nomi yoki mantiqiy birlik sifatida emas, balki til tizimining o‘ziga xos leksik elementi sifatida tadqiq etganlar. Buning natijasida terminologiya

faqat mantiq va standartlashtirish bilan chegaralanib qolmay, balki leksikologiya, semasiologiya, so‘z yasalishi, stilistika va ilmiy kommunikatsiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan mustaqil lingvistik yo‘nalishga aylangan. Moskva terminologiya maktabining shakllanishi XX asrning 30-70-yillarida fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ilmiy bilimlarning tobora ixtisoslashuvi hamda turli sohalarda yagona terminologik tizimlarni yaratishga bo‘lgan ehtiyojga aloqador bo‘lgan. Aynan shu davrda ilmiy terminlarni me’yorlashtirish, tizimlashtirish va ularning qo‘llanish tartibini ishlab chiqish terminologiya nazariyasining asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Shu sababli ham Moskva maktabi vakillari terminologiyani umumiy leksikologiyaning bo‘limi sifatida emas, balki o‘zining tadqiqot obyekti, metodologiyasi va ilmiy tamoyillariga ega bo‘lgan mustaqil fan sifatida asoslashga harakat qilganlar.

Dastlab, Moskva terminologiya maktabining shakllanishida o‘zining muhim hissasini qo‘shgan tilshunos olim G.O.Vinokur bo‘lib, u “termin alohida turdagi so‘z emas, balki ma’lum ilmiy yoki kasbiy faoliyatda maxsus vazifani bajaruvchi til birligidir. Shu sababli terminlik belgisi so‘zning ichki tabiati bilan emas, balki uning kommunikativ vazifasi bilan belgilanadi[8], deb ta’kidlagan. Vinokurning “har qanday so‘z termin bo‘lishi mumkin” degan g‘oyasi keyingi terminologik tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Sovet terminologiya maktabining shakllanishida tilshunos olim D.S.Lottening xizmatlari alohida e’tirof etilgan bo‘lib, u terminologik tizimning ilmiy asoslanishi kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “har bir termin ma’lum ilmiy tushunchaga to‘liq mos kelishi, bir ma’noli bo‘lishi, tizim ichida boshqa terminlar bilan mantiqiy bog‘lanishi va ortiqcha sinonimiyadan xoli bo‘lishi lozim”[9]. Ushbu olim terminning aniqligi va ixchamligini ilmiy kommunikatsiyaning samaradorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholagan. Shuningdek, u terminlarni me’yorlashtirish va birxillashtirish terminologiyaning eng muhim amaliy vazifalaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Moskva terminologik maktabining nazariy rivojlanishida tilshunos A.A.Reformatskiy ham muhim o‘ringa egadir. U o‘zining “Tilshunoslikka kirish” darsligida “Terminlar – bu o‘z maxsus vazifasi bilan chegaralangan maxsus so‘zlardir; tushunchalarning aniq ifodasi va

[8]Алексеева Л. М., Мишланова С. Л., Вековой путь российского терминоведения. Научный диалог Nauchnyi dialog = Nauchny dialog ISSN 2225-756X, eISSN 2227-1295. – В.16-17. file:///C:/Users/User/Desktop/vinokur.pdf

[9] Лотте, Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. М.: Изд-во АН СССР, 1961. – 160 с. https://k.twirpx.link/file/1698785/

narsalarning nomi sifatida bir ma’nolilikka intiluvchi so‘zlardir” deb izoh bergan[10]. Ushbu ta’rifdan shu narsa anglashiladiki, olim terminni maxsus tushunchaning nomi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifasi ilmiy tushunchalarni aniq nomlashdan iborat ekanligini qayd etib o‘tgan. Bundan tashqari Reformatskiy terminning emotsional-ekspressiv ma’nodan xoli bo‘lishi, uning ilmiy uslub talablariga javob berishi zarurligini ta’kidlagan. Mazkur yondashuv keyinchalik rus terminologiya maktabida terminning asosiy belgilarini ifodalashda nazariy mezon sifatida qabul qilingan. Fan va texnika terminologiyasi ustida ishlashning ayrim metodologik masalalari bilan shug‘ullangan Y.A.Klimovitskiy “termin – bu til belgisi muayyan fan va texnika sohasining tushunchalar tizimidagi tegishli tushuncha bilan qiyoslangan (bog‘langan) so‘z (yoki so‘z birikmasi)” degan fikrni bildiradi[11].

Terminologiya va terminshunoslik sohasining yirik tadqiqotchilaridan yana biri Valeriya Petrovna Danelenko bo‘lib, u terminologiyaning lingvistik asoslarini tizimli ishlab chiqqan olim hisoblanadi. Terminni muayyan fan yoki kasb doirasidagi maxsus tushunchani ifodalovchi leksik birlik sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, “terminning mohiyatini faqat uning lug‘aviy ma’nosi orqali tushuntirish yetarli emas, chunki har bir termin o‘zi mansub bo‘lgan terminologik tizim tarkibida boshqa terminlar bilan o‘zaro semantik munosabat hosil qiladi. Shuning uchun terminni o‘rganishda sistemaviy yondashuv asosiy metodologik tamoyil bo‘lishi kerakligini, terminologik tizimning yaxlitligi ilmiy tafakkurning tizimliligini aks ettiradi”[12] deya ta’kidlagan.

Yana bir rus tilshunosi V.M.Leychik termin taraqqiyoti haqida shunday yozadi: “Agar XX asr birinchi yarmida tilshunoslar terminni lug‘at tarkibining uzoq bir periferiyasi sifatida qarashgan bo‘lsa, bugungi kunda, ilmiy-texnika inqilobini boshdan kechirganimizdan keyin, unga munosabat keskin ravishda o‘zgardi. Ayrim mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra rivojlanayotgan tillardagi yangi leksikaning sakson to‘qson foizini terminlar va boshqa maxsus LB (leksik birlik)lar tashkil etishini inobatga olish kerak, zero ko‘p olimlar tomonidan e’tirof etiladigan “til intellektuallashuvi” ma’lum darajada tilda maxsus

[10] Реформатский А А. Введение в языковедение: учеб. для филол. фак. пед. ин-тов / А. А. Реформатский. – 4-е изд-е, испр. и доп. – М.: Просвещение, 1967.–С.110.

[11] Климовицкий Я. А Некоторые методологические вопросы работы над терминологией науки и техники / Современные проблемы терминологии в науке и технике: сб. ст. – М.: Наука, 1969. –С.35.

[12] Danilenko V. P. Rus terminologiyasi: lingvistik tavsif tajribasi // Русская терминология: опыт лингвистического описания. — Москва: Наука, 1977.

leksikaning keng qo‘llanishi bilan bog‘liqdir”[13]. Olimning terminologiyaga oid ilmiy qarashlari terminlarni ilmiy ikkilamchi yoki cheklangan qatlami sifatida emas, balki fan, texnika va jamiyat rivoji bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan muhim til birliklari sifatida baholash imkonini beradi.

V.M.Leychik boshqa bir o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma kitobida “termin – maxsus maqsadlar uchun xizmat qiluvchi muayyan tilning leksik birligi bo‘lib, u bilim yoki faoliyatning muayyan maxsus sohasi nazariyasiga oid umumiy (aniq yoki mavhum) tushunchani ifodalash uchun qo‘llaniladi”[14] deya ta’rif bersa, tibbiy terminlar tizimi bo‘yicha kuzatishlar olib borgan S.I.Madjayevaning fikricha, “termin – bu predmetlar, hodisalar, jarayonlar, belgilar, maxsus semiotik sathda kognitiv va diskursiv jihatdan muhim bo‘lgan, qo‘llanishda konvensionallikka ega bo‘lgan va ma’lum terminologik sistemalarning a’zosi hisoblangan leksik birlikdir”[15] deb ta’kidlagan.

Bizningcha, V.M. Leychik va S.I.Madjayevaning qarashlari terminning mohiyatini har tomonlama yoritadi. Ularning ta’riflaridan kelib chiqib, terminni maxsus bilim sohasiga oid tushunchalarni ifodalovchi, ilmiy muloqotda aniqlikni ta’minlaydigan va muayyan terminologik tizim doirasida qo‘llaniladigan leksik birlik sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari yana B.N.Golovin va R.Y.Kobrinlarning 1987-yilda nashr etilgan “Лингвистические основы учения о терминах” (“Terminlar haqidagi ta’limotning lingvistik asoslari”)[16] asarida mualliflar terminni “ilmiy bilimlarni ifodalovchi maxsus til birligi, terminologiyani esa muayyan fan sohasi tushunchalar tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan tartibli birliklar majmui” sifatida talqin etganlar. Olimlarning fikrlaridan ayonlashadiki, ular terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishini fan taraqqiyotiga bog‘liq deb biladi. Yangi ilmiy tushunchalar paydo bo‘lishi natijasida yangi terminlarga ehtiyoj yuzaga kelishi va shu asosda terminologik tizimlar kengayib borishini ta’kidlab o‘tgan.

L.V. Smolina, O.A.Titovalarning “Yurisprudensiya sohasidagi inglizcha ko‘p komponentli terminlarning strukturaviy-semantik

[13]Лейчик В.М. Проблемы отечественного терминоведения в конце XX века // Вопросы филологии. – Москва, 2000. –С.20.

[14] Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд. 3- е изд.. – М.: Издательство ЛКИ, 2007. – С.32 (– 256) с.

[15]Маджаева, С. Медицинские терминосистемы: становление, развитие, функционирование (на материале предметных областей медицины сахарный диабет и СПИД). Астрахань: АГМА, 2012.С.13.

[16] Головин Б. Н., Кобрин Р. Ю. Лингвистические основы учения о терминах: учебное пособие для филологических специальностей вузов. — Москва: Высшая школа, 1987. –104 с.

xususiyatlari va ularni rus tiliga o‘girish usullari” nomli maqolasida lingvistik adabiyotlarda terminning turlicha ta’riflari mavjud ekanligini rus olimlarining ta’riflari orqali ko‘rsatib bergan. Xususan, A.A. Reformatskiy terminlarni ekspressivlikdan xoli bo‘lgan bir ma’noli so‘zlar”, M.M. Glushko esa “termin – tushunchalarni ifodalash va predmetlarni belgilash uchun xizmat qiladigan, qat’iy va aniq definitsiyaga egaligi tufayli aniq semantik chegaralarga ega bo‘lgan hamda shu sababli tegishli tasnif tizimi doirasida bir ma’noli bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasidir”, Rozental va Telenkovaning “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da esa terminga “Termin (lot. terminus – chegara, had, chegara belgisi) – fan, texnika, san’atda qo‘llaniladigan biror tushunchani aniq ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi”. Ko‘pincha ko‘p ma’noli bo‘ladigan umumiste’moldagi so‘zlardan farqli o‘laroq, terminlar, qoida tariqasida, bir ma’noli bo‘lib, ularga ekspressivlik ham xos emas” – deya ta’rif berilganligini ta’kidlagan[17]. Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan ta’riflar bir-biriga zid emas, balki termin tushunchasining turli jihatlarini yoritish orqali o‘zaro uyg‘unlashgan. Ularning barchasida terminning aniqlik, bir ma’nolilik, muayyan fan yoki kasbiy soha bilan uzviy bog‘liqlik hamda emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikdan xoli bo‘lish kabi muhim belgilari alohida e’tirof etilgan. Ayniqsa, yurisprudensiya sohasida terminlarning yagona va aniq ma’noda qo‘llanishi huquqiy normalarning to‘g‘ri talqin etilishi, tarjima jarayonida mazmunning to‘liq saqlanishi hamda xalqaro huquqiy muloqotning samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham terminlarni tadqiq etishda ularning lingvistik xususiyatlari bilan bir qatorda mantiqiy, semantik va funksional jihatlarini ham kompleks tarzda tahlil qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

D.E.Rozental, M.A.Telenkovalarning[18] “Lingvistik atamalar lug‘at-ma’lumotnomasi: o‘qituvchilar uchun qo‘llanma” kitobida “termin faqat bir terminologiya tarkibiga kirishi mumkin (prefiks, vositali to‘ldiruvchi, moslashuvsiz aniqlovchi, nominativ gap, amfibraxiy, laringoskopiya, pozitron, cheksiz kichik miqdor, differensial hisob), ammo shuningdek, turli terminologiyalarga kirishi mumkin (operatsiya – tibbiyotda, moliya sohasida, harbiy ishda; assimilyatsiya – biologiya, etnografiya,

[17] Смолина Л.В. Титова О.А. Структурно-семантические особенности английских многокомпонентных терминов в подъязыке юриспруденции и способы их перевода на русский язык. https://scienceforum.ru/2016/article/2016020773

[18] Розенталь Д. Э., Теленкова М. А. Словарь-справочник лингвистических терминов. 3-е изд., испр. и доп. Москва: Просвещение, 1985. 399 с. https://vk.com/topic-69044671_33845928

lingvistikada). Ayrim terminlar o‘zining alohida maxsus xarakterini yo‘qotadi va turli nutq uslublarida keng qo‘llanadi. Bunday san’atshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari janr, portret, uslub, duet, prolog, obraz, sujet, fabula; ilmiy va ishlab chiqarish-texnik terminlari akkumulyator, amortizatsiya, konveer, massa, rentgen, termometr; falsafiy terminlar dialektika, tafakkur, kategoriya, tushuncha, ong va boshqalar”[19] deya ta’rif ham keltirilgan bo‘lib, ushbu ta’riflar birmuncha kengroq yoritilgan hamda “atama” so‘zi keltirilmagan. D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar bergan ta’rifi terminlarning tizimlilik, aniqlik, matnga bog‘liqlik hamda vaqt o‘tishi bilan umumtil leksikasiga singib borish xususiyatlarini yoritib berganligi bilan ahamiyatlidir. Bizningcha, ushbu ta’rif shu soha bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan yosh olimlarga terminshunoslik nazariyasini tushunishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kognitiv terminshunoslik tadqiqotchisi E.I.Golovanovaning ta’kidlashicha, “terminlar – faoliyatdan ajratgan holda qarab bo‘lmaydigan, bu ong birliklariga mos bo‘lgan kasbiy kommunikatsiya til birliklaridir. Har bir sistema o‘zida inson bilim va faoliyatining u yoki bu sohasining kognitiv-mantiqiy modelini aks ettiradi”[20]. E.I.Golovanovaning mazkur nazariyasi terminning mohiyatini kengroq yoritishga xizmat qiladi. Chunki termin faqat muayyan tushunchani ifodalovchi til birligi bo‘libgina qolmay, balki insonning kasbiy bilimlari, tafakkuri va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli ham terminologik tizimni o‘rganishda terminlarning nafaqat lisoniy, balki kognitiv va kommunikativ xususiyatlarini ham hisobga olish zarur deb bilamiz.

Terminologiya va tarjima muammolari bilan shug‘ullangan F.A.Sitkina “termin – bu maxsus yoki kasb-hunarga oid bilim sohasiga taalluqli ilmiy tushunchani reprezentatsiya qilib beruvchi til belgisi hisoblanadi”, degan fikrni bildiradi[21]. Ushbu fikrga ko‘ra terminlar ilmiy muloqotning samaradorligini ta’minlashga, turli soha mutaxassislari o‘rtasida tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarjima jarayonida terminlarning mazmunini to‘g‘ri yetkazish ilmiy axborotning ishonchliligi va aniqligini saqlashga yordam beradi. Agarda termin noto‘g‘ri tarjima qilinsa yoki uning mazmuni buzilsa, ilmiy

[19] http://rus-yaz.niv.ru/doc/linguistic-terms/fc/slovar-210.htm#zag-1682

[20]Голованова, Е. И. Когнитивное терминоведение: учебное пособие. Челяб. гос. ун-т. Челябинск: Энциклопедия, 2008.–С.70.

[21]Циткина Ф.А. Терминология и перевод: К основам сопоставительного терминоведения. – Львов, 1988. – 10 с.

tushunchaning asl mohiyati ham o‘zgarib ketishi mumkin. Shu boisdan ham F.A.Sitkinaning ta’rifi terminning nafaqat til birligi, balki ilmiy bilimlarni ifodalovchi va uzatuvchi muhim vosita ekanini asosli ravishda ko‘rsatadi. Bizningcha ushbu fikr boshqa ta’riflarga qaraganda bir muncha asoslidir. Chunki terminlar fan va texnika rivojlanishi, ilmiy axborot almashinuvi hamda tarjima sifatini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

M.N.Volodina termin so‘zini tavsiflashda uning kognitiv xabar yetkazish vazifasiga e’tibor qaratadi. Olima bu haqda “terminlar jamoaviy kasbiy-ilmiy xotira tashuvchilari bo‘lib, maxsus bilimlarning shakllanish jarayonida vositachi-mediator vazifasini bajaradi, inson faoliyatini o‘zgartiruvchi va dunyoni bilishiga imkon beradi. Ilmiy munosabatlarning muhim vositasi sifatida ular ilmiy anglash jarayoni va natijalariga qo‘shilib ketadi” degan fikrni bildiradi[22]. Volodina terminlarni “ilmiy munosabatlarning muhim vositasi”, deb ta’riflar ekan, ularning ilmiy kommunikatsiyadagi o‘rnini ham ko‘rsatadi. Turli davlat va millat olimlari aynan umumqabul qilingan terminologiya asosida o‘zaro ilmiy fikr almashadilar. Yuqoridagi ta’rif terminning mohiyatini har tomonlama ochib beradigan mukammal ta’riflardan biridir. Chunki u terminning faqat nominativ yoki kommunikativ vazifasini emas, balki uning kognitiv, madaniy va ilmiy funksiyalarini ham yoritadi. Ayniqsa, terminlarni “jamoaviy ilmiy xotira tashuvchisi” sifatida talqin qilishi zamonaviy terminshunoslikning asosiy tamoyillariga mos keladi.

O.S.Axmanova “termin – maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va maxsus narsalarni belgilash uchun yaratiladigan (qabul qilinadigan, o‘zlashtiriladigan va h.k.) maxsus (ilmiy, texnik va h.k.) tilning so‘zi yoki so‘z birikmasi” degan fikrni olg‘a sursa[23], ilmiy-texnik terminologiyaning lingvistik muammolariga bag‘ishlangan kitobda “termin – bu tovush belgisi va u bilan qiyoslangan (bog‘langan), muayyan fan va texnika sohasining tushunchalar tizimidagi tegishli tushuncha birligidan iborat so‘z (yoki so‘z birikmasi)” ekanligi qayd etiladi[24].

Yuqoridagi nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Moskva terminologiya maktabi doirasida termin tushunchasi oddiydan

---

[22]Володина, М. Н. Когнитивно-информационная природа термина и терминологическая номинация: автореф. дис. … д-ра филол. наук. М., 1998. [Сайт]. URL: http://www.dissercat.com/content/kognitivno-informatsionnaya-priroda-termina-iterminologicheskaya-nominatsiya

[23] Ахманова О. С. Словарь омонимов русского языка / О.С.Ахманова. – 3-е изд., стереотип. – М.: Рус. яз., 1986. –С.474.

[24] Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. –М.: Наука, 1970. –С.19-20.

murakkabga tomon rivojlanganini ko‘ramiz. Dastlabki qarashlarda termin asosan maxsus so‘z va aniq tushunchani ifodalovchi birlik sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda uning tizimlilik, funksionallik, kommunikativlik va kognitivlik xususiyatlari atroflicha ochib berilgan. Bizningcha, terminni faqat “maxsus so‘z” sifatida baholash bugungi ilmiy taraqqiyot sharoitida yetarli deb bo‘lmaydi. Sababi zamonaviy termin bir vaqtning o‘zida *ma’lum bir tushunchani nomlashga, ilmiy axborotni yetkazishga* va *muayyan bilim tizimini aks ettirishga* xizmat qiladi. Shuning uchun ham terminni muayyan fan yoki kasbiy sohada shakllangan, aniq tushunchani ifodalovchi, terminologik tizim tarkibida faoliyat yurituvchi va ilmiy kommunikatsiyani ta’minlovchi maxsus leksik birlik sifatida baholash eng maqbul yondashuv deb hisoblaymiz.

Termin va terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish davomida “termin” tushunchasining sezilarli miqdordagi ta’riflari to‘plangan. A.V.Superanskaya “termin” tushunchasining xilma-xil talqinlari mavjudligini, avvalo, “...turli fanlar vakillarida u o‘zining alohida tushunchalari va tasavvurlari bilan bog‘lanadi, mazmunning teng bo‘lmagan hajmiga ega va o‘ziga xos tarzda belgilanadi”[25] degan fakt bilan izohlaydi.

V.P.Danilenkoning ta’kidlashicha, “terminologiya umumadabiy tilning quyi tizimi sifatida baholanadi, ya’ni terminologiya umumadabiy til doirasida, ammo mustaqil “sektor” huquqida bo‘ladi. Terminologiyaning bunday “ma’muriy-hududiy” holati, bir tomondan, u uchun umumadabiy til rivojlanishining umumiy tendensiyalari majburiyligini, boshqa tomondan, terminologiyaning rivojlanishida ma’lum erkinlik, mustaqillik va hatto uning umumadabiy til rivojlanishiga ta’sir qilish imkoniyatini belgilaydi”[26]. A.V.Superanskaya va V.P.Danilenkolar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar termin hamda terminologiyaning mohiyatini o‘zaro bog‘liq holda yoritadi. Terminning yagona va qat’iy ta’rifga ega emasligi uning turli fan sohalarida vazifaviy qo‘llanishi va mazmun doirasining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Shuningdek, terminologiya umumadabiy til tarkibida nisbatan mustaqil tizim sifatida shakllanib, fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy rivojlanadi. Shuning uchun ham terminologiyani ilmiy tadqiq etishda terminning mazmuniy xususiyatlari, tizimiy

[25] Суперанская А В. Общая терминология: вопросы теории / А.В.Суперанская, Н. В. Подольская, Н.В.Васильева. – 6-е изд. – М.: Либроком, 2012.–С.11.

[26] Даниленко В. П. Лексико-семантические и грамматические особенности слов-терминов /В.П. Даниленко // Исследования по русской терминологии: сб. ст. –М.: Наука, 1971.–С.11.

munosabatlari hamda umumtil bilan o‘zaro aloqadorligini har tomonlama yondashuv asosida tahlil qilish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Yuqorida aytilganlardan ma’lum bo‘ladiki, tilshunoslikda termin va terminologiya tushunchalari tavsifida haligacha barqaror fikrga, bir to‘xtamga kelingan emas. Bu boradagi qarashlar qator darslik va qo‘llanmalarda, lingvistik lug‘atlarda ham o‘z aksini topmoqda. Bu esa masalaga jiddiy yondashish, muammoni maxsus tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

S.V.Grinev-Grinevich o‘zining “Terminshunoslik” asarida terminologiya oldida turgan dolzarb vazifalar sifatida quyidagilarni qayd etadi:

- olingan terminologiyani maxsus nashrda – terminologik lug‘at yoki to‘plamda mustahkamlash. Bunday leksikografik qo‘llanmalarni yaratish prinsiplari va ularni amalga oshirish bilan lingvistikaning maxsus sohasi – terminografiya shug‘ullanadi, u fanining predmeti maxsus leksika lug‘atlarini loyihalash, tuzish va foydalanish bo‘lgan fan sifatida aniqlanadi;
- terminlarni standartlashtirish, asosiy yo‘nalish – maxsus leksikani qayd etish, ilmiy-texnik terminologiyani muvofiqlashtirish va uning milliy va xalqaro darajada taqqoslanuvchanligini ta’minlash, axborot tizimlarida foydalaniladigan leksik vositalarning o‘zaro bog‘liq va muvofiqlashgan rivojlanishini ta’minlash, shuningdek mavjud adabiyotda terminologik leksikaning kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etish;
- majburiy xarakterga ega bo‘lgan, orbitrajlik (sudda foydalanish imkoniyati) sifatiga ega deb tan olinishi va shu bilan huquqiy maqomga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan standartlarni ishlab chiqish;
- axborot tezauruslarini yaratish – ma’lum bir qidiruv tizimi doirasida maxsus leksikani me’yorlashtiruvchi lug‘atlar;
- ilmiy-texnik matnlarni tarjima qilishning terminologik masalalarini ishlab chiqish, jumladan: tarjima tilida asl nusxa terminlariga ekvivalentning mavjudligi / mavjud emasligi, uni berishning bir necha variantlari mavjud bo‘lishi imkoniyati, u yoki bu terminologik birlikni tegishli subtilga kiritish usullarini strategik tanlash va hokazo;
- sifatini oshirish, maxsus leksikaning me’yorlashganligini va uning muayyan sohadagi mavjud termin tizimlariga mosligini ta’minlash, yangi terminlar qo‘llanilgan taqdirda esa – ularda aniq va ravoniy definitsiya, joyjamligi, bir ma’noliligi va boshqalar mavjudligini

tekshirish maqsadida ilmiy-texnik matnlarni terminologik tahrirlash”[27]. S.V.Grinev-Grinevich tomonidan ilgari surilgan vazifalar terminologiya fanining muhim nazariy va amaliy ahamiyatiga egadir. To‘g‘ri shakllangan va me’yorlashtirilgan terminologiya ilm-fan taraqqiyotini tezlashtiradi, xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlaydi hamda bilimlarni aniq va samarali yetkazishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Moskva terminologiya maktabining asosiy xizmati shundaki, u terminni tilning oddiy lug‘aviy birligi sifatida emas, balki fan, tafakkur va kommunikatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimli hodisa sifatida asoslab bergan. Maktab vakillarining qarashlari bugungi terminshunoslik, tarjimashunoslik va sohaviy terminologiyani tadqiq etishda ham nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida termin va terminologiya masalalarining ilmiy tadqiq etilishi, avvalo, leksikologiya sohasidagi izlanishlar bilan bog‘liq holda shakllangan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib terminologiya alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida rivojlana boshlagan hamda terminlarning mohiyati, shakllanish qonuniyatlari, qo‘llanish xususiyatlari, me’yorlashuvi bo‘yicha maxsus ilmiy izlanishlar olib borilgan. Aslida o‘zbek tilshunosligining taraqqiyot tarixiga murojaat qilinsa, termin yaratish jarayonlari ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. Xususan, XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati vakillari ona tilida ilmiy-ma’rifiy asarlar yaratish jarayonida milliy ilmiy terminologiyani shakllantirishga katta e’tibor qaratganlar. Jumladan, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi buyuk ma’rifatparvar ziyolilar o‘z asarlarida ta’lim, grammatika, tilshunoslikka oid tushunchalarni ifodalash uchun o‘zbek tilining ichki imkoniyatlariga tayangan holda terminlar yaratishga harakat qilganlar. Natijada esa bugungi kunda tilshunoslikda faol qo‘llanayotgan *ot, sifat, olmosh, gap, bo‘g‘in, tovush, qo‘shimcha* kabi terminlarning ilmiy muomalaga kirib kelishi uchun asos yaratilgan.

Sovet davriga kelib, o‘zbek terminologiyasi markazlashgan ilmiy siyosat ta’sirida rivojlandi. Bu davrda rus terminologiya maktabining metodologik tamoyillari o‘zbek tilshunosligiga ham kirib keldi va terminologik tizimni ilmiy asosda tavsiflashga oid tadqiqotlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida esa terminshunoslik davlat tili siyosati, milliy termin yaratish va terminlarni standartlashtirish masalalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi.

[27] Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. –М.: Академия, 2008. –С.25.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da berilishicha, “Termin (lot. terminus – chegara, had) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi. Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi, binobarin, termin va umumiste’moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan leksik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, o‘z terminologik maydonida bir ma’nolilikka moyillik, his-tuyg‘uni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardir. Biologiya, matematika, tilshunoslikda qo‘llanadigan “funksiya” so‘zini ko‘p ma’noli termin sifatida emas, balki terminologik omonimlar, sohalararo sodir bo‘lib turadigan terminologik jarayon (bir soha terminining ikkinchi soha termini sifatida qo‘llanishi) hosilasi tarzida qaralmog‘i lozim. Umumxalq leksikasiga doir qonuniyatlar termin hosil qilishda ham kuzatiladi. So‘z bilan terminning umumiy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilgan emas; kundalik turmushda keng iste’molda bo‘lgan so‘zlar ayni paytda turli sohalarga doir terminlar hamdir. Masalan, quloq, burun, tomoq – anatomiya va tibbiyot; gilam, sholcha, palos – gilamdo‘zlik; kitob, ruchka, daftar – pedagogik soha terminlari bo‘lish bilan birga umumxalq tilida faol qo‘llanadi[28].

Ensiklopediyada termin tushunchasining mohiyati izchil va asosli yoritilgan. Xususan, bir xil shakldagi so‘zning turli fanlarda qo‘llanishi ko‘p ma’nolilik emas, balki terminologiyada omonimlik sifatida talqin etilishi, bizningcha, ilmiy jihatdan to‘g‘ri yondashuvdir. Chunki har bir termin o‘ziga tegishli soha doirasida mustaqil ma’noga ega bo‘lib, boshqa sohadagi ma’nosidan farqlanadi.

O‘zbek terminshunosligi nazariyasini shakllantirishda akademik A.Hojievning xizmatlari alohida e’tirof etiladi. Uning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da “Termin (lot. terminus – chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi...”[29] deya ta’kidlangan. Ko‘rinadiki, ushbu ta’rif terminning mohiyati va o‘ziga xos belgilarini yoritishda ilmiy jihatdan asoslangan. Unda terminning ma’lum bir fan yoki soha doirasida qo‘llanilishi hamda muayyan ilmiy tushunchani aniq ifodalashi uning asosiy vazifaviy belgisi sifatida talqin

[28] https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/termin-uz/

[29] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б.104.

qilingan. Shuningdek, terminning hissiy va uslubiy bo‘yoqlardan xoli bo‘lishi ilmiy nutqning aniqligi, izchilligi va obyektivligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur ta’rif terminologik tadqiqotlarni nazariy jihatdan asoslashda muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Ta’rifda terminning qayd etilgan xususiyatlarga ega bo‘lgan “so‘z birikmasi; atama” ekanligi anglashiladi. Tilshunoslikda terminologiya bilan bog‘liq manbalarda ham termin tushunchasiga berilgan ta’riflar deyarli bir-biridan farq qilmaydi. Xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da termin so‘ziga “termin (lot.terminus -chek, chegara). Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama”[30] tarzida izoh berilgan. Ushbu ta’rifga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham yuqoridagi mazmun aynan takrorlanmoqda.

R.Doniyorovning “O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari”[31] nomli monografiyasi o‘zbek terminologiyasining nazariy va amaliy muammolarini maxsus o‘rgangan dastlabki tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Doniyorov terminologiyani tilning alohida leksik tizimi sifatida talqin qilib, termin yaratishda quyidagi tamoyillarga *(avvalo milliy tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish, zarurat tug‘ilganda xalqaro terminlarni o‘zlashtirish, terminlarning qisqa va qulay bo‘lishi, terminlarning yagona shaklda qo‘llanilishi)* asoslanish zarur ekanligini ta’kidlab o‘tgan. R.Doniyorovning ilmiy qarashlaridan shu narsa ayonlashadiki, terminologiya oddiy so‘zlar yig‘indisi emas, balki til lug‘at tarkibining maxsus tashkil topgan tizimi sifatida baholanadi. Terminlar tasodifiy tarzda yuzaga kelmaydi, balki ma’lum fan yoki ishlab chiqarish sohasining tushunchalar tizimi bilan bog‘liq holda shakllanadi. Bundan tashqari yana olim terminni umumxalq tilidagi so‘zdan farqlab, “termin – tushuncha nomi” tamoyilini ilgari surgan. Ya’ni bunga ko‘ra termin avvalo muayyan ilmiy konseptning lingvistik ifodasi ekanligi nazarda tutilgan.

Professor H.Dadaboyev “O‘zbek terminologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida termin va terminologiya haqida shunday fikrlarni bildirgan: “terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mavjud bo‘lishi ma’qullanmaydi. Biroq qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda ba’zan ikki yoki undan ortiq sinonim(dublet)lardan foydalanish ko‘zga tashlanadi.

[30]https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati
[31] Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977.

Chunonchi, terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama-isteloh so‘zlaridan sinonimik uya tarzida foydalaniladi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin ba’zi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida termin o‘rniga atama derivatini qo‘llash faollashdi. Bir qaraganda, baynalminal o‘zlashmaga har jihatdan mos tushgan o‘zso‘zning qo‘llanilishi ma’quldek tuyuladi. Lekin termin o‘zlashmasining ta’rifi bilan atama yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatishning maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadi”[32]. Yuqoridagi H.Dadaboyevning terminologiyada aniqlik va yagona me’yor tamoyiliga amal qilish haqidagi fikrlari ilmiy jihatdan asosli deb hisoblaymiz. Terminlar tizimida ortiqcha sinonimiyaga yo‘l qo‘ymaslik fan tilining ravonligi va tushunarliligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, milliy terminlarni yaratishda ham xalqaro tajriba va tilning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish lozimdir.

Ushbu mulohazali mavzu yuzasidan o‘z ilmiy qarashlarini bayon etgan yana bir tilshunos olim ustozimiz I.Mirzayev “Hozirgi kunda “termin” so‘zi bilan bir qatorda “atama”, “istiloh” so‘zlari ham ayni ma’noda qo‘llanmoqda. Lekin ular “termin” so‘zining hozirgi ma’nosini to‘liq ifoda eta olmaydi. “Atama” so‘zi keng ma’noda bo‘lib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo‘llanadi. “Istiloh” so‘zini esa termin ma’nosidagi tarixiy mavzulardagi matnlar (adabiyot tarixi, Sharq falsafasi)da bemalol qo‘llash mumkin[33] degan fiklarini bildirib o‘tgan. Ushbu ta’rifdan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, “termin”, “atama” va “istiloh” bir-biriga yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi farqlanadi. Ilmiy sohalardan “termin” tushunchasidan foydalanish aniqroq natija bersa, “atama”, “istiloh” ma’lum vaziyatlarda, ayniqsa tarixiy va madaniy matnlarda o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Bu boradagi I.Mirzayevning qarashlari terminologiyada tushunchalarni to‘g‘ri ajratish va ilmiy imkoniyatlarini yanada aniqroq anglashga xizmat qiladi.

“Terminlarning umumiste’mol leksikadan o‘zlashganlari ma’no-mohiyatining tushunarliligi, o‘zlari ifodalaydigan hodisalar haqida nafaqat soha kishilari, balki umuman muayyan bir til sohiblari uchun ham ma’lum darajada tushuncha va axborot berishda qulayligi bilan xarakterlanadi”[34].

---

[32] Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi.–Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B.9.(136)

[33] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т.:«Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com кутубхонаси.-Б.323.

[34]Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик тадқиқи: Филология фанлари буйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Т., 2017. – 154 б.

Termin va terminologiya tushunchalari keng ma’noda fanning turli sohalaridagi asosiy tushunchalar hisoblanadi; termin avvalo, ma’lum sohaga xizmat qiladi, u o‘sha soha vakillari uchun ilmiy fikrning aniqligi, ravshanligi va tushunilishini ta’minlaydi. Biroq, bu tushunchalarning ilmiy bilimlar tizimidagi muhim o‘rniga va ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, terminologiyaning barcha muammolari hal bo‘lgan degan hukm chiqara olmaymiz. Tahlil jarayonida ma’lum bo‘ldiki, termin va terminologiya masalasi tilshunoslikda ancha o‘rganilgan, har bir tadqiqotchi bu tushuncha mohiyatini ochib berishga intilgan. Ammo shunday bo‘lsa-da, haliga qadar terminning umume’tirof etilgan ta’rifi yo‘q, berilgan ta’riflar ham mazmunan bir-biridan farq qiladi. Aslida termin qanday izohlanishi kerak, izohlashda uning qaysi jihatlariga e’tibor qaratish lozim, til tizimida tutgan o‘rni qandayligi to‘g‘risidagi savollar hanuz o‘z yechimini topgan emas.

Terminologiya inson faoliyatining barcha sohalari bilan chambarchas aloqada. Unga kasb-hunar va ilm sohalarida qo‘llanadigan predmetlar va tushunchalarni aks ettiruvchi so‘zlar va so‘z birikmalari kiradi. Til lug‘at boyligini, uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish XX asrda boshlangan. Terminologiyaga XX asr boshidan boshlab qiziqish kuchaydi, terminologiya bilan bog‘liq u yoki bu sohaga bag‘ishlangan ishlar maydonga kela boshladi.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da terminologiya tushunchasi mohiyati, paydo bo‘lishi, o‘rganish obyekti, boyish yo‘llari quyidagicha tavsiflangan: Terminologiya yunoncha “terminos” va “logos” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “terminlar haqidagi ta’limot” degan ma’noni anglatadi. Bu atama tilshunoslikda uch xil ma’noda qo‘llaniladi. Birinchidan, terminologiya tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida terminlarni, ularning tuzilishini, kelib chiqishini, rivojlanishini va tizimli munosabatlarini o‘rganadigan fandir. Ikkinchidan, terminologiya muayyan sohaga oid terminlar majmuini anglatadi, masalan, tibbiyot terminologiyasi, huquq terminologiyasi yoki tilshunoslik terminologiyasi. Uchinchidan, terminologiya terminlar haqidagi ta’limot sifatida terminologik tadqiqotlarning metodologiyasi, unifikatsiya, standartlashtirish va terminografiya masalalarini o‘z ichiga oladi. Ensiklopediyada berilgan terminologiya haqidagi ushbu ta’rif keng qamrovli va ilmiy jihatdan puxta yoritilgan bo‘lib, unda terminologiyaning fan sifatidagi o‘rni, turli sohalarga xos terminlar tizimi hamda ularni tartibga solish, birxillashtirish va standartlashtirish kabi muhim jihatlar aniq ifodalangan. Bizning fikrimizcha, fan va

texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanayotgan bugungi davrda terminologiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Har bir sohada yagona va aniq terminlardan foydalanish ilmiy hamda kasbiy muloqotning samaradorligini ta’minlaydi, tushunmovchiliklarning esa oldini oladi. Bundan tashqari, terminologiya yangi ilmiy tushunchalarni o‘zbek tiliga to‘g‘ri moslashtirish va ularni amaliyotga izchil tatbiq etishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, milliy terminlarni yaratish ularni ilmiy mezonlar asosida takomillashtirish va me’yorlashtirish tilimizning rivoji hamda ilmiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham terminologiyani atroflicha o‘rganish va rivojlantirish nafaqat tilshunoslar, balki barcha fan va soha vakillari uchun ham muhim vazifalardan biri, deb hisoblaymiz.

Terminologiya (termin va… logiya) 1) leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish. tarmog‘ining, san’at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog‘liq terminlari majmui tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma’noda ma’lum bir sohaga oid maxsus leksika. Masalan: fizika terminologiyasi, ijtimoiy-siyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi kabi. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. O‘z navbatida u, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma’lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o‘sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan so‘z olish, yangi so‘z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so‘z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va b. Bugungi kunda o‘zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so‘z olish va ichki so‘z yasash hisobiga ro‘y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko‘p ma’nolilik tilning boyligi bo‘lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o‘zbek tilida yarimo‘tkazgich – chalao‘tkazgich – nimo‘tkazgich terminlari qo‘llanmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘qish-o‘qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma’lum

darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma’lum terminologik me’yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug‘atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega[35].

Tilshunoslikda terminga berilgan ta’riflarni yana davom ettiraverish mumkin. Ularni umumlashtirgan holda terminga xos xususiyatlar sifatida uning fan va texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalashi, uning qo‘llanish doirasi shu sohalar bilan chambarchas bog‘liqligi, so‘z yoki so‘z birikmasi shaklida bo‘lishi, bir ma’noli ekanligi, ta’sirchanlik va bo‘yoqdorlikdan xoli ekanligi, umumiste’moldagi so‘zlardan farq qilishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

K.Karimov esa sohaga oid terminlarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni bir umumiy maxrajga keltirib, quyidagi xulosaga keladi: Quyidagi soha terminlari maxsus monografik planda o‘rganilgan: 1) texnikaga oid terminlar; 2) zargarlik terminlari; 3) raqs san’ati terminologiyasi; 4) anatomik terminologiya; 5) pedagogik terminologiya; 6) kitobatchilik terminologiyasi; 7) onomastik terminlar; 8) yog‘ochsozlik terminologiyasi; 9) bank-moliya terminologiyasi; 10) ekologik terminlar; 11) zoologik terminlar; 12) farmatsevtika terminlari; 13) botanika terminlari; 14) soliq-bojxona terminlari; 15) yuridik terminlar; 16) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi; 17) tilshunoslik terminlari; 18) geografik terminlar; 19) paxtachilik terminlari; 20) adabiyotshunoslik terminologiyasi; 21) astroaviakosmik terminologiya va b.[36]

Darhaqiqat, o‘zbek tilshunosligida bu borada salmoqli yutuqlarga erishilgan. Xususan, adabiyotshunoslik[37], til va terminologiya[38], huquq[39], fan va madaniyat[40], texnik[41], kasb-hunar[42], bank-moliya[43],

---

[35] https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/terminologiya-uz

[36]Каримов К.Соҳага оид терминларнинг ўзбек тилшунослигидаги тадқиқи. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali// 14-son 20.12.2022-yil.

[37] Ҳотамов Н.Т. Развитие узбекской литературоведческой терминологиии в советский период: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1971. – 28 с.; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.

[38]Исломов И. ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини: Филол. фан. док-ри дисс... – Қарши, 2021. – 210 б.

[39] Турсунова О. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланган ҳуқуқий терминларнинг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2007. – 26 б.; Касымова М.Х. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1985; Ғуломова Г. Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филология фанлари номзоди ... диссертация: – Тошкент, 2005; Собирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол.фан.бўй.фал.док-ри (PhD) дисс... – Тошкент, 2022. – 179 б.

[40] Усмонов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. – Т.: Адолат, 1993. – 141 б.; Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси. Филол. фанлари номзоди … дисс. автореф. – Т., 1986. –27 б.; Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фанлари номзоди … дисс. автореф. –Т., 1994. –24 б.; Юлдашев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва

ekologiya[44], tibbiyot[45], bir til[46], qiyosiy-tipologik[47] kabi qator yo‘nalishlarda bajarilgan ishlar sohaning izchil rivojlanganligidan dalolat beradi.

“Termin so‘zi o‘rnida ba’zan atama, istiloh so‘zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to‘g‘ri emas. Atama termin so‘ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Istiloh so‘zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me’yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug‘aviy qatlamlaridagi o‘rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi”[48] Shu fikr tarafdori bo‘lgan N.B.Kuldashova termin so‘zi o‘rnida gohida atama so‘zini ishlatish hollari kuzatilishi haqida ma’lumot berar ekan, “Ammo bu to‘g‘ri emasdek tuyuladi. Chunki atama termin so‘ziga nisbatan tor tushunchani ifodalashi bizga

---

тартибга солиш. Филол.фанлари док-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2005. – 46 б.; Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол. фанлари номзоди … дисс. автореф. – Т., 2005. – 23 б.; Базарова Д. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент, 1978; Джамалханов Х. Из истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии. Автор. дисс…канд.филол.наук. – Ташкент, 1966.

[41] Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе. Дисс. … д-ра филол. наук. – Т.: 1988. –336 б.

[42]Аҳатова М. Ўзбек тили ёғочсозлик терминологияси. Филол. фанлари номзоди … дисс. автореф. – Т., 2004. – 24 б.; Пардаева И.Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол. фанлари номз. дисс. …автореф. – Т., 1994. – 27 б.; Пулатова О.М. Истоки формирования и дальнейшего развития терминологии танцевального исскуства узбекского язика. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Т., 1992. –23с.; Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминлари луғатини тузиш юзасидан баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1963. №3. –Б. 51-55.

[43]Muhamedova S. va b. Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 157 b.; Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Филол.фан.бўйича фалсафа док-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 60 б.

[44]Джурабаева З. Ўзбек тилида экологик терминлар. Филол.фан.бўйича фалсафа докри...дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

[45]Касымов А. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке. Автор. дисс…канд.филол.наук. – Ташкент, 1982.

[46]Мирзахмедова Ҳ.В. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясалиш усуллари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 45 б.; Мустафаева С.Т. Хитой тилшунослик терминологияси: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 42 б.

[47] Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 174 с.; Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 2000. – 24 с.; Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий типологик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2009. – 25 б.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ридисс. – Т., 2016. – 255 б.; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 44 б.; Ходжаева Д.И. Тилшунослик терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари изоҳли луғатлари мисолида): Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2018. – 53 б.; Mustafayeva S. Xitoycha-o‘zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2014. – 111 b.; Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 128 б.; Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номз. … дисс. автореф. – Т.: 2009. – 26 б.

[48] Khodjaeva D. Lexicographic analysis of linguistic terms (on the basis of materials of explanatory dictionaries of the English, Russian and Uzbek languages)//International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020/1/15, Issue 6.

ma’lumdir”[49]. degan xulosaga keladi. Olimalarning “atama”, “termin” so‘ziga nisbatan tor tushunchani ifodalashi haqidagi fikrlari tilshunos S.Usmonov tomonidan rad etiladi. Olimning yozishicha, “...atama so‘zining ma’nosi termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qo‘llanuvchi rasmiylashgan so‘zdir. Shu ma’noda, termin tushunchasi “atama” tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug‘aviy birlikdir”[50]. Umuman olganda, tilshunoslikka doir tadqiqotlar va lug‘atlarda termin tushunchasining aniq ta’rifi, uning yondosh hodisalardan farqi va ularga munosabati masalasi haligacha o‘z yechimini to‘liq topgan emas. X.B.Qodirovaning “Atama va izoh” asarida “Bugungi kunda “termin” yoki “atama” so‘zlari orasida farq borligi to‘g‘risida ayrim tilshunoslarning fikrlari to‘qnash kelayotganligi bu masalada yana ko‘p izlanishlar qilinishi kerakligidan dalolat beradi. Tadqiqotlar bilan oydinlik kiritilguniga qadar biz O‘TILda belgilab qo‘yilgan faktga asoslanib, mazkur so‘zlarni bitta leksik ma’noga ega turli tillardagi tushuncha bo‘lib, bir sinonimik qatorda turadi deb hisoblaymiz”[51]. Bizning fikrimizcha, “termin” va “atama” tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularni mutlaq teng deb qarash masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Chunki termin, avvalo, ilmiy tushunchani ifodalovchi, muayyan soha vakillari tomonidan qo‘llanadigan aniq va barqaror birlikdir. Atama esa kengroq tushuncha bo‘lib, u nafaqat ilmiy terminlarni, balki turli sohalardagi nomlash birliklarini ham qamrab olishi mumkin.

“Termin o‘rnida qo‘llanuvchi nomenklatura tushunchasiga lug‘atlarda “Ishlab chiqarish, fan, texnika, san’at va shu kabilarning biror sohasida qo‘llanadigan nomlar, atamalar, terminlar va shu nomlar bilan ataluvchi narsalar ro‘yxati yoki majmui” tarzida izoh berilgan[52]. Funksiyasi jihatidan nomenklatura terminga yaqinlashadi. Tilshunos P.Nishonov esa ular orasida farq mavjudligini ta’kidlaydi. Olimning yozishicha, “Biror predmet yoki voqelikka qo‘yilgan termin avvalo, shu predmet yoki voqelikka ta’rif va tasnif beradi. Nomenklaturada esa bu narsa kuzatilmaydi. Ularning funksiyasi narsa va predmetlarni nomlash bilan chegaralanadi. Demak, “termin” nomenklaturaga nisbatan keng va aniq tushuncha bo‘lib, maxsus vazifa ma’nosini bildirsa,

[49]https://www.google.com/search?q=Talqin+va+tadqiqotlar+respublika+ilmiy-uslubiy+jurnali
[50]Ўша ерда.–Б.323.
[51] Қодирова Х.Б. Атама ва изоҳ (Миллий тасвирий ва амалий санъат атамаларининг ўзбекча-русча-инглизча изоҳлаш масаласи) Монография. –Тошкент, 2019. –Б.15.
[52]https://uz.wiktionary.org/wiki/nomenklatura.

“nomenklatura” o‘zaro o‘xshash bo‘lgan predmet va tushunchalarni nomlash uchun xizmat qiluvchi atamadir”[53].

Termin, terminologiya va nomenklaturalarning kelib chiqishi va qo‘llanishini o‘rgangan M.M.Xamidovning bu masaladagi fikrlari e’tiborga molik. Uning ko‘rsatishicha, “Biror predmet yoki voqelikka qo‘yilgan termin avvalo shu predmet yoki voqelikka ta’rif va tavsif beradi. Nomenlarda esa bu narsa kuzatilmaydi. Ularning funksiyasi narsa va predmetlarni nomlash bilan chegaralanadi. Xulosa qilib aytganda, “termin” nomenklaturaga nisbatan keng ma’noda bo‘lib, maxsus vazifa ma’nosini bildirsa, “nomenklatura” esa terminga nisbatan tor ma’noda qo‘llanib, o‘zaro o‘xshash bo‘lgan predmet va tushunchalarni nomlash uchun xizmat qiluvchi atamalarni ifodalaydi”[54].

X.Muxitdinova va boshqalar tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida berilishicha, “Keyingi yillarda termin so‘zi o‘rnida atama so‘zi qo‘llanayapti. Bunday qo‘llash xatodir. Chunki atama so‘zining ma’nosi termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir sohada qo‘llanuvchi so‘zdir. Shu ma’noda termin tushunchasi atama tushunchasining ichiga kiruvchi hodisadir”[55]. Yuqorida keltirilgan darslik mualliflari tomonidan ilgari surilgan fikr ilmiy tasnif va terminologiya tamoyillari nuqtayi nazaridan asosli deb hisoblaymiz. Shunga qaramay, hozirgi o‘zbek tili amaliyotida “atama” so‘zi ko‘plab hollarda “termin” ma’nosida ham qo‘llanmoqda. Bizningcha, ilmiy uslubda aniqlikni ta’minlash maqsadida “termin” va “atama” tushunchalarining o‘ziga xos semantik farqini saqlash zarurdir.

R.Rasulov va boshqalar tomonidan yaratilgan “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” asarida ham bu holatning sabablari izohlangan. Unga ko‘ra, o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgunga qadar va u amal qila boshlagandan keyin qator matbuot xodimlari, hatto ayrim tilshunoslar Davlat tili haqidagi qonunni to‘liq joriy etish o‘rniga, uning ayrim bandlariga deyarli e’tibor bermay, ko‘pdan buyon qo‘llanib kelinayotgan va omma nutqiga singib ketgan terminlarni, ularning mazmunini chuqur o‘rganmay turib, yangidan, noto‘g‘ri so‘zlar – leksemalar bilan almashtira boshlashdi. Hatto “termin”, “terminologiya” kabilar “atama”, “atamashunoslik” leksemalari bilan almashtirib qo‘llanadigan bo‘ldi,

[53]Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Nomz.disser...– Toshkent, 2009. –B.17.

[54] file:///C:/Users/user/Downloads/termin-terminologiya-va-nomenklaturalarning-kelib-chi-ishi-va-llanilishi.pdf

[55]Мухитдинова Х., Худойберганова Д., Умиров И., Жиянова Н., Юсупова Т. Ҳозирги ўзбек адабий тили.– Тошкент: ILM ZIYO, 2004. -Б.47.

“atama”, “atamashunoslik” kabi tushunchalarning umumxarakterga egaligi e’tiborga olinmadi. Chunki, “atama” deyilganda, onomastika (toponimiya, antroponomiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Shunga ko‘ra, avvaldan iste’molda bo‘lgan baynalmilal “termin” va “terminologiya” leksemalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir[56]. Ushbu nazariyaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mualliflarning qarashlari ilmiy terminologiyada semantik aniqlikni saqlash zarur ekanligini asoslaydi. Fikrimizcha *termin* va *atama* tushunchalarini tenglashtirish ilmiy tasnif nuqtayi nazaridan to‘g‘ri emas, chunki ularning ma’no doirasi va qo‘llanish ko‘lami o‘zaro farqlanadi. Shuning uchun ham xalqaro me’yorda shakllangan “termin” va “terminologiya” birliklarini qo‘llash ilmiy aniqlik, izchillik hamda terminologik barqarorlikni ta’minlaydi.

R.Rasulov, B.Suyunov, Q.Mo‘ydinovlar “Termin kasbiy ma’no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish hamda o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so‘z yoki birikmadir” deb ta’rif beradilar[57]. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari bilan shug‘ullangan O.Axmedov “...terminlar aslida leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo‘lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi. Zero, terminlar va umumiste’moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan leksik birliklardir” deb ta’rif berishi bilan terminlar bir ma’noli bo‘lsa-da, umumiste’moldagi so‘zlar bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi[58]. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasi bo‘yicha qiyosiy-tipologik tadqiqot olib borgan P.Nishonov “Termin – tuzilishiga ko‘ra so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir”[59] degan fikr bildiradi.

Yuqoridagi olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar terminning mohiyatini turli nuqtayi nazardan izohlasa-da, ularning barchasi terminning muayyan soha doirasidagi ilmiy tushunchani ifodalovchi

[56]Расулов Р., Ҳусанов Н., Муйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати.//Ўқув қўлланма. –Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2006. –Б.45.

[57]Расулов Р., Суюнов Б., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2010.–Б.47.

[58]Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанларидокт. дис... автореф. –Тошкент, 2016. – Б.19.

[59]Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Nomz.disser...–Toshkent, 2009. –B.17.

maxsus leksik birlik ekanligini e’tirof etadi. Bizningcha, mazkur ta’riflar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, terminning semantik aniqligi, bajaradigan vazifasi hamda terminologik tizimdagi o‘rnini kompleks emas, majmuaviy tarzda yoritadi. Shuningdek, terminlarning umumadabiy til bilan o‘zaro aloqadorligi ularning til taraqqiyoti jarayonida shakllanishi va takomillashishini ko‘rsatadi. Shu sababli terminni maxsus soha leksikasining tarkibiy elementi bilan bir qatorda ilmiy muloqotning aniqligi va izchilligini ta’minlovchi muhim lingvistik vosita sifatida baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qiyoslanayotgan qirg‘iz tilshunosligida termin va terminologiya malasalalari bilan shug‘ullangan olimlar orasida, avvalo, qirg‘iz adabiy tili va ilmiy terminologiyasining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan tilshunoslar ajralib turadi. Biz tadqiqot ishimizda qirg‘iz terminologiyasining rivojiga munosib hissa qo‘shgan olimlarning faoliyati hamda ularning fikr-mulohazalarini tahlilga tortdik.

Qirg‘iz leksik-terminologik materialini o‘z ichiga olgan maxsus ishlar orasida K.K.Yudaxinning “Qirg‘izcha-ruscha lug‘ati” haqli ravishda alohida o‘ringa ega. Lug‘at fonetik dubletlarni, dialekt xususiyatlarini va ayrim so‘zlarning turli diaxronik variantlardagi talaffuzini aks ettiradi, sovet va xalqaro so‘zlarning fonetik me’yorlarini o‘zlashtirishni ko‘rsatadi. Lug‘at 25000 so‘zni o‘z ichiga qamrab oladi, ularning ichida 700 dan ortiq o‘simliklar, hasharotlar, hayvonlar, inson organizmi qismlari va boshqalarning umumiste’mol biologik nomlari mavjud. Lug‘at shuningdek eron va arab tillaridan ko‘plab o‘zlashmalarni aks ettiradi, ularning ko‘pchiligi zamonaviy qirg‘iz adabiy tiliga mustahkam kirib ketgan va tarixiy tahlilsiz farqlab bo‘lmaydi[60]. Ushbu lug‘at qirg‘iz tilining boy lug‘aviy tarkibini aks ettirgan, uning tarixiy va madaniy qatlamlarini yoritgan hamda milliy terminologiyaning shakllanishiga katta hissa qo‘shgan fundamental ilmiy asarlardan biri hisoblanadi. Olimning izlanishlari orqali qirg‘iz tilining nafaqat zamonaviy leksik holati, balki uning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayoni haqida ham ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Qirg‘iz tilshunosligida oliy ta’lim talabalari uchun mo‘ljallangan “Азыркы кыргыз адабий” darsligida “Termin deb fan, texnika, san’at, xo‘jalik, iqtisodiyot va boshqa sohalarga oid maxsus tushunchalarni aniq nomlash uchun qo‘llanadigan so‘z yoki so‘z birikmasi tushuniladi. Terminlar ko‘p ma’nolilik, ko‘chma ma’nolilik, ekspressivlikning

[60]https://scipress.ru/philology/articles/formirovanie-i-razvitie-kirgizskoj-meditsinskoj-terminologii-v-pervoj-polovine-khkh-veka-i-rol-russkogo-yazyka-v-dannom-protsesse.html

yo‘qligi bilan termin bo‘lmagan so‘zlardan, shu jumladan, professional leksikadan ham farqlanadi”[61]. Ushbu ta’rifdan shu narsa ayonlashadiki, ayrim terminlar yangi mazmun kasb etishi yoki boshqa ilmiy yo‘nalishlarda ham qo‘llanilishi mumkin. Bu esa terminologiyaning doimiy ravishda boyib, takomillashib boradigan dinamik tizim ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ushbu ta’rif terminning mohiyati, vazifasi va o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy nuqtayi nazardan to‘g‘ri va asosli yoritgan, deb hisoblaymiz.

Qirg‘iz adabiy tilining shakllanishi yozuv tizimining rivojlanishi hamda ilmiy terminologiyaning vujudga kelishida munosib hissa qo‘shgan olimlardan biri Qosim Tinishstanovdir. U XX asrning 20-30-yillarida qirg‘iz tilida ilmiy tushunchalarni ifodalash uchun milliy terminlar yaratish jarayonidagi ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Q. Tishstanov atamalarni ma’lum bir fan yo‘nalishi doirasida emas, balki avvalo adabiy tilni takomillashtirish maqsadida yaratgan. Aslida atamalar til birliklari sifatida tilshunoslik sohasiga taalluqli bo‘lib, o‘zi atayotgan narsa va hodisalar haqida tushuncha beradi. M.J.Koshuyevaning “Qirg‘iz terminologiyasining shakllanishi tarixida Q.Tinistanovning roli” nomli maqolasida olim va uning zamondoshlari tomonidan termin ijodkorligi faoliyati dastlabki bosqichida atamalarni qabul qilish ikki tamoyilga asoslanganligi haqida ma’lumot berilgan: “birinchi tamoyil rus tilidan yoki u orqali boshqa tillardan o‘zlashtirilgan, qirg‘iz jamoatchiligiga notanish bo‘lgan biror sohadagi (masalan, fan va texnikadagi) atamalarni imkon qadar qirg‘izlashtirishga intilish. Ikkinchi tamoyil shundan iboratki, agar tarjima qilinishi lozim bo‘lgan so‘zning qirg‘iz tilida mos muqobili topilmasa, atama tarjimasiz qabul qilinadi”[62]. Q.Tinistanov lug‘atlar, ayniqsa, filologik-ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy atamalar lug‘atlarini tuzishda yuqorida qayd etilgan har ikki tamoyildan foydalanishga harakat qilgan.

Qirg‘iz tilshunosligining yirik vakillaridan bo‘lgan, so‘z yasalishi, leksikologiya hamda terminologiya masalalarini tadqiq qilgan olimalardan biri B.O.Oruzbayeva terminlarni yaratishda qirg‘iz tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanganligini ta’kidlagan.

«Лингвистикалык терминдердин орусча-кыргызча сөздүгү» lug‘atining kirish qismida qirg‘iz terminologiyasiga o‘z hissasini qo‘shgan bir qancha olimlarning asarlaridan terminlar to‘plangan bo‘lsa-

[61] Кыргыз тилинин жазма грамматикасы. Азыркы кыргыз адабий тили. –Бишкек. Аврасия пресс, 2015. –Б. 147.

[62]Кошуева М. Ж., Роль к. тыныстанова в истории формирования киргизской терминологии. Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice. – В.685. https://www.bulletennauki.ru –

da, muallifning aytishicha, lug‘at ulardagi barcha terminlarni o‘z ichiga to‘liq qamrab ololmagan. Lug‘atda, asosan, tilshunoslikka oid terminlar jamlangan bo‘lib, lug‘at loyihasi ustida ish olib borilayotganda umumiy tilshunoslikka oid asarlarning qirg‘iz tilidagi tarjimasi mavjud bo‘lmaganligi sababli ayrim terminlarni qirg‘izchada ikki yoki undan ham ko‘p termin bilan berishga to‘g‘ri kelganligi haqida ma’lumot berilgan[63]. B.O.Oruzbayeva terminlarni yig‘ib, lug‘at tuzishda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratgan: termin va oddiy leksik birlik o‘rtasidagi farq; terminlarning ma’nodagi aniqligi; qirg‘iz tilining ichki imkoniyatlari asosida yangi atamalar yaratish; o‘zlashgan terminlarni milliy til tizimiga moslashtirish. Mazkur yondashuv boshqa turkiy tillar, jumladan, o‘zbek terminologiyasini rivojlantirish tajribasi bilan uyg‘un bo‘lib, milliy termin yaratishda ichki til imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

T.Ashirbayeva, K.Narmirzayevalar tomonidan tuzilgan «Тил илимине киришүү» nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida qirg‘iz tilshunosligida yaratilgan bir nechta terminologik lug‘atlar haqida ma’lumot keltirilgan. “Terminologik lug‘atar muayyan fan yoki soha terminlarini alohida jamlab, ularning ma’nosi va qo‘llanilishini izohlab beradi. Bunday lug‘atlarda terminlar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilingan holda ham berilishi mumkin. Qirg‘iz tilshunosligida bu yo‘nalishda B.O‘ruzbayevaning “Lingvistik terminlarning ruscha-qirg‘izcha lug‘ati”, B.Oruzbayeva va V.Zokirovalarning “Grammatik terminlar lug‘ati”, R.Qidirboyeva hamda K.Asanaliyevlarning “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”, J.Sheriyev va A.Muratovlarning “Adabiyot terminlarining izohli lug‘ati”[64] kabi lug‘atlar yaratilganligi va bu lug‘atlarning qirg‘iz terminologiyasi taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligi ta’kidlangan. Ushbu lug‘atlarning yaratilganligi qirg‘iz tilshunosligida terminologiya tarixi qadimdan shakllanganligidan dalolat beradi.

Qirg‘iz tilshunosligida Ishenali Arabayev[65] 1910-1920-yillarda qirg‘iz pedagogik va ilmiy terminologiyasining dastlabki amaliy shakllantiruvchilaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Olim termin va terminologiyaga doir nazariyalar yaratmagan bo‘lsa-da, pedagogik terminologiyani shakllantirish, ilmiy terminlarni milliylashtirish, yagona

[63] Орузбаева Бүбүйна Өмүрзаковва. Лингвистикалык терминдердин орусча - кыргызча сөздүгү. –Фрунзе: Издательство Тилим, 1972. – В.6-7.

[64] Аширбаев Т., Нармыраева К. Тил илимине киришүү. –Бишкек, 2023. – Б.60.

[65] https://encyclopedia.edu.kg/KyrgWiki/index.php?title=%D0%90%D0%A0%D0%90%D0%91%D0%90%D0%95%D0%92_%D0%98%D1%88%D0%B5%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D1%8B&utm_source=chatgpt.com

yozuv va imlo me’yorlarini shakllantirish, terminlarni darsliklar orqali ommalashtirish kabi g‘oyalarni ilgari surgan.

B.M.Yunusaliyev esa qirg‘iz tilining leksikologiyasi va terminologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Terminlarning shakllanishi va ilmiy uslubdagi qo‘llanishini o‘rgangan. Olim terminologiyani ilmiy tilning ajralmas qismi deb hisoblagan hamda terminlarning aniq, izchil, me’yoriy va milliy til imkoniyatlariga tayangan holda shakllanishi zarurligini asoslab bergan[66].

O.S.Abduqaimova, A.S.To‘qnazarovalarning “Til leksik-semantik tizimida maxsus terminologiyaning shakllanishiga oid asosiy masalalar” nomli maqolasida “Har qanday rivojlangan til terminologiyasi o‘z tarkibi jihatidan bir xil emas – u barcha fan va bilim sohalaridan olingan atamalar hamda atamasimon so‘zlardan, xususan, tibbiyot, texnika, qurilish, sotsiologiya, matematika kabi fanlarning maxsus terminlaridan tashkil topadi”[67], deya aytib o‘tgan.

Ushbu nazariy qarashlar qirg‘iz tilshunosligida terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi izchil ilmiy an’analarga asoslanganligini ko‘rsatadi. I.Arabayevning pedagogik terminlarni milliylashtirish va amaliyotga joriy etish borasidagi faoliyati, B.M.Yunusaliyevning terminlarning ilmiy-me’yoriy xususiyatlarini asoslab berishi hamda zamonaviy tadqiqotchilarning terminologiyani turli fan sohalarini qamrab oluvchi murakkab tizim sifatida talqin etishi bir-birini mantiqan to‘ldiradi.

Qirg‘iz oliy ta’lim talabalari uchun mo‘ljallangan “Тил илимине кириш”[68] nomli o‘quv qo‘llanmasida “Kasbiy-terminologik leksika deganda ijtimoiy jihatdan chegaralangan, ma’lum bir kasb yoki mutaxassislikda ishlaydigan kishilar nutqidagina qo‘llaniladigan so‘zlar tushuniladi. Ular o‘z ichida *терминдик сөздөр* va *кесиптик лексикадагы сөздөр* (terminologik so‘zlar va kasbiy leksidagi so‘zlar) kabi turlarga bo‘linadi.

1. Terminlar u yoki bu fan sohasiga oid tushunchalarni ifodalaydigan, asosan, bir ma’nodagini qo‘llanadigan so‘zlardir. Masalan: *fonema, morfema, olisemiya, roman,qissa, mavzu, g‘oya, alliteratsiya.*

[66] Б. М. Юнусалиев. Киргизская лексикология. –Фрунзе, 1959. Киргизское государственное учебно-педагогическое издательство. Часть 1. – С. 97-101. (241)

[67] О.С. Абдыкаимова, А.С. Токтоназарова. Основные вопросы образования специальной терминологии в лексико-семантической системе языка. Вестник КРСУ, 2020. Том 20. № 2. – С.115.

[68]Жороев И. М. Тил илимине кириш. жогорку окуу жайлардын студенттери /ч/н. –Ош, 2014. – Б. 97-98. (161)

2. Kasbiy so‘zlar biror-bir ishlab chiqarish oki xo‘jalik sohasida, turli hunarmandchilik yoki kasb-kor bilan shug‘ullanuvchi odamlar tomonidan o‘sha kasb-korga oid qo‘llanadigan so‘zlar. Masalan: burgutchilikka oid: *upchun – (burgutning tirnoqlariga kiydiriladigan qop); tomog‘o (burgutning boshiga kiydiriladigan qop); tuur (burgut qo‘nib o‘tiradigan yog‘och moslama).* Yuqorida berilgan nazariya kasbiy leksika va terminologik leksika o‘rtasidagi farqlarni aniq yoritib beradi. Bizningcha, termin va kasbiy so‘zlarni alohida guruhlarga ajratish ularning vazifasi hamda qo‘llanish doirasini to‘g‘ri anglashga xizmat qiladi.

Terminlar ilmiy tushunchalarni aniq va bir ma’noda ifodalashi bilan ajralib tursa, kasbiy so‘zlar muayyan kasb yoki hunar egalarining kundalik amaliy faoliyatida qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham kasbiy leksika terminologiyaning tarkibiy qismi bo‘lsa-da, u ilmiy uslubdan ko‘ra ko‘proq amaliy muloqot ehtiyojlarini qondiradi. Berilgan misollar esa qirg‘iz tilida kasbiy leksikaning boyligi va milliy-madaniy xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Bu esa terminologik va kasbiy leksikani alohida o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki milliy madaniyat va kasbiy faoliyat tarixini tadqiq etishda ham muhim ahamiyanga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Akjolova Zulfiya Palbanova o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida “Terminning maqomiga ilmiy-lingvistik baho berishda, ularni kuzatish va tadqiq etishda uning har doim maxsus so‘zlar tarkibiga kirishi, biroq barcha so‘zlar ham termin bo‘lavermasligi, terminning yasalishida yoki ma’lum bir tilga o‘zlashtirilishida o‘sha tilning ichki xususiyatlari saqlanib, o‘sha tilning grammatik, semantik, orfografik, orfoepik qonuniyatlari ularga asos bo‘lib xizmat qiladi”, deya ta’kidlagan[69].

“Terminologiyaning tarixi shu terminologiyani yaratgan fanning tarixiga qanday jihatdan qaralsa, ma’lum bir tilning egasi bo‘lgan xalqning tarixiga ham xuddi shunday jihatdan qaraladi. Shu sababli terminologiya ishini o‘rganish ilmiy jihatdan ham, tarixiy jihatdan ham muhimdir”[70].

Qiyosan o‘rganilgan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, terminologiya nazariyasining shakllanishi faqat XX asr bilan chegaralanib qolmaydi. Uning nazariy-falsafiy asoslari qadimgi yunon mutafakkirlari Platon va Aristotel qarashlariga borib taqaladi. Ularning

[69] Акжалова З.П. Англис жана кыргыз тилдериндаги коомдук жана спорттук терминдердин лингвистикалык негиздери. Филология илимдеринин кандидаты окумуштуулук даражасын изденип алуу учун аткарилган диссертациясинын автореферати. – Бишкек. 2007. – Б.11. (20)

[70] Закирова В. Кыргыз тилиндеги грамматикалык терминдер. –Фрунзе: Илим, 1976. –Б.3.

nom, tushuncha va mohiyat o‘rtasidagi munosabatga doir ilgari surilgan g‘oyalari keyinchalik terminshunoslikning konseptual poydevorini yaratishda muhim ahamiyat kasb etgan. XX asrga kelib esa Vena va Moskva terminologiya maktablari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida terminologiya mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, terminlarning mantiqiy, tizimli va lingvistik xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Nazariy manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida termin tushunchasiga berilgan ta’riflar o‘zaro zid emasligi, aksincha, uning turli jihatlarini yoritishga xizmat qilishi aniqlandi. Ba’zi tadqiqotchilar terminning konseptual va mantiqiy mohiyatiga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsalar, boshqalari uning lingvistik, kommunikativ yoki kognitiv xususiyatlarini asosiy mezon sifatida talqin qilganlar. Shu bois termin uchun yagona va universal ta’rifni belgilash murakkab bo‘lsa-da, barcha nazariyalarda uning asosiy belgilari mushtarak ekanligi kuzatildi. Jumladan, termin muayyan ilmiy tushunchani ifodalashi, terminologik tizim tarkibida faoliyat yuritishi, aniqlik va izchillikni ta’minlashi hamda ilmiy muloqot samaradorligiga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi. Bizning fikrimizcha, zamonaviy terminni faqat maxsus so‘z yoki ilmiy nom sifatida baholash terminshunoslikning bugungi rivojlanish yo‘nalishlarini to‘liq aks ettirmaydi. Chunki termin nafaqat ilmiy tushunchani nomlaydi, balki ilmiy bilimni tizimlashtirishi, uni saqlash va mutaxassislar o‘rtasida samarali ilmiy kommunikatsiyani ta’minlash vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun terminning mohiyatini belgilashda uning nomlanishi bilan bir qatorda konseptual, kognitiv hamda kommunikativ vazifalarini ham kompleks tarzda hisobga olish zarur deb hisoblaymiz.

Tahlillar natijasida shuni ko‘rishimiz mumkinki, terminologiya umumxalq tilining leksik qatlami emas, balki o‘zining ichki qonuniyatlari, rivojlanish tamoyillari va me’yorlashtirish mexanizmlariga ega bo‘lgan mustaqil lisoniy tizimdir. Shu boisdan terminlarni tadqiq etishda ularning faqat shakliy yoki etimologik xususiyatlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, terminologik tizimdagi o‘rni, tushunchalar tizimi bilan o‘zaro aloqasi hamda vazifaviy imkoniyatlarini ham atroflicha tahlil qilish ilmiy jihatdan asosli bo‘lar edi.

O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida terminologiyaga oid ilmiy qarashlarning qiyosiy tahlili natijasida ikkala til terminologik tizimi jahon terminshunosligi tamoyillariga tayangan holda rivojlangan bo‘lsa-

da, ularning shakllanishida milliy tilning ichki imkoniyatlari, tarixiy taraqqiyot jarayoni hamda til siyosati muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, milliy termin yaratish, mavjud terminlarni me’yorlashtirish va ularni ilmiy uslub talablariga moslashtirish masalalarida o‘xshash ilmiy yondashuvlar kuzatiladi. Tahlil qilingan nazariy qarashlarni umumlashtirib, quyidagicha ilmiy xulosa chiqarish mumkin: termin muayyan fan yoki kasbiy faoliyat doirasidagi ilmiy tushunchani aniq ifodalovchi, terminologik tizim tarkibida boshqa terminlar bilan uzviy onseptual munosabatda bo‘ladigan hamda ilmiy komunikatsiyaning aniqligi, izchilligi va samaradorligini ta’minlaydigan maxsus leksik birlikdir. Terminologiya esa alohida terminlarning oddiy yig‘indisi emas, balki ilmiy bilimlar tizimini aks ettiruvchi, ichki qonuniyatlarga ega bo‘lgan yaxlit va dinamik lisoniy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

1.2. Terminologiyani o‘rganishda qiyosiy-tipologik yondashuv

Terminologiya masalalarining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Dastlabki terminologik tadqiqotlarda, asosan, muayyan bir til doirasida terminlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi, me’yorlashuvi va tizimlashuvi kabi masalalar asosiy tadqiq obyekti bo‘lgan. Keyinchalik fan va texnika taraqqiyoti, xalqaro ilmiy aloqalarning kengayishi natijasida turli tillarning terminologik tizimlarini qiyoslash, ular o‘rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlarni aniqlash, terminologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Jahon terminologiya nazariyasining shakllanishida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan avstriyalik olim E. Wüster[71] terminlarni qiyoslash jarayonida asosiy mezon sifatida ularning tashqi shakliy o‘xshashligi emas, balki ifodalagan tushunchalarining mazmuniy yaqinligida deb belgilagan. Terminologiyani qiyosiy o‘rganish yo‘nalishining rivojlanishida Yevropa tillari materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, Juan C.Sager “Terminologiyaga ishlov berish bo‘yicha amaliy kurs”[72] kitobida ingliz, fransuz, nemis tillaridagi terminologik birliklarni qiyosiy tahlil qilib, terminlarning ekvivalentligi, tarjima jarayonidagi muammolar hamda termin yaratish usullarini

[71] Mitja Trojar. Wüster’s View of Terminology. Slovenski jezik – Slovene Linguistic Studies 11 (2017): part. 76-77. https://www.academia.edu/34943245/W%C3%BCsters_View_of_Terminology.

[72] Juan C.Sager. A Practical Course in Terminology Processing. John Benjamins publishing company Amsterdam/Philadelphia. 1990. – B.200-203. (255) https://www.google.co.uz/books/edition/A_Practical_Course_in_Terminology_Proces/qq7cSFT27cwC?hl=en&gbpv=1&dq=inauthor:%22Juan+C.+Sager%22&printsec=frontcover

o‘rgangan. Olim tadqiqotlarida turli tillardagi terminlar shaklan farqlanishi mumkin bo‘lsa-da, ular bir xil ilmiy tushunchani ifodalash imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatib bergan.

Ispan terminologi Cabré, M. Teresa[73] ispan, katalon va ingliz tillari terminologiyasi misolida terminlarning funksional va kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etgan. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, terminlar oddiy lug‘aviy birlik emas, balki muayyan fan sohasiga oid bilimlarni shakllantiruvchi va uzatuvchi maxsus birlik hisoblanadi. Olimning nazariyasi terminlarni qiyosiy o‘rganishda ularning nafaqat struktur, balki semantik va funksional xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Rus terminologiya maktabida terminlarni qiyosiy tadqiq etish masalalari D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, V.M.Leychik, S.V.Grinev-Grinevich kabi olimlarning ilmiy faoliyatida atroflicha tadqiq qilingan.

D.S.Lotte[74] rus, ingliz va nemis tillaridagi ilmiy-texnik terminlarni qiyoslash asosida termin yaratishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqqan. Olim o‘z asarlarida asosiy e’tiborni termin yaratish, terminologik leksikani o‘zlashtirish, tushunchaviy-terminologik tizimlarni shakllantirish hamda ilmiy-texnik terminlarni tarjima qilish masalalariga qaratgan. Natijada olimning tadqiqotlari turli tillardagi terminologik tizimlarni qiyoslash va ular o‘rtasidagi muvofiqliklarni aniqlashga xizmat qilgan.

A.A.Reformatskiy[75] terminlarning til tizimidagi lingvistik xususiyatlarini tadqiq etib, terminlarning umumxalq leksikasidan farqlovchi jihatlariga, ularning ilmiy tushunchalarni aniq ifodalash va narsalarni nomlash imkoniyatlari hamda terminologik tizimdagi vazifalariga e’tibor qaratgan. Uning nazariy qarashlari tilshunoslik terminlarini qiyosiy o‘rganishda muhim ilmiy asoslardan biri hisoblanadi. V.M.Leychik[76] esa terminologiyani fanlararo hodisa sifatida talqin qilib, terminologik tizimlarni qiyoslashda “tushuncha – termin – terminologik tizim” munosabatiga alohida e’tibor qaratgan. Ushbu nazariy qarash turli tillardagi terminlarning semantik va tizimiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

[73] Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications.Amsterdam: John Benjamins, Comptes rendus. 1998. 580-582.
https://www.academia.edu/37939770/Cabr%C3%A9_M_Teresa_1998_Terminology_Theory_methods_and_applications_Philadelphia_PA_John_Benjamins_248_p_

[74] Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. –М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С.8. (–160 с.) https://k.twirpx.link/file/3137596/

[75] Ломоносова М.В. Определение термина в современной лингвистике и его роль в языке. Студенческий научний форум. 2017. – С. 40-41. https://scienceforum.ru/2017/article/2017035004

[76] Шелов С.Д. Владимир моисеевич лейчик: ученый и человек. Терминоведение. К юбилею В.М. Лейчика 2024. С.355-356. file:///C:/Users/User/Downloads/vladimir-moiseevich-leychik-uchenyy-i-chelovek%20(2).pdf

Terminologik tizimlarni tadqiq etishda qiyosiy-tipologik yondashuv muhim metodlardan biri hisoblanadi. Chunki har bir tilning terminologik tizimi shu xalqning ilmiy tafakkuri, tarixiy taraqqiyoti va madaniy-lisoniy xususiyatlari bilan bog‘liq holda shakllanadi. Ayniqsa, genetik jihatdan qarindosh bo‘lgan turkiy tillar terminologiyasini qiyosiy o‘rganish ushbu tillardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash, terminlarning shakllanish manbalari va taraqqiyot qonuniyatlarini belgilash imkonini beradi. Turkiy tillar terminologiyasini tadqiq etishda umumturkiy leksik qatlamni o‘rganishga bag‘ishlangan qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Turkiy tillarning lug‘aviy tarkibi, umumturkiy so‘zlar, tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan fonetik va semantik o‘zgarishlar masalalari ko‘plab turkologlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Nikolay Baskakov, Talat Tekin, Ahmed Bican Ercilasun kabi olimlarning turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy tadqiqiga oid ishlari turkiy tillar o‘rtasidagi umumiy lisoniy hodisalarni aniqlashda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Umumturkiy leksikologiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va qirg‘iz tillari bir xil turkiy ildizga ega bo‘lganligi sababli ularning terminologik tizimlarida ham ko‘plab mushtarak jihatlar mavjud. Xususan, tilshunoslik terminlarining muayyan qismi qadimgi turkiy leksik birliklar asosida shakllangan bo‘lib, ular har ikki tilda fonetik yoki morfologik jihatdan ayrim farqlar bilan qo‘llanadi. Masalan: til, so‘z, tovush, bo‘g‘in, gap, ot, sifat, fe’l kabi lingvistik terminlar umumturkiy xarakterga ega bo‘lgan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar qiyosiy-tipologik tahlil uchun muhim nazariy asos yaratadi. Xususan, Hamidulla Dadaboyev o‘zbek terminologiyasining tarixiy shakllanishi, terminlarning manbalari va taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qilgan. Olimning ishlarida eski turkiy yozma manbalardagi terminlar, ularning hozirgi o‘zbek ilmiy terminologiyasidagi davomiyligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek terminologiyasi, lug‘atchilik va ilmiy uslub masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek terminologiyasi, lug‘atchilik va ilmiy uslub masalalari A.Hojiyev, E.Begmatov kabi olimlarning tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan.

Qirg‘iz tilshunosligida terminologiya masalalari qirg‘iz adabiy tili va ilmiy uslubning shakllanishi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Xususan, B.Oruzbayeva[77] qirg‘iz tilining lug‘aviy tarkibi, terminlarning

[77] Орузбаева Бүбүйна Өмүрзаковна. Лингвистикалык терминдердин орусча - кыргызча сөздүгү. – Фрунзе: Издательство Тилим, 1972. –Б.47.

shakllanishi va rivojlanish tamoyillarini tadqiq qilgan. Qirg‘iz terminologiyasini o‘rganishda uning ishlari muhim nazariy manba hisoblanadi. Shuningdek, qirg‘iz tilining izohli va terminologik lug‘atlarini yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qirg‘iz ilmiy terminologiyasining me’yorlashuvi uchun asos bo‘lgan. O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi tilshunoslik terminlarini qiyosiy o‘rganishda mazkur ikki yo‘nalish – umumturkiy leksiologik tadqiqotlar hamda milliy terminologiyaga oid izlanishlarni o‘zaro bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Chunki umumturkiy tadqiqotlar terminlarning tarixiy ildizlarini aniqlashga imkon bersa, alohida tillar terminologiyasiga oid ishlar ushbu birliklarning zamonaviy shakli, qo‘llanish doirasi va me’yoriy xususiyatlarini ochib beradi. Qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarini tadqiq etishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish mumkin: *ikki tildagi terminlarning umumiy genetik asoslarini aniqlash, terminlarning fonetik, morfologik va struktur xususiyatlarini qiyoslash, terminlarning semantik taraqqiyoti va ma’no farqlarini belgilash, o‘zlashma terminlarning har ikki tildagi moslashuv jarayonlarini tahlil qilish, milliy termin yaratish usullaridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.*

Turkiy tillarning qiyosiy tadqiqida N.A.Baskakovning[78] ilmiy ishlari alohida o‘ringa egadir. Olim o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, turkman va boshqa turkiy tillarning fonetik, grammatik hamda leksik xususiyatlarini qiyosiy asosda o‘rgangan. Uning tadqiqotlari bevosita terminologiyaga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, umumturkiy leksik qatlamni aniqlash, terminlarning tarixiy ildizlarini belgilash va turkiy tillardagi umumiy lisoniy hodisalarni tavsiflashda muhim manba hisoblanadi.

Turkiy tillarning qiyosiy-grammatikasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan A.B.Ercilasun[79] turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, o‘zbek va boshqa turkiy tillardagi grammatik hodisalarni qiyoslagan. Uning ilmiy ishlarida fonetika, morfologiya va sintaksisga oid terminlarning turkiy tillardagi shakllari, qo‘llanish doirasi hamda o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Bu borada jahon va rus tilshunosligida olib borilgan ilmiy izlanishlar ikki yoki uch til terminologiyasini qiyosiy o‘rganish uchun

[78] Баскаков Н. А. К вопросу о классификации тюркских языков. Известия академии наук СССР отделение литературы и языка 1952, том XI, вып. 2 март – апрель. https://altaica.ru/LIBRARY/AN_SSSR/baskakov1.pdf

[79] Ercilasun A. B. Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri Sözlüğü. Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1991. 2 jild. https://kutuphane.ttk.gov.tr/details?id=656109&materialType=KT&query=Ercilasun%2C+Ahmet+Bican.&utm_source=chatgpt.com

asosiy manba hisoblanadi. Shunga qaramay, turkiy tillar, ayniqsa, o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi tilshunoslik terminlarini kompleks qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tadqiq etish masalasi hali yetarli darajada yoritilmagan. Hozirgi kungacha amalga oshirilgan tadqiqotlar, asosan, o‘zbek va qirg‘iz terminologiyasining umumiy nazariy masalalari, turkiy tillarning mushtarak leksik qatlami hamda ayrim fan yo‘nalishlariga oid terminologik tizimlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Biroq o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi tilshunoslik terminlarini ularning etimologiyasi, struktur-semantik xususiyatlari, termin yasash modellari, o‘zlashma birliklar tarkibi, shuningdek, milliy va xalqaro terminlarning o‘zaro munosabati asosida qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Qiyosiy-tipologik jihatdan olib borilgan tadqiqotlar o‘zbek va qirg‘iz tillarining qarindoshlik aloqalarini terminologik tizim misolida atroflicha yoritish, ikki til ilmiy terminologiyasining umumiy hamda milliy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, turkiy tillar terminologiyasining shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda o‘zaro qarindosh bo‘lgan yoki qarindosh bo‘lmagan tillarni chog‘ishtirib o‘rganishda qiyosiy metod muhim o‘rin tutadi. Qiyosiy metod universalligi tufayli umumilliy tadqiqot usullariga kiritiladi. O‘zining funksional vazifasi va qo‘llanish usullariga ko‘ra, u amalda sinalgan usullardan hisoblanadi. Amaliyotda uning bir qator turlari farqlanadi. Masalan, “turli obyektlarning tabiatini aniqlaydigan qiyosiy-taqqoslash usuli kelib chiqishi bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan hodisalarning o‘xshashligini ularning genezisi va rivojlanishidagi bir xil sharoitlar bilan izohlaydigan qiyosiy-tarixiy-tipologik usul; hodisalarning o‘xshashligini ularning kelib chiqishiga ko‘ra qarindoshligi natijasi sifatida ko‘rsatadigan qiyosiy-tarixiy-genetik usul; turli obyekt va hodisalarning o‘zaro ta’sirini qayd etuvchi taqqoslash usuli”[80]. Qiyosiy metod tilshunoslikning eng muhim va samarali usullardan biridir. Chunki til hodisalarini faqat alohida o‘rganish ko‘pincha yetarli natija bermaydi. Ularni boshqa tillar bilan solishtirish orqali tilning o‘ziga xos jihatlari, umumiy qonuniyatlari va rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglash mumkin. Ayniqsa, qiyosiy-tarixiy-genetik usul qarindosh tillarning kelib chiqishi va tarixiy aloqalarini aniqlashda katta ahamiyatga egadir. Masalan: turkiy tillarni qiyoslash orqali ularning umumiy ildizlari, fonetik va grammatik o‘xshashliklari aniqlanadi. Shu bilan birga, qiyosiy-tipologik usul qarindosh bo‘lmagan

[80]https://ru.wikipedia.org/ /wiki/Сравнительный _метод

tillarda ham o‘xshash hodisalar mavjudligini ko‘rsatib, bunday o‘xshashlik doimo umumiy kelib chiqishga bog‘liq emasligini tushuntiradi.

Qiyosiy-tipologik tadqiqotlar ichida lingvistik terminologiya bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar aniqligi, dalillarga asoslangani bilan ajralib turadi. O‘zaro qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillar lingvistik terminologiyasini o‘rganishda qiyosiy-tipologik yondashuv shunday integrativ yo‘nalishki, bunda birgina terminologiya yoki lingvistik tipologiya qoidalariga amal qilish bilan cheklanilmaydi, balki har ikkisini uyg‘unlashtirgan holda ish tutiladi. Boshqacha aytganda, har ikki soha tutashgan joyda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarga yo‘l ochiladi. Qiyosiy-tipologik yondashuvning mohiyati nimada degan savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Uning mohiyati olib borayotgan tadqiqotimiz mazmun-mundarijasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘zbek va qirg‘iz tillari yoki har ikki xalq tilshunosligidagi turli ilmiy maktablarga, o‘zbek va qirg‘iz oliy ta’lim darsliklariga oid terminlar va terminosistemalarni tizimli ravishda solishtirib, ularning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Qiyosiy-tipologik tadqiqot olib borishda yana bir jihatni yodda tutish lozim. O‘zbek tilshunosligida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bo‘yicha qator yutuqlarga erishilgan, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan, monografik rejadagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tillarning o‘zaro yaqinlik darajasi, qarindoshligi va ularning tarixiy rivojlanishini o‘rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikdan farqli ravishda, qiyosiy-tipologik yondashuv tillarning kelib chiqishidan qat’iy nazar, o‘z e’tiborini struktur o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratadi. Agar keyingi yillarda ancha ommalashgan kontrastiv lingvistika (chog‘ishtirma tilshunoslik) ko‘pincha amaliy masalalarni, masalan, tarjima bilan bog‘liq masalalarni hal etish uchun ikkita aniq til (masalan, o‘zbek va xitoy) terminologiyasini solishtirsa, tipologik terminologiya kengroq umumlashtirishlarga intilib, tasniflar yaratadi va tahlil doirasiga tortilgan tillardagi mavjud terminlar hamda terminosistemalarning turlarini belgilaydi. Albatta, mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish ko‘p qirrali bo‘lib, terminologiyaning turli jihatlariga tatbiq etilishi mumkin.

Shu o‘rinda qiyosiy-tipologik tahlilning bugungi kunda rivojlangan asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida ham qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Zamonaviy tadqiqotlarda til darajasi bo‘yicha, kelib chiqishi va shakli bo‘yicha tasniflash, funksional-semantik tahlilga e’tibor kuchaygan.

Bunda til darajasi bo‘yicha tasniflashda obyektni tizimlashtirish nazarda tutiladi. Lingvistik terminlar tilshunoslikning qaysi bo‘limiga mansubligiga qarab tipologizatsiyalanadi, ya’ni ajratiladi.

Tipologizatsiya obyektlarni umumiy, muhim belgilari va xususiyatlari asosida guruhlarga (tiplarga) ajratish yoki tasniflashga qaratilgan ilmiy bilish usuli bo‘lib, u birgina tilshunoslikda emas, balki psixologiyada ham qo‘llanadi. U tilshunoslikda murakkab tuzilishga ega bo‘lgan lisoniy hodisalar va jarayonlarni tizimlashtirishga yordam beradi. Bu tilshunoslikda har bir sathda kuzatiladi. Masalan, fonetika terminlari tahlil qilinganda tovush, fonema kabilar; morfologiya terminlari tahlil qilinganda kelishik, olmosh, fe’l, ravish kabilar; sintaktik terminlar haqida so‘z yuritilsa, ega, kesim, so‘z birikmasi, atov gap, ritorik so‘roq gap kabilar ajratiladi. Lingvistik terminlarni kelib chiqishi va shakli bo‘yicha tasniflashda esa terminlarning etimologik va struktur xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan, o‘zbek va qirg‘iz lingvistik terminlari o‘zaro qiyoslanganda ularning soddaligi, ya’ni bir so‘zdan iboratligi, asl o‘zbekcha yoki qirg‘izcha ekanligi, o‘zlashma yoki o‘zlashma emasligi, shuningdek, bir so‘zli yoki termin-so‘z birikmasi ko‘rinishida ekanligiga qarab tiplarga bo‘linadi.

Qiyoslanayotgan tillar lingvistik terminlarini tahlil qilishda funksional-semantik tahlil muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuvda termin mazmunini o‘rganishga asoslaniladi. Bu yondashuv asosida tahlil qilinganda o‘zbek yoki qirg‘iz tilshunoslik terminining turli kontekstlarda qanday qo‘llanganligiga e’tibor beriladi. Bunda terminning bir ma’noligi yoki ko‘p ma’noligi hisobga olinadi. Masalan, *metafora* terminini bir ma’noli lingvistik termin sifatida qabul qilamiz. *Assimilyatsiya* terminini esa ko‘p ma’noli terminlar safiga kiritamiz. Chunki u tilshunoslikdan tashqari boshqa sohalarda ham qo‘llanadi. Psixologiyada assimilyatsiya deb yangi tajribani avval to‘plangan bilimlar va shakllangan dunyoqarash orqali o‘zlashtirish jarayoniga aytiladi.

Assimilyatsiya tushunchasi boshqa fanlarda ham, masalan, biologiya, pedagogika va ijtimoiy fanlarda qo‘llaniladi. Biologiyada assimilyatsiya deb tirik organizm tomonidan tashqaridan olinadigan ma’lum moddalarni o‘zlashtirish va yutib olish jarayoni tushuniladi. Shunday qilib, insonda moddalar almashinuvi assimilyasiya (foydali moddalarni yutib olish) va dissimilyatsiya (teskari jarayon – ajralib chiqish) ga asoslanadi[81].

[81] https://teledoctor24.ru/article/500-90-assimilyatsiya.

Shunday qilib, qiyosiy-tipologik yondashuv – bu bizning o‘rganish obyektimiz bo‘lgan terminlarni shakliga ko‘ra oddiy qayd qilish emas, balki o‘rganilayotgan til hodisalarini tavsiflash va solishtirish uchun yagona metatil yaratishga qaratilgan murakkab analitik jarayondir. U turli tillar va ilmiy an’analarda bir xil vazifalar qanday hal etilishini ko‘rish imkonini beradi va ana shu xususiyatiga ko‘ra til universaliyalarini aniqlash uchun asos bo‘ladi.

S.G.Kazarina[82] o‘zining “Tipologik terminshunoslik tabaqalashtirilgan lingvistik fan sifatida” deb nomlangan maqolasida terminologiyashunoslik tadqiqotlarining ilmiy va amaliy ahamiyatini ta’kidlab, rivojlangan hamda tizimlashtirilgan terminologiya kasbiy faoliyatning muhim vositalaridan biri ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, ilmiy tafakkurning nozik jihatlari, maxsus tushunchalar va murakkab hodisalarning eng kichik tafsilotlarini aniq ifodalash imkonini beruvchi mukammal terminologik tizim har qanday sohaning samarali rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun terminologiyani o‘rganish, uning shakllanishi, tizimlanishi va funksional xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy lingvistikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi paytlarda terminologiyashunoslik fanining alohida yo‘nalishlari muammolari shakllandi va shu bilan birga, uning ayrim sohalari, masalan, qiyosiy terminologiyashunoslik, terminografiya mustaqil fanlar sifatida mavjud bo‘la boshladi. Shu bilan birga, ilmiy-texnik terminologiyani tipologik tadqiq qilish muammolari hali ham yetarli darajada ishlanmagan, nimani va qanday o‘rganish kerak degan fikrlar turli-tuman, ma’lumotlar esa kam. Terminlar va terminosistemalar tipologiyasiga oid ishlar odatda bir xil predmetga tegishlilik prinsipi bo‘yicha tanlab olingan alohida so‘z guruhlarini, tarqoq faktlarni, maxsus leksikaning ayrim tomonlari va muammolarini tavsiflash bilan chegaralanadi, tavsif obyektlari, maqsadlar, metodikalar va ish algoritmlarida birlik kuzatilmaydi.

Lingvistik tipologiya – umuman til qurilishining muhim belgilarini alohida olingan tillar tuzilishini o‘rganish va ularni har tomonlama qiyoslash asosida aniqlovchi hamda umumlashtiruvchi tilshunoslik bo‘limi. “Tipologik metodlar turli-tuman tillarning fonologiyasi, morfologiyasi, sintaksis va leksikasidagi o‘xshashliklar va tafovutlarni

[82] Казарина С.Г. Типологическое терминоведение как дифференцированная лингвистическая дисциплина. file:///C:/Users/User/Downloads/tipologicheskoe-terminovedenie-kak-differentsirovannaya-lingvisticheskaya-distsiplina%20(1).pdf

aniqlashga, lingvistik universaliyalarni, shuningdek, tillarning tiplarini – til qurilishi tabiati haqida umumlashgan, mukammal holdagi tushunchalarni belgilashga qaratilgan. Tillarning tiplari grammatikada tushunchalarni anglatish usuliga, munosabatlarni ifodalash texnikasiga va birikish, bog‘lanish darajasiga qarab aniqlanadi”[83].

Lingvistik tipologiya tushunchasi qamrovi keng. Unda o‘zaro qarindosh bo‘lgan yoki turli tillar oilasiga mansub bo‘lgan, qarindosh bo‘lmagan tillar tahlilga tortiladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa o‘zaro qiyoslanayotgan tillar orasidagi tuzilish farqlarini, bog‘liqlik darajasini aniqlash bilan har ikki tilda ham mavjud bo‘lgan ma’lum bir hodisaning mohiyatini ochib berishdan iborat. Bu bilan masalan, o‘zaro qarindosh hisoblangan o‘zbek va qirg‘iz tillari tilshunoslik terminologiyasini qiyoslash bilan har ikki til uchun umumiy xususiyatlarning qay darajada saqlanib qolganligi, ma’lum bir jarayonlarni boshdan kechirganligi, fonetik, leksik tarkibida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar haqida muayyan xulosaga kelinadi.

Dunyo tillarining deyarli barchasida uchraydigan universaliyalar bu tillarni ham chetlab o‘tgan emas. Har ikki tilda ham jahon tilshunosligida amalda bo‘lgan terminlar mavjud. Ayni damda o‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida so‘zlarning bir va ko‘p ma’noliligi, zamon kategoriyasi, omonimlar, so‘z turkumlari, unli va undosh tovushlar, terminlar, sinonimlar, urg‘u, harakat va holat fe’llari, gap bo‘laklari va ularni ifodalovchi terminlardagi o‘xshash va farqli jihatlar alohida tadqiqotni taqozo etadi. Mazkur hodisalarni o‘rganish esa lingvistik tipologiya oldida turgan vazifalardan hisoblanadi.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan yirik ishlardan biri professor I.Mirzayev tomonidan rus va fransuz tillarini qiyosiy o‘rganish asoschisi bo‘lgan mashhur tilshunos olim Vladimir Grigorevich Gakning “Fransuz va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi” nomli fundamental asarining o‘zbek tiliga tarjima qilingani bo‘ldi. I.Mirzayev mazkur asarga yozgan so‘zboshisida uning ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etishini aytib o‘tgan: “O‘rganilayotgan til hodisalari ona til xususiyatlari bilan qiyoslash orqali talabalarda chet tilini o‘rganishga muhabbat uyg‘otish va shu tilda so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mazkur kursda fransuz tili rus tili bilan nafaqat struktur, balki funksional-tipologik aspektlarda ham qiyoslanadi. Shuningdek, kitobda til shakllarining qo‘llanishi semasiologik (shakldan mazmunga) va qator o‘rinlarda onomasiologik

[83] Пўлатов И.,Тўхтасинова О.Тилларни типологик ўрганиш//Ўқув қўлланма.–Тошкент: Тафаккур, 2009. –Б.4.

(mazmundan shaklga) jihatdan o‘rganiladi. Chunki tilning xususiyati nafaqat uning qurilish xususiyatlarida va turli sath birliklarining qo‘llanilishida, balki gap tuzilishi xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi”[84].

Ushbu darslikning qiyosiy terminologiya rivojiga qo‘shgan hissasi, avvalo, unda faqat o‘zaro qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillar haqidagi ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki tilning barcha sathlariga oid jihatlarni qamrab olgan yaxlit ilmiy konsepsiya ilgari surilgani bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv qiyosiy tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga zamin yaratib, o‘zaro taqqoslanayotgan tillardagi terminlarning mazmunini aniqlash, ularni tizimlashtirish va yagona me’yor asosida unifikatsiya qilish imkoni beradi. Buning natijasida ilmiy izlanishlar jarayonida terminologik xilma-xillikni kamaytirish, tushunchalarni uyg‘unlashtirish hamda ulardan foydalanishni soddalashtirish maqsad qilinadi. Darslikda qiyosiy tipologiyaning til tizimi, til me’yori va uzus darajasidagi tahlil kabi asosiy tushunchalari aniq chegaralangan va ilmiy jihatdan izohlangan. V.G.Gakning ko‘rsatishicha, tillarning qiyosiy-tipologik tadqiqotidan ko‘zlangan amaliy maqsad quyidagilardir:

a) til vositalarining turli tillar tomonidan qo‘llanishidagi o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash. Bu muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki tillararo tafovutlarni bilish lisoniy interferensiyaga:bir tilning (ona tilining) boshqa tildan foydalanishdagi ta’siriga barham berishga imkon yaratadi. Shuningdek, u tarjima qonuniyatlarining lingvistik qonuniyatlariga lingvistik nuqtai nazardan asoslanadi.

b) har ikki tilning konkret xususiyatlarini o‘rganish ba’zan qiyoslash tillarni ichidan o‘rganish paytida e’tibordan qoladigan chet tili va ona tilining ayrim xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

v) turli tillarga xos umumiy qonuniyat va dalillarni topish, til universaliyalari va ularning ma’lum tillarda qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash. Bunday yondashuv o‘rganilayotgan tillardagi umumlisoniy va xususiy jihatlarni farqlashga, umuman, tabiiy til qurilishi kishining lisoniy faoliyati qonuniyatlarini chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu esa falsafiy va umumta’limiy ahamiyatga ega.

Tipologik tadqiqotlar quyidagi aspektlar bilan bog‘liq holda farqlanadi: 1) jalb etilayotgan tillar soni; 2) o‘rganilayotgan material hajmi; 3) tadqiqot yo‘nalishlari; 4) aniqlangan o‘xshashlik va tafovutlar

[84] Гак Владимир Григорьевич. Француз ва рус тилларининг қиёсий типологияси//Дарслик. – Тошкент: Bookmany print, 2025. –Б.3.

xarakteri tahlili; 5) tahlil darajalari; 6) tadqiqot yo‘nalishlari[85]. Ushbu fikrlar V.G.Gakning qiyosiy-tipologik tadqiqotlarga nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtayi nazardan ham yondashganini ko‘rsatadi. Bizning nazarimizda, olim tomonidan belgilangan maqsadlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Ayniqsa, tillararo o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash xorijiy tillarni samarali o‘qitish, tarjima nazariyasini takomillashtirish hamda lisoniy interferensiyani kamaytirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Gakning tillarni qiyoslash orqali ularning ichki xususiyatlarini yanada chuqurroq anglash haqidagi fikri alohida e’tiborga loyiq. Zero, qiyosiy tahlil natijasida ona tili va chet tilining ilgari sezilmagan grammatik, semantik hamda funksional jihatlari aniqlanadi. Bu esa tilshunoslikda ilmiy xulosalarning yanada asosli bo‘lishini ta’minlaydi. Olim tomonidan tipologik tadqiqotlarning turli aspektlar asosida tasniflanishi esa ushbu yo‘nalishning keng qamrovli va tizmli ekanligini namoyon etadi. Olib borilayotgan qiyosiy tadqiqotlarda tillar soni, materiallar hajmi, tahlil darajalari hamda aniqlangan o‘xshashlik va tafovutlarning xarakterini hisobga olish ilmiy natijalarning aniqligi va ishonchliligini oshiradi. Shu jihatdan V.G.Gakning qarashlari qiyosiy-tipologik tilshunoslikning metodologik asoslarini mustahkamlagan hamda keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy poydevor yaratgan, deb hisoblaymiz.

“Tipologiya – obyektlarning umumiy jihatlarini aniqlash orqali ularni ma’lum sinf, guruh va tiplarga ajratib o‘rganish metodidir. Tipologik tadqiqotlar ko‘pchilik fanlarga xosdir (masalan, biologiyada – o‘simlik va hayvonlarni, geografiyada esa iqlim sharoitlarini, turli hududlardagi fauna va floraning o‘ziga xosliklarini tasniflash va hokazo). Tilshunoslikdagi tipologik tadqiqotlar – bu tillarni tasniflash, ya’ni turli-tuman tillarning o‘xshash jihatlarini o‘rganish demakdir. Hozirgi kunda tipologik tadqiqotlarning ikki turi ajratiladi: 1) tarkibiy tipologiya va 2) ijtimoiy tipologiya. Tarkibiy tipologiya jahon tillarining fonetik, grammatik va leksik tuzilishini tadqiq etadi. Ijtimoiy tipologiya esa tillarning turli etnomadaniy muhitlarda qanday vazifa bajarishini o‘rganadi”[86].

[85] Гак Владимир Григорьевич. Француз ва рус тилларининг қиёсий типологияси//Дарслик. – Тошкент: Bookmany print, 2025. –Б.9-10.

[86]Муратова Е.Ю. Основы сравнительно-типологического языкознания. Учебно-методический комплекс по учебной дисциплине. ВГУ имени П.М. Машерова, 2022. – С.8. (44) file:///C:/Users/User/Desktop/ Муратова %20tipologiya.pdf

Bular quyidagilardir:

1. Turkiy tillarni bir-biriga qiyoslab o‘rganish va shu orqali ularning o‘zaro qarindoshlik munosabatlarini aniqlash.

2. Qarindosh turkiy tillarning bir-biriga qiyosiy o‘rganish natijasida ularning asosida yotgan bobotilning asosiy xususiyatini ochish va bunday tarixiy qiyoslash orqali turkiy tillar tarixini ham yoritish.

3. Turkiy tillarning taraqqiyot yo‘lini aniqlash. Bunda muayyan turkiy tilning hozirgi ko‘rinishiga qanday yetib kelganligi, til hodisalarining shakllanishi masalalariga e’tibor beriladi. Bunday perspektiv qiyoslash orqali qarindosh tillarning yozma yodgorliklardan boshlab hozirgi holatigacha bo‘lgan tarixi o‘rganiladi[87].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shu narsa ayonlashadiki, tipologik tadqiqotlar tillarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy mezonlar asosida tahlil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Ushbu metod tilshunoslikning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tillarni tasniflash bilan bir qatorda ularning tarixiy taraqqiyoti, o‘zaro aloqadorligi hamda rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Turkiy tillarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish ularning genetik yaqinligini aniqlash va umumiy ildizlarini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar orqali turkiy tillarning umumiy xususiyatlari hamda har bir tilning mustaqil taraqqiyot jarayonida shakllangan o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda izohlanadi. Bu esa turkiy xalqlarning tarixiy va madaniy mushtarakligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Qarindosh turkiy tillarni tarixiy-qiyosiy jihatdan tadqiq etish esa ularning negizida yotgan bobotilning asosiy belgilarini tiklash imkonini beradi. Ushbu yondashuv yordamida fonetik, grammatik va leksik tizimlarda yuz bergan tarixiy o‘zgarishlar aniqlanib, tillarning rivojlanish bosqichlari ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Shu sababli tarixiy-qiyosiy metod turkologiyada eng muhim tadqiqot usullaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, turkiy tillarning taraqqiyot yo‘lini o‘rganish ularning qadimgi yozma manbalardan boshlab hozirgi zamonaviy holatigacha bo‘lgan rivojlanish jarayonini izchil tahlil qilish imkonini yaratadi.

O‘zbek va qirg‘iz lingvistik terminologiyasini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish jarayonida har ikki tilning turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgani sababli ularning terminologiyasi rivojlanish yo‘lida juda ko‘p umumiylik va o‘xshashliklar mavjud ekanligini ko‘rish mumkin. Bunda o‘zbek tili qarluq, qirg‘iz tili esa qipchoq guruhiga

[87] Рафиев А.Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. –Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.6.

mansub bo‘lsa-da, hududiy jihatdan yonma-yon yashayotgan, ijtimoiy muhit, tuzum, siyosiy o‘zgarishlar ularning terminologiyasiga ta’sir qilmay qolmagan. Qardosh bo‘lgan ikki xalqning termin yaratish va tizimini shakllantirish tarixini bir nechta asosiy davrga bo‘lib o‘rganish mumkin.

1. X – XI asrlarni o‘z ichiga olgan islom dini kirib kelguniga qadar va qadimgi turkiy davr har ikki millatni oziqlantirgan, ular uchun tamal toshi qo‘yilgan davr hisoblanadi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyati shundaki, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari, qadimgi toshbitiklardagi materiallardan ma’lum bo‘lishicha, bunda terminlar xalqlarning o‘z ichki imkoniyatlari asosida, ya’ni sof turkiy so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, ular xalq yashash tarzi, kasb-koriga qarab, turli-tumandir. Bu terminlar ko‘chmanchilik hayoti bilan bog‘liq harbiy, ma’muriy, astronomik va maishiy sohalarga aloqadordir. Qirg‘izlarning bu davrda yaratilgan mashhur “Manas” eposi tarkibidagi harbiy, qabilaviy va geografik atamalar mana shu qadimgi qatlamga borib taqaladi. O‘zbeklarda esa qadimgi uyg‘ur va qoraxoniylar davri adabiy tili maishiy va davlat boshqaruvi terminlarining asosini tashkil etgan. Bu terminlar o‘sha davrdagi ish yuritish tartibi, rasmiy munosabatlar, fan va madaniyat bilan bog‘liq masalalarga oydinlik kiritadi.

2. XI – XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda islom dini shakllangan va Markaziy Osiyoda gullab-yashnagan va Islom davri va Yaqin Sharq madaniyati ta’siri kuchli bo‘lgan. Islom yurtimizga kirib kelishi bilan, avvalo, xalqning diniy e’tiqodiga ta’sir qildi, xalq ijtimoiy-ma’naviy hayotiga kirib bordi, ilm-fan, adabiyot taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Manbalarning guvohlik berishicha, barcha sohalarga arab va fors tillarining ta’siri kuchli bo‘lgan. Chig‘atoy va eski o‘zbek tili davrida o‘zbek terminologiyasi qanday ahvolda bo‘lgan degan savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Mahmud Koshg‘ariyning bu davrda yaratilgan “Devonu lug‘atit-turk” asarida ilk filologik va etnografik terminlar qo‘llanilgan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida esa davlatchilik va huquq terminlari uchraydi. Alisher Navoiy davriga kelib, she’riyat, san’at, falsafa va ilm-fan terminlari tizimlashdi. Adabiyotga so‘fiylik, tasavvuf ta’limoti ta’sirida ko‘plab yangi terminlar kirib keldi. Bu davrdagi ijodkorlarning ko‘pchiligi zullisonayn bo‘lgani bois yozma adabiyot, ilmiy tilga arab va fors tillari ta’siri kuchli bo‘lgan. Qirg‘iz xalqida esa bu holat sal boshqacharoq kechgan. Avvalo, qirg‘iz xalqi ko‘chmanchi hayot tarzini kechirgan. O‘zbeklarga nisbatan ularda yozma adabiyot nisbatan kechroq shakllangan va shu bois terminologiya

ham ko‘proq og‘zaki ijod bilan bog‘liq bo‘lgan. Boshqa turkiy xalqlar singari bu hududda arab va fors tillari qirg‘iz xalqi ijtimoiy hayotiga ma’lum darajada ta’sir qilgan.

3. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbek va qirg‘iz xalqlari hayotida Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakati va ilk milliy uyg‘onish davri muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, Turkiston o‘lkasining Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va yurtimizga rus tili orqali yevropa ilm-fanining kirib kelishi natijasida yangi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va texnik terminlarga ehtiyoj tug‘ildi. Bu og‘ir davrda yurtimizda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdurauf Fitrat hamda qirg‘izlarda Ishenali Arabayev, Qasim Tinistanov kabi ma’rifatparvarlar ilk zamonaviy darsliklarni yaratdilar. Ular o‘z tillari sofligini saqlash, ichki imkoniyatlar asosida terminologiyani saqlab qolishga intildilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy shunday yozgan edi: “Balki... biz turkchag‘a bugun iste’mol qilinaturgon ba’zi forsiy so‘zlarimizni muqobil va murodofi xalq tilidan va adabiyotidan yo‘qolgandur. Masalan, shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chahorshanba, panjshanba, odina kunlarining oti kabi... Hol shunday ekan, yana yuqoridagi turkiy lahjalarning xalqi o‘n ikki asrdan beri din manbaimiz va Qur’oni karim tili bo‘lgan arabiyning nufuzig‘a uchrab, tabarrukan va majburan ko‘p lug‘at va jumlalarni yanadan oldilar. Va ba’zi ifrotparastlar tarafidan yangidan bukung‘acha yana olinmoqdadur. Turklarning ba’zi toifasi forsiy va arabiyni u qadar ko‘p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan qo‘shulub, “usmonli tili” ataldi. Ushbu uch tilni adabiyot va qoidalaridan boxabar bo‘lmaguncha usmonli shevasinda yozmoq mumkin emasdur. Usmonli shevasig‘a yozaturgonlarda oxirgi sanalarda o‘z sahvlarini bilib, forsiy va arabiysini ozroq aytib yozmoqdadurlar. Azbaski, usmonli shevasinda yozilgan asarlarning aksarini usmonli turklarning kamsavodi anglamaydur. Turk qavmining Kafkoz, eron va Qirimdagi qismlarining tiliga arabiy va forsiy jumlalar usmonlichadan ko‘ra xeyli oz bo‘lub, ammo turkiy tillarning boshqa shevalaridan ko‘ra usmonlichag‘a eng yaqinidur. Chunonchi, bukungi Qafkoz va Qirim matbuotining o‘qub anglaydurgon kishi usmonlichani, albatta o‘qub fahmlaydur. Chunki orasindagi farq juda ozdur. Xususan, oxirgi sanalarda arabiy va forsiylarini ozayturub yozilgan usmonlicha va yoinki turkcha Qirim va Qafkoz shevasidan oz farqlikdur. Totorcha yoinki no‘g‘oycha atalaturgon shevag‘a kelsak, Qirim va Qafkoz shevasidan ko‘ra oz arabiy va forsiylik bo‘lub, bovujud

shul bu kungi totor matbuotining hech bir stuni, balki hech bir satri xati forscha va yo arabchadan qutulolmaydur. Hatto, sirfi totorcha yozmoq tarafdori bo‘lgan matbuot va muharrirlari-da, arabiy va forsiysiz bir nimarsa yozolmaydurlar”[88]. Jadidlarning bu harakatlari tufayli bu davrda yangi tushunchalarni ifodalash uchun mahalliy til imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilindi. Masalan, geografiya uchun *“yer xaritasi”*, teatr uchun *“tomoshaxona”* kabi terminlar muomalada qo‘llanila boshlandi. Bu davr rus tili orqali tilimizga ilk baynalmilal terminlar kirib kela boshlashi bilan tavsiflanadi.

4. Terminologiya tarixida 1920–1990-yillar sovet davri terminologiyasi degan nom bilan qoldi. Sovet tuzumi o‘rnatilgach, davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish, diplomatik aloqalar, ilm-fan tilida keskin o‘zgarishlar bo‘ldi. Bu terminologiya rivojiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Terminologiya bu davrda to‘liq davlat nazoratiga olindi. Bu nimalarda ko‘zga tashlanadi? Har ikki respublikada maxsus Ilmiy terminlar qo‘mitasi (O‘zbekistonda Ilmiy terminlar qo‘mitasi, Qirg‘izistonda Til va adabiyot instituti qoshidagi tuzilmalar) tashkil etildi. Bu ilmiy soha taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi.

Davrlashtiradigan bo‘lsak, 1920–1930-yillar milliylashtirish va purizm davri bo‘ldi. Bu yillarda yevropacha terminlarni sof o‘zbekcha va qirg‘izcha so‘zlar bilan almashtirishga urinish bo‘ldi (masalan, *respublika* o‘rniga “*jumhuriyat”*, “jurnal” o‘rniga “oynoma”, “oybitig”, *samolyot* o‘rniga *“uchoq”* kabi so‘zlarni qo‘llashga harakat qilindi.

1940–1980-yillar esa ruslashtirish davri bo‘ldi. O‘zbekistonda lotin alifbosidan kirill alifbosiga 1940-yilda o‘tilgan. Ungacha 1930–1940-yillarda o‘zbek tili lotin alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalangan bo‘lib, keyinchalik to‘liq kirill alifbosiga ko‘chirilgan. Yurtimizda kirill alifbosiga o‘tilgach, til va yozuv masalasida qat’iy siyosat yo‘lga qo‘yildi. Bu davrda barcha ilm-fan, texnika va siyosiy terminlar rus tilidan qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilindi. Rus tilidan ko‘plab terminlarning kirib kelishi o‘zbek tilidagi ko‘p so‘zlarni muomaladan, ilmiy sohalardan siqib chiqardi. Xorijiy terminlarni qabul qilishda nazorat izdan chiqdi.

5. 1991-yilda qo‘lga kiritilgan Mustaqillik davri milliy va zamonaviy terminologiya taraqqiyotiga keng yo‘l ochdi. O‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, avvalo, til siyosatiga e’tibor kuchaydi, ona tiliga Davlat tili maqomi berildi, mamlakat ichki va tashqi munosabatlarida, ta’limda, ish yuritishda davlat tilining roli

[88] https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/1915-2/

kuchaytirildi. Jumladan, har ikki respublikada ham terminologiyani milliylashtirish hamda xalqaro andozalarga moslashtirish bo‘yicha ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirila boshladi. Xususan, o‘zbek terminologiyasida ilgari amalda bo‘lgan *hokim, vazirlik, viloyat, tuman, shirkat, mahalla, mulkdor kabi* arab-fors qatlamining qayta muomalaga kirishi kuzatila boshlandi. Shuningdek, sho‘rolar davrida sun’iy ravishda muomaladan chiqarib tashlangan ma’muriy va huquqiy terminlar yana qo‘llanila boshladi. Rus tili orqali kirib kelgan terminlar o‘rniga o‘zbekcha muqobillar yaratildi. Ammo “samolyot” o‘rniga taklif qilingan “uchoq”, aeroport o‘rniga taklif qilingan “tayyoragoh”, “prokuror” o‘rniga taklif qilingan “qoralovchi” kabilar tilimizga singib ketmadi. Lekin abzats – xatboshi, anketa – so‘rovnoma shakli qo‘llanila boshladi. Globallashuv tufayli ingliz tilidan axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va tibbiyot sohalariga oid *internet, sayt, brend, menejment, menedjer, investitsiya, sayt kabi* terminlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib kelmoqda va jarayon davom etmoqda.

Qirg‘iz tilshunosligida ham o‘zbek tilshunosligidagi kabi xuddi shunday jarayon kechdi. Ko‘plab terminlar milliylashtirildi, ichki imkoniyatlarga tayanildi. Davlat boshqaruvida *parlament – Jogorku Kenesh, vazirlik – ministrlik (saqlanib qoldi), viloyat – oblast yoki aymaq kabi* milliy terminlar joriy etildi: Qirg‘iz tilshunoslari tomonidan ta’lim tizimi, ilmiy sohada milliy terminologiyani yaratish ustida ish olib borilmoqda. Bugungi kunda har ikki til terminologiyasi bir tomondan G‘arb tili ta’sirida, ikkinchi tomondan esa o‘z ichki manbalariga asoslanib, yangi terminlar yaratish ustida ishlamoqda.

1.3. O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida terminologik tizimlarning shakllanish bosqichlari

O‘zbek va qirg‘iz tillarida terminologik tizimlarning shakllanishi umumturkiy tarixiy jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Har ikki til terminologiyasi qadimgi turkiy leksik qatlam negizida shakllangan bo‘lib, keyingi davrlarda ijtimoiy-siyosiy madaniy va ilmiy omillar ta’sirida rivojlangan. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek terminologiyasi shakllanishida qadimgi yozma an’analar, jadidchilik harakati va mustaqillik davridagi terminologik siyosat muhim rol o‘ynagan. H.Dadaboyev[89], A.Madvaliyev[90], A.Hojiyev[91] kabi

[89] Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent. 2019. (117) https://tsuull.uz/sites/default/files/h.dadaboev_ozbek_terminologiyasi.pdf?utm_source=chatgpt.com

olimlarning ishlari o‘zbek terminologiyasining nazariy asoslarini yaratishda katta ahamiyatga ega. Qirg‘iz terminologiyasi esa qadimgi turkiy meros, xalq og‘zaki ijodi va XX asr maorif tizimi asosida shakllangan. K.Tynstanov[92], V.Zakirova[93] kabi olimlarning tadqiqotlari qirg‘iz ilmiy terminologiyasining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek va qirg‘iz terminologik tizimlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar ularning umumturkiy ildizlari bilan izohlansa, farqlar har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ilmiy maktabalari va til siyosati bilan bog‘liqdir.

Terminologiya – fan, texnika, madaniyat va boshqa sohalarda qo‘llaniladigan maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminlar majmuidir. Har bir milliy tilning ilmiy taraqqiyoti uning terminologik tizimining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek va qirg‘iz tillarida terminologik tizimlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, u ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy omillar ta’sirida rivojlangan. Terminologiya har qanday milliy tilning ilmiy salohiyatini belgilovchi muhim tarkibiy qism hisoblandi. Fan va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar, xalqaro ilmiy aloqalarning kengayishi natijasida terminologik tizimlar muntazam ravishda boyib va takomillashib boradi.

O‘zbek va qirg‘iz tillarida ham terminologik tizimlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, u tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari hamda tashqi omillar ta’sirida yuzaga kelgan. Ushbu jarayonni shartli ravishda beshta asosiy bosqichga ajratish mumkin.

1. Dastlabki shakllanish bosqichi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha).

O‘zbek va qirg‘iz tillarida terminologiyaning ilk qatlamlari Sharq sivilizatsiyasi, islom madaniyati va qadimgi turkiy yozma an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Bu davrda ilm-fan asosan arab tilida rivojlanganligi sababli ko‘plab ilmiy tushunchalar arab tilidan o‘zlashtirilgan. Fors tili ham adabiyot, davlat boshqaruvi va madaniyat sohalarida muhim o‘rin egallaganligi sababli terminologik qatlamning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. O‘zbek tilida ilm, fan, mantiq, nahv, sarf, hikmat, tabobat, adabiyot, qalam, muallim, maktab, kitob,

---

[90] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. (– 384 b) https://akbt.urdu.uz/uz/books/588?utm_source=chatgpt.com

[91] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. (168) file:///C:/Users/User/Downloads/tilshunoslik-terminlarining-izohli-lugati.pdf

[92] Mainisa Koshueva1. Kyrgyz Lexicography in the 20th-21st Centuries. 3.6. K. Tynystanov’s Works. Open Journal of Modern Linguistics. file:///C:/Users/User/Downloads/Kyrgyz_Lexicography_in_the_20th-21st_Centuries.pdf

[93] Закирова Е.С. Некоторые вопросы терминоведения и терминографии как компонентов общей теории языка для специальных целей. Гуманитарные науки. Том 7, № 1-6 (2013). https://journals.eco-vector.com/2074-0530/article/view/67740/ru_RU?utm_source=chatgpt.com

daftar kabi terminlar keng qo‘llanilgan. Ushbu terminlarning aksariyati bugungi kunda ham faol ishlatilmoqda. Qirg‘iz tilida esa yozma adabiy tilning rivojlanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ilmiy terminlarning shakllanishi o‘zbek tiliga nisbatan kechroq boshlangan. Dastlab ilmiy tushunchalar og‘zaki nutq orqali ifodalangan, keyinchalik arab va rus tillari vositasida yangi terminlar kirib kelgan.

Bu bosqichning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: *terminlarning asosiy qismi arab va fors tillaridan o‘zlashtirilgan; ilmiy terminlar diniy va madaniy sohalarda ko‘proq qo‘llanilgan; terminologik me’yor va standartlar hali shakllanmagan; sinonimik terminlar ko‘p uchragan.* Bu davr terminologiyasi keyingi bosqichlar uchun poydevor vazifasini bajargan.

2. Jadidchilik va milliy uyg‘onish davri (XX asr boshlarida).

XX asr boshlarida Turkiston va Qirg‘iziston hududlarida jadidchilik harakati vujudga keldi. Jadidlar milliy ta’limni isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish va ilm-fanni rivojlantirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Bu esa yangi terminlarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. O‘zbek ma’rifatparvarlari Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvaqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar darsliklar yozish jarayonida ko‘plab yangi terminlarni yaratdilar yoki mavjud terminlarni milliylashtirdilar. Masalan: geografiya, tarix, matematika, tibbiyot, hisob, tarbiya, muallim, o‘quvchi, darslik, dastur. Qirg‘iz ziyolilari, jumladan Qasim Tinishtanov va boshqa olimlar ham qirg‘iz tilining ilmiy uslubini shakllantirish, yangi terminlarni yaratish va ularni darsliklarda qo‘llash ishlariga katta hissa qo‘shdilar. Bu bosqichning muhim xususiyatlari: *milliy termin yaratishga intilish; tarjima terminologiyasining rivojlanishi; yangi ilmiy uslubning shakllanishi; ta’lim tizimining kengayishi natijasida terminlarga ehtiyoj ortishi.*

3. Sovet davri (1920 – 1991). Bu davr o‘zbek va qirg‘iz terminologiyasining eng muhim va sermahsul bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda ilm-fanning barcha tarmoqlari bo‘yicha keng ko‘lamli terminologik tizim shakllandi. Sovet Ittifoqida yagona ilmiy makon mavjud bo‘lganligi sababli yangi terminlarning katta qismi rus tili orqali kirib kelgan. Rus tili esa xalqaro terminlarni yunon va lotin tillaridan qabul qilgan. Natijada esa quyidagi terminlar ommalashgan: fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika, grammatika, pedagogika, biologiya, zoologiya, botanika, geologiya, iqtisodiyot,

sotsiologiya, psixologiya. Bundan tashqari yana sanoat va texnika rivojlanishi bilan traktor, kombayn, zavod, laboratoriya, generator, transformator, elektrifikatsiya, avtomatlashtirish kabi terminlar ham keng tarqalgan.

Bu davrda terminologiyaga oid ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Xususan, terminologik lug‘atlar yaratildi; davlat terminologiya komissiyalari faoliyat yuritdi; ilmiy uslub me’yorlashtirildi; oliy ta’lim tizimida yagona terminlardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Yurtimizda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Qirg‘izistonda Qirg‘iziston Fanlar akademiyasi terminologiya masalalari bilan shug‘ullandi. Sovet davri terminologiyasining ijobiy tomoni ilmiy terminlarning tizimlashtirilganidir. Salbiy tomoni esa ruscha terminlarning ortiqcha ustunlik qilishi va ayrim milliy terminlarning iste’moldan chiqib ketganidir.

4. **Mustaqillik davri (1991-yildan keyin).** Mustaqillik yillarida o‘zbek va qirg‘iz tillarining davlat tili sifatidagi mavqeyining mustahkamlanganligi terminologiya siyosatiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu davrga kelib, terminologiyada asosiy maqsad: milliy terminlarni tiklash, yangi terminlarni ona tili imkoniyatlari asosida yaratish, xorijiy terminlarni milliy fonetik va grammatik me’yorlarga moslashtirishdan iborat bo‘lgan. Masalan: dokument – hujjat; spravka – ma’lumotnoma; instruktsiya – yo‘riqnoma; blank – shakl; akt – dalolatnoma; pechat – muhr kabi. Yangi iqtisodiy tizimning shakllanishi bilan esa marketing, menejment, biznes, invstitsiya, innovatsiya, logistika, audit, lizing kabi terminlar kirib kelgan. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida: internet, brauzer, server, sayt, platforma, elektron hukumat, sun’iy intellekt, algoritm, ma’lumotlar bazasi kabi terminlar lug‘atlarga kirib kela boshladi. Qirg‘iz tilida ham davlat tilini rivojlantirish dasturlari qabul qilinib, ko‘plab yangi terminlarning qirg‘izcha muqobillari yaratildi.

5. **Zamonaviy rivojlanish bosqichi.** Bugungi kunda terminologik tizimlar globallashuv, raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalari ta’sirida jadal rivojlanib bormoqda. Bu davrga kelib yangi fan yo‘nalishlari: sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, neyron tarmoqlar, genomika, bioinformatika, nanotexnologiya, kvant texnologiyalari, kiberxavfsizlik, blokcheyn, bulutli texnologiyalar. Bu kabi terminlarning ko‘pchiligi xalqaro xarakterga ega bo‘lsa-da, ularni milliy til me’yorlariga moslashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Hozirgi davr terminologiyasining asosiy yo‘nalishlari: elektron terminologik lug‘atlar

yaratish, milliy terminlar korpusini ishlab chiqish, avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirish, terminlarni standartlashtirish, xalqaro terminologik hamkorlikni rivojlantirish.

Qirg‘iz terminologiyasining shakllanish bosqichlari

Qirg‘iz terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi xalqning ma’naviy merosi hisoblangan “Manas” dostoni bilan bog‘liq. Epos xalqning an’anaviy pedagogik tushunchalari, ma’naviy asoslari va ming yillar davomida barqaror ko‘p qavatli qimmatga aylangan tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Eposdagi ana shunday qimmatlardan biri xalq pedagogik tushunchalari va atamalari hisoblanadi. Xalqning yosh avlodni ma’naviy yetuklikka tayyorlashga qo‘ygan talablari ushbu hodisani tavsiflovchi xalq atamaviy tushunchalarini ham vujudga keltirgan bo‘lib, bu “Manas” kabi eposlarda o‘z aksini topgan. Xalq atamalari milliy ilmiy-pedagogik terminlarni to‘ldirish, kengaytirish va boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. “Manas” eposi xalqning asrlar davomida shakllangan ko‘p qirrali pedagogik madaniyatining hosilasi sifatida avlod tarbiyasining asosiy qimmatlari va yo‘naltirgichlari retrospektivasi va perspektivasini qayta tiklashga xizmat qilishi mumkin. Ma’lumki, ushbu masalaning mohiyatini ochish har tomonlama tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqaradi[94]. Qirg‘iz tilshunosligida terminologiya bo‘yicha ma’lum ishlar amalga oshirilgan.

Qirg‘iz terminologiyasining ilmiy asoslari va nazariy qarashlari haqidagi dastlabki ma’lumotlar mashhur olim B.M.Yunusaliyev[95] tadqiqotlarida keltirilgan. Oktabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davr qirg‘iz terminologiyasining og‘zaki ijod materiallariga asoslangan davr edi. Oktabr to‘ntarishidan ilgari qirg‘iz tili grammatik jihatdan umumiy qonuniyatlarga bo‘ysunuvchi og‘zaki shaklda muomalada bo‘lgan. Qirg‘iz tili asosan og‘zaki shaklda mavjud bo‘lsa-da, uning asrlar davomida shakllangan grammatik tuzilishi o‘ziga xos, izchil, so‘z boyligiga ega bo‘lgan. Buning isboti sifatida qirg‘iz xalqining noyob durdonasi “Manas” ni keltirish mumkin. Qirg‘iz tilining leksikasida sohaviy (terminologik ma’nodagi) so‘zlar ham mavjud bo‘lgan. Xususan, qishloq xo‘jaligi, ayniqsa chorvachilik asosiy sohalardan bo‘lgan. Qirg‘izlarda patriarxal-urug‘chilik munosabatlari davrida qurilish, temirchilik, yog‘ochchilik, gilam to‘qish kabi hunarmandchilik sohalari rivojlangan, shuningdek, tabiat hodisalari, tog‘ jinslari, yer

[94] https://chat.deepseek.com/a/chat/s/731ab815-1171-436d-ac81-ce1c0f54c0ae

[95] Абдыжапар Уулу Мундузбек. Терминологические обогащение киргизского литературного языка в последнее время. Бюллетень науки и практики. 12 т.8, 2022 года. https://sciup.org/terminologicheskie-obogashhenie-kirgizskogo-literaturnogo-jazyka-v-poslednee-14126173?utm_source=chatgpt.com

yuzasi relyeflari, hayvonot va nabotot olamidagi narsalarning nomlari, estetik tushunchalarni ifodalovchi minglab so‘zlar mavjud bo‘lgan. Ularning ko‘pi yozma adabiy til paydo bo‘lgandan keyin biologiya, zoologiya, botanika, anatomiya, geografiya, astronomiya, huquq, falsafa, tibbiyot va boshqa fanlarda termin sifatida keng qo‘llanilib, turli lug‘atlardan o‘rin olgan. Qirg‘iz terminologiyasining tizimli shakllanishi 1926-yilda respublikada Terminologik komissiyaning faoliyati bilan bog‘liq. Komissiya quyidagi tamoyillarga tayangan holda faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, bular quyidagilar: Birinchidan, termin sifatida qirg‘iz tili so‘zlaridan keng foydalanishga harakat qilingan. Ikkinchidan, arab-fors tillariga oid so‘zlarini termin sifatida qo‘llashni imkon cheklash; Uchinchidan, rus va internatsional so‘zlarni, agar ularning ona tilida muvofiq ekvivalenti mavjud bo‘lsa, keng qo‘llash. Qayd etilgan holatlar qirg‘iz terminologiyasi taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Qirg‘iz terminologiyasining sovet davri alohida davr bo‘lib, bu davrda ijtimoiy hayotning ko‘plab sohalari bilan bog‘liq tadqiqotlar amalga oshirildi. Qirg‘iz terminologiyasining rivojlanishida B.O.Oruzbayevaning[96] xizmatlari alohida o‘rin tutadi. Uning “Qirg‘iz tilida so‘z yasovchi affikslar”(1958) “Lingvistik terminlarning ruscha-qirg‘izcha lug‘ati”(1972), “Qirg‘iz terminologiyasi”(1983) kabi asarlari bu sohaning rivojiga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, B.Murataliyev[97], J.Mukambayev[98], A.Osmonqulov[99], B.M.Yunusaliyev[100] va boshqa olimlarning tadqiqotlari qirg‘iz terminologiyasining nazariy va amaliy masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan. Qirg‘iziston mustaqillikka erishgach, bu davrda milliy terminologiyani rivojlantirish, qirg‘iz tilining ichki imkoniyatlarini yanada kengroq safarbar qilish masalalari bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Bugungi kunda qirg‘iz terminologiyasi jahonda yuz berayotgan global jarayonlar, xalqaro

[96] Черикбаева Н. Б. Б.Орузбаеванын. Эмгектериндеги кыргыз терминологиясы: жетишкендиктер жана чакырыктар. Известия НАН КР, 2024, №4. file:///C:/Users/User/Downloads/izv_4_2024_260-262.pdf

[97] Мураталиев, Бейшен. Словарь терминов по экономике промышленности. ССР. Терминол. комис. - Фрунзе: Акад. наук Киргиз. ССР, 1962. - 229 с.; 22 см.
https://search.rsl.ru/ru/record/01006410801?utm_source=chatgpt.com

[98] Кыргыз тилинын диалектологиялык сөздүгү [Text] / Ж. Мукамбаев; [жоопту ред. К. К. Юдахин, Т. К. Ахматов]; Кыргыз ССР илимдер академияси; Терминология комиссияси . – оңд., толукт. 2-чи жолу бас. ,- Фрунзе : Илим , 1976. - Шора Сарыбаев қоры . 1-том .– 722 б.
https://nabrk.kz/ru/ecatalog?country_edition=KG&language=kyr&page=2&sphere=7&title_first_letter=%D0%9A&utm_source=chatgpt.com

[99] Осмонкулов, А.О. Основы методики обучения звуковой системе киргизского языка в школе: Для студентов-филологов и учителей / А. Осмонкулов. - 2-е изд., перераб. и доп. - Фрунзе: Мектеп, 1986. – 297 с.
https://search.rsl.ru/ru/record/01002143057?utm_source=chatgpt.com

[100] Анапияева А.А. Омурзаков К.К. Б. М. Юнусалиев и его роль в роль в тюркологии. https://www.researchgate.net/scientific-contributions/KK-Omurzakova-2195094372

aloqalarning rivojlanishi va yangi texnologiyalarning hayotga keng tatbiq etilayotgan sharoitda jadal rivojlanmoqda.

Terminologiyaning shakllanish bosqichlaridan keyingi bosqichi taraqqiyot bosqichidir. Terminologiya taraqqiyoti insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda kechdi. Uning rivojiga jamiyat hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, turli xalqlar bilan ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy sohalardagi aloqalar kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Terminologiyaning rivojlanishida boshqa tillardan so‘z olish, ichki imkoniyatlarga asoslanish, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashishi, so‘z birikmasining yaxlit semantik butunlikka aylanishi kabilar omil sifatida xizmat qildi. Terminologiyaning o‘z ichki imkoniyatlari asosida boyishi barchaga tushunarli, bunda tilning leksik, grammatik, so‘z yasash imkoniyatlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish hisobiga terminologiya ko‘lami kengayib boradi.

O‘zbek tili bilan birga tarixiy taraqqiyot davrlarini bosib o‘tgan ilmiy terminologiyaning shakllanish bosqichlari xalqimiz o‘tmishi, voqelikni idrok qilishdagi o‘ziga xos tafakkuri va ilm-fan taraqqiyotining muhim pallalarini o‘zida qamrab olgan. O‘rxun-Enasoy, Kultigin, Ungin kabi bitigtoshlarda muhrlangan qadimgi sivilizatsiyalardan boshlangan terminologik tizimlar davrlar osha takomillashib, puxtalana bordi. Umuman olganda, to‘rt asosiy bosqich – tayyorgarlik davri (1720-1920), nazariyaning paydo bo‘lishi (1930-1960), mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi (1970-1980) va kompleks fan sifatidagi rivojlanish (1980 yildan keyin) – o‘zbek terminologiyasining takomilga etgan bugungi holatini vujudga keltirdi. Dastlab toshbitiglarda aks etgan terminologiya kurtaklari keyinchalik lug‘atlarga ko‘chdi va bugungi axborot texnologiyalarigacha bo‘lgan zamonaviy ko‘rinishga kirdi. Terminologiya tarixida yurtimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi muhim rol o‘ynadi. Bu tarixiy davrda o‘zbek terminologiyasi jahon andazalariga mos ravishda rivojlanmoqda.

Yana bir muhim jihat, o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar tillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar fonida terminologiya ham taraqqiy etdi, turkiy tillar grammatik qurilishi, leksikologiyasi qatori o‘zaro qardosh bo‘lgan va qardosh bo‘lmagan tillar bilan bog‘liq terminologik jihatlarga oid ayrim ishlar maydonga keldi. O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida terminologik tizimlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, ijtimoiy hayotda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aks ettirishi, ichki imkoniyatga tayanishi, tashqi manbalar ta’siri, ulardan oziqlanishi bir-biriga deyarli o‘xshash. Ular bosib o‘tgan tarixiy bosqichlar ham deyarli bir xil.

Ammo shunday bo‘lsa-da, har bir milliy terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, muammolari va yutuqlari mavjud.

Ana shu o‘rinda o‘zbek va qirg‘iz terminologiyasining rivojlanish bosqichlari, davrlashtirish to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish joiz.

XI–XV asrlar o‘zbek terminologiyasi yaralishining ilk davri hisoblanadi. Bu davr o‘zbek terminologiyasining ilk ilmiy asoslarini XI asrda yashab o‘tgan buyuk qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariy yaratganligi bilan ahamiyatlidir. Uning “Devonu lug‘atit-turk” asari nafaqat lug‘at, balki turkiy qabilalar tillarining qiyosiy tahlilini o‘z ichiga olgan. Turkiy qabilalar tillarini qiyoslash barobarida ular orasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlagan. Bu haqda Mahmud Qoshg‘ariyning o‘zi bunday deydi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqiz (qirg‘iz)larning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqni aniqlash uchun qildim... Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirqiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta, bir asosda tartibga soldim”[101]. Keyingi davrlarda temuriylardan Husayn Boyqaro mirzo ko‘rsatmasiga binoan 1405-yilda Toli Imoni Hiraviy tomonidan tuzilgan “Badoe ul-lug‘at”, muallifi noma’lum “Abushqa”, Muhammad Mahdiyxonning “Sanglox” (1748), Fathali Kojar Qazviniyning “Lug‘ati atrokiya” (1862) kabi asarlar o‘zbek terminologiyasi va lug‘atchiligining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi bosqich (XIX asr 70-yillari – XX asr boshi). XIX asrning 70-yillaridan e’tiboran o‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi taraqqiyotning yangi pallasiga qadam qo‘ydi. Bu bosqich rivojida rus tili muhim o‘rin tutdi. Bu davr terminologiyasiga rus tili orqali G‘arbiy yevropa tillaridan kirib kelayotgan o‘zlashmalar hisobiga boyidi. O‘zbek tili terminologiyasi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi ko‘p miqdordagi o‘zlashmalar hisobiga kengaydi.

Uchinchi bosqich sho‘rolar dvri hisoblanadi. Sobiq sho‘rolar hukmronligi vaqtida o‘zbek tili terminologiyasi ilm-fan, san’at va madaniyat, iqqtisodiyot kabi sohalarda yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi terminlarga ega bo‘ldi. Soha terminologiyasi tizimining vujudga kelishida sof o‘zbekcha leksik birliklar qatori ruscha va rus tili orqali yevropa tillaridan kirib kelgan baynalmilal terminlarning

[101] Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б.104.

ahamiyati katta bo‘ldi. Bu jihat ayniqsa, tabiiy fanlarga xos terminologik tizimda o‘z aksini topdi. O‘zbek tilshunosligi XX asrning 20-30-yillarida fan sifatida shakllana boshladi. Tilshunoslikning bu davrdagi taraqqiyoti Abdurauf Fitrat, Y.D.Polivanov, G‘ozi Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Faxri Kamolov, Ulug‘ Tursunov, Ayub G‘ulomov kabi olimlarning nomlari bilan bog‘liq. Bu davrda o‘zbek tilining lug‘aviy tarkibi, leksikografiyasi, grammatik qurilishi, shevalari, fonetik tizimi bu olimlar tomonidan o‘rganildi va adabiy til me’yorlari ishlab chiqildi.

To‘rtinchi bosqich Mustaqillik davri hisoblanadi. Mustaqillik davri o‘zbek terminologiyasi zamonaviy talablar asosida rivojlangan, globallashuv va internetga va zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan davrga qadam qo‘ydi. Terminologiyamiz XXI asrda har tomonlama takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Tilimiz ichki imkoniyatlari asosida terminologiyamizni ishlab chiqish, terminologik lug‘atlar yaratish ishlarini kuchaytirish, milliy terminologiyani yaratish, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan keng foydalanish, xalqaro terminlar bilan milliy terminlar o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlash muhim masalaga aylandi.

Manbalardan ma’lumki, o‘zbek terminologiyasi bir necha manbalar hisobiga shakllangan: turkiy, sug‘dcha, sanskritcha, xitoycha, forscha-tojikcha, arabcha va ruscha-baynalmilal qatlamlarning terminologiya boyishiga ta’siri katta bo‘lgan. Har bir tarixiy davrda turli tillardan o‘zlashmalar o‘zbek terminologiyasining boyishiga xizmat qilgan. O‘zbek terminologiyasi tarixida mamlakatimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi terminologiya rivojiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Bugungi kunda adabiy tilimizda bo‘lgani kabi o‘zbek terminologiyasida ham jiddiy o‘zgarishlar, yevrilishlar yuz bermoqda, milliy terminlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tilda o‘zlikka qaytish, tilimizga oid, ammo o‘tgan davrda muomaladan chiqib qolgan terminlar yana ishlatila boshlandi.

O‘zlashma terminlarning o‘zbek tili qonunlariga moslashuvi yuz bermoqda. Boshqa tillarga tegishli bo‘lgan o‘zlashma terminlar o‘zbek tili qonunlariga bo‘ysungan tarzda uning fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashtirilib qo‘llanilmoqda.

Qirg‘iz terminologiyasida milliy va o‘zlashma terminlar masalasi kun tartibida turibdi. Qirg‘iz terminologiyasida ham milliy terminlarga ustunlik berish tamoyili 1926-yilda ishlab chiqilgan edi. Terminologik komissiyaning asosiy tamoyillaridan biri – qirg‘iz tilidagi so‘zlardan

termin sifatida keng foydalanish edi. Qirg‘iz tilida qadimdan mavjud bo‘lgan ko‘plab so‘zlar keyinchalik termin sifatida qabul qilingan. Bu holat ilm-fan, ta’lim tizimida ancha faol kuzatilmoqda. Zarur hollarda qirg‘iz xalq og‘zaki ijodi namunalari, “Manas” dostonidan olingan adabiyotshunoslikka oid terminlardan foydalanilmoqda. Sho‘rolar davrida boshqa tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek va qirg‘iz tillariga rus tili ta’siri kuchli bo‘lgan. Terminologik komissiya faoliyatida shuning uchun milliy terminlarning qo‘llanilishiga ham e’tibor qaratilgan.

O‘zbek va qirg‘iz terminologiyalarini solishtirganda o‘xshashlik va farqlarni kuzatish mumkin. Bu terminologiyalardagi o‘zaro o‘xshashliklar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

O‘zbek va qirg‘iz terminologiyasi sho‘rolar davrida kuchli rus va xalqaro terminlarning ta’sirida bo‘lganligi tufayli terminologik tarkibga ko‘plab terminlar kirib kelgan. Bu esa o‘z navbatida ko‘plab milliy terminlarni siqib chiqargan. Mustaqillikdan keyin ikkala til terminologiyasida ham milliy terminlarni qo‘llashga intilish kuchayganligi bois ko‘plab milliy hisoblangan terminlar muomalaga kiritildi. Ikkala til terminologiyasining shakllanishida arab-fors manbalari muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa bu ta’sir badiiy adabiyot, ilm-fan bilan bog‘liq sohalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ikkala til terminologiyasida ham milliylashish, ya’ni kelib chiqishi turkiy qatlamga oid so‘zlar qo‘llanilmoqda.

Tarixiy jihatdan o‘zbek terminologiyasi rivojiga arab-fors tillari, adabiyoti ta’siri kuchli bo‘lgan. O‘zbeklarda bu ta’sir ma’lum darajada hozirgacha saqlanib qolgan bo‘lsa, qirg‘iz terminologiyasida ularning ta’siri kam uchraydi. Qirg‘iz terminologiyasining shakllanishida “Manas” dostoni kabi og‘zaki epik meros alohida rol o‘ynagan bo‘lsa, o‘zbek terminologiyasining leksik qatlamlari (sug‘d, sanskrit, xitoy va boshqalar) jihatidan ancha rang-barang va ko‘p qatlamli ekanligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek tilshunosligida ham, qirg‘iz tilshunosligida ham terminologiya rivojida ilmiy maktablarning o‘rni katta bo‘lgan. Ilmiy maktablar fanning ma’lum bir sohasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsadida tashkil etilgan hamda ularga soha bilimdonlari to‘plangan.

1. Turkiy leksikografik maktab sifatida Mahmud Koshg‘ariy tomonidan asos solingan maktabni ko‘rsatish mumkin. M.Koshg‘ariy tilshunoslikda qiyosiy-solishtirma metodning asoschilaridan biridir. Lug‘atda turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 so‘z izohlangan (boshqa hisoblarga ko‘ra M.Koshg‘ariy izohlagan so‘zlarning soni 9000 dan

oshadi). Bu so‘zlar turkiy xalqlar hayotining deyarli barcha sohalarini qamraydi: moddiy madaniyat predmetlarining nomlari (kiyim-kechak, uy, ro‘zg‘or, bezaklar, muzika, qurol-yarog‘, asbob-uskuna, xo‘jalik buyumlarining nomlari); etnonim va toponimlar; qarindoshlik nomlari; davlat tuzumiga oid terminlar; taom nomlari; hayvonlar va o‘simliklarning nomlari; kasallik va dorilarning nomlari; ilmiy, diniy, etnografik, geografik terminologiya; yil fasllari, oy va hafta kunlarining nomlari; tarixiy va mifologik qahramonlarning nomlari va shu kabilar[102]. Ushbu maktab turkiy tilning umumturkiy tildan ajralib, alohida yaxlitlik maqomiga ko‘tarilganligini, boshqa turkiy tillardan farqli xususiyatlarini asoslash, milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, fonetik, leksik-grammatik qurilishini tavsiflash masalalari bilan shug‘ullangan. Bu zaruriyat asosida shakllangan lug‘atchilik an’anasi ming yillar mobaynida saqlanib qoldi va keyingi davr leksikografiyasining maqsad va vazifasini belgilab berdi.

2. O‘zbek formal tilshunosligi maktabining ham terminologiya tarixida o‘z o‘rni bor. XX asrning 20-30-yillarida formal tilshunosligi maktabi vakillari o‘zbek tili qurilishini tavsiflash umumiy vazifasi ostida birlashdilar. Fonetika sohasida A.G‘ulomov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.M.Shcherbak; leksikologiya sohasida F.Kamol, Y.Pinxasov, M.Mirtojiyev; frazeologiya sohasida Sh.Rahmatullayev; so‘z yasalishi sohasida A.G‘ulomov, A.Hojiyev; morfologiya sohasida A.G‘ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, A.N.Kononov, M.Asqarova; sintaksis sohasida A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova; dialektologiya sohasida G‘ozi Olim Yunusov, K.K.Yudaxin, V.V.Reshetov, U.Tursunov, Sh.Shoabdurahmonov, I.Mirzayev kabi olimlar muhim tadqiqotlar olib bordilar. Bu maktabning asosiy yutuqlari o‘zbek adabiy tilining imlo qoidalari va lug‘ati, talaffuz me’yorlari, o‘zbek adabiy tilining akademik grammatikalari, shuningdek, o‘zbek tilining ikki tomli izohli lug‘atining nashr etilishi bo‘ldi.

3. O‘zbek substansial-pragmatik tilshunosligi ilmiy maktabi formal yondashuvdan substansial yondashuvga o‘tish jarayonida yangi ilmiy maktab sifatida shakllandi. Buning natijasida H.Ne’matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, G‘.Zikrillayev, R.Sayfullayeva, O.Bozorov, B.Mengliyev, M.Qurbonova, Sh.Shahobiddinova kabi nazariyotchi tilshunoslarning bu yo‘nalishdagi qator ishlari yaratildi. Bu davrda fonema va tovush, morfema va qo‘shimcha, leksema va so‘z kabi

[102] Қўчқортоев И., Исабеков Б.Туркий филологияга кириш. –Тошкент:Ўқитувчи, 1984. –Б.8.

atamalar yangicha izohlandi, tildagi hodisalar mohiyatini ochishda falsafaning umumiy qonuniyatlari asosida yondashildi.

4. O‘zbek amaliy tilshunosligi ilmiy maktabi barcha zamonaviy yondashuvlarni o‘zida qamrab olgan. Zamonaviy tilshunoslikda amaliy yo‘nalishlar – sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, etnolingvistika, gender tilshunosligi, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvoma’naviyatshunoslik kabi sohalar bugungi kunda ancha taraqqiy qilgan sohalarga aylandi.

O‘tgan davr mobaynida qirg‘iz tilshunosligidagi ilmiy maktablar shakllangan bo‘lib, terminologik tizim rivojida B.M.Yunusaliyev, B.O.Oruzbayeva, M.Muratabiyev, S.Mukambayev, C.Muratabiyeva, A.Mambetaliyev, T.Nazaraliyev kabi olimlarning ilmiy maktablari muhim o‘rin tutadi. Bular ichidan B.O.Oruzbayeva maktabi ajralib turadi. Uning “Qirg‘iz terminologiyasi” (1983) asarida qirg‘iz terminologiyasining nazariy asoslari, rivojlanish tarixi va zamonaviy holati har tomonlama tahlil qilingan. Uning “Qirg‘iz tilida so‘z yasovchi affikslar” (1958) asari esa termin yasalishining morfologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, B.O.Oruzbayeva “Lingvistik terminlarning ruscha-qirg‘izcha lug‘ati” (1972) bilan qirg‘iz lingvistik terminologiyasi taraqqiyotiga hissa qo‘shgan.

M.Muratabiyev maktabi. M.Muratabiyev qirg‘iz tili sintaksisi va terminologiyasi sohasidagi tadqiqotlari bilan mashhur. Uning qo‘shma gap, zamon ergash gaplari, bog‘lovchilar, to‘g‘ri va ko‘chirma nutq kabi masalalarga bag‘ishlangan ko‘plab asarlari qirg‘iz lingvistik terminologiyasining rivojiga yo‘l ochgan.

Yana bir qirg‘iz tilshunosi V.Zakirova o‘zining “Кыргыз tilindegi grammatikalык terminder” kitobida qirg‘iz tilida terminologiya masalalari bevosita xalq ijtiimoiy hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lganligini ta’kidlaydi: Grammatik terminlarning bir xilda qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida 50-yillardan boshlab qirg‘iz tilidagi grammatik terminlarning lug‘atlari ishlana boshlandi. Shunday lug‘atlar ichidan B. Oruzbayeva tomonidan tuzilgan «Lingvistik terminlarning ruscha-qirg‘izcha lug‘ati» alohida o‘rinni egallaydi. Lug‘at qirg‘iz tilida qo‘llanilib kelayotgan grammatik terminlarni to‘liq qamrab, ularning har biriga qisqacha izohlar berilgan. Shunga qaramastan ba’zi grammatik terminlarning bir necha tushunchaning o‘rniga qo‘llanilib, yoki buning teskarisicha, bir necha

grammatik tushunchaning o‘rniga bitta termin qo‘llanilib kelayotganligini kuzatish mumkin[103].

Olim bu haqdagi fikrlarini davom ettirib, qirg‘iz tilidagi grammatik terminlarning tuzilish, shakllanish, rivojlanish jarayonini xronologik tartibda aks ettirish maqsadida davrlarga bo‘lingan jadvallar keltiradi. Olim bu haqda quyidagicha yozadi: Ko‘p sondagi fanning, texnikaning sohalari ichidan qirg‘iz tilidagi grammatik terminlarning tuzilish tarixi Qirg‘izistondagi umumiy terminologik jarayon bilan bir paytlarda birdan bir vosita bo‘lib hisoblangan maktab grammatikalarining tuzilish holati, tarixi bilan tig‘iz holda bog‘liq. Chunki dastlabki davrlarda qirg‘iz xalqining bosma matbuoti bo‘lmaganligi sababli, terminologik masalalarning, jumladan grammatik terminologiyaning rivojlanishi, o‘rganilishi haqida so‘z ochilishi ham mumkin emas edi. Shuning uchun birinchi dasturlarning, birinchi o‘quv kitoblarining tuzilishi, paydo bo‘lish davri qirg‘iz tilining grammatik terminologiyasining ham tuzilish, boshlanish davrini, dorini tashkil etdi deb hisoblash mumkin. Qirg‘iz tilining grammatik terminologiyasining tuzilish, shakllanish jarayonini o‘quv kitoblari bilan bog‘liq holda ko‘rishning sababi ham ana shundan.

Mana shu tarixiy holatni e’tiborga olib, biz bu kichik ilmiy ishimizda terminologik masalalarni birinchi tuzilgan o‘quv kitoblari bilan bog‘liq holda to‘g‘ri ko‘rdik. Qirg‘iz tilidagi grammatik terminlarning tuzilish, shakllanish, rivojlanish jarayonini xronologik tartibda aks ettirish maqsadida quyidagi davrlarga bo‘lingan jadvallar berildi:

1. 1920-30-yillar: fonetika bo‘yicha; morfologiya bo‘yicha; sintaksis bo‘yicha;
2. 1931-36-yillar: fonetika bo‘yicha; morfologiya bo‘yicha; sintaksis bo‘yicha;
3. 1937-49-yillar: fonetika bo‘yicha; morfologiya bo‘yicha; sintaksis bo‘yicha;
4. 1950-60-yillar: fonetika bo‘yicha; morfologiya bo‘yicha; sintaksis bo‘yicha;
5. 1960-70-yillar: fonetika bo‘yicha; morfologiya bo‘yicha; sintaksis bo‘yicha.

Bu jadvallar grammatikaning har bir bo‘lagi bo‘yicha ham o‘z ichidan bir nechaga bo‘linadi; bulardan tashqari bir xilda qo‘llanib

[103] Закирова В. Кыргыз тилиндеги грамматикалык терминдер. –Фрунзе: «Илим» басмасы, 1976. –Б.8.

kelayotgan terminlar bo‘yicha amaliy takliflar beriladi[104]. Ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida terminlar yaqin yillargacha rus tilshunosligi andazalarida o‘rganildi. Aynan o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlari qiyoslab o‘rganilmagan.

O‘zbek va qirg‘iz terminologiyasida termin tanlash strategiyasi o‘ziga xos bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida ko‘proq evropacha va qayta tiklangan arab-fors qatlamiga tayanish ustuvorlik qilmoqda. Qirg‘iz tilshunosligida esa terminlarni iloji boricha sof turkiy (qirg‘izcha) so‘zlar yoki yangi yasamalar hisobiga ifodalash an’anasi ustuvorlik qilmoqda. Umuman olganda, turkiy tillar, xususan, o‘zbek va qirg‘iz tillari qiyosiy grammatikasini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbek tilshunosligida terminologiya tizimi R.Doniyorov, S. Ibrohimov, A.Hojiyev asarlarida va qirg‘iz tilshunosligida K.Тыныstanov, B.Oruzbayeva, K.Zulpukarov asarlarida terminologiya masalalari tadqiq etilgan.

Kelgusida o‘zbek va qirg‘iz lingvistik terminologiyasi masalalarini tadqiq etish bo‘yicha monografik rejadagi tadqiqotlar olib borilishi, shuningdek, bu ikkala til terminologiyasini qiyoslab o‘rganishga oid qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, ikki tilli lingvistik lug‘atlar yaratish, tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi markazlar tashkil etish kun tartibidagi eng dolzarb vazifalardan bo‘lib turibdi. Hozirgi turkiy tillarni qiyosiy aspektda o‘rganish, ularning turli til sathlaridagi mosligi darajasini belgilash. zamonaviy yondashuvlar va tadqiq metodlari asosidagi nazariy ma’lumotlarni boyitish, qarindosh tillarning turli sohalardagi qiyosiy lug‘atlarini yaratish taqozo etilmoqdaki, bularning barchasi turkiyshunoslik oldida turgan masalalarni oydinlashtirishga xizmat qiladi[105].

O‘zbek va qirg‘iz tillarida terminologik tizimlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish natijasida har ikki til terminologiyasi umumturkiy leksik qatlam negizida shakllanganligini, uning taraqqiyotida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy omillar muhim rol o‘ynaganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek terminologiyasining rivojlanishida qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, Sharq ilmiy merosi, jadidchilik harakati sovet davridagi ilmiy maktablar hamda mustaqillik yillaridagi milliy terminologik siyosat alohida ahamiyat kasb etgan. Qirg‘iz terminologiyasi esa xalq og‘zaki ijod, xususan, “Manas” eposi, qirg‘iz

[104] Закирова В. Кыргыз тилиндеги грамматикалык терминдер.– Фрунзе: «Илим» басмасы, 1976. –Б.8.
[105] Рафиев А.Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. –Тошкент, 2004. –Б.10.

ma’rifatparvarlari faoliyati va terminologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar asosida shakllangan. O‘zbek va qirg‘iz terminologik tizimlari tarixiy jihatdan yaqin bo‘lib, ularning shakllanishida qadimgi turkiy qatlam, arab-fors tillari ta’siri hamda rus tili orqali kirib kelgan baynalminal terminlar muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy muhiti va til siyosati natijasida terminologik tizimarda o‘ziga xos xususiyatlar yuzaga kelgan.

Bob bo‘yicha xulosalar

1.Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, termin va terminologiya tushunchalari insoniyat ilmiy tafakkurining tarixiy evolyutsiyasi mahsuli bo‘lib, ularning shakllanishi qadimgi falsafiy tafakkurdan boshlangan va zamonaviy terminshunoslik nararіyasigacha izchil rivojlangan. Shu bois terminni til birligi sifatida emas, balki ilmiy bilimlarni tizimlashtirish, konseptuallashtirish va ilmiy kommunikatsiyani ta’minlovchi fundamental vosita sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asoslandi.

2. Vena, Moskva, Praga hamda kognitiv terminologiya maktablarining nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning har biri terminning muayyan jihatini yoritishi aniqlandi. Vena maktabi terminning konseptual aniqligi va standartlashuvini, Moskva maktabi uning lingvistik hamda funksional tabiatini, kognitiv terminologiya esa terminning tafakkur va bilimlar tizimi bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi. Mazkur nazariyalar o‘zaro integratsiyalashgan holda zamonaviy terminologiya tadqiqotlari uchun kompleks metodologik asos vazifasini bajarishi isbotlandi.

3. Termin tushunchasiga berilgan mahalliy va xorijiy ilmiy ta’riflarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, terminning mohiyatini faqat nominativ yoki definitsion birlik sifatida talqin etish yetarli emas. Zamonaviy termin ilmiy tushunchani ifodalovchi, terminologik tizim tarkibida faoliyat yurituvchi, konseptual, kommunikativ, kognitiv hamda tizimiy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan maxsus leksik birlik sifatida baholanishi ilmiy jihatdan asoslandi.

4. Nazariy qarashlar tahlillari natijasida terminologik tizimning samaradorligi, avvalo, ilmiy tushunchalarning mantiqiy tasnifi, konseptual izchilligi va terminlarning tizimli munosabatlariga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu sababli termin yaratish jarayonida lingvistik omillar bilan bir qatorda mantiqiy, semantik, kognitiv va funksional mezonlarni kompleks qo‘llash ilmiy terminologiyaning izchilligini

hamda xalqaro ilmiy kommunikatsiyaning samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi.

5. O‘zbek terminshunosligining tarixiy rivojlanishi tahlili milliy terminologiya tizimi jadidchilik davridan boshlab shakllanganini, keyinchalik rus terminologiya maktabi metodologiyasi ta’sirida ilmiy asoslanganini hamda mustaqillik davrida davlat tili siyosati bilan uzviy rivojlanganini ko‘rsatdi. Shu asosda milliy termin yaratishda o‘zbek tilining ichki imkoniyatlariga ustuvor ahamiyat berish, zarur hollarda xalqaro terminlarni ilmiy me’yor asosida o‘zlashtirish eng maqbul tamoyil ekanligi asoslandi.

6. Terminologiyada sinonimiya, polisemiya va omonimiya hodisalari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning tabiiy til taraqqiyotining qonuniy va obyektiv natijasi ekanligi asoslandi. Shu bilan birga, ilmiy kommunikatsiyaning aniqligi hamda terminologik me’yorning barqarorligini ta’minlash maqsadida terminlarning imkon qadar bir ma’nolik, definitsion aniqlik, ekspressivlikdan xolilik va terminologik tizimdagi konseptual izchillik kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi zarurligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

7.O‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarini qiyosiy-tipologik tadqiq etishning nazariy poydevori sifatida terminlarni faqat shakliy o‘xshashlik asosida emas, balki ularning konseptual mazmuni, terminologik tizimdagi o‘rni, funksional vazifasi va kognitiv xususiyatlari asosida qiyoslash metodologik jihatdan eng samarali yondashuv ekanligi isbotlandi. ekanligi isbolandi. Ushbu yondashuv turkiy tillar terminologiyasining umumiy va milliy xususiyatlarini ilmiy asosda aniqlash, terminlarni me’yorlashtirish hamda qiyosiy terminologik tadqiqotlarning nazariy-metodologik bazasini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

II BOB. OLIY TA’LIM DARSLIKLARIDA O‘ZBEK VA QIRG‘IZ TILSHUNOSLIK TERMINLARINING QIYOSIY-STRUKTURAVIY TAHLILI

2.1. Fonetik, grafik, orfoepik, orfografik terminlar tahlili

Fonetik terminlar tahlili

O‘zbek va qirg‘iz tillari bir til oilasiga mansub bo‘lib, har ikki tilning rivojlanishi qadimdan o‘zaro ta’sir va mustaqil ravishda harakat qilishi natijasida shakllangan. Ikki til ham qarluq-chigil hamda qipchoq lahjalari qo‘shiluvidan kelib chiqqan bo‘lib, bu asos ularning fonetikasida ko‘plab umumiy xususiyatlar va o‘ziga xos farqlarni yaratgan. Fonetikaning rivojlanishidagi o‘xshashliklar va farqlar muhim lingvistik obyekt hisoblanadi, chunki ular tillarning tarixiy aloqalari, geografik jihatdan tarqalishi va madaniy ta’sirlar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Tarixiy fonetika tillarning o‘zgarishini o‘rganishda kalit vazifasini bajaradi va zamonaviy tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek va qirg‘iz tillarining fonetik rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish turkiy tilshunoslikning dolzarb masalarini yoritishga xizmat qiladi. Qardosh bo‘lgan tillardagi unli va undosh tovushlarning tarixiy o‘zgarishlari, tashqi ta’sirlar va zamonaviy tendensiyalarni o‘rganish va tahlil qilish kelajakdagi tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Turkiy tillarni boshqa tillar bilan bir-biriga qiyosan o‘rganish bo‘yicha tilshunoslikda ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Masalan, ingliz – o‘zbek, fransuz – o‘zbek, nemis – o‘zbek va hokazo. Lekin turkiy tillar oilasiga kiruvchi o‘zbek va qirg‘iz tillarining tilshunoslikka oid jihatlarini qiyosiy tahlil qilish amalga oshirilmagan. Qiyosiy – tipologik tahlil haqida gap borganda, eng avvalo, XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Qoshg‘ariy va uning mashhur asari “Devoni lug‘atit turk” hamda XV asrning noyob durdonasi bo‘lgan Alisher Navoiyning “Muhokamat -ul lug‘atayn” asarlari ko‘z oldimizga keladi. Har ikki asarda ham ma’lum tillar bir-biriga taqqoslanib, qiyosan tahlilga tortilgan. “Asarning lug‘at qismida 7500 so‘z sakkizta bo‘limga ajratib izohlanadi. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo‘lib qoldi”[106].

Qadimgi turkiy tilshunoslikda Mahmud az-Zamaxshariyning ham o‘rni beqiyosdir. “U o‘zi tuzgan lug‘atlarida turkiy so‘zlar izohiga ham

[106] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.18.

alohida e’tibor qaratganki, ularda XII– XIII asrlar Markaziy Osiyo turkiy adabiy tilining leksikasi o‘z aksini topgan”[107]. “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida qirg‘iz fonetikasining tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Qirg‘iz va boshqa barcha turkiy tillarning tovush xususiyatlari qadim zamonlardan beri olimlarning e’tiborini tortib kelayotganligi, bunga XI asrda yashab ijod etgan Барскандык-Кашкарлык Махмуттун “Түрк тилдеринин сөздүгү”[108] asari misol bo‘la olishi haqida aytib o‘tilgan. XIX asrning oxirlaridan boshlab rus olimlarining barcha turkiy tillar tadqiqiga bo‘lgan qiziqishi orta boshlagan. Shu davrda olimlar V.Radlov[109] hamda N.Ilminskiylarning[110] qirg‘iz va qozoq tillari fonetik xususiyatlariga oid asari nashr etilgan. Bu haqidagi ma’lumotlar 1911-yilda Ufada nashr etilgan I.Arabay o‘g‘li hamda Sarseke o‘g‘lining qirg‘iz hamda qozoq bolalariga bag‘ishlangan “Алиппе же төтө жазуу”[111] kitobida berilgan. Ushbu kitob bolalarning xat-savodini chiqarishga xizmat qilgan.

Qirg‘iz tilshunosligida fonetikaga doir bir qancha ishlar ilk bor professor Касым Тыныстан o‘g‘lining qalamiga mansubdir. Ular: “Эне тилибиз” (1926-1929), “Кыргыз тилинин жазуу эрежелеринин жаңы долбоору” (1934), “Кыргыз тилинин морфологиясы” (1934), “Кыргыз адабий тилинин орфографиялык эрежелери” (1936) deb nomlangan. Asarlarida qirg‘iz tilining tovushlari ikki katta guruhga: *unli va undoshga* bo‘linishi, ulardan unli tovushlar yana sakkizta boshqa guruhlarga: *cho‘zilgan, qisqa, qalin, ingichka, lablangan, ochiq, keng, tor* bo‘linishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Olimning fikrlari qirg‘iz fonetikasi rivojlanishiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan. Bundan tashqari T.Axmatov “Кыргыз адабий тилинин тыбыштык түзүлүшү”(1969) nomli doktorlik dissertatsiyasi, J.K.Sidikovning “Кыргыз адабий тили менен диалектилеринин тыбыштык түзүлүшү”, T.Sadikovning “Кыргыз фонологиясы менен морфонологиясынын теориялык негиздери”, K.To‘ktonaliyevning “Кыргыз тилиндеги айтымдын коммуникативдик-функционалдык жана интонациялык структурасы”, S.J.Musayev, T.S.Musayevalarning “Кыргыз адабий

[107] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.18.
[108] Азыркы кыргыз адабий тили. –Бишкек, 2015. –Б.8.
[109] Ufuk Deniz AŞÇI. W.Radloff’un “Opit slovarya tyurkskih nareçiy” adli eserinde geçen kazak ve kirgiz lehçelerine ait sesler ile çağdaş kazak ve kirgiz lehçelerindeki sesler. https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/258190
[110] Tuxtasinova, Mahliyoxon. L.Budagov lug'atida “Материалы к изучению киргизского наречия” asarining ahamiyati. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. – B.59-61. https://zenodo.org/records/10275891
[111] Азыркы кыргыз адабий тили. –Бишкек, 2015. – Б.9.

тили: улуттук доорго чейин жана улуттук доордо”[112] kabi bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

VIII asrda islom dinining tarqalishi bilan birga arab tili o‘zbek va qirg‘iz tillariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Diniy, huquqiy va ilmiy terminologiya, asosan, arab tilidan o‘zlashtirilgan. Fors adabiyoti va madaniyatining rivojlanishi natijasida ko‘plab fors so‘zlari turkiy tillarga kirib kelgan. Bu jarayon ayniqsa adabiy va ma’muriy sohalarda kuchli sezilgan. XV-XVI aslarda o‘zbek tilining fonetik tizimi muhim o‘zgarishlarni boshdan kechirgan. Buyuk tilshunos Alisher Navoiy davridagi adabiy til normalari asosida zamonaviy o‘zbek tilining fonetik asoslari yaratilgan. Bu davrda unli garmoniyasining yo‘qolishi yoki sezilarli darajada kamayishi kuzatildi, bu esa o‘zbek tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi muhim xususiyatga aylandi.

Qirg‘iz tilining fonetik rivojlanishi o‘zbek tilinikidan sezilarli darajada farq qiladi. Eng muhimi, qirg‘iz tilida unli garmoniyasining (singormanizm yoki үндүүлөрдүн үндөшүүсү) yaxshi saqlanib qolishi bo‘lib, bu xususiyat zamonaviy qirg‘iz tilida ham faol qo‘llaniladi. Cho‘ziq unlilarning mavjudligi qirg‘iz fonetikasining o‘ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Undosh tovushlarda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar qirg‘iz tilining fonetik tizimini yanada boyitdi. Tovushlarning to‘g‘ri va sof talaffuz qilinishini yo‘lga qo‘yish masalasi qirg‘iz tilining tovush tizimini murakkablashtirib, uni boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi xususiyatga aylantirdi. Bu kabi jarayonlar qirg‘iz tilining zamonaviy ko‘rinishini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Har bir tilning tarixiy bosqichini o‘rganganishda shevalarning o‘rni alohida hisoblanadi. O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari juda xilma-xil bo‘lib, qipchoq, o‘g‘uz va qarluq shevalarining har biri o‘ziga xos fonetik belgilarga egadir. Masalan, Xorazm shevalarida o‘g‘uz ta’siri kuchliroq bo‘lib, unlilar garmoniyasining qoldiqlari hali ham saqlanib qolgan. Farg‘ona vodiysi shevalarida esa qarluq lahjasining xususiyatlari ustunlik qiladi.

Qirg‘iz shevalarining fonetik xususiyatlari, asosan, shimoliy va janubiy mintaqalar bo‘yicha farqlanadi. Shimoliy shevalarda rus tilining ta’siri sezilarli bo‘lsa, janubiy shevalarda o‘zbek va tojik tillarining ta’siri kuchliroqdir. Til qolipidan chetga chiqish holatlari har ikki tilda ham kuzatiladi. Bu hol esa tilning jonli rivojlanishini ko‘rsatadi. O‘zbek

[112] Мусаев С.Ж., Мусаева Т.С. Кыргыз адабий тили: улуттук доорго чейин жана улуттук доордо. – Бишкек. 2022. https://mamtil.gov.kg/storage/post/file/4cfdaeb11055e1ab9cccf1843257c415123864b4.pdf (504 б.)

va qirg‘iz tillarining fonetik rivojlanishini o‘rganish bu tillarga tegishli masalalarni hal qilishda yordam beradi va umumturkiy tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi.

Biz ham ushbu tadqiqotimizda o‘zbek tili tilshunoslik terminlarini qardosh til bo‘lgan qirg‘iz tilshunoslik terminlari bilan qiyoslashni lozim deb bildik. Qiyoslanayotgan har ikki tilning etimologiyasiga ko‘ra umumiy jihatlari ko‘p bo‘lsa-da, ularning mana shu umumiylik va xususiylik tomonlari alohida tadqiqot sifatida o‘rganilmagan. Qiyosiy-tipologik taqqoslashda mustaqillik yillarida chop etilgan hamda hozirgi kunda O‘zbekiston va Qirg‘iziston Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan “Hozirgi o‘zbek tili”(2023), “Азыркы кыргыз адабий тили” (2015) darsliklari tadqiqotning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim o‘rinlarda fikrimizni yanada ochiqroq dalillash maqsadida boshqa darsliklarga ham murojaat qilindi.

Tilshunoslik terminlari tizimida o‘zbek yoki qirg‘iz tillarida bo‘lishidan qat’iy nazar bir-biriga o‘xshashlik hodisalari kuzatiladi. Masalan, fonetika bo‘limida o‘rganiladigan *tovush* termini qirg‘iz tilida *тыбыш* deb nomlanadi. O‘zbekchada tovushga izoh: “*Insonning nutq faoliyati sezgi a’zolari asosida his qilinuvchi nutq birliklari – tovush yoki tovushlar tizimi vositasida ro‘yobga chiqadi”*[113]. *Тыбыш* terminining izohi:“*айтылган сөздүн тутумундагы кулакка угулган эң кичинекей фонетикалык бирдик* ***тыбыш деп аталат”***[114]**.** Biz tahlil qilayotgan oliy ta’lim darsliklaridan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligining “Fonetika” bo‘limida dastavval, fonetika va fonologiyaning o‘rganish manbayi, predmeti, maqsadi haqida ma’lumot berilgan. “Fonetika deganda tilshunoslikning eng quyi sathi ham, shu sathni o‘rganadigan sohasi ham tushuniladi. Fonetika (gr. phonetikos – tovushga, ovozga xos) tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o‘laroq, nafaqat o‘rganish manbayining funksional tomonini, balki nutq tovushini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossasini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshiradi”[115]. So‘ng *fonetikaning turlari* haqida ma’lumot berilib, ular *umumiy fonetika, xususiy fonetika, qiyosiy fonetika* kabi terminlarning ma’no mohiyati, bajaradigan funksiyasi ochib berilgan.

“Fonologiya (gr. phone – tovush, logos – ta’limot) termini

---

[113] Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M, Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva D.N. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.62.

[114] Орузбаева Б., Турсунова А., Сыдыков Ж., Акматалиев А., Мусаев С., Садыков Т. Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.13.

[115] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.60.

tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo‘ldi. Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funksional qonuniyatini o‘rganuvchi soha, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektda o‘rganadigan fonetikadan farqlanadi”[116]. Bu bo‘limda yana *fonologik, paradigmatika, fonologik sintagmatika* terminlari ham qo‘llanilgan bo‘lib, ular fonemaning paradikmatik va sintagmatik munosabatini ifodalaydi.

Qiyoslanayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida fonologik paradigmaning markazida fonologik ziddiyat, ya’ni *oppozitsiya* turishi aytilgan. Fonologik ziddiyat (oppozitsiya) fonemaning farqli belgilarini o‘zida ifodalashi haqida ma’lumot berilgan. *Unli tovushlar paradigmasi, undosh tovushlar paradigmasi* kabi terminlar haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Unda tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra unlilar: *yuqori, tor, quyi* va *lablanish-lablanmaslik* – kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy, sistema hosil qiluvchi belgisi ekanligi haqida ma’lumot berilgan. Unlilarning tilning gorizontal holatiga ko‘ra *old qator, o‘rta qator, orqa qator* kabi belgilari asosiy hisoblanmasligi ta’kidlangan. Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko‘ra tasnifi tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra *unli fonemalar uch pog‘onali,* lablanish belgisiga ko‘ra *ikki pog‘onali* sistemani hosil qilishi; unli fonema yaxlit tizimni tashkil etib, bu tizim ham o‘z navbatida tizimchalarga bo‘linishi; i va u fonemalari “yuqori tor” belgisi ostida birlashib, bunday belgiga ega bo‘lmagan fonemalardan ajralishi; biroq i va u kichik paradigmasi a’zolari farqlovchi belgilari (i-lablanmaganlik va u-lablanganlik belgilari) asosida o‘z mustaqilliklarini saqlab qolishi va ziddiyatda turishi aytilgan. *E va o‘* tizimchasi “o‘rta keng” belgisiga ko‘ra i va u tizimchasidan ham, *e-o* tizimchasidan ham farqlanishi aytib o‘tilgan. Darslikda unli fonemaning har biri asosiy ikki belgidan, *tilning ko‘tarilish darajasi (birlashtiruvchi belgisi) ga ko‘ra, lablanish (farqlovchi) belgisi bor-yo‘qligiga ko‘ra* xususiyati alohida ta’kidlangan. *i,u* unlilari “torlik” belgisi ostida birlashashi, lablanganlik-lablanmaganlik farqlovchi belgi sanalishi: i-lablanmagan, u – lablangan kabi terminlarning izohi batafsil yoritilgan. Unli tovushlarga doir terminlarga berilgan izohlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, o‘zbek tilida unli fonemalar bir belgi asosida uch va ikki a’zoli ziddiyatni; ikki belgi asosida olti a’zoli ziddiyatni hosil qilishi aniqlandi.

Sh.Shoabduraxmonov va boshqalar tomonidan tuzilgan “Hozirgi

[116] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.62.

o‘zbek adabiy tili” darsligida esa yozma o‘zbek adabiy tilida olti unli fonema borligi: a, o, i, e /ye/, u, o‘. Bular uch xil yo‘l bilan tasnif qilinishi, bunda aktiv nutq organlaridan bo‘lgan til va lablarning unlilarni hosil qilishidagi harakati va holati hisobga olinishi haqida ma’lumot berilgan. “1) tilning gorizontal holatiga ko‘ra; 2) tilning vertikal (tanglayga tomon) harakatiga ko‘ra; 3) lablarning ishtirokiga ko‘ra[117]” kabi terminlar unlilar tasnifi uchun tanlangan.

Darslikda undosh tovushlarning farqlovchi asosiy belgilari uch turga bo‘linishi, ya’ni *hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra* kabi terminlar bilan ifodalangan. Undosh tovushlarning yana korelyativ va korelyativ bo‘lmagan belgilari ham mavjud ekanligi aytilgan va shu terminlar bilan nomlangan. “Ziddiyatda turgan fonemaning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo‘lmagan belgi – korelyativ belgi. Masalan, b – p zidlanishida jarangli-jarangsizlik korelyativ belgidir”[118]. Bu ikki undosh uchun xos bo‘lgan til oldi va portlovchilik belgisi korelyativ bo‘lmagan belgi hisoblanishi, shuningdek, h undoshida jarangsizlik belgisi mavjudligi, ammo uni shu belgi asosida boshqa fonema bilan zid qo‘yib bo‘lmasligi, chunki h fonemasining o‘zbek tilida jarangli jufti mavjud emasli, 8 ta fonema uchun “jarangli-jarangsizlik” korelyativ belgi hisoblanishi haqida ma’lumot berilgan. Bundan tashqari “Udosh fonemalar artikulyatsion o‘rniga ko‘ra binar ziddiyatli munosabatlarga kirishadi: 1)“*lab-lab – til o‘rta”:* f – y; v – y; b) *“lab-lab – til orqa”* p – k; b – k; f – x; v – g; e) *“lab-lab – bo‘g‘iz”* f – h; v – h; f) *“til oldi – til orqa”* t – k; t – q; d – g; s – x; z – g; n – g”[119] kabi terminlar ham bayon etilgan. Undosh tovushlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra quyidagicha ziddiyatli munosabatda a) *“portlovchi-sirg‘aluvchi”*: p – f; b – v; t – s; d – z; t – sh; k – x bo‘lishi, ayrim fonemalarning esa *affrikat fonemalar* bilan teng qiymatli ziddiyatda: t – ng, d – dj; *sirg‘aluvchi fonemalar* ham affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyatda: sh – ch, j – dj; bundan tashqari yana ziddiyatli juftliklar: a) *“portlovchi – shovqinli – burun sonanti”*: b – m; d – n; g – n; b) *“sirg‘aluvchi sonant*: z – l; j – r; d) *“shovqinli sonant – burun sonant”:* l – n; r – n; *“yon sonant – titroq sonant”:* l – r; *“titroq sonant – til o‘rta sonant”:* f – y kabi o‘ziga tilshunoslik terminlari bilan nomlangan. Bundan tashqari darsliklada *fonemaning variantlashuvi, fonetik jarayonlar: singormanizm,*

[117] Ш. Шоабдураҳмонов, М. Асқарова, А.Ҳожиев, И. Расулов, Х. Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.48.
[118] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.67.
[119] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.68.

assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, proteza, epenteza, epiteza, prokopa, sinkopa, apakopa, sinerezis, reduksiya, eliziya, giminatsiya kabi fonetikaga doir terminlarning har biriga sharhlar berilgan.

“Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida esa “Fonetika”ga *tovushlarning tuzilishi, yasalishi, aytilishi, eshitilishi, bo‘g‘in, urg‘u, tovush o‘zgarishi* kabi hodisalarni o‘rganuvchi bo‘lim sifatida tarif berilgan. Eng avval darslikda, fonetika haqida umumiy tushuncha berib o‘tilgan. Unda tildagi har bir hodisa tovush bilan bog‘liq ekanligi aytilgan. Xususan, biz fikrimizni gaplar orqali ifoda etamiz, gaplar so‘zlardan, so‘zlar bo‘g‘inlardan, bo‘g‘inlar esa unli va undosh tovushlarning birikuvidan hosil bo‘lishi haqida fikr-mulohazalar misollar bilan asoslab berilgan. Fonetika terminiga qirg‘iz tilida “***фонетика —*** *тилдин тыбыштык жүйөсүн ичине камтыган тил системасынын бир бөлүгү жана ал бөлүктү изилдеп үйрөтүүчү тил илиминин бир бөлүмү***”**[120] deb ta’rif berilgan.

“Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida uchramaydigan **“**Фонетиканын изилдөө объектилери” degan mavzusi berilgan. Fonetikani o‘rganish uchun ko‘plab obyektlar mavjuddir, lekin quyida berilganlari qirg‘iz va barcha turdosh turkiy tillar uchun eng muhim hisoblanishi aytib o‘tilgan. *1)* ***тилдеги тыбыштардын толук курамы; 2)*** *ар бир тыбыштын акустикалык жана артикуляциялык касиеттери; 3) тилдеги окшош тыбыштардын өзөгүн түзгөн фонемалардын толук курамы; 4) ар бир фонеманын ажыратуу белгилеринин толук курамы; 5) тилдеги фонологиялык оппозициялардын түрлөрү жана толук курамы; 6)* ***көп варианттуулуктун булактары;*** *7) муундун табияты, түрлөрү, типтери, тыбыштык курамы, айкашуу, сыйлыгышуу, жиктелүү эрежелери; 8) басым жана анын түрлөрү; 9) муунак (синтагма): курамы жана түрлөрү; 10) интонация жана интонема; 11) алфавит, графика, орфография жана орфоэпия маселелери; 12) траскрипция маселелери ж.б.лар*[121]. Bu kabi hodisalar o‘zbek tili grammatikasi uchun ham xos bo‘lib, tilshunoslikda fonetika bo‘limining grafika, orfo‘epiya, orfo‘grafiya mavzulari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini anglatadi. “Фонетиканын түрлөрү” degan mavzuda fonetika nazariy jihatdan “*жеке фонетика*” va “*жалпы фонетика*” deb ikki guruhga bo‘linishi, “*жалпы фонетика*” dunyodagi barcha tillarning tovush tuzilishidagi umumiy xususiyatlar,

[120] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.5.
[121] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.6.

tovushlarning hosil bo‘lishi, eshitilishi va qabul qilinish qonuniyatlari, fonologik kontseptsiyalar, tovush, fonema, morfonema, arxifonema kabi tushunchalar, fonemalarning farqlash va birlashtirish (differensial va integral) belgilari, fonologik oppozitsiyalarning turlari va tiplari, intonatsiya vositalarining qo‘llanilishi, tovush tizimlarining tarixiy rivojlanishi, ularning bir-biriga ta’sir qilish qonuniyatlari, bir tizimdagi tovushlarning uyg‘unlashuvi, nutq oqimidagi tovushlarning qo‘llanilish qoidalari, grafika, orfografiya, orfoepiya prinsiplari va qoidalari kabi ko‘plab nazariy masalalar o‘rganiladi. “*Жеке фонетика*”da esa yuqoridagi masalalar bir til doirasida o‘z yechimini topadi va bu tilning tovush tuzilishini har tomonlama o‘rganish uchun shart-sharoit yaratadi. Bundan tashqari tadqiqot obyekti va uning oldiga qo‘yilgan maqsadiga qarab fonetika quyidagi turlarga bo‘linishi haqida ma’lumot berilgan: *1) сыпаттама фонетика; 2) тарыхый фонетика; 3) тектештирме же тектештирме-тарыхый фонетика; 3) салыштырма же салыштырма-типологиялык фонетика; 4) диалектилик фонетика; 5) эксперименттик фонетика.* Ushbu terminlarning har birining vazifasi va nazariyasi haqida darslikda batafsil ma’lumot keltirilgan. Shularning tarkibiga kiruvchi eksperimental fonetikaning o‘zi ham quyidagi to‘rt yo‘nalishni o‘z ichiga olishi izohlangan: 1) ***акустикалык фонетика;*** 2) ***артикуляциялык фонетика;*** 3) ***перцептивдик фонетика;*** 4) ***компъютердик фонетика. Bu kabi terminlarga ham ma’lumotlar atroflicha berilgan.*** “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida fonetika bo‘limini bunday turlarga bo‘linishi haqida ma’lumotlar berilmagan.

“Фонетиканын үч аспектиси” deb nomlanuvchi bo‘limda “Фонетиканын акустикалык аспектиси”, “Фонетиканын артикуляциялык аспекти”, “Фонетиканын лингвистикалык аспекти” kabi mavzular berilgan. Bu mavzularning har birida fonetikaga doir terminlar alohida tahlil qilingan. Xususan, *“Фонетиканын акустикалык аспектиси”* mavzusida til tovushlari tabiatdagi tovush hodisalarining inson qulog‘iga eshitiladigan va eshitilmaydigan turlaridan biriga tegishli ekanligi, ovoz to‘lqinlari har xil muhitda har xil tezlikda harakatlanashi, masalan, agar tovush to‘lqinlari havoda sekundiga 340 metr tezlikda harakatlansa, ular suvda sekundiga 1500 metr, temirda 4800 metr va po‘latda 5000 metr tezlikda harakatlanishi,va yorug‘lik nurining tezligi sekundiga 300000 kilometrga yetishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu bo‘limda: **термелүү жыштыгы, үндүн бийиктиги, термелүүнүн арымы**

(амплитудасы), үндүн күчү, *үндүн созулушу, үндүн тембри,* **үндүн спектри kabi terminlar qo‘llanilgan bo‘lib, tovushlarning akustik, ya’ni fizika bilan bog‘liq jihatlari haqida batafsil nazariy ma’lumotlar keltirilgan.** *“Фонетиканын артикуляциялык аспекти”* mavzusida nutq organlarining tuzilishi, ya’ni nutqda tovushlarning shakllanishiga *“***дем алуу органдары”, “кекиртек”, “үн түйүндөрү”, “***алкым”, “ооз көңдөйү жана эриндер”*, **“таңдай жана тиш”, “тил”, “мурун көңдөйү”** kabi terminlar bilan ifodalangan so‘zlar nutq a’zolariga kirishi, tovushlarni shakllantirishda *өпкө(о‘рка)* ham muhim ahamiyatga ega ekanligi, ularning harakati esa markaziy asab tizimi tomonidan boshqarilishi ta’kidlangan.

“Фонетиканын лингвистикалык аспекти” mavzusida til tovushlarining akustik va artikulyatsion tabiati juda murakkab va ko‘p qirrali ekanligi, masalan, olimlar 1 soniyada nutq oqimidagi har bir tovushni talaffuz qilish uchun inson nutq organlari 100 dan ortiq turli mushaklardan foydalanishini aniqlaganligi, ammo shunga qaramay, aloqa jarayonida faqat taniqli deb tan olingan tovushlarning xususiyatlaridan foydalanilishi haqida aytib o‘tilgan. Bu holat fonetikaning lingvistik aspektida o‘rganiladi va u funksional fonetika yoki fonologiya deb nomlanadi. Fonetikaning lingvistik jihati birinchi marta tilshunoslikda Boduin de Kurteney[122] tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, uning fonologik ta’limoti akademik L. V. Shchebra va fonologiyaning otasi bo‘lgan N. S. Trubetskoylar tomonidan o‘rganilganligi, fonologiyada “Generativ fonologiya” deb nomlangan maxsus soha amerikalik olim Noam Xomskiy tomonidan ishlab chiqilganligi haqida nazariy ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Bu mavzuda qirg‘iz tilidagi tovush va fonemaning bir-biridan farqli jihatlari ko‘rsatilgan. Masalan, **“**Тилдеги тыбыштардын аткарган кызматын аңдап билүү жана тил менен кептин табиятын түшүнүү үчүн ***тыбыш*** жана ***фонема*** деген түшүнүктүн жалпылык жана айырмачылыктарын так аныктоо зарыл. ***Тыбыш деген түшүнүккө фонетикада төмөнкүчө аныктама берилет:*** айтылган сөздцн тутумундагы кулакка угулган эң кичинекей фонетикалык бирдик ***тыбыш деп аталат”***[123]**.** Bunga misol qilib, bitta bo‘g‘inli to‘rtta so‘z olingan – ат, эт, от, өт. Ushbu to‘rt so‘zli tizimda 4 ta unli va 4 ta undosh mavjud. Ular orasida unli va undoshlar quyidagilar: **ат = [at]; эт**

[122] Константин Геннадьевич Красухин. Из истории исторической лингвистики: Бодуэн де Куртенэ и языковые изменени. Вопросы языкознания. – В.98. 2021. №2.Рр.98–122. https://vja.ruslang.ru/ru/ archive /2021-2/98-122

[123] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.13.

= [etʹ]; от = [ot]; өт = [отʹ]. Ko‘rib turganingizdek, bu 4 so‘zning boshida 4 ta keng unli kelgan. Ularning oxirida, oldidagi unli tovush ta’sirida, bitta emas, balki 4 ta boshqa undosh tovushlar talaffuz qilinishi, xususan: t – qalin (yo‘g‘on) undosh; tʹ – ingichka undosh; t – lablangan qalin undosh; tʹ – lablangan ingichka undosh ekanligi ushbu terminlar orqali ifodalangan. “Тилдеги окшош тыбыштарды жалпылаштыруучу бирдик **фонема** деп аталат”[124]. Darslikda fonema bilan tovushning o‘rtasidagi farqli jihatlar quyidagicha bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.

1.*Тыбыш конкретүү бирдик, фонема абстрактуу бирдик.*

2.Тыбыш жекече бирдик, фонема жалпылоочу бирдик.

3.Сөздүктөгү сөз, сөз мүчөсү фонемалардын тизмегинен куралат.

4.Тексттеги сөз, сөз мүчөсү тыбыштардын тизмегинен турат.

Masalan, тар, тер, тор, төр degan to‘rtta so‘zning boshida /т/ fonemasi, oxirida /р/ fonemasi va o‘rtada /а, е, о, е/ fonemalari kelgan. Agarda shu so‘zlar ko‘plik *аттар, иттер, оттор, чөптор* shaklida olinsa, unda bularning tarkibida -тар, -тор, -тер, -төр (bu qo‘shimchalar qirg‘iz tilidagi ko‘plik -lar qo‘shimchasining variantlari) kabi bir vaqtning o‘zida to‘rt xil variant paydo bo‘ladi. Ammo, shunga qaramay, ularning fonemik tarkibi yuqoridagi so‘zlarning fonemik tarkibiga to‘liq mos kelishi aytilgan. Shuning uchun ham morfemani ma’no va shakl bo‘yicha farqlash xususiyati fonemaning eng asosiy xususiyati sifatida belgilanishi asosli qilib ko‘rsatilgan. Bu holat nafaqat qirg‘iz tilida balki, tahlil jarayonida qiyoslanayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligining “Fonemaning variantlashuvi” mavzusida ham fonema termini haqida ma’lumot berib, uning ma’no farqlash xossasiga ega ekanligi, lekin tovushning barchasi ham har doim ma’no farqlayvermasligi aytilgan. “Bir fonemaning nutqiy varianti o‘rnini ikkinchi fonemaning nutqiy varianti egallasa, so‘z o‘zgarib ketadi. Masalan: *bosh – bot*, *bosh – besh*. Lekin bir fonemaning bir varianti o‘rnini uning ikkinchi bir varianti bilan almashtirilsa, ma’no farqlash amalga oshmaydi”[125]. Bunga misol tariqasida yana darslikda o‘t (o‘simlik) so‘zidagi (o‘) unlisini kimdir til oldi unlisi tariqasida, kimdir shevaga asoslanib til orqa tovushi sifatida talaffuz qilishi, lekin ular bir fonemaning varianti bo‘lganligi sababli o‘zaro ma’no farqlash qobiliyatiga ega emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.

[124] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.13.
[125] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.71.

Qiyoslanayotgan “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida nutq tovushlari *үндүү жана үнсүз тыбыштар* terminlari bilan ifodalanib, ***үндүү тыбыш terminiga qirg‘iz tilida “***тыбыштарды айтканыбызда өпкөдөн чыгып келаткан абанын агымы сүйлөө органдарыбыздан эч кандай тоскоолдукка учурабай сыртка эркин чыгып, үн түйүндөрүнүн дирилдөөсүнөн пайда болгон тыбыштар **үндүүлөр** деп аталат”[126] degan ta’rif berilgan. Shuningdek unli tovushlar va ularning turlari: *жоон үндүү, ичке үндүү, кең үндүү, кууш үндүү, ачык үндүүлөр, эрин үндүүлөр, созулма үндүүлөр singari* unli tovushga doir terminlar batafsil yoritilgan. Undosh tovush terminiga ham darslikda alohida ta’rif berilgan: “үнсүздөр өпкөдөн чыгып келаткан аба агымы сүйлөө органдарыбыздын тигил же бул жеринде кандайдыр бир тоскоолдукка учурап чыгышынын натыйжасында пайда болгон тыбыштар ***үнсүздөр*** деп аталат”[127]. Ushbu mavzuda undosh tovushlar hosil bo‘lishiga ko‘ra uch turga bo‘linishi quyidagicha terminlar bilan: 1) каткалаң үнсүздөр: *п, т, с, ш, ч, к, к, х, ф, ц, щ;* 2) жумшактар: *б, в, д, з, ж, ж, г, г;* 3) уяндар (сонор): л, м, н, ң, р, й nomlangan. Shakllanish o‘rniga nisbatan undosh tovushlarning taqsimlanishi quyidagicha: *эрин-эринчилдер*: ***б, п, м; эрин –тишчилдер: в, ф; уччулдар: т, д, с, з, ш, н, л, р, ц; орточулдар: й, ч, ж(жол, жаңы);түпчүлдөр:к (кара), г (гүл),ц, х; артчылдар: к (кара), г (коргошун) terminlar bilan ifodalangan; shakllanish uslubig ko‘ra (жасалуу ыгына карай): жарылмалар: б, п, д, т, к (көк), г (кар) г (гүл); жылчыкчылдар: з, с, ж (жюри) ш, й, г (карга) в, ф, х; мурунчулдар: м, н,*** ң***; капталчыл:л; дирилдеме: р; татаал үнсүздөр: ч, ж(жаңы) ц, ш. Bu kabi terminlarga berilgan ta’riflardan tashqari yana qirg‘iz tilida undosh tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: шуулдама үнсүздөр: (б, в, г, г (карга), ж, (жаңы),*** *ж, (жюри) з, к (кар), с, т, ф, х, ц, ч, ш, щ); уян үнсүздөр: (м, н,* ң*, р, й, л)* kabi terminlarga izoh berilgan.

Har ikki tildagi Oliy ta’lim darsliklarida fonetik terminlar qiyoslanganda quyidagicha o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Qardosh bo‘lgan bu ikki tilda tovushlarga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan til va nutq nuqtai nazaridan yondashilgani kuzatiladi. Masalan, *tovush* o‘zbek tilida***, тыбыш qirg‘iz tilida, ya’ni o‘zbek tilida nutq tovushlari, qirg‘iz***

[126] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.14.
[127] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.17.

tilida кеп тыбыштары (nutq tovushlari) terminlari qo‘llangan va ularga izoh berilgan. Nutq a’zolari yordamida hosil bo‘lgan, insonlar tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar o‘zbek tilida nutq tovushlari, qirg‘iz tilida esa кеп тыбыштары termini bilan yuritiladi. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida fonetika terminiga “fonetika deganda tilshunoslikning eng quyi sathi, shu sathni o‘rganadigan sohasi ham tushuniladi”[128] ***degan qisqa ta’rif berilgan. “***Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida esa “***фонетика –*** тилдин тыбыштык жүйөсүн ичине камтыган тил системаеынын бир бөлүгү жана ал бөлүктү изилдеп үйрөтүүчү тил илиминин бир бөлүмү”[129] deb aytilgan. Har ikkala tilshunoslik terminlariga berilgan ta’riflardan ko‘rish mumkinki, bular anglatgan ma’no mantiqan bir-birga o‘xshashdir. O‘zbek tilida nutq tovushi o‘zida uch: *1) fiziologik; 2) fizik, akustik; 3) funksional, sotsial* jihatlarni qamrab olganligi aytilgan. Qirg‘iz tilida ham fonetikaning uch jihati quyidagi terminlar asosida tahlilga tortilgan: *акустикалык, артикуляциялык, лингвистикалык.* Bu qiyosiy tahlilda terminlarning nomosligi ko‘zga tashlanadi. Tahlil uchun obyekt qilib tanlagan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida fonetikani o‘rganish obyekti batafsil yoritilmagan va bu mavzuga doir terminlar ham keltirilmagan. “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida esa fonetikaning obyekti 12 qismga ajratilib, unga doir terminlarga izohlar berilgan[130]. Qiyoslanayotgan har ikki tildagi darslikda ham “Fonetikaning turlari” deb nomlangan mavzu bo‘lib, bunda keltirilgan terminlarda ayrim farqlar mavjud. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida bu turlar *umumiy, xususiy* hamda *qiyosiy fonetikaga* ajralishi aytilgan. Sh.Shoabduramonov va boshqalar tomonidan tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida esa: nutq tovushlari *tarixiy, qiyosiy, hozirgi holati nuqtayi nazaridan hamda turli asboblar vositasida* o‘rganilishi mumkin. Shunga ko‘ra fonetika: *1) umumiy fonetika; 2) tarixiy fonetika; 3) qiyosiy fonetika; 4) tavsifiy fonetika ; 5) eksperimental fonetika* kabi qismlarga ajratilishi[131] ushbu terminlar bilan berilgan. Qirg‘iz tilida esa, *1) сыпаттама фонетика; 2) тарыхый фонетика; 3) тектештирме же тектештирме-тарыхый фонетика; 3) салыштырма же салыштырма-типологиялык фонетика; 4) диалектилик фонетика; 5) эксперименттик фонетика* kabi terminlar bilan nomlanishi va

[128] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.61.
[129] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.5.
[130] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.6.
[131] Ш.Шоабдураҳмонов, М.Асқарова, А.Ҳожиев, И.Расулов, Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адаий тили. – Тошкент, 1980. – Б.34.

turlarga bo‘linishi keltirilgan. Ushbu qiyoslashdan shu narsa aniqlashadiki, darsliklardagi ushbu mavzuga doir terminlar bir-biriga mutonosib holatda bo‘lib, har ikki tilda ham fonetikaga doir nazariyani batafsil yoritishga xizmat qilgan.

O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi unli tovushlarning har birining o‘ziga xos umumiy hamda xususiy jihatlari mavjuddir. Darsliklardagi unli tovushlarga doir terminlarni qiyoslasak, “Unli fonemalar paradigmasi” degan sarlavha bilan nomlanadigan mavzu bo‘lib, bunda unlilarning odatiy tasnifini ko‘rmaymiz. Ushbu darslikda tilning gorizontal holatiga ko‘ra unlilarning bo‘linishi *old qator, o‘rta qator va orqa qator* kabi terminlar bilan nomlanadi. Unlilarning bu belgisi asosiy hisoblanmasligi alohida ta’kidlangan. Tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra: *yuqori: i,u*; *o‘rta e,o‘; quyi a,o;* kabi turlarga ajratilib, shu terminlar bilan nomlangan. Lablanish belgisi bor-yo‘qligiga ko‘ra esa: *lablangan*: *u,o‘o* va *lablanmagan i, e, a* unlilarga ajratilgan[132]. O‘zbek tilida tilning ko‘tarilish darajasi birlashtiruvchi belgi, lablanganlik-lablanmaganlik belgisi esa farqlovchi belgi ekanligi misollar bilan ko‘rsatilgan. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida unlilar tasnifiga doir quyidagi terminlar keltirilgan: Tilning gorizontal holatiga ko‘ra unlilar ikkiga bo‘linadi: a) *oldingi qator yoki til oldi unlilari:* i, e, a; b) *orqa qator yoki til orqa unlilari:* u, o‘, o. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko‘ra unlilar 3 ga bo‘linadi: a) yuqori podyom yoki tor unlilar: i, u; b) o‘rta podyom yoki o‘rta keng unlilar: e (ye), o‘; d) pastki podyom yoki keng unlilar: a, o. Labning ishtirokiga ko‘ra unlilar 2 ga bo‘linadi: a) *lablashgan* unlilar – bularga o‘zbek adabiy tilidagi u, o‘ unlilari kiradi; b) *lablashmagan* unlilar – bularga o‘zbek adabiy tilida: i, e, a, o fonemalari kiradi[133].

Qirg‘iz adabiy tilida unlilar 14 fonemadan iborat bo‘lib, ular tovush davomiyligiga ko‘ra ikki xil termin bilan nomlanadi: 1) кыска (а, е (э), и, ы, о, ө, у, ү) va 2) созулма (аа, ээ, оо, өө, уу, үү)[134]. Qirg‘iz tilidagi unlilar lablar va tilning ishtirokiga ko‘ra *ачык – эрин (ochiq – lablangan), кең – кууш (keng va tor), жоон – ичке(qalin va ingichka)* kabi terminlar bilan ifodalanadi. Unlilar ushbu belgilariga ko‘ra tasnif qilinishi mumkin. Tilning oldinga tortilishi yoki yutilishiga qarab unlilar *qalin va ingichkaga* bo‘linadi. Jag‘ni ochish va tilni ko‘tarish yo‘nalishi bo‘yicha unlilar *keng va torga* bo‘linadi va yutish paytida lablar oldinga egilishi yoki neytral holatda turishi yo‘nalishi bo‘yicha unlilar *ochiq*

[132] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.67.
[133] Ш.Шоабдураҳмонов, М.Асқарова, А.Ҳожиев, И.Расулов, Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.49.
[134] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. –Б.14.

(lablanmagan) va lablangan kabi turlarga bo‘linadi va shu terminlar izohlanadi.

Тилге карай		**Эринге карай**		**Жаакка карай**	
жоон	**ичке**	**эрин**	**ачык**	**кең**	**кууш**
а, аа	**е, ээ**	о, оо	**а, аа**	**а, аа**	**ы**
	ө, өө	**ө, өө**	**е, ээ**	**е, ээ**	**и**
у, уу	**ү, үү**	**у, уу**	**а, аа**	**о, оо**	**ү, үү**
ы	и	**ү, үү**	**ы, и**	**ө, өө**	**у, уу**

Yuqoridagi tahlildan ko‘rishimiz mumkinki, o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi unli tovushlar tasnifi bir-biriga unchalik ham o‘xshash emas. Qiyoslaymiz: o‘zbek tilida tilning gorizontallik holatiga ko‘ra unlilar *(old qator, o‘rta qator, orqa qator)* kabi turlarga bo‘linadi. Old qator unlilar: *i, e, a;* Qirg‘iz tilning oldinga tortilishi yoki yutilishiga qarab unlilar *qalin va ingichka* unlilar turiga bo‘linadi. **Жоон (qalin) unlilar: а, о, у, ы; o‘zbek tilidagi orqa qator unlilar u, o‘, o; qirg‘iz tilidagi** *ичке (ingichka)* **unlilar: е, э, ө, ү, и;** O‘zbek tilida tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra *yuqori(i,u), o‘rta(e, o‘), quyi (a,o)* kabi terminlar bilan ifodalanadi. Qirg‘iz tilida jag‘ni ochish va tilni ko‘tarish yo‘nalishi bo‘yicha *кең (keng: а, аа, е, ээ, о, оо, ө, өө); кууш (tor: ы, и, ү, үү, у, уу);* o‘zbek tilida lablarning ishtirokiga ko‘ra lablangan unlilar: u,o‘,o; lablanmagan yutish paytida lablar oldinga egilishi yoki neytral holatda turishi yo‘nalishi bo‘yicha unlilar *эрин (lablangan: о, оо, ө, өө, у, уу, ү, үү)* va o‘zbek tilidagi lablanmagan unlilar: *i, e, a; qirg‘iz tilidagi ачык (lablanmagan: а аа, е ээ, а аа, ы, и).* Ikki tildagi unlilar tasnifiga doir terminlarni o‘zaro qiyoslaganimizda ularning o‘rtasida sezilarli darajada farq borligiga amin bo‘ldik. Bunga avvalo, alifbodagi unlilar sonining teng emasligi, qirg‘iz tilida o‘zbek tiliga qaraganda singormanizm hodisasi kuchli ekanligi asos bo‘ladi.

“Hozirgi o‘zbek tili” darsligida *undosh fonemalar*, “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida esa *үнсүз тыбыштар* terminlarining izohiga e’tibor qaratsak, mazmun-mohiyati bilan bir ma’noni bildiradi. Qaysi nutq a’zosining ishtirok etishiga va paydo bo‘lish usuliga ko‘ra hosil bo‘ladigan quyidagi o‘zbekcha terminlar “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida uchramaydi: *bo‘g‘iz tovushi, burun sonant, shovqinli sonant, yon sonant, titroq sonant, portlovchi, sirg‘aluvchi undoshlar, sonor tovushlar, korelyativ belgi, korelyativ bo‘lmagan belgi.*

1980-yilda nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida undoshlar quyidagicha tasnif qilinishi ko‘rsatilgan: 1*) undoshlarning paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra xususiyatlari. 2) aytilish usuliga ko‘ra bo‘linishi. 3) tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra bo‘linishi. 4) undoshlarning ovoz ishtirokiga ko‘ra bo‘linishi. 5) tarkibiga ko‘ra* [135]bo‘linishi. Bugungi kunda zamonaviy darsliklarda undoshlar tasnifi bunday terminlar bilan nomlanmayapti. Undosh tovushlar tasnifi “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida batafsil berilmagan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi asosiy darsliklarda undoshlar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra: *lab undoshi: lab-lab: b,p,m; lab-tish: v, f kabi terminlar bilan nomlangan.* Qirg‘iz tilida esa *жасалуу ордуна карата үнсүз тыбыштар төмөнкүдөй бөлүштүрүлөт*[136] *(yasalish o‘rniga ko‘ra undosh tovushlar quyidagi turlarga bo‘linadi) va ushbu terminlar bilan izohlanadi: эрин – эринчилдер* (lablilar): ***б, п, м; эрин-тишчилдер (lab-tish): в, ф; bu tovushlar, asosan, qirg‘iz tiliga rus tilidan o‘tgan so‘zlarda qo‘llanadi. O‘zbek tilida til undoshlari: til oldi (d, t, z, s, j, ch, j, sh, n, l, r); til o‘rta(y);til orqa(g,k,ng); chuqur til orqa(q, g,‘x).Qirg‘iz tilida уччулдар (til va tishning uchida aytiladi): т, д, с, з, ш, н, л, р, ц; орточулдар (til o‘rta undoshlari): й, ч, ж (жол, жаңы);*** **артчылдар(orqa qator undoshlar): (***к – кара), (г – коргошун);* **түпчүлдөр (tub undoshlar):** *к (көпөлөк, (г (гүл), ц, х).* Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar o‘zbek tilida *portlovchilar (b,p,d,t,g,k,m,n,ng,q,j);* qirg‘iz tilida **жарылмалар (yorilma undoshlar): (*б, п, д, т, к** *(көк), г (кар) г (гүл); sirg‘aluvchilar (v, f, z, s, g‘, x, y, l, r, j, sh); жылчыкчылдар (sirg‘alduvchi undoshlar): (з, с, ж (жюри), ш, й. г (карга), в, ф, х);* **o‘zbek tilida *burun sonanti:(m,n,ng);*** qirg‘iz tilida *мурунчулдар:* (***м, н, ң);*** *terminlari bilan izohlangan. O‘zbek tilidagi yon sonant:l; qirg‘iz tilida капталчыл:* ***л;*** *titroq sonant:r; дирилдеме: р; o‘zbek tilidagi qorishiq(ch); qirg‘iz tilida* **татаал үнсүздөр (murakkab undoshlar): *ч, ж* (*жаңы), ц, щ kabi terminlari bilan yuritiladi.***

O‘zbek tilshunosligiga doir darsliklarda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undoshlar jarangli va jarangsiz tovushlar kabi turlarga ajratilgan. “O‘zbek tilidagi 8 ta fonema uchun “jarangli-jarangsizlik” korelyativ belgi hisoblanadi: b-p, d-t,g-k, g‘-x, v-f, z-s, j-ch, j-sh”[137]. “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida “Кыргыз тилиндеги үнсүз

[135] Ш.Шоабдураҳмонов, М.Асқарова, А.Ҳожиев, И. Расулов, Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.55.
[136] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.18.
[137] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.68.

тыбыштар шыбыш менен үндүн катышына карата эки топко бөлүнөт”[138]. Шуулдама үнсүздөр (shovqinli undoshlar): ***б, в, г, ғ (карга . ж (жаңы), ж (жюри), з, к (кар), с,т, ф. х. и. - ш, щ; уяң үнсүздөр(shovqinsiz undoshlar): м, н, ң, р, й, л*. O‘zbek tili grammatikasida uchraydigan *sonor* tovush termini qirg‘iz tilida *уяң үнсүз* (avvalgi adabiyotlarda sonorlar deb yuritilgan) deb nomlanadi. Yana o‘zbekchaga xos bo‘lgan jarangli-jarangsizlik qirg‘izchada *жумшак жана каткалаң үнсүздөр* deb yuritiladi.**

Qiyosiy fonetik terminlarning yana bir farqli jihati shundaki, “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida unli va undosh tovushlarning nutq oqimida o‘zgarishi va ularni ifodalovchi *сингармонизм, ассимиляция, диссимиляция, үнсүздөрдүн жумшарышы, үндүүлөрдүн түшүп калышы, үндүүлөрдүн кошулуп айтылышы, үнсүздөрдүн түшүп калышы, метатеза* kabi terminlar keltirilgan. O‘zbek tilidagi darslikda “Nutqda sodir bo‘ladigan o‘zgarish tovushning kombinatorpozitsion o‘zgarishi deyiladi”[139] deb ta’kidlagan. Darslikda bu xususiyatlar “Fonetik jarayonlar” degan mavzuda o‘rganiladi. Jumladan, singormaniz, assimilyatsiya, dissimilyatsiya metateza, proteza, epenteza, epiteza, prokopa, sinkopa, apakopa, sinerezis, reduksiya, eleziya, giminatsiya kabi terminlar orqali fonetik hodisalar izohlangan. Xususan, har ikki oliy ta’lim darsliklariga asoslanib fonetik hodisalarni qiyoslasak, o‘zbekcha ***singormanizm*** *termini* **(*Unli va undoshning o‘zgarishi farqlanadi. Odatda, unlining nutq jarayonida o‘zaro moslashishi, uyg‘unlashuvi singarmonizm deyiladi)***[140] qirg‘izcha ***сингармонизм (***тыбыштык ушул кубулуш үндөштүктүн (сингармонизмдин) маңызын түзөт)[141] ***assimilyatsiya*** *(nutq tovushi qator kelganda ba’zan bir-biriga ta’sir qilib, biri ikkinchisini o‘ziga moslashtiradi. Bunday hodisa assimilyatsiya deyiladi); qirg‘iz tilida ham* undosh tovushlardan biri boshqasiga ta’sir qilishi va ularning bir-biriga biroz o‘xshashligini ko‘rsatishi tufayli yuzaga keladigan fonetik o‘zgarish *ассимиляция* termini bilan izohlanadi. Bunday moslashuvning darsliklarda quyidagicha turlari berilgan: **progressiv assimilyatsiya***(oldingi tovush keyingi tovushni o‘ziga o‘xshatishi, moslashtirishi).* Masalan: ket+di – ketti, ot+dan–ottan, yurak+ga – yurakka**; *прогрессивдүү ассимиляциясы(эгерде үнсүз тыбыштар өзүнөн***

[138] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.18.
[139] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.72.
[140] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.72.
[141] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.22.

мурдагы тыбыштын таасири менен өзгөрүп айтылса (башкача айтканда, өзгөрүү сөздүн алды жагын көздөй багытталса), үнсүздөрдүн ***прогрессивдүү ассимиляциясы*** деп аталат*): 1) б>п: ук+ба>укпа, тарт+ба>тартпа; 2)д>т: жумуш+дан>жумуштан;* 3) ***г>к:*** *бак+га>бакка, саат+га>саатка*[142]. **regressiv assimilyatsiya** *(keying tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatish, moslashtirish). Masalan: yigit+cha – yigichcha, bir+ta – birta.* Qirg'iz tilida **регрессивдүү ассимиляция** (*үнсүз тыбыштардын бул багыт боюнча өзгөрүшү да бир сөз ичинде (уңгу менен мүчөнүн чегинде) жана бири-бирине жанаша айтылган эки сөз ортосунда кездеше берүүчү тыбыштык кубулуштардан болуп саналат*[143]. *1)муунга>мууңга, мурунку>муруңку; 2) сөзсүз>сөссүз, тузсуз>туссуз; 3) танба>тамба, тонбу>томбу, ынанбайт>ынамбайт.*

Qirg'iz tilida *ассимиляция* terminiga yuqorida aytib o'tilganidek, talaffuz qilingan undosh tovushlardan biri boshqasiga ta'sir qilishi va ularning bir-biriga biroz o'xshashligini ko'rsatishi tufayli yuzaga keladigan fonetik o'zgarishdir, deya ta'rif berilgan. Bunday o'zgarishlar qirg'iz tilida 2 turga bo'linishi ***толук, толук эмес*** *(жарым-жартылай)* ***ассимиляция***[144] деп аталат. ***Толук ассимиляция (***ikki xil undosh tovushlardan biri ikkinchisiga ta'sir qilsa va uni har jihatdan mutlaq o'xshashlikka ega (ya'ni bir xil narsaga ega) tovushga uzatsa, to'liq assimilyatsiya hisoblanadi***): 1) туз сура > тус сура, сөзсүз>сөссүз, азсын>ассын, жазса>жасса, көз сал > көс сал (з>с); 2) жанмай>жаммай, тунма>тумма, карын май > карым май (н>м). Толук эмес ассимиляция(***qirg'iz tilidagi assimilyatsiyaning bu turiga zid ravishda, to'liq bo'lmagan (qisman) tur ustunlik qiladi. Chunki assimilyatsiya hodisalarining umumiy asosi undoshlarning butunlay bir-birini almashtirishidadir***):түмбү*** (<түн+бы), ***түмбады,*** (<тун+ба+ды), ***мүмкүм бекен*** (<мүмкүн бекен) **(*н>м***); 2) ***тапан, тепин, буун, кабан*** сыяктуу бир катар сөздөрдөгү ***п, б*** тыбыштары сөз аягындагы мурунчул ***н*** аркылуу ***м*** тыбышына өтүп **(*п>м, б>м*** болуп өзгөрүп), ал сөздөр ***таман, темин, муун, каман*** түрүндө колдонулуп калган; 3) каткалаң үнсүздөр менен аякталган сөздөргө айкашканда, мүчөнүн башындагы жумшак үнсүз тыбыш өзүнүн каткалаң түгөйүнө өтүп

[142] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.26.
[143] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.27.
[144] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.25.

өзгөрөт: ***ташка*** (<таш+га), ***сууктан*** (<суук+дан), ***бышыкпы*** (<бышык+бы), ***бастыр*** (<бас+дыр)[145].

O‘zbek tilida yana bir fonetik hodisani ifodalovchi **dissimilyatsiya** hodisasi mavjud bo‘lib, “ayrim paytda talaffuzda ikki o‘xshash tovush bir joyda yoki bir so‘zda kelgan vaqtda biri noo‘xshash tovushga ham aylanib qolish[146]” hodisasi hisoblanadi. Qirg‘iz tilidagi **диссимиляция** terminiga berilgan ta’rif ham o‘zbekchadagi ta’rif ma’nosiga hamohang. Har ikki darslikda ham ushbu termin izohlagan ma’no ham o‘z navbatida ikki turga ajraladi: o‘zbek tili darsligida progressiv dissimilyatsiya: zarar – zaral, zarur – zaril; regressiv dissimilyatsiya – koridor – kalidor, ittifoq – intifoq. Qirg‘iz tili darsligida dissimilyatsiya terminining quyidagicha ko‘rinishi mavjud. 1) Bir qancha qo‘shimchalarda (masalan: ***-ла, -лар, -луу, -лык, -ны, -нын, -ныкы)*** tarkibidagi asosiy bo‘lgan л, н tovushlari so‘z oxirida qo‘llanilgan yumshoq undoshlarga qo‘shilganda ***л>д*** yana ***н>д*** ga o‘zgaradi. Bularda yozilganda ham, aytilganda ham shu holat saqlanadi. Мисалы: a) ***-ла, -лар, -луу, -лык*** мүчөлөрүнүн ***з, л, н, ң, м*** менен аякталган сөздөргө жалганышы: ***-ла:*** көз+ла > көздө, пул+ла>пулда; ***-лар:*** кыз+лар> кыздар: ***-луу:*** муз+луу>муздуу, мал+луу>малдуу; ***-лык:*** семиз+лык>семиздик[147]. Qirg‘iz tilida so‘zning oxiri r tovushi bilan tugagan so‘zlarga yuqoridagidek qo‘shimchalar qo‘shilganda l tovushi d tarzida talaffuz etilishi ham etilmasligi ham mumkin. Masalan: түрлө – түрдө; карла – карда; барлык – бардык. b) ***-ны, -нын, -ныкы*** kabi qo‘shimchalar ***й, з, л, м, н, р, ң*** tovushlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda: Masalan, ***-ны:*** карагай+ны>карагайды; кагаз+ны > кагазды; ***-нын:*** сарай+нын>сарайдын, кайың+нын > кайыңдын; ***-ныкы:*** айыл+ныкы>айылдыкы, балам+ныкы>баламдыкы; Bundan tashqari yana dissimilyatsiyaning quyidagicha ko‘rinishlari mavjud: чач-са>чашса, кач+сын >кашсын. Tahlillardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, qirg‘iz tili darsligida dissimilyatsiyaning o‘ziga xos bir qancha ko‘rinishlari mavjud.

Qirg‘iz tilidagi *үнсүздөрдүн жумшарышы (undoshlarning yumshatilishi) da* barcha qattiq undoshlar talaffuzda o‘zining muqobil (yumshoq) variantiga almashishiga asoslanadi. Masalan: ***бак+ым>багым, жук+уу>жугуу. Demak,*** *үнсүздөрдүн жумшарышы* terminini o‘zbek tiliga *undosh tovushlarning moslashuvi*

[145] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.26.
[146] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: “Tafakkur avlodi, 2023. – B.74.
[147] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.28.

deb tarjima qilsak bo‘ladi. Masalan: to‘qson – to‘xson; taqsim – taxsim. Ikki va undan ortiq bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida o‘zakdagi unli tovush tushib qolishi mumkin. Bu holat qirg‘iz tilida *үндүүлөрдүн түшүп калышы* termini bilan yuritiladi. Masalan: ***айыл+ым>айлым, айыл+ың>айлың. Bunday so‘zlar qirg‘iz tilida “эки вариантту сөздөр”, ya’ni ikki variantli so‘zlar deb yuritiladi va yozuvda ikki varianti ham qo‘llaniladi. Bundan tashqari bu holat so‘zga qo‘shimcha qo‘shilgan paytda ham kuzatiladi:*** *ата+ым>атам, ини+ым>иним. Ya’ni unli bilan tugagan so‘zga unli bilan boshlangan qo‘shimcha qo‘shilganda, qo‘shimchadagi unli tovush tushib qoladi. Үндүүлөрдүн кошулуп айтылышы* (chetdan kirib kelgan so‘zlarga unli tovush qo‘shib talaffuz qilinishi). Masalan: *ыстакан (стакан), ыстанок (станок), ыстанса (станция).* Bu terminning izohidan shu holat ayonki, o‘zbek tilidagi *tovush ortishi* terminiga mos keladi. ***Үнсүздөрдүн түшүп калышы*** *(undosh tovushlarning tushib qolishi)* mavzusida asosda ham, qo‘shimchada ham undosh tovushlarning tushib qolishi tarixiy so‘zlarda ham, hozirgi kundagi so‘zlarda ham uchrashi aytib o‘tilgan. *Masalan,* tarixiy so‘z**: *элгек, оргок, таргак; hozirgi qirg‘iz adabiy tilida г* tovushi tushib qolib, *элек, орок, тарак shaklida qo‘llanmoqda. Qirg‘iz tilida ham o‘zbek tilidagi kabi so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida undosh tovushlarning tushib qolishi kuzatiladi.*** *Метатеза (*бир сөз ичиндеги тыбыштардын орун алмашып айтылышы ***метатеза*** деп аталат[148]). *Metateza* (og‘zaki nutqda ba’zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o‘rni almashish hodisasi)[149]. Qiyoslanayotgan darsliklarda terminga berilgan ta’rif mazmunan juda yaqin.

Qirg‘iz tili darsligida: ***бөксө – бөскө, мыкчы – мычкы, чепкен – чекпен, кешпир – кепшир, сарымсак –*** *сармысак, кырмычык – кырымчык, курмушу – курумшу.* O‘zbek tili darsligida *r-y: daryo – dayro; m-g‘: yomg‘ir – yog‘mir; b-r: tebratmoq–terbatmoq; m-l: yamlamoq-yalmamoq; h-v: ahvol – avhol; p-r: tuproq–turpoq; r-g: o‘rganmoq – o‘granmoq; g‘-r: to‘g‘ramoq – to‘rg‘amoq; n-m: aylanmoq – aynalmoq*. Keltirilgan misollardan ham ko‘rish mumkinki, har ikki darslikda berilgan ushbu termin nomlanishi, vazifasi jihatidan ham bir xil.

“Hozirgi o‘zbek tili” darsligida bu kabi fonetik hodisalarga xos terminlardan tashqari: *proteza (*so‘z boshida bitta unlining orttirilishi):

[148] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. –Б.33.
[149] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.74.

ro‘mol – o‘ramol, ro‘za –o‘raza, qirg‘iz tilida *(ыраазы – раазы, ырахмат - рахмат)*[150]*; epenteza* (so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida i, ba’zan u va a unlisi orttiriladi): *fikr – fikir, hukm – hukum, nafs – nafis; epiteza* (so‘z oxirida bir o‘rinda kelgan ikki undoshdan so‘ng (a) tovushining qo‘shilish hodisasi)*: disk – diska, bank – banka,* qirg‘iz tilida (*банк - банкага, банкыга, акт - актыга*)[151] *; prokopa* (bunda so‘z boshida ba’zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi): *yiroq – iroq, yigna – igna,* qirg‘iz tilida ayrim dialektik so‘zlarda uchraydi: ачар – начар, ике – нике, уска – нуска), айза – найза, асыя – насыя[152]*; sinkopa* (hodisasiga binoan so‘z o‘rtasidagi va oxiridagi keng unli tor unli kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatda tushib qoladi)*: rektor – rektir, plan–pilon, traktor – traktir; apakopa* (so‘z o‘zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir): *do‘st – do‘s, xursand – xursan,* , qirg‘iz tilida (*саргылт – саргыл, буйгат - буйга, кулдурт – кулдур*)[153]*; sinerezis* (hodisasiga ko‘ra so‘z o‘rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli fonema esa cho‘ziq talaffuz etiladi): maorif – mo:rif, saodat – so:dat, qiroat – qiro:t; *reduksiya* (so‘zning birinchi bo‘g‘inida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir): *bir, bil,til,* qirg‘iz tilida ikki yoki undan ortiq bo‘g‘inli so‘zlarga ayrim qo‘shimchalar ulanganda, so‘zning oxirgi bo‘g‘inidagi unli tovushning tushib qolishi holatlari uchraydi. Bu ko‘pincha urg‘u boshqa bo‘g‘inga o‘tishi natijasida yuzaga keladi va tushib qolish faqat ы, и, у, у кууш (tor) unli tovushlariga xosdir[154]: *айыл+ым>айлым, киши – кши, кышкы – кшкы; eliziya* (unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasi): *yoza oladi – yozoladi ; geminatsiya (ikkita bir xil undoshning so‘z tarkibida qavatlanishi): yashamagur–yashshamagur, uchalasi–uchchalasi; gaplologiya* (yasama so‘z tarkibida birin-ketin kelgan ikkita bir xil bo‘g‘indan birining tushirib qoldirilishi. Bu hodisa ko‘proq ixchamlashtirish, nutq tejamkorligi asosida sodir bo‘ladi): *morfofonologiya – morfonologiya, mineralologiya – mineralogiya*[155]*. Ushbu terminlarning barchasi fonetik hodisalarga doirdir. Sinkopa, sinerezis, eliziya, geminatsiya,*

[150]Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.33.
[151] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.77.
[152] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.33.
[153] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.34.
[154] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.35.
[155] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.75.

gaplologiya kabi terminlar “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida berilmagan. *Sinkopa va eliziya*[156] terminlari qirg‘iz tiliga bag‘ishlangan avvalgi adabiyotlarda berib o‘tilgan.

Fonetika bo‘limiga oid bo‘lgan *morfonologiya* termini o‘zbekcha darslikda berilgan. *Morfonologiya (So‘z va morfema tarkibidagi har qanday tovush almashinuvi, avvalo, fonetik-fonologik tabiatli, semantik qiymatga ega emas. Morfonologiya morfemik-morfologik variantning ana shu ko‘rinishlari voqelanishining me’yoriy jihatini tekshiradi*[157]*)*.Bu terminga doir nazariy ma’lumotlar hamda amaliy ko‘rsatmalar berilgan. Lekin qirg‘izcha darslikda bu termin haqida ma’lumot yo‘q. O‘zbek tilshunosligida bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar yig‘indisi bo‘g‘in deb yuritiladi. Biz qiyoslayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida bo‘g‘in terminiga izoh berilmagan. O‘zbek tilidagi *bo‘g‘in*, qirg‘iz tilida *муун* **(тилдеги эң кичинекей айтым бирдиги *муун* деп аталат)** termini bilan ataladi. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida turkiy tillarda so‘zlar o‘zakning bir bo‘g‘inli ekanligi bilan xarakterlanishi, bu bo‘g‘in to‘rt xil fonetik strukturaga ega ekanligi haqida ma’lumot berilgan. Xususan: 1) CVC: *undosh, unli, undosh;* 2) CV: *undosh, unli;* 3) VC: *unli, undosh;* 4) *V: unli.* “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida bo‘g‘inning *акустикалик жа артикуляциялык* xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. “*Муун типтери*” degan mavzuda qirg‘iz va barcha turkiy tillar uchun xos bo‘lgan bo‘g‘inning olti turi borligini tilshunos olim К. Тыныстанов shartli belgilar bilan ko‘rsatib bergan:

1.*A:* уу, оо, ээ;

2.AP: ат, эт, от, ит, ут, өт;

3.AL: алп, арт, уурт;

4.PA: де, же, тоо, төө;

5.PAP: бал, бел, көл[158];

6.PALP: калп, кант, даңк. Bunda A – unli tovush, P – unosh tovush, L – ovozsiz (уяң-сонор) tovush kabi belgilarning izohi berilgan. “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligining “*Муун түрлөрү*” qismida ta’kidlanishicha, bo‘g‘inning asosini tashkil etuvchi unli tovushning so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida kelishiga ko‘ra bo‘g‘in uch turga bo‘linishini aytib o‘tgan.

1.*Ачык муун* – үндүү менен бүткөн муун. Жалгыз гана үндүүдөн турган муун да ачык муунга жатат (***unli bilan tugagan***

[156] Нармырзаева К. Тил илимине киришүү. –Ош, 2020. – Б.50-51.
[157] Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.77.
[158] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.34.

yoki unlidan iborat bo‘lgan bo‘g‘in). Masalan: ***сүү, жүү, күү, туу, де, же, тоо, оо, уу, а-та, э-не.***

2. ***Жабык муун*** – үндүү менен башталып, үнсүз менен бүткөн муун (unli bilan boshlanib, undosh bilan tugagan bo‘g‘in). Masalan: ат, эт, от, ит, ут, өт, ал, эл.

3. ***Туюк муун – үнсүз менен башталып, үнсүз менен бүткөн муун (undosh bilan boshlanib, undosh bilan tugaydigan bo‘g‘in). Masalan:*** *кат, жат, тур, бар, бас, жет, кет, барс, кант, даңк*. Yuqoridagi uch terminning izohi barcha turkiy bo‘lgan tillar uchun asoslidir**.** Yuqoridagilardan shu narsa ko‘rinadiki, qirg‘iz tilida bo‘g‘inlarning tasnifida uchraydigan ***туюк муун*** terminiga mos keladigan o‘zbek tilida termin mavjud emas. O‘zbek tilida *“Bo‘g‘in”* mavzusi maktablarda o‘qitilganda so‘zning har bir bo‘g‘ini unli tovush bilan tugasa *ochiq bo‘g‘inli so‘z,* so‘zning har bir bo‘g‘ini undosh tovush bilan tugasa *yopiq bo‘g‘inli so‘z,* agarda so‘zda ham ochiq, ham yopiq bo‘g‘in ishtirok etsa shartli ravishda *aralash bo‘g‘inli so‘z* degan termin ishlatiladi.

Biz qiyoslayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida bo‘g‘in va uning turlari haqida batafsil ma’lumot keltirilmagan bo‘lsa-da, 1980-yilda pedagogika institutining filologiya fakulteti talabalari uchun mo‘ljallab tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida *“Бир унли ва бир ундошдан иборат бўлган бўғин. Бундай бўғин унли ва ундошдан иборат (ёпиқ) ва ундош ҳамда унлидан иборат (очиқ) бўлиши мумкин. Унли+ундош: иш, ўн, уч, ош, схемаси: VC . Ундош + унли: бо-ла, ло-ла, то-га, кў-па, бе-да-на, схемаси CV*[159] kabi terminlar keltirilgan va ularga izohlar berilgan. Ushbu darslikda ham bo‘g‘in qanday tovushlardan tarkib topganligini ifodalash uchun maxsus sxemalar ham berilgan: V belgisi lotincha *vokalis* so‘zining birinchi harfidan olingan bo‘lib, aslida unli(ovozli) egan ma’noni anglatishi aytiladi. C belgisi esa inglizcha *consonant* so‘zining bosh harfidan olingan bo‘lib, u aslida unli, ovozli degan ma’nolarni bildirishi keltirilgan. VC: unli – undosh, CV: undosh – unli, V: unli.

Shuningdek, urg‘u bilan bog‘liq ayrim terminlarda ham farqli jihatlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, *urg‘u* – o‘zbek tilida, басым – qirg‘iz tilida. Urg‘u izohi: Bo‘g‘in yoki so‘zning biror fonetik vosita orqali ajratilib, zarb bilan aytilishi urg‘u deb ataladi[160]. Басым

[159] Ш.Шоабдураҳмонов, М.Асқарова, А.Ҳожиев, И.Расулов, Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адаий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.68.

[160] Ш.Шоабдураҳмонов, М. Асқарова, А.Ҳожиев, И.Расулов, Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адаий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.69.

(Басым — кеп бирдиктеринин бир бөлүгүнүн күчтүү сезим менен айтылышы.).

“Hozirgi o‘zbek tili” darsligida urg‘u termini va turlari haqida batafsil ma’lumot berilmagan. Lekin Oliy ta’limda o‘qitiladigan darsliklardan yana bir “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida urg‘u va uning turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan: *intonatsion urg‘u* (gap urg‘usi), *so‘z urg‘usi* terminlari bilan nomlanadi. Qirg‘iz tili darsligida yana **динамикалык же экспиратордук басым,** *музыкалык (тоналдык) басым,* **сандык басым, сапаттык басым kabi urg‘uga doir terminlar ham keltirilgan. O‘zbek tilida uchraydigan so‘z urg‘usi quyidagicha berilgan:** кыргыз тилинин сөздүк басымы – сөз уюштуруу функциясын реализациялоодо, негизинен, сөздөрдүн аягындагы – акыркы муундарга түшөт (мисалы: ата, жай-лоо, көпөлөк, жатакана, тиричилик)**, gap urg‘usi termini va u anglatgan mazmun qirg‘iz tili darsligida uchramaydi.**

O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligidagi fonetik terminlarning qiyosiy-tipologik tahlili ushbu terminologik tizimlarning umumturkiy til asosida shakllanganligini, biroq har bir tilning tarixiy taraqqiyoti, fonetik tizimi va milliy tilshunoslik maktablari ta’sirida o‘ziga xos terminologik xususiyatlarga ega bo‘lganligini ko‘rsatdi. Biz tahlilga tortgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligining “Fonetika-fonologiya, morfonologiya” deb nomlangan mavzusida jami 91 ta fonetik termin qo‘llangan bo‘lib, shulardan 54 tasi sodda terminlar, 37 tasi termin-birikma shaklida qo‘llanganligini aniqladik. Qirg‘izcha “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida esa «Фонетика. Фонетика жөнүндө жалпы түшүнүк» mavzusida jami 148 ta fonetik termin qo‘llangan bo‘lib, shulardan 52 tasi sodda termin, 29 tasi qo‘shma termin, 67 tasi termin-birikma shaklida uchraydi. Bu statistik ma’lumotdan shu narsa ayonlashadiki, qirg‘izcha darslikda fonetika bo‘limi kengroq yoritilgan. Tahlil davomida fonetika sohasiga oid terminlarning semantik mazmuni, strukturasi, tasnifi va qo‘llanish doirasi qiyosiy tahlil qilinib, ularning katta qismi umumiy ilmiy asosga ega bo‘lsa-da, ayrim terminlarning nomlanishi, izohlanishi hamda ilmiy talqinida sezilarli tafovutlar borligini ko‘rdik.

Qiyoslash natijalari o‘zbek tilshunosligida fonologik yondashuv va fonemalarning paradigmatik munosabatlariga ko‘proq e’tibor qaratilganini, qirg‘iz tilshunosligida esa fonetikaning akustik, artikulyatsion, lingvistik, eksperimental hamda kompyuter fonetikasi kabi yo‘nalishlari kengroq yoritilganini ko‘rsatdi. Shuningdek, unli va

undosh tovushlar tasnifi, singormanizm hodisasi, cho‘ziq unlilar tizimi hamda fonetik jarayonlarni ifodalovchi terminlarning qo‘llanishi qirg‘iz tili terminologik tizimining o‘ziga xos jihatlarini belgilab berishini ko‘rib o‘tdik. Oliy ta’lim darsliklarida qo‘llanilayotgan fonetik terminlar mazmunan mushtarak bo‘lishiga qaramay, ularning tasniflanishi, ilmiy izohlanishi va termin tanlash tamoyillarida muayyan farqlar mavjud ekanligi isbotlandi. Bu holat esa turkiy tillar terminologiyasini o‘zaro uyg‘unlashtirish, yagona ilmiy-me’yoriy tamoyillarni ishlab chiqish hamda qiyosiy terminologik tadqiqotlarni yanada rivojlantirish zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Grafik, orfoepik, orfografik terminlar tahlili

“Grafika” termini yunonchadan olingan bo‘lib, tilshunoslikda yozuv degan ma’noni bildiradi[161]. Tilshunoslikni ushbu bo‘limida yozuvlar tarixi, yozuvlarning turlari, alifbo va uning qo‘llanilishi o‘rganiladi. Qirg‘iz tilida bu terminga “графика – тигил же бул тилдеги тамгалар менен алардын айкаштарынын ошол тилдеги тыбыштар менен алардын айкаштарына болгон катышын жөнгө салуучу эрежелердин топтому[162]” deya mana shunday ta’rif berilgan. S. Otamirzayeva, M. Yusupovalarning oliy ta’lim talabalari uchun mo‘ljallangan “O‘zbek tili (Fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiya)” nomli o‘quv qo‘llanmasida “Grafika (yunoncha –yozma) tildagi tovushlarni ifodalovchi shakliy vositalar tizimi (sistemasi)dir. Har bir tovush uchun olingan maxsus shakl harf deyiladi. Harf tovushning in’ikosi bo‘lib, ikkilamchi hodisa (tovush birlamchi) hisoblanadi. U qo‘l bilan yozilib, ko‘z bilan “terib olinadigan” birlikdir. Muayyan tartibda joylashtirilgan harflar alifbo (alfavit) deyiladi”[163] deya ta’rif keltirilgan. Umuman olganda grafika – ma’lum bir tildagi belgilar va ularning birikmalari bilan o‘sha tildagi tovushlar va ularning birikmalariga bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar to‘plami degan ma’noni anglatadi.

O‘zbek va qirg‘iz tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, ular bir-biri bilan tarixan va madaniy jihatdan yaqin aloqada bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek va qirg‘iz tilshunosligi grafik terminlarini qiyoslash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotimizda grafikaga oid terminlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va zamonaviy

[161] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.87.
[162] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2009. – Б.57.
[163] Otamirzayeva S., Yusupova M. O‘zbek tili. (Fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiya). – Toshkent, 2004. – B.9. www.ziyouz.com kutubxonasi. file:///C:/Users/User/Downloads/Ozbek%20tili.%20Fonetika,%20grafika,%20orfoepiya,%20orfografiya%20(S.Otamirzayeva,%20M.Yusupova).pdf

holatini tanlab olingan dasrliklar misolida bosqichma-bosqich tahlil qilishga harakat qildik.

Qiyoslanayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida *grafika* (tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun shakllantirilgan optikgrafik belgilar tizimidir); *yozuv* (yozuv ko‘z bilan ko‘radigan va kishilar o‘rtasida o‘ziga xos aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladigan grafik belgilar sistemasi[164]); *grafema* (grafema muayyan til yozuv tizimining eng asosiy strukturaviy va funksional birligi sanaladi); piktografik yozuv (rasmlar orqali ifodalangan yozuv); *idiografik yozuv* (belgilar (ideogrammalar) butun bir so‘zni yoki tushunchani bildiradigan yozuv turi); *fonografik yozuv* (tilning fonetik tuzilishini, tovush tarkibini aniqroq, to‘liqroq aks ettiruvchi yozuv); *og‘zaki nutq* (muayyan shaxs nutqining tabiiy ko‘rinishi), *yozma nutq* (tabiiy nutqning shartli ko‘rinishi); *tashqi nutq* (boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq); *ichki nutq* (tashqi nutq asosida, tovush yoki yozuv qo‘llanmagan holda, faqat ovozli nutqdagi so‘zlar haqidagi aniq tasavvurlar bilan kechadigan aqliy jarayonlar tarzida amalga oshadi); *fonografema* (tovush tilidagi fonemalarni ifodalaydi: a, o, u; d, s, h, m); prosodemografema (tovush tilining ritmik intonatsion vositalari(urg‘u, ohang, melodika, pauza kabilarni yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi) ; *logografema* (tushunchalarni yoki tushuncha nomi bo‘lgan so‘zlarni yozuvda ifodalaydigan grafemalar (raqamlar, simvollar): 7, 9, 15, 21; XIV, XX; XL (60), L (50), D (500)); *morfografema* (so‘z tarkibidagi ma’noli qismlar (morfemalar)ni ifodalovchi belgilar. Masalan, -(chiziqcha); matematik simvollar +(qo‘shuv); astronomik belgi yoki yo‘l belgilari[165]) kabi 12 ta termin keltirilgan bo‘lib, ularning har biri ifodalagan ma’no izohlangan. “Азыркы кыргыз адабий тили” darligida esa “Grafika” mavzusiga doir terminlarning berilishi ozchilikni tashkil qiladi. *Графика (*графика деп алфавиттеги кайсы тамга аркылу тилдеги кайсы тыбыш (фонема) белгилене тургандыгын аныктоочу эрежелердин жыйындысы); *алфавит* (жазуу системасында колдонулган жана белгилүү бир тартип боюнча жайгаштырылган тамгалардын топтому[166]); *тамга, жазуу* kabi terminlar qo‘llanilgan bo‘lib, bularning ayrimlariga izoh berilmagan.

[164] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.88.
[165] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.88.
[166] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2009. – Б.57.

“Hozirgi o‘zbek tili” darsligida grafikaga doir yana bir qancha terminlar va ularning izohini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Yozuvning tarixiy ahamiyati”, “O‘zbek yozuvi tarixidan qisqacha ma’lumot” degan bo‘limlar bo‘lib, bularda yozuvning kelib chiqishi, takomillashuvi jamiyat taraqqiyoti va uning madaniy darajasi bilan bog‘liq ekanligi alohida ta’kidlangan. “Dunyoda taxminan 5621 ta til va sheva mavjud bo‘lib, hozirgacha ulardan 500 tasi o‘rganilgan, xolos. Har uch tildan bittasining yozuvi bo‘lmay, ularning aksariyati faqat og‘zaki nutq shakliga ega. Dunyo tillaridan 40 tasigina og‘zaki va yozma jihatdan mukammal shakllangan deb hisoblanadi”[167]. Yuqoridagi ma’lumotdan shuni bilishimiz mumkinki, hamma tillarda ham yozuv shakllanmas ekan.

Og‘zaki va yozma shaklga ega bo‘lgan 40 ta tilning tarkibida o‘zbek tili ham borligi quvonarli holat. *Fonografik yozuv, tovush yozuv, harfiy yozuv, alfavit* ushbu terminlar bilan nomlanuvchi yozuvlar o‘zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatilib kelingan asosiy yozuv sistemasi ekanligi aytilgan. Darslikda o‘zbek xalqi *oromiy, yunon, karoshta, sug‘d, xorazm, qo‘shan, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyg‘ur, arab kabi terminlar bilan ifodalanuvchi* yozuvlardan foydalanganligi haqida ma’lumot keltirilgan. Qirg‘iz tili darsligida yozuv va yozuvlar tarixiga doir terminlar keltirilmagan va nazariy asoslar berilmagan. Bu kabi ma’lumotlar K.Narmirzayevaning “Тил илимине киришүү”[168] nomli kitobida berilgan.

O‘zbek va qirg‘iz tillarida grafik terminlarning tarixiy taraqqiyoti murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Bu taraqqiyot bir necha bosqichlarni o‘ziga qamrab oladi. Har bir bosqichda mavzuga doir terminlar va ularning xususiyatlari ochib berilgan.

VI-X asrlarni o‘z ichiga olgan qadimgi turkiy davrda O‘rxun-Enasoy yozuvi qo‘llanilgan. Qadimgi turkiy til uchun yaratilgan bu yozuvda 38 ta harf bo‘lib, ular o‘ziga xos grafik tizimga ham ega bo‘lgan. Yozuv qo‘llanilgan davrda terminlar ham turkiy so‘zlardan tashkil topgan. O‘rxun-Enasoy yozuvini yevropaliklar *runik (sirli yozuv)* termini bilan nomlaganlar. “O‘rxun-runik yozuvi turkiy xalqlarning o‘z yozuvi sifatida e’tirof etiladi”[169]. VIII-XX asrlarda islom dinining tarqalishi bilan turkiy xalqlar, jumladan o‘zbek va qirg‘iz xalqlari ham arab yozuvidan foydalandilar. Bu davrda grafikaga doir terminlar ham

[167] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.90.
[168] Нармырзаева К. Тил илимине киришүү. –Ош, 2020. – Б.60-65.
[169] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.90.

arab tilidagi atamalar bilan boyidi. “Harf”, “nuqta”, “sukun” kabi arabcha terminlar aynan shu darvda o‘zlashtirilgan.

1920-1940-yillarda Sovet hokimiyati davrida turkiy tillarda, jumladan o‘zbek va qirg‘iz tillarida ham lotin yozuviga asoslangan alifbolar joriy qilindi. Bu davrda o‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida “alfavit”, “bukva”, “punktuatsiya” kabi terminlar paydo bo‘ldi. “Sobiq sho‘ro davrida boshqa sharq xalqlari bilan bir qatorda avval lotin, keyinchalik esa rus grafikasiga asoslangan yozuvni qabul qilish o‘zbek xalqi hayotida o‘ziga xos hodisa bo‘ldi”[170]. 1940-yildan boshlab o‘zbek va qirg‘iz tillari uchun kirill yozuvi joriy qilindi. Bu davrda rus tilidan *grafika, orfografiya, fonema* kabi ko‘plab grafik terminlar o‘zlashtirildi. 1993-yildan o‘zbek tili lotin yozuviga asoslandi, qirg‘iz tili esa kirill yozuvida qoldi. Bu davrda terminologiyada milliylashtirish an’anasi kuchaydi. Masalan: *imlo, tovush, bo‘g‘in* kabi terminlar keng qo‘llanila boshlandi.

O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi grafik terminlarning tarixiy taraqqiyotida umumiylik va o‘ziga xoslik mavjud. Umumiylik shundaki, har ikkala tilda ham dastlab, arab, keyin lotin va kirill yozuvlari qo‘llanilgan. Buning natijasida terminologiyada o‘xshashlik paydo bo‘lgan. O‘ziga xoslik esa, mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek tilining lotin yozuviga o‘tishi va qirg‘iz tilining kirill yozuvida qolishidadir. Bu esa terminologiyadagi ayrim farqlarni yuzaga keltirgan.

Hozirgi o‘zbek tilida 1993-yildan boshlab lotin yozuvi asosidagi alifbo qo‘llanila boshlagan. Bu alifboda 29 ta harf, 3 ta harfiy birikma mavjud: A a, B b, D d, E e, F f, G g, H h, I i, J j, K k, L l, M m, N n, O o, P p, Q q, R r, S s, T t, U u, V v, X x, Y y, Z z, O‘ o‘, G‘ g‘, Sh sh, Ch ch. Alifboda unli tovushlar uchun 6 ta harf (a,e,i,o,u,o‘) va undosh tovushlar uchun 23 ta harf/harf birikmasi ajratilgan. Qirg‘iz tilida hozirgi kunga qadar kirill yozuvi asosidagi alifboni qo‘llaydi. Bu alifbo 36 ta harfdan iborat. А а, Б б, В в, Г г, Д д, Е е, Ё ё, Ж ж, З з, И и, Й й, К к, Л л, М м, Н н, Ң ң, О о, Ө ө, П п, Р р, С с, Т т, У у, Ү ү, Ф ф, Х х, Ц ц, Ч ч, Ш ш, Щ щ, Ъ ъ, Ы ы, Ь ь, Э э, Ю ю, Я я.

Alifboda 14 ta unli tovush uchun harf (А, Е, Ё, И, О, Ө, У, Ү, Ы, Э, Ю, Я) va 22 ta undosh tovush uchun harflar ajratilgan. Ayrim harflar (Ъ, Ь) tovush bildirmaydi. O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush, qirg‘iz tilida esa 25 ta undosh tovush mavjud. Qirg‘iz tilidagi “ң” undoshi o‘zbek tilida yo‘q. Bu tovush burun sonanti bo‘lib, “ng” harf birikmasiga o‘xshash talaffuz etiladi. Shuning bilan birga o‘zbek tilidan farqli

[170] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.90.

ravishda qirg‘iz tilida ү, ө tovushlari ham mavjud. O‘zbek tilida bu tovushlar talaffuz qilinadi, ammo u tovushlar uchun maxsus harflar belgilanmagan (**o‘**roq – s**o‘**z, **u**r**u**sh – k**u**ldi). Grafik belgilar tizimidagi farqlar tilning imlo qoidalariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilida ayrim so‘zlarda unli tovushlar tushib qolsa (“kitob” – “kitoblar”) (bu yerda tovush tushish holatiga misolingiz to‘g‘ri kelmaganmi??), qirg‘iz tilida esa tovush uyg‘unligi tufayli unlilar o‘zgaradi *(“китеп” – “китептер”).* Shu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, qirg‘iz tilida tovush uyg‘unligi tufayli qo‘shimchalarning 8 tadan 12 tagacha (-лар, -лер, -лор, -лөр, -тар, -тер, -тор, -төр, -дар, -дер, -дор, -дөр) variantlari uchraydi. Bu esa imlo qoidalarida o‘z aksini topadi. Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi bir qator tovushlar bir xil bo‘lsa ham ularning yozuvdagi ifodasi turlicha bo‘ladi. Bu esa grafik terminlar o‘rtasidagi farqlarni keltirib chiqaradi. Masalan, o‘zbek tilida “sh” tovushi uchun “sh” harf birikmasi, qirg‘iz tilida esa “ш” harfi ishlatiladi.

O‘zbekcha darslikda “orfoepiya” termini yunonchadan olingan bo‘lib, “orphos” – to‘g‘ri, “epos” – nutq degan ma’nolarni anglatadi. Qirg‘iz tilshunosligida А.Жалиловнинг[171] «Азыркы кыргыз тили» darsligida “орфоэпия – сөздөрдү адабий тилдин нормасы боюнча туура айтууга үйрөтүүчү тил илиминин бир бөлүмү. Экинчи бир маанисинде бул термин оозеки кепте бирдиктүү адабий айтылыштын нормаларын аныктоочу эрежелердин жыйындысын туюнтат» (Orfoepiya – so‘zlarni adabiy til me’yoriga ko‘ra to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatuvchi tilshunoslikning bir bo‘limi. Ikkinchi bir ma’nosida bu atama og‘zaki nutqda yagona adabiy talaffuz me’yorlarini belgilovchi qoidalar to‘plamini ifodalaydi) deb ta’rif keltirilgan. Har ikki darslikdagi terminga berilgan ta’rif mazmunan bir-biriga yaqindir.

Orfoepiya adabiy tildagi to‘g‘ri talaffuz me’yorlarini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limidir. Biz tahlil qilayotgan darsliklarda bu terminga izohlar berilmagan bo‘lsa-da, o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi orfoepik terminlarda o‘xshashlik hamda farqlar mavjud. Tilshunoslikda orfoepik qoidalarning paydo bo‘lishida ma’lum bir yo‘nalishlarning ham ta’siri bo‘ladi. “Orfoepiyaning yuzaga kelishida ikkita faktor muhim rol o‘ynaydi. Bulardan biri orfografiya, ikkinchisi xalq og‘zaki nutqining

[171] Жалилов А. Кыргыз тили. 1-бөлүк. Тил илиминен маалымат, фонетика, графика, орфография, лексикология. – Бишкек, 1996. – Б.94. (232)

turli ko‘rinishlari va turli xil sheva talaffuzlaridir”[172]. O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi orfoepik terminlarni qiyoslab o‘tamiz. *Orfoepiya* (to‘g‘ri talaffuz haqidagi ta’limot), *орфоэпия* (туура айтуу жөнүндөгү илим), *talaffuz me’yorlari* (adabiy talaffuz qoidalari), *айтуу нормалары* (адабий айтуу эрежелери), *unli tovushlar talaffuzi* (unlilarning to‘g‘ri aytilishi), *үндүүлөрдүн айтылышы* (үндүүлөрдүн туура айтылышы), *undosh tovushlar talaffuzi* (undoshlarning to‘g‘ri aytilishi), *үнсүздөрдүн айтылышы* (үнсүздөрдүн туура айтылышы), intonatsiya (ohang, gap talaffuzidagi tovush o‘zgarishlari), *интонация* (ыргак, сүйлөмдөгү үн өзгөрүүлөрү), assimilyatsiya(tovushlarning o‘zaro moslashuvi), *ассимиляция* (үнсүздөрдүн өз ара ыңгайлашуусу), *reduksiya* (tovushning kuchsizlanishi), *редукция* (үндүн алсызданышы). Yuqoridagi qiyoslashdan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi orfoepik terminlar o‘rtasida jiddiy farqlar yo‘q. Bu terminlarning aksariyati baynalmilal terminlar bo‘lib, yunoncha va lotinchadan olingandir. Qirg‘iz tilidagi ayrim terminlar esa rus tili orqali o‘zlashtirilgan. Har ikki tilda ham terminlarning anglatgan ma’nosi bir xil, faqat fonetik jihatdan o‘zgarishlarga uchragan xalos.

Yozuvda adabiy nutqni saqlash, bir xillikka erishish uchun imlo (yozuv) tamoyillari ishlab chiqiladi. O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida imlo me’yorlarini o‘rganuvchi bo‘lim orfografiya termini bilan nomlanadi. Sh.Shoabdurahmonov va boshqalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ushbu terminga “Orfografiya so‘zi grekcha “orfhos” va “grapho” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “to‘g‘ri yozaman” degan ma’noni anglatadi”[173] degan ta’rif berilgan. “***Орфография*** **–** сөз жана сөз мүчөлөрүн туура жазуу эрежелери. Демек, ал адабий тилдин жазуу нормаларын аныктоочу эрежелердин системасы болуп эсептелет”[174]. Qiyoslanayotgan qirg‘izcha darslikda terminga berilgan ta’rifdan ko‘rish mumkinki, har ikki tilda ushbu termin anglatgan ma’no bir xil. O‘zbekcha darslikda yozuv tamoyillari 5 turga bo‘linib, quyidagi terminlar bilan ifodalangan: *fonetik tamoyil* (nutqiy birliklar talaffuziga muvofiq yoziladi: *buloqqa, yurakka, tuproqqacha, ochilguncha; sap-sariq, qip-qizil*), *morfologik tamoyil*(tildagi morfemalar nutqda qanday aytilishi yoki eshitilishidan

[172] Ш.Шоабдураҳмонов, М.Асқарова., А.Ҳожиев., И.Расулов., Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –Б.98.https://cdn-1.aki.kg/st_bilimlib/6/6accc818b73dab07fd67_adfee09490cccfee_9a0b.pdf

[173] Ш. Шоабдураҳмонов, М.Асқарова., А.Ҳожиев., И.Расулов., Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.98.

[174] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.58.

qat’i nazar, asl holicha yoziladi: *aytdi* so‘zidagi *-di* shakli *-ti* tarzida eshitiladi: *aytti*; *aytgan* so‘zidagi *-gan* shakli *-kan* tarzida eshitiladi: aytkan;)*; tarixiy-an’anaviy tamoyil* (ko‘pgina so‘z va iboralarning nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra hozirgi talaffuz me’yoriga mos kelmaydigan tarixiy shaklida yozilishidir: buyruq-istak maylining -gin shakli o‘rnida -gil, -g‘il shakllari: *aytgil, urmagil*; -gani maqsad ravishdoshining -gali, -kali, -qali, -g‘ali shakllari: *aytgali, kuydirg‘ali*; -dan chiqish kelishigi o‘rnida -din shakli: a*yriliqdin*; -mi yuklamasining -mu shakli: *kelarmu*; -dir kesimlik shaklining - dur ko‘rinishi: Mavlono saroyga qaytibdur va h.)*; farqlovchi (differensial) tamoyil,* (nutqimizdagi shakli va talaffuzi bir-biriga yaqin so‘z va morfemalarni yozuvda farqlashni talab etadigan yozuv qoidasi: otli – otlik, to‘nli – to‘nlik); *shakliy (grafik) tamoyil* (boshqa tillardan olingan so‘zlarni aynan o‘sha tildagi kabi yozish nazarda tutiladi: muallim – ma:lim, maorif – mo:rif, saodat – so:dat). Qirg‘izcha darslikda yozuv tamoyili asosiy 3 turga: ***фонетикалык принцип*** (бул принцип сөз же сөз мүчөсү кандай айтылса, ошол боюнча жазуу жагын жөнгө салат: ***1) раздел, рассыпатъ, развалины, россыпъ; 2) ат, эт, от, өт, атты, этти, отту, өттү, акчасыз, энесиз, суусуз, туссуз***); ***морфологиялык принцип*** **(**бул принцип морфемалардын бир түрдүү жазылышын жөнгө салат: ***1) бал, бел, бол, бөл; 2) түн, туз, көп, бирок, түңкү, түмбү, туссуз, көбөй*****);** *салттуу же этимологиялык принцип* (бул принцип негизинен, жазуу-сызуусу эчен кылымдар бою калыпташып өнүккөн тилдерде гана колдонулат да, айтылышы өзгөрүп кеткен сөздөрдү өзгөртпөй, мурунку калыбында жазууда жетекчиликке алынат: *1)* ***молоко –*** айтылышы: ***малако, соловей –*** айтылышы: ***салавей; 2) two (tu:)*** ‘эки’ - ***too (tu:)*** ‘да, дагы\ ***sight (sayt)*** ‘көрүнүш’ - ***site (sayt)*** ‘тарап’) bo‘linishi aytilgan.

Orfografik terminlarni qiyoslash natijasida shu narsa ayonlashdiki, qirg‘izcha darslikdagi “an’anaviy yoki etimologik printsip” degan termin qirg‘iz tilida “*салттуу же этимологиялык принцип” deb berilgan* deb berilgan. Xuddi shunday o‘zbekcha darslikdagi *shakiliy yozuv, tarixiy-an’anaviy yozuv hamda farqlovchi (differensial) yozuv* terminlari qirg‘izcha darslikda berilmagan. Lekin Sh. Shoabduraxmonov va boshqalar tomonidan tuzilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida yozuv qoidalari 5 turga bo‘linishi: *фонетик принцип, морфологик принцип, тарихий-традицион принцип, дифференциациялаш принцип, этимололик ёки график принцип* kabi terminlar bilan

ifodalanishi aytilgan. Sovet davrida nashr etilgan darsliklardagi terminlarning qirg‘izcha darslikdagi terminlar bilan o‘xshashlik jihatlari borligi ayonlashadi. Bunga sabab haligacha qirg‘iz tilshunosligida kirill alifbosi iste’molda ekanligidadir.

Bundan tashqari orfografiya bo‘limida asosiy imlo qoidalari ham o‘rganiladi. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari 7 bo‘lim, 82 banddan iboratdir: 1-bo‘lim harflar imlosi, 2-bo‘lim asos va qo‘shimchalar imlosi, 3-bo‘lim qo‘shib yozish imlosi, 4-bo‘lim ajratib yozish imlosi, 5-bo‘lim chiziqcha bilan yozish imlosi, 6-bo‘lim bosh harflar imlosi, bo‘g‘in ko‘chirish imlosi kabi terminlar bilan nomlanadi. Qirg‘iz tilining imlo qoidalari 2008-yili qabul qilingan bo‘lib, 9 bo‘lim, 91 paragrafdan iborat. 1-bo‘lim Тыбыш, тамга жана алфавит, 2-bo‘lim тыбыштардын жазылышы, 3-bo‘lim баш тамгалардын жазылышы, 4-bo‘lim жөнөкөй сөздөрдүн жазылышы, 5-bo‘lim татаал сөздөрдүн жазылышы, 6-bo‘lim энчилүү аттардын жазылышы, 7-bo‘lim өздөштүрүлгөн сөздөрдүн жазылышы, 8-bo‘lim ташымал, 9-bo‘lim дефис менен жазуунун эрежелери[175]. Qiyoslanayotgan “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida 2002-yilda qabul qilingan imlo qoidalariga o‘zgartirish kiritilganligi munosabati bilan, 2008-yili yangi imlo qoidalari “Кыргыз тилинин жазуу эрежелери. Соңку редакция” nomi bilan qabul qilinganligi hamda ayrim paragraflarga o‘zgartirishlar kiritilganligi aytib o‘tilgan. Bu o‘zgartirishlar quyidagilar: ***уңгу сөздөрдүн жазылышы*** **(asosning yozilishi),** ***бириккен жана кошмок сөздөрдүн бирге жазылышы*** **(so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlarning yozilishi),** *кошмок сөздөрдүн бөлөк жазылышы* (qo‘shma so‘zlarning ajratib yozilishi), ***кош сөздөрдүн жазылышы (juft so‘zlarning yozilishi), энчилүү аттардын жазылышы (ismlarni yozilishi),*** *өздөштүрүлгөн сөздөрдүн жазылышы*[176] (o‘zlashma so‘zlarni yozilishi) deb nomlangan paragraflardagi o‘zgarishlar tahlilga tortilgan va ularning ma’nosi izohlangan. Tahlil qilinayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida imlo me’yorlari va ularni ifodalovchi terminlar keltirilmagan.

O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligidagi grafik, orfoepik hamda orfografik terminlarni qiyosiy tahlil qilganimizda o‘zbekcha darslikda 35 ta grafik, 28 ta orfoepik, 31 ta orfografik hammasi bo‘lib, ushbu mavzuga doir 94 ta termin qo‘llangan. Qirg‘izcha darslikda esa 18 ta

[175] Кыргыз тилинин жазуу эрежелери. –Бишкек, 2013. – Б.26.
[176] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.60.

grafik, 12 ta orfoepik, 28 ta orfografik, hammasi bo‘lib esa ushbu mavzuga doir 58 ta termin berilganligini aniqlab chiqdik.

Tahlillarimiz natijasida har ikki tilda asosiy terminlarning mazmuniy jihatdan mushtarakigi saqlanganligi farqlar esa asosan yozuv tizimi, alifbo, imlo tamoyillari hamda terminlarning izohlanish darajasida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Shuningdek, tahlilga tortilgan o‘zbekcha darslikda grafik, orfoepik va orfografik terminlar tizimi kengroq va izchilroq yoritilgan bo‘lsa, qirg‘iz tili darsligida ayrim terminlar ixchamroq berilgan. Bu esa ikki til terminologik tizimining rivojlanishida umumiy qonuniyatlar bilan bir qatorda milliy til siyosati va yozuv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari ham muhim omil bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ushbu qiyosiy tahlil o‘zbek va qirg‘iz tilshunosligidagi grafik, orfoepik va orfografik terminlarni tizimlashtirish hamda turkiy terminologiyaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

2.2. Leksik-frazeologik, leksikografik terminlarning qiyosiy-tipologik tahlili

Leksikologiya va *frazeologiya, leksikografiya* terminlari yunonchadan olingan bo‘lib, leksikologiya – tilning lug‘at tarkibi hamda leksikani o‘rgansa, frazeologiya – tildagi iboralarni, leksikografiya esa lug‘atchilikni o‘rganuvchi bo‘limdir. Umumnazariy tamoyillarga asoslangan holda har birining leksikologiyasi ma’lum bir tilning so‘z boyligini o‘rganadi. Ikki turkiy tildagi tizimning o‘xshash va farqli jihatlari, ularning shakllanish tarixi, semantik va strukturaviy xususiyatlari, shuningdek zamonaviy qo‘llanilishi haligacha tahlil qilinmagan. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek va qirg‘iz tilshunosligi *leksikologik, frazeologik, leksikografik* terminlarini qiyoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning ushbu sohalariga doir terminlarning ikki tildagi ifodalanishi, lug‘atlar tuzishdagi metodologik yondashuvlar va terminologik tizimlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur masalani tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlangan oliy ta’lim darsliklari misolida tahlil qilishga harakat qildik. Ushbu tadqiqotimiz natijasi qardosh bo‘lgan ikki til o‘rtasidagi bog‘liqliklarni chuqurroq anglash, tilshunoslik sohasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda kelajakdagi qilinadigan yangi ishlar uchun asos vazifasini o‘taydi.

Qirg‘iz tilshunosligida leksikologiyani o‘rganish maqsadiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linishi aytilgan: *жеке (ya’ni bir til misolida)*

жалпы (umumiy), салыштырма (qiyosiy), тарыхый-салыштырма (tarixiy-qiyosiy), колдонмо (amaliy) лексикология. Qiyoslanayotgan o‘zbekcha darslikda bu kabi terminlar keltirilmagan.

O‘zbek tilshunosligida X. Muhiddinova va boshqalar tomonidan oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun tayyorlangan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”[177] nomli o‘quv qo‘llanmasida “leksikologiya, avvalo, 2 asosiy tarmoqqa bo‘linadi: umumiy leksikologiya va xususiy leksikologiya. Umumiy leksikologiya umuman inson tili leksikasini, xususiy leksikologiya esa aniq bir tilning leksikasini o‘rganadi. Leksikologiya tarixan ham 2 ga bo'linadi: 1. Hozirgi yoki sinxron leksikologiya; Tarixiy yoki diaxron leksikologiya. Leksikologiya quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: 1. Semasiologiya – so‘zning ma’no tomoni, ma’no turlarini o‘rganadi. 2. Etimologiya – so‘zlarning kelib chiqishini o‘rganadi. 3. Frazeologiya – turg‘un birikmalar, iboralar haqidagi ta’limot. 4. Leksikografiya – lug‘atshunoslik, lug‘atlar, ularning turlarini o‘rganadi” deb aytilgan.

“Hozirgi o‘zbek tili” darsligida leksikologiyaning o‘rganish manbai so‘z ekanligi ta’kidlangan va o‘rganish predmetining quyidagicha turlari keltirilgan: a) leksema muammosi, leksik birlik tiplari; b) til lug‘at tarkibi strukturasi; d) lug‘aviy birliklarning qo‘llanilishi; e) lug‘at tarkibining boyishi va taraqqiyoti; f) leksik birliklarning tildan tashqaridagi borliq bilan o‘zaro munosabati. Har ikki darslikda ham so‘z lug‘aviy birlik ekanligi alohida ta’kidlangan. O‘zbekcha darslikda: “So‘z umumlingvistik muammo, shu boisdan u umumiy so‘z nazariyasi doirasida ham o‘rganiladi. Leksik birlik doirasiga nafaqat alohida so‘z (tugal shakllangan birliklar), balki so‘zga teng barqaror birlik, murakkab tarkibli so‘z ham kiritiladi. Lekin so‘z asosiy lug‘aviy birlik sanaladi”[178]. Qirg‘izcha darslikda: *“*Сөз – лексикалык бирдик. Сөздөр заттардын, кубулуштардын, көрүнүштөрдүн жана окуялардын атын билдирет”[179]. So‘z til birligi bo‘lib, ma’no va grammatik shakl birligini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek tilidagi “so‘z” va qirg‘iz tilidagi “сөз” shaklan va mazmunan juda yaqin. Qiyoslanayotgan ikki til ham turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgani uchun leksik birliklarning etimologik asosi ko‘p hollarda umumturkiy so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi.

[177] Muhiddinova X., Xudayberganova D., Umirov I., Jiyanova N., Yusupova T. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – B.42-43. (201). https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tili%20(X.Muhiddinova,%20D.Xudoyberganova).pdf

[178] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.105.

[179] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.73.

Shuningdek, arab, fors, rus va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham har ikki tilda mavjuddir. Masalan: o‘zbekchada *“kitob, maktab”;* qirg‘izchada *“китеп, мектеп”.* Bundan tashqari yana qirg‘izcha darslikda *денотат* (atamalik, nomlash), *коннотат* (qo‘shimcha emotsional-ekspressiv ma’no) kabi terminlar qo‘llanilgan bolib, ular anglatgan ma’no o‘zbek tilshunosligida ham xuddi shunday ma’noni berish uchun xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida so‘zning semantik xususiyati, birma’nolilik, ko‘pma’nolilik, umumiy va xususiy, mavhum va muayyan, bosh va hosila, to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarni o‘rganadigan bo‘lim *semasologiya* termini bilan nomlangan va ularning mazmuni izohlangan. *Desemantizatsiya* degan termin izohlagan ma’no, asosan, so‘zning semantik strukturasi, so‘z ma’nolari tipi va ularni ajratish mezoni, so‘z ma’nolarining o‘zgarishi, taraqqiyoti, so‘zning ma’nosini yo‘qotishi va grammatik formatga aylanishi kabilarni ifodalaydi. Qiyoslanayotgan “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida ham *семасиология termini keltirilgan bo‘lib, so‘z ma’nolari, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi haqidagi ma’lumot beradigan, so‘zlarning ma’no turlarini o‘rganadigan fan ekanligi aytilgan. Qirg‘iz tilshunosligida* ***моносемия (***бир маанилүү сөздөр***), дисемия (***эки маанилүү сөздөр***), полисемия (***көп маанилүү сөздөр***) синоним, омоним, антонимдер*** bu terminlar so‘z ma’nolarining turlarini ifodalaydi. “Formal tilshunoslik bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlaganligi kabi nazariy leksikologiyada *bir sememali* va *ko‘p sememali* leksemalar farqlanadi. Nazariy leksikologiya nuqtayi nazaridan nutqda qo‘llangan so‘z har doim bir ma’noli. Chunki so‘z leksemaning bir martalik ko‘rinishi bo‘lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega[180]”. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida *bir sememali leksema: qalam* (faqat bir tushunchani ifodalaydi)*; ko‘p sememali leksema: Qashqirlar tog‘-toshlar aro izg‘ishardi. 1) tog‘da yashovchi o‘ta yirtqich bo‘ri (o‘z ma’no) 2) tog‘da uya qurgan yirtqich kishilar (ko‘chma ma’no)* kabi terminlar qo‘llanilgan bo‘lib, bu terminlar qirg‘izchadagi ***моносемия va полисемия*** *terminlariga teng keladi. Bu holatdan shu narsa ayonlashadiki, qirg‘iz tilidagi darsliklarda ruscha terminlarni qo‘llash barobarida qirg‘izcha nomlanishi, ya’ni “*бир маанилүү сөздөр*”, “*көп маанилүү сөздөр*” kabi tarjimalari ham birga foydalaniladi. O‘zbekcha darslikda “Yasama so‘zning leksemalashuvi” degan mavzu bo‘lib, nutqdagi yasama so‘z lisoniy sathga ko‘tarilib, nutqdan lisonga siljiy boshlaydi. Natijada*

[180] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.106.

lisoniylashish darajasida quyidagicha tartiblashish yuzaga kelganligi aytilgan va ular ixtisoslashgan leksema, soddalashgan leksema, tublashgan leksema kabi terminlar bilan nomlangan.

1.Ixtisoslashgan leksemada yozuvchi leksemasi qiyoslangan: 1.Yozuvchi hayotni teran kuzatadi. 2. Insho yozuvchi ijodkorligini namoyon qilishi kerak. Birinchi gapda bu leksema kasbni anglatgan, ikkinchi gapda esa leksema muayyon yozish harakatini bajaruvchi shaxsni ifodalagan.

2. Soddalashgan leksemada bir so‘zning o‘zak va qo‘shimchasi grammatik vositalar qo‘shiluvi natijasida ajralmas bo‘lib qotib qolishidir: boshning og‘rig‘i – bosh og‘rig‘i; belning og‘rig‘i – belog‘rig‘i.

3. Tublashgan leksemada bundagi yasama so‘zning tarkibini etimologiyasiz aniqlab bo‘lmasligi aytilgan: tingla fe’lining o‘zagi ding; to‘q so‘zining o‘zagi to‘. Ushbu holat lisoniylashuv, leksemalashuv kabi holatlarni yuzaga keltirgan va shu terminlar bilan nomlangan.

*Qirg‘izcha darslikda “*Сөз жана түшүнүк” (so‘z va tushuncha) degan mavzuda so‘z terminiga doir bo‘lgan bir qancha ta’riflar berilgan. “Сөз дегенибиз – фонетикалык, морфологиялык, лексикалык, семантикалык бүтүндүк турмуштук чындыкты чагылдырууда ар кыл табигый белгилерди мүнөздөп берүүчү тилдик каражат”[181]. Darslikda so‘zni leksik birlik, ot birligi va kommunikativ birlik sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq ekanligi aytilgan. Qirg‘izcha darslikda ***сема*** (ар бир сөздүн жекече маанилик табияты*)*, o‘zbekcha darslikda *semema* (leksemaning ichki, mazmuniy tomoni) kabi terminlar mavjud bo‘lib, har ikki darslikda ham bu termin so‘zning ichki ma’nosini ifodalashga xizmat qilishi haqida ma’lumot berilgan. O‘zbekcha *nomema* termini bilan nomlangan birlik leksemaning tashqi qobig‘i hisoblanishi aytilgan: *kitob* leksemasining tashqi tomoni *k+i+t+o+b* tovushlar yig‘indisi. Qirg‘izcha darslikda “Номинативдик жана коннотативдик маани” degan mavzu berilgan bo‘lib, unda *номинативдик* degan termin ifodalagan ma’no ma’lum bir tushunchani bildiruvchi birlik hisoblanib, inson biror narsaning nomini aytganda ko‘z oldida paydo bo‘ladigan tushuncha hisoblanadi. Masalan: *stol* – biror bir narsa yozish yoki bajarish uchun mo‘ljallangan har qanday shakl, balandlik yoki gorizontal holatdagi obyekt ko‘z oldimizda paydo bo‘ladi. Demak o‘zbekcha *nomema* hamda qirg‘izcha *номинативдик* terminlarni leksemaning tashqi tomonini ifodalash uchun xizmat qiladi.

[181] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.76.

Коннотативдик terminiga darslikda quyidagicha izoh berilgan: “ал эми ушул эле сөздүн тамак ичүү процесси; даяр тамак-аш; адамдын кызмат даражасынын жогорулашы же төмөндөшү деген маанилери коннотативдик маани болуп саналат”[182] terminga berilgan ushbu ta’rifdan ko‘rinadiki, yuqorida keltirilgan misoldagi *stol* so‘zi ovqatlanish uchun mo‘ljallangan buyum yoki tayyor ovqat, biror kishini mansabga ko‘tarish yoki tushirish kabi ma’nolarni anglatishi konnotativ (konnotativ) ma’no hisoblanadi.

“Hozirgi o‘zbek tili” darsligida sememaning tarkibidagi semalar bir xil emasligi, sema mohiyatiga ko‘ra uch xil bo‘lishini quyidagi terminlar orqali ifodalagan: *atash semasi(denotativ sema), ifoda semasi (konnotativ sema), vazifa semasi(funksional sema).* Ushbu terminlar ifodalagan ma’no yuqorida tahlil qilingan qirg‘izcha terminlar bergan ma’noni beradi. “Atash semasi borliq bilan, ifoda semasi so‘zlovchining munosabati bilan, vazifa semasi esa leksemaning lison va nutqdagi roli bilan belgilanadi”[183]. Ta’rifdan ham ko‘rish mumkinki, har ikki darslikdagi terminlarning o‘zaro o‘xshashlik jihatlari mavjud: o‘zbekcha – *atash semasi;* qirg‘izcha – *номинативдик;* o‘zbekcha – *ifoda semasi;* qirg‘izcha – *коннотативдик.* O‘zbekchadagi *vazifa semasi* terminini ifodalaydigan ma’no ham termin ham qirg‘izcha darslikda berilmagan. Bundan tashqari, “Semaning darajasiga ko‘ra turlari” degan mavzuda birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differensial) sema kabi terminlar ham keltirilgan. Bu terminlardan birlashtiruvchi sema birdan ortiq leksemadagi o‘xshash, bir xil sema, farqlovchi sema esa o‘xshash, ma’noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi semalar ekanligi aytib o‘tilgan. Tahlil qilinayotgan darslikda *hosila semema* degan termin mavjud bo‘lib, bu termin ifodalagan ma’no bir necha yo‘l bilan vujudga kelishi ko‘rsatilgan va quyidagi terminlar bilan izohlangan: *metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.* Biz bu terminlar qirg‘izcha darslikdagi quyidagi terminlar bilan ifodalangan: *метафора, метонимия, синекдоха, функционалдык.* Tarixan so‘zlarning ma’nosini kengaytirish yo‘llari turlicha bo‘lgan. So‘zlarning ma’nolari tashqi o‘xshashlik jihatidan, boshqasi esa mohiyatiga ko‘ra, yana biri vazifasi hamda butunni jinsning bir qismi nomi bilan ajratib ko‘rsatish jihatidan paydo bo‘lishi aytilgan. Qirg‘izcha darslikda ham ushbu terminlar o‘zbekcha darslikdagi kabi nomlangan. Terminlarda bu kabi o‘xshashlik har ikki tilda ham rus tilining ta’siri saqlanib qolganligidan

[182] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.82.
[183] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.119.

dalolat beradi. “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida *сөздүн өтмө, образдуу мааниси* degan terminlar bilan nomlanuvchi mavzu berilgan bo‘lib, bu terminlar o‘zbekchadagi so‘zning *o‘z va ko‘chma ma’nosi*ga teng keladi. Yana qirg‘izcha darslikda *полисемия* termini *(*сөздөрдүн көп маанилүүлүгү лингвистикада *“полисемия”* деп аталат) keltirilgan bo‘lib, o‘zbekchada bu *ko‘p ma’noli so‘z* termini bilan nomlangan. *Омоним* – деп фонетикалык кокустуктан бирдей аталып калган, жазылышы бирдей, маанилери ар башка сөздөр аталат; *синонимдер* – бирдей типтеги заттарды, кубулуштарды, окуяларды ж.б. жакын маанилеш сөздөр менен туюндуруу синоним деп аталат; *эвфемизм* – синонимдердин бир түрү. Айтууга ыңгайсыз, оор тие турган, орой жана жагымсыз сөздөрдү башка сөздөр менен алмаштырып айтуу эвфемизм деп аталат; *антонимдер* – карама-каршы маанини туюндурган сөздөрдүн гана жыйындысы эмес, ал баарыдан мурда, бизди курчап турган карама-каршы көрүнүштөрдүн тилде чагылдырылышы[184]. Keltirilgan terminlarga berilgan ta’riflarning barchasi o‘zbekcha darsliklarda berilgan terminlarning izohiga mohiyatan juda yaqindir. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida “Leksik semantik munosabatlar” mavzusi berilgan bo‘lib, unda *sinonimiya* – shaklan har xil, ammo aynan bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi; *antonimiya* – (gr. antionymo – “zid nom”) leksemalar orasidagi zidlik munosabatidir: katta-kichik; *graduonimiya* (gr. gradatio – “ko‘tarilish”, “o‘sish”, onymo–“nom”); *giponimiya* – leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog‘i, gipo-giperonimiya), ya’ni tur-jins munosabati. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi. Qiyoslanayotgan o‘zbekcha darslikda *omonim* termini qo‘llanmagan va omonimiya hodisasi haqida ma’lumot keltirilmagan. *Graduonimiya, giponimiya* kabi terminlar keltirilib, ularning mohiyati ham yoritilgan. Bu kabi terminlar, ular bergan tushunchalar qirg‘izcha darslikda uchramaydi.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida so‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra *omonim, sinonim, antonim, paronim va uyadosh* so‘zlarga bo‘linishi aytilgan. Bu terminlarning o‘zbekcha ***shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli, talaffuzdosh*** kabi variantlari ham iste’molda. Bundan shu narsa ayonlashadiki, ushbu terminlar o‘zbekchada milliylashtirilgan. Shu o‘rinda aytish joizki, qirg‘iz tilida sinonimlarni paydo qilishda “**табу”** ham muhim rol o‘ynaydi. Tabu termini sof

[184] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.111.

qirg‘iz tilidagi **«тергөө»** degan nom bilan ataladi. Bu terminga quyidagicha izoh berilgan: Кандайдыр бир диний ишенимдин негизинде айтууга тыюу салынган сөздүн ордуна башка сөздүн колдонулушу тергөө деп аталат[185].

Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limiga doir terminlar o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarni yana quyidagicha kuzatish mumkin: o‘zbek tilida so‘zlar qo‘llanilishi *chegaralanmagan hamda chegaralangan leksikaga* bo‘linadi va shunday termin bilan nomlanadi. Insonlar nutqida ishlatilishi jihatidan o‘zbek tili leksikasi ikki qatlamga bo‘linadi: *qo‘llanilishi chegaralanmagan leksika, qo‘llanilishi chegaralangan leksika.* Qo‘llanilishi chegaralanmagan so‘zlar barcha turkumlarda uchrashini kuzatishimiz mumkin. Chegaralanmagan leksemaning ko‘pchiligi umumturkiy va o‘zbekcha so‘zlar, ba’zilari esa o‘zlashgan bo‘lishi mumkin.

Qo‘llanilishi chegaralangan leksemalarni ikki turga bo‘lish mumkin: *a) qo‘llanilish davriga ko‘ra chegaralangan leksika; b) qo‘llanilish doirasi chegaralangan leksika*[186]. Qiyoslanayotgan darslikda qo‘llanilish davriga ko‘ra eskirgan so‘zlar *eski leksika*, yangi so‘zlarning hammasi *yangi leksika*, na eskirgan, na yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlar *betaraf leksika* termini bilan yuritilishi aytilgan. Eskirgan leksikaning o‘zi ham ikki turga bo‘linadi va quyidagi terminlar bilan ifodalanadi: *1) tarixiy leksema; 2) arxaik leksema.* Bu terminlarning har biri ifodalagan mazmun izohi bilan berilgan. *Yangi leksika* – tilda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar*dir.* Bu so‘zlar *neologizm* termini bilan ham nomlanadi. *Betaraf leksika* – tildagi eskilik hamda yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmagan so‘zlardir[187]. Bu termin yana *umumiste’mol leksika, qo‘llanilishi chegaralanmagan leksika, faol leksika, neytral leksika* kabi nomlar bilan ham yuritiladi.

Qirg‘iz tilidagi qiyoslanayotgan darslikda “Кыргыз тилиндеги эскирген жана жаңы лексика” degan mavzuda so‘zlar insonlar nutqida qo‘llanilish doirasiga ko‘ra *активдүү лексикага, пассивдүү лексикага* kabi turlarga bo‘linishi va shu terminlar bilan nomlanishi aytilgan. *Активдүү лексика* – kundalik hayotda keng qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga oladi hamda ularning ma’nosi qirg‘iz tilida so‘zlovchilarning barchasi uchun tushunarli, eskirish yoki yangilik belgilari yo‘q so‘zlardir. *Пассивдүү лексикага* – hozirgi kunda eskirgan, kundalik

[185] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.138.
[186] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.142.
[187] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.142.

hayotda keng yoki umuman ishlatilmaydigan, yangilik tufayli odamlar orasida keng tarqalmagan, ma’nosi hamma tomonidan to‘liq tushunilmagan so‘zlardir. Terminlarga berilgan ta’riflardan ko‘rish mumkinki, mazmunan o‘zbekchadagi *qo‘llanilish doirasi chegaralangan* hamda *chegaralanmagan* kabi terminlarga teng keladi. Shu o‘rinda qirg‘iz adabiy tilidagi ushbu terminlar hali ham rus tili ta’sirida ekanligini kuzatish mumkin. Darslikda “Эскирган лексика жана анын түрлөрү” degan mavzuda quyidagi terminlar orqali eskirish holati izohlangan: *экстралингвистикалык терминiga izoh: so‘zlarning eskirishi ijtimoiy tuzilishning o‘zgarishi, ichki dunyoning rivojlanishi, ishlab chiqarish, madaniyat, fan va texnika, unga aloqador odamlarning dunyoqarashi natijasida yuzaga keladigan omildir; интралингвистикалык терминiga izoh: tilning ichki o‘ziga xos xususiyatlari tufayli yuzaga kelgan omildir.* Eskirgan so‘zlarning eskirish sabablari, zamonaviy tilda foydalanish imkoniyatlari va stilistik jihatiga ko‘ra историзмдер **(**элдин өткөн турмушуна байланыштуу түшүнүктөрдүн жоюлушу менен бирге активдүү сөздүк запастан чыгып, бирок белгилүү тарыхый доордун көрсөткүчү катары али да болсо азыркы тилде колдонулган сөздөр **историзмдер** болот**) va архаизмдер (**историзмдерден айырмаланып, элдин турмушундагы түшүнүктөрдүн, нерселердин эскириши менен бирге эскирбестен, түшүнүк ошол бойдон калып, аны туюнткан сөз же маани ордун башка сөзгө бошотуп берүү менен, тилдин активдүү сөздүк курамынан биротоло чыгып, элдин күндөлүк кебинде такыр унутулуп калган сөздөр жана маанилер **архаизмдер** деп аталат**)**[188] **kabi turlarga bo‘linib, shu** terminlar bilan nomlagan. Ushbu terminlarga berilgan izohlardan ham ko‘rish mumkinki, историзмдер o‘zbekchadagi *tarixiy so‘zlar,* архаизмдер esa *arxaik so‘zlar* terminlari bergan ma’noga teng keladi. Tarixiylikni o‘zida mujassam etgan leksik birliklarni tarkibiy tuzilishi va mazmuniga ko‘ra лексикалык историзмдер, семантикалык историзмдер, фразеологиялык историзмдер kabi terminlar bilan nomlanuvchi turlarga ajratgan. Yana qirg‘izcha darslikda arxaik so‘zlarni ham семантикалык архаизм, лексика-фонетикалык архаизм, лексика- морфологиялык архаизм kabi turlarga bo‘lib o‘rganilishi aytib o‘tilgan. Qirg‘izchadagi *неологизимдер* termini o‘zbekchada *yangi leksika* termini bilan nomlanadi. Qirg‘iz tilida yangi so‘zlar ham ikki guruhga, ya’ni

[188] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.132.

лексикалык неологизмдер, семантикалык неологизмдер[189] ajratilib o‘rganilishi aytilgan. Bundan tashqari yangi so‘zlarning paydo bo‘lishida калька ham muhim rol o‘ynashi va o‘z navbatida kalka ikkiga – *семантикалык калька*, *структуралык калька*[190] ga bo‘lib o‘rganilishi aytib o‘tilgan hamda ularga atroflicha izohlar berilgan. O‘zbekcha darslikda **“Qo‘llanilish doirasi chegaralangan leksika”** mavzusida bu turga oid so‘zlarni uch turga *1) dialektal leksika; 2) terminologik leksika; 3) noadabiy leksika (jargon va argo)* bo‘linishi aytilgan va shu terminlar bilan nomlanadi.

Qirg‘izcha darslikda **“Кыргыз лексикасынын колдонулуш чөйрөсүнө карай бөлүнүшү”** mavzusida qirg‘iz tilidagi so‘zlar qo‘llanilish doirasiga ko‘ra ikki turga *1) бүткүл улуттук жамаатка бирдей түшүнүктүү болгон жалпы элдик лексика; 2) белгилүү аймакта жашаган же белгилүү кесип боюнча байланышкан адамдардын жамааты үчүн гана мүнөздүү болуп, колдонулуш чөйрөсү чектелген жалпы элдик эмес лексикага* bo‘linishi aytilgan. Qirg‘iz tilining lug‘atini, asosan, kundalik hayotda tez-tez ishlatiladigan so‘zlar tashkil etadi. Qirg‘iz tilshunosligida ham hamma uchun barobar tushunarli bo‘lgan, turmushda har doim faol ishlatiladigan so‘zlar qo‘llanilish doirasi chegaralanmagan so‘zlar deb yuritiladi. Ma’lum bir hududda yashovchi, ma’lum bir tabaqa vakillari tomonidan ishlatiladigan so‘zlar esa *диалектилик, профессионалдык, терминологиялык, жаргондук* kabi terminlar bilan nomlanuvchi turlarga bo‘linishi ko‘rsatilgan. Shu o‘rinda har ikki darslikdagi ushbu bo‘limlarni qiyoslaydigan bo‘lsak, o‘zbekcha darslikda *профессионалдык* terminiga mazmunan mos keladigan termin mavjud emas.

O‘zbekcha darslikda *dialektal leksika* terminiga quyidagicha ta’rif berilgan. “Ma’lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos leksema dialektal leksika deyiladi”[191]. Bu leksika ilmiy terminologiyada *dialektizm* termini bilan nomlanishi keltirilgan. O‘zbek tilshunosligida ushbu bo‘limda shevaga xos so‘zlar o‘rganilishi, bunday so‘zlarning badiiy adabiyot hamda kinofilmlarda qahramonlarning qaysi hududdan ekanligini bildirish uchun qo‘llanilishi va bu holat me’yor doirasida bo‘lmog‘i kerakligi aytib o‘tilgan. Qirg‘izcha darslikda ushbu termin *диалектизмдер* deb nomlanadi. Milliy qirg‘iz tili o‘z rivojlanishining

[189] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.177.
[190] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.179.
[191] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.145.

hozirgi bosqichida yuqori adabiy til hamda mahalliy dialekt, ya’ni lahjalar shaklida mavjuddir. Qirg‘iz adabiy tili qirg‘iz tilining barcha lahjalariga xos bo‘lgan fonetik, grammatik va leksik jihatdan umumiy xususiyatlarni o‘zlashtirgan holda milliy hamjamiyatning barcha a’zolari uchun aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi va ularni yagona milliy jamoaga birlashtiradi. Bu lahjalardan ajralib turadigani umumiy milliy vazifasi jihatidan mahalliy lahjadir. Qirg‘izlarning milliy yozma adabiy tili qirg‘iz tilining Shimoliy lahjasiga asoslangan bo‘lib, u barcha tarkibiy darajalarda umummilliy xususiyatga egadir. Shu bilan birga, qirg‘iz adabiy tili hozirda mavjud bo‘lgan Shimoliy va Janubiy lahjalarning birortasi bilan, shuningdek, ularni tashkil etuvchi lahjalar bilan to‘liq mos kelmaydi. Qirg‘iz tilshunosligida hamda umumiy lingvistik adabiyotlarda “диалектилик сөз”, “диалектилик лексика”, “диалектизм” kabi terminlar va ular ifoda etadigan tushunchalar haqida yagona fikr berilmaganligi haqida aytib o‘tilgan. “Диалектизмдер” mavzusida ***лексикалык диалектизмдер, нагыз лексикалык*** *диалектизмдер, этнографиялык диалектизмдер, семантикалык диалектизмдер, фонетикалык диалектизм, лексика-фонетнкалык диалектизм, нагыз морфологиялык, лексика- морфологиялык диалектизмдер* kabi terminlar va shu terminlar ifodalagan mazmun berilgan.

Профессионализмдер (кандайдыр бир өндүрүштүк ишмердигине, адистигине же кесибине байланыштуу бириккен адамдардын белгилүү жамаатынын кебине тиешелүү болгон сөздөр **профессионализмдер** деп аталат)[192]. Ushbu terminning mazmuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qirg‘izlarda ma’lum bir mutaxassislik yoki kasb bilan bog‘liq bo‘lgan odamlarning nutqida qo‘llaniladigan so‘zlar *professionalizm* deb ataladi. Qirg‘iz tilshunosligida professional so‘zlar ham xuddi dialektal so‘zlar kabi qo‘llanilish doirasi cheklangan so‘zlarga mansubdir. Biroq, professional so‘zlar dialektal so‘zlardan sezilarli darajada farq qiladi. Dialektal so‘zlarning cheklovi hududiy xarakterga ega bo‘lsa, professional so‘zlarning cheklovi esa ijtimoiy xarakterga egadir. Qirg‘iz tilshunosligida dialektal so‘zlar adabiy tilning lug‘atiga kiritilmagan. Professional so‘zlar esa adabiy tilning lug‘atiga kiritilganligi bilan ajralib turadi. Masalan, chorvachilikka bag‘ishlangan professional terminlar: ***кой, козу, токту, борук, соолук, ирик, кочкор, козу кочкор, эчки, улак, чебич, серке, теке, уй, музоо, торпок, кунаажын;*** *paxtachilikka bag‘ishlangan professional terminlar:*

[192] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.145.

шүдүгөр (чигит эгүү үчүн айдалып даярдалган жер), ***чигит*** (пахтанын уругу), ***чигит суу*** (чигит эгилгенден кийинки жиберилүүчү суу), ***агет*** (чигитке суу кетүүчү арыкча), ***жагана*** (пахтанын суюлтулушу), ***шана, шаналоо*** (пахтанын бүр алышы). Bu kabi terminlar turli kasb egalarining so‘zlashuv nutqida qo‘llanilsada, ular ko‘pincha badiiy matnlarda ham uchraydi.

Qiyoslanayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida “Terminologik leksika” ikki turga ajratigan: 1) adabiy tilga mansub terminologik leksika; 2) dialektal terminologik leksika. Termin – fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san’at va madaniyat sohalariga xos leksik birlik va so‘z birikmasi[193]. “Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida “Термин жана терминология” degan mavzuda terminga shunday ta’rif berilgan. “**Термин** деп илимдин, техниканын, искусствонун, чарбанын жана экономиканын жана башкалардын тармактарына тиешелүү атайын түшүнүктөрдү так атоо үчүн колдонулган сөздү же сөз айкашын айтабыз”[194]. Har ikki darslikdagi terminga berilgan izohda ko‘rish mumkinki, ularning tilshunoslikda bajaradigan vazifasi bir xilda. O‘zbekcha darslikda termin va umumiste’mol leksema bir narsaning ikki qirrasi, bir leksemaning ikki ma’noda qo‘llanilishi emasligi aytilgan hamda *kasb-hunar terminlari, ilmiy terminlar* kabi turlarga ajratilgan. Qo‘llanilish doirasi chegaralangan, noadabiy qatlamga mansub bo‘lgan *jargon* terminiga quyidagicha ta’rif berilgan. “Kasbi, jamiyatdagi o‘rni, qiziqishi, yoshiga ko‘ra alohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og‘zaki nutqida ishlatiladigan va ma’nosini boshqalar ko‘p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar jargon deyiladi. Masalan, programmistlar jargoni, talabalar jargoni, mahbuslar jargoni, o‘g‘rilar jargoni, artistlar jargon”[195]. Жаргон – “жалпы кызыкчылыктары, иштеген иштери, коомдогу ал-абалы боюнча бириккен адамдардын социалдык айрым топторунун тар чөйрөсүндө колдонулган атайын сөздөр **жаргондор** деп аталат”[196]. “Argo termini (fransuzcha argot) ayrim professional yoki sotsial guruhning o‘ziga xos tili”[197]. “Жаргондун бир түрү катары көбүнчө кылмыш дүйнөсүндө колдонулган жашыруун сөздөр **арго** деп да аталат”[198]. Har ikki darslikda berilgan terminlarning izohi mazmun

[193] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.146.
[194] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.147.
[195] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.148.
[196] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.148.
[197] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.149.
[198] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.149.

jihatidan bir xil. Bu holat ushbu terminlarning hali hanuz ikki tilda ham milliylik tusini olmaganligidan dalolat beradi.

Uslubiy xoslanganlik jihatidan o‘zbek tili leksikasi: *uslubiy betaraf leksika, uslubiy xoslangan leksika* kabi turlarga bo‘linadi va shunday terminlar bilan nomlanbadi. Uslubiy xoslangan leksikaning o‘zi ham uch turga bo‘linadi: a) kitobiy leksika; b) badiiy leksika; d) so‘zlashuv leksikasi[199]. Qirg‘izcha darslikda “Кыргыз лексикасынын стилистикалык катмарлары” degan mavzuda xuddi o‘zbekchadagi kabi *нейтралдык (бейтарап) лексика, стилистикалык жактан чектелген лексика* kabi turlarga bo‘lingan va shunday terminlar bilan nomlangan. *Стилистикалык жактан чектелген лексика* qirg‘iz tilida *турмуштук оозеки-сүйлөшүү лексикасы, китептик лексика* kabi terminlar bilan nomlanuvchi ikki turga bo‘lingan. Yana qirg‘izcha darslikda *экзотикалык лексика* termini ham bor bo‘lib, bu termin o‘zbekchadagi badiiy leksika terminiga mazmunan teng keladi. O‘zbekcha darslikda ifodaviylik jihatdan o‘zbek tili leksikasi: *bo‘yoqsiz leksika, bo‘yoqdor leksika* kabi terminlar bilan nomlanadigan turlarga bo‘linishi ko‘rsatilgan. Qirg‘izcha darslikda esa ushbu terminlar bergan ma’noni ifodalaydigan termin keltirilmagan.

O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida leksikologiya oid *leksikologiya, semasiologiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, terminologiya* kabi asosiy ilmiy terminlarning mazmuni deyarli bir xil bo‘lsa-da, ularning ifodalanishida ayrim farqlar kuzatiladi. Ushbu mavzu yuzasidan tahlil natijasi shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilshunosligida terminlarni milliylashtirish jarayoni qirg‘iz tiliga nisbatan ancha faol ekanligi aniqlandi. Jumladan, *shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli, talaffuzdosh* kabi terminlar keng qo‘llanayotgan bo‘lsa, qirg‘iz tilshunosligida *синоним, антоним, омоним, полисемия* kabi xalqaro va rus tili orqali kirgan terminlar bilan bir qatorda ularning qirg‘izcha izohlari ham parallel qo‘llanishi kuzatiladi. Bu esa qirg‘iz terminologiyasida internatsional terminlarning mavqeyi hali ham yuqori ekanligini bildiradi. Qiyosiy tahlil ayrim terminologik tizimlarning tarkibida ham farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida *graduonimiya, giponimiya, vazifa semasi, integral* va *differensial sema* kabi nazariy terminlar keng yoritilgan bo‘lsa, qirg‘iz darsliklarida ularning barchasi uchramaydi. Aksincha qirg‘iz tilshunosligida esa *профессионализмдер, лексикалык историзмдер, семантикалык архаизм, структурализм калка* kabi terminlarning

[199] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 20233. – B.152.

batafsil tasnifi berilgan. Bu holat har ikki tilshunoslik maktabining tadqiqot yo‘nalishlari va metodologik yondashuvlarida o‘ziga xos xususiyatlar mavjudligini tasdiqlaydi. Leksik qatlamlarni tasniflashda ham umumiylik va farqliliklar kuzatiladi. Har ikki tilda faol va passiv leksika, tarixiy va arxaik so‘zlar, terminologik, dialektologik hamda jargon birliklari ajratilgan bo‘lsa-da, ularning nomlanishi va tasnif mezonlarida ayrim farqlar mavjud. Ayniqsa, qirg‘iz tilshunosligida dialektal va professional leksikaga oid terminlarning kengroq tasniflanganligi ushbu yo‘nalishning batafsil o‘rganilganligidan dalolat beradi.

Frazeologik terminlar tahlili

Ikki qardosh til frazeologiyasining tuzilishi, semantik xususiyatlari, madaniy konteksi va amaliy qo‘llanilishi bir-biriga yaqindir. Frazeologiya har qanday tilning eng boy va o‘ziga xos qatlamlaridan biri hisoblanadi. Har ikki tilda ham frazeologik birliklar, barqaror so‘z birikmalari, iboralar va maqollar tilning nafaqat grammatik tizimini, xalqlarning ma’naviy dunyosini, tarixiy tajribalarini va madaniy qadriyatlarini ham aks ettiradi. O‘zbek va qirg‘iz tillari o‘rtasidagi qiyosiy-tipologik tahlil qardosh bo‘lgan ikki turkiy til xalqlarining dunyoqarashini, hayotiy tajribasini va milliy xususiyatlarini yaqindan anglashga yordam beradi.

O‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalar uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bunday aloqalar natijasida tillarning frazeologik tizimlarida ham ko‘plab o‘xshash jihatlar hamda o‘ziga xos farqlar shakllangan. Frazeologik birliklar har qanday xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va hayot tarzi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi, shuning uchun ham ularni o‘rganish alohida ahamiyatga egadir. Frazeologik tadqiqotimizda o‘zbek va qirg‘iz tillari frazeologik terminlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish, ularning o‘xshashlik va farqlarini aniqlash, shuningdek, ikki til frazeologiyasidagi milliy-madaniy xususiyatlarni ochib berishga harakat qilamiz. O‘zbek va qirg‘iz frazeologik birliklarining zamonaviy qiyosiy-tipologik tahlili hozirgacha to‘liq amalga oshirilmagan bo‘lib, ushbu tadqiqotimizda mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilganmiz.

O‘zbekcha darslikda *“frazeologiya”* termini grekcha phrasis – “ifoda”, logos – “ta’limot” degan ma’nolarni anglatadi. “Frazeologiya atamasi ikki ma’noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui”[200]. Qirg‘izcha

[200] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.153.

darslikda “*фразеология”* terminiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Фразеология деген термин грек тилиндеги frasise – туюнтма, ойду өзгөчө туюнтуучу кептин чакан түрмөгү, logos – сөз, түшүнүк, илим деген сөздөрүнөн алынган. Азыркы учурда бул термин тигил же бул тилдеги өзгөчө туюнтмаларды окутуп-үйрөтүүчү тил илиминин бир тармагы – фразеология деп аталат”.[201] Terminga berilgan ushbu ta’rifdan qirg‘iz tilshunosligida ham ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning o‘zaro birikib, yaxlit bitta so‘zga teng kelishi va mana shu so‘zning ma’nosi asosiy hisoblanishi, so‘zlarning frazeologik ma’nosi boshqa so‘zlardan farq qilishi anglashiladi. O‘zbekcha darslikda frazeologizm terminiga quyidagicha ta’rif berilgan. “Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma’noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: *tepa sochi tikka bo‘lmoq, sirkasi suv ko‘tarmaslik, o‘takasi yorilmoq, do‘ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko‘tarmoq*”[202].

O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida frazeologik terminlarga berilgan izohlardan ham ko‘rinadiki, mazmun-mohiyati, bajaradigan vazifasi jihatidan har ikki tilda bir xil. “Эки же андан ашык компоненттерден туруп, лексикалык бир бүтүндүккө айланып, семантикалык жактан ширелишкен, синтаксистик функциясы боюнча сүйлөмдүн бир гана мүчөсүнүн милдетин аткарып, образдуу сапатка ээ болгон кепте (речте) даяр формасында колдонулган туруктуу сөз тизмектери фразеологизмдер деп аталат”[203]. Keltirilgan qirg‘izcha frazeologizmlarning ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topib, leksik jihatdan yaxlit bir butunlikka aylangan, semantik jihatdan bir-biriga bog‘langan, sintaktik funksiyasi bo‘yicha gapning faqat bitta gap bo‘lagining vazifasini bajaradigan va obrazli xususiyatga ega bo‘lgan, nutqda tayyor shaklda qo‘llaniladigan barqaror so‘z birikmalari frazeologizmlar deb nomlanishini va bu iboralarning o‘ziga xos xususiyat kasb etishini ko‘ramiz. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida frazeologizmlar, asosan, belgi va harakat ifodalashi, grammatik jihatdan esa belgi yoki harakat bildiruvchi so‘z turkumiga mansubligi aytilgan. Masalan: fe’l turkumiga mansub frazeologizmlar: *me’dasiga tegmoq, yaxshi ko‘rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to‘lmoq;* sifat turkumiga mansub frazeologizm: *ko‘ngli bo‘sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh;* ravish

[201] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.209.
[202] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.153.
[203] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.212.

turkumiga mansub frazeologizm: *ipidan ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha;* so‘z-gaplarga mansub frazeologizm: *turgan gap, shunga qaramay, katta gap.* Qirg‘iz tilida ham frazeologizmlar bir qarashda oddiy so‘zlardan tashkil topganday ko‘ringani bilan ular bildirgan tushuncha o‘sha so‘zlarning leksik ma’nosiga to‘g‘ri kelmasdan, muayyan darajada ekspressivlikka ega bo‘lib, fikrni boshqacha yo‘l bilan obrazli tasvirlagan turg‘un birliklardir. *Masalan, таш боор, көк бет, колу жука, кара жаак, колу ачык, ичи тар, эки көзү төрт болуу* ж.б. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar aynan bir so‘z turkumi bo‘yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati qoniqarli darajada o‘rganilmagan.

O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi frazeologik birliklar tuzilishiga ko‘ra ham har xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Qardosh bo‘lgan har ikki tilda frazeologik birliklar ko‘pincha barqaror so‘z birikmalaridan tashkil topadi va ular turlicha nutq qismlaridan tuzilishi mumkin. Frazeologik birliklarning strukturaviy xususiyatlari ularning semantik mazmuni va qo‘llanilishi bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbek va qirg‘iz tilidagi frazeologik birliklar tuzilishi

Birikish usullari	**fe’l+ot**	**sifat +ot**	**ot+ot**	**frazeologik iboralar**
O‘zbekcha	*boshini aylantirmoq, yuragi siqilmoq*	*qora kun, oq ko‘ngil*	*ko‘z-quloq, oy-yulduz*	*quloq solmoq, ko‘z tikmoq*
Qirg‘izcha	*башын айлантуу, көңүлү ачылуу*	*кара күн, ак көңүл*	*көз-кулак, ай-жылдыз таш боор*	*кулак салуу, көз тигүү*

Har ikki tildagi frazeologik birliklarning tuzilishida ko‘plab o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa-da, qirg‘iz tilida ba’zi o‘ziga xos sintaktik xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, qirg‘iz tilida ba’zi frazeologik birliklarda ko‘makchilar o‘zbek tiliga qaraganda ko‘proq ishlatiladi. Yana qirg‘iz tilida matnda fe’l+fe’l tuzilishidagi frazeologik birliklar ko‘proq uchraydi. O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi frazeologik birliklar tuzilishi jihatidan bir-biriga sezilarli darajada o‘xshash bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilishi va ma’no nozikliklari milliy-madaniy xususiyatlar bilan belgilanadi. Bu kabi o‘xshashlik va farqlarni atroflicha o‘rganish ikkala til frazeologiyasining tipologik xususiyatlarini yana ham to‘liqroq ochib berishga yordam beradi.

Bundan tashqari yana o‘zbek tilshunosligida qo‘llanish doirasi chegaralangan **umumiste’mol frazeologizmlari:** *holdan toymoq, shunga qaramay, ro‘yobga chiqmoq.* Xuddi shunday qo‘llanilish davri va doirasi chegaralangan so‘zlar ham o‘zbek tilshunosligida quyidagicha turlarga bo‘lingan va shu terminlar bilan nomlangan: “**eskirgan frazeologizmlar:** *alifni kaltak demoq, aliflayloni bir cho‘qishda qochiradigan, dastin aliflom qilib;* **dialektal frazeologizmlar:** *alag‘da bo‘lmoq (xavotir olmoq), ko‘ngli tob tashladi (ezildi), halak bo‘lmoq (ovora bo‘lmoq);* **ilmiy frazeologizmlar:** *nazar tashlamoq, ko‘zga tashlanmoq, chambarchas bog‘lanmoq, to‘g‘ri kelmoq;* **badiiy frazeologizmlar:** *sabr-kosasi to‘lmoq, og‘zining tanobi qochmoq;* **so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari:** *arpasini xom o‘rmoq, yerga urmoq”*[204]. Bundan tashqari “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida *“*Frazeologizmning semantik strukturasi”, “Frazeologizmlarda semantik munosabat” degan mavzular berilgan bo‘lib, bunda *frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya* kabi terminlar bilan nomlanuvchi kichik mavzular doirasida iboralarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Tahlil qilinayotgan qirg‘izcha darslikda esa, «Фразеологизчдердин негизги белгилери» degan mavzuda frazeologizmlarning o‘ziga xos belgilari: *компоненттүүлүк, лексика-семантикалык биримдиги, синтаксистик жактан бир гана сүйлөм мүчөсүнүн милдетин аткарышы, образдуулугу, кепте даяр материал катары колдонулушу* ekanliga aytib o‘tilgan. Bundan tashqari darslikda frazeologizmlarning murakkab so‘zlar, murakkab terminlar, maqol va matallar, sitata va shiorlarga o‘xshash va farqli jihatlari ham berilgan. Frazeologizmlarning ma’nodoshlik xususiyatiga ko‘ra *маанилеш (синоним) фразеологизмдер, көп маанилүү (полисемиялык) фразеологизмдер, кайчы маанилеш (антоним) фразеологизмдер, омоним фразеологизмдер* kabi turlarga ajratib o‘rganilgan. Shuningdek, frazeologizmlarning semantik tasnifi ham berilgan: *фразеологиялык ширешме, фразеологиялык биримдик, фразеологиялык тизмек*. E’tiborlisi shundaki, frazeologik birliklarning ma’nosi izoh talab qilganligi bois, qirg‘izcha darslikda ularning etimologiyasiga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Aslida frazeologik birliklar har bir tilning eng qimmatli boyligi bo‘lib, ular millatning dunyoqarashi, milliy qadriyatlari va madaniy tajribasini o‘zida mujassam etadi. O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari ko‘p jihatdan o‘xshash

[204] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.155.

bo‘lsa-da, ularning madaniy konteksti har bir xalqning o‘ziga xos turmush tarzi va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Masalan: *ko‘ngli ochiq – көңүлү ачык; tosh bag‘ir – таш боор; tog‘ ko‘tarmoq – тоо көтөрүү; qiz uzatmoq – кыз узатуу; ko‘ngli cho‘kmoq – көңүлү чөгүү.*

O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligiga doir darsliklarda ***idioma*** termini ham uchraydi. Tilshunoslikda frazeologik birliklar barqarorlik darajasiga ko‘ra *frazeologik chatishmalar, ya’ni idiomalar, frazeologik butunliklar hamda frazeologik birikmalar* kabi terminlar bilan nomlanuvchi turlarga ajratiladi. Idiomalar frazeologiyada eng barqaror birliklar bo‘lib, tarkibidagi so‘zlarning ma’nosi to‘liq o‘z ma’nosidan uzoqlashgan bo‘ladi. O‘zbek va qirg‘iz frazeologik birliklarida ko‘plab obrazli ifodalar ham uchraydi. Ular asosan metafora, metonimiya, o‘xshatish va boshqa stilistik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan: o‘zbek tilidagi *ko‘z qirini tashlamoq* (qaramoq, boqmoq)va qirg‘iz tilidagi ***көз кырын салуу frazeologik birliklari metaforik ifoda bo‘lib, ular o‘xshash ma’nolarni anglatadi.***

Tahlil davomida frazeologik terminlar tizimida *frazeologiya, frazeologizm, idiomo, frazeologik sinonimiya, antonimiya, omonimiya* va *polisemiya* kabi terminlarning mazmuni deyarli bir xil ilmiy mezonlar asosida yoritilganini ko‘rdik. Shu bilan birga, qirg‘iz tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik tasnifi, etimologiyasi hamda strukturaviy belgilariga kengroq e’tibor qaratilgani, o‘zbek tilshunosligida esa ularning grammatik xususiyatlari, uslubiy qo‘llanish doirasi va funksional tasnifi batafsilroq yoritilgani kuzatiladi. Bu holat esa ushbu mavzuning har ikki tilda o‘ziga xos shaklda rivojlanganini anglatadi.

Leksikografik terminlarning tahlili

Leksikografiya tilshunoslikning so‘z boyligini to‘plash, tartibga solish va lug‘at shakliga keltirish bilan shug‘ullanadigan fandir. Bu soha nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek va qirg‘iz xalqlari tarixan yaqin aloqada bo‘lib kelgan turkiy xalqlar sifatida, ularning tillarida terminologik tizimlar shakllanishi ham o‘ziga xos yo‘ldan borgan. O‘zbek leksikografiyasi Alisher Navoiy, Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Qoshg‘ariy kabi buyuk allomalarning asarlaridan boshlangan bo‘lib, XX asrga kelib E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, G‘.O.Yunusov kabi tilshunoslar tomonidan rivojlantirilgan. Qirg‘iz leksikografiyasi esa K.Yudaxin, B.Yunusaliyev, X.Qarasayev, J.Shukurov, I.Batmanov, Yu.Yanshansin, Sh.Japarov, K.Qo‘nqo‘bayev, D.Isayev, J.Osmonova singari olimlarning tadqiqotlari

bilan boyitilgan. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida “leksikografiya (grekcha lexikos – so‘z, so‘zga oid va grapho – yozaman) yoki lug‘atchilik deyiladi”[205]. Qirg‘izcha darslikda ushbu terminga quyidagicha izoh berilgan: “Лексикография, бир жагынан, сөздүктөр жана аларды түзүү жөнүндөгү илим болсо, экинчи жагынан, ал сөздүктөрдү түзүү практикасынын өзү”[206]. Yuqoridagi ta’riflarga e’tibor qiladigan bo‘lsak, har ikki tilda ham *leksikografiya* terminining bajaradigan vazifasi hamda nomlanishi aynan bir xildir.

Har bir til o‘z terminologik tizimini o‘ziga xos usullar bilan shakllantiradi. O‘zbek va qirg‘iz tillarida ham bu jarayon milliy til xususiyatlariga, tarixiy sharoitlarga va madaniy omillarga bog‘liq holda kechadi. Terminologiya va leksikografiya milliy til taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ular ilm-fan, texnika va madaniyat yutuqlarini ifoda etuvchi so‘zlarni ma’lum bir tizimga soladi va keng ommaga yetkazadi. O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi leksikografik terminlarning qiyosiy o‘rganilishi nafaqat ikki til o‘rtasidagi aloqalarni, balki umumturkiy til xususiyatlarini ham ochib berish imkonini beradi. Bunday tahlillar kelajakda milliy tillarning istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrdamiz. Hozirgi globallashuv davrida milliy tillarni saqlash va rivojlantirish masalasi dolzarblashib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, terminologiya hamda leksikografiya sohasidagi tadqiqotlar, ayniqsa, qardosh bo‘lgan tillarda qiyosiy tahlillar o‘tkazish strategik ahamiyatga egadir. O‘zbekcha darslikda *leksikografiya* yoki *lug‘atchilikning* maqsad va vazifasi ikki turga bo‘linishi ta’kidlangan: *ilmiy leksikografiya, amaliy leksikografiya.* Ushbu terminlar bilan nomlanuvchi mavzuda lug‘atchilik nazariyasi hamda lug‘at tuzish ishlari amalga oshiriladi. Qirg‘izcha darslikda ham leksikografiyaning funksiyasi haqida shunday fikr bildirilgan. “Лексикография лингвистикалык эң негизги илим болгондуктан, тил илиминин тармактары менен, өзгөчө – лексикология менен тыгыз байланышкан”[207]. Ta’rifdan shuni anglash mumkinki, leksikografiya lingvistikaning eng muhim sohasi bo‘lganligi bois, tilshunoslikning boshqa tarmoqlari, xususan, leksikologiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan qirg‘izcha darslikda lug‘atchilikdagi barcha so‘zlar ***түшүнүктөр*** **сөздүктөрү** (tushunchalar lug‘ati) yana ***лексикондор***

[205] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.160.
[206] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.199.
[207] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.156.

(lingvistik lug‘atlar) terminlari bilan nomlanuvchi ikki guruhga bo‘lingan.

Tushunchalar lug‘atida, masalan bunga falsafiy lug‘atni oladigan bo‘lsak, unda so‘zlarning o‘ziga xos ma’nosi ko‘rib chiqilmaydi. Ular belgilagan tushuncha va narsalar, ya’ni buyumlar, odamlar, hodisalar va boshqalar haqida ma’lumot va turli nuqtai nazarlar beriladi. Masalan: *жылдыз* (*yulduz)* so‘z bu samoviy jismning fizik, astronomik tabiatini ifodalash uchun ishlatiladi. Qirg‘iz tilida tushunchalar lug‘atiga yana ensiklopediyalar ham kiradi. Biroq tushunchalar lug‘atlari leksikografiyaning bevosita obyekti emas, chunki odatda leksikografiya leksikonlar bilan ishlaydi.

Lingvistik leksikonda o‘quvchi so‘zlarning orqasida turgan tushunchalar yoki narsalar haqida bilim olmay, o‘sha so‘zlarning izohini topishi mumkin. Bunda o‘quvchi ma’lum bir so‘zning turli ma’nolari, grammatik shakllari, urg‘usi, talaffuz xususiyatlari, qo‘llanilishi va hokazolarni bilib oladi.

Qirg‘izcha darslikda lingvistik lug‘atlarning bir tilli va ikki tilli turi mavjudligi qayd etilgan. “Лингвистикалык сөздүктөр (лексикондор) бир тилдүү же эки тилдүү (котормолуу) болушу мүмкүн”[208]. Bir tilli lug‘atlar bir tildagi so‘zlar haqida ma’lumot bersa, ikki tilli lug‘atlar bir tildagi so‘zlarni boshqa ikkinchi tilga tarjima qiladi va ularning ekvivalentlarini beradi. Yana qirg‘iz leksikografiyasida bir tilli lug‘atlar maqsadi, mazmuni, lug‘at maqolalarining tuzilishiga ko‘ra: ***түшүндүрмө жана тарыхый, толук жана кыскача, жалпы жана жеке*** *(дифференциалдык),* ***адабий жана диалектилик, фразеологиялык жана терминологиялык, орфоэпиялык жана орфографиялык kabi terminlar bilan nomlanuvchi lug‘at turlariga bo‘linadi.***

O‘zbekcha darslikda leksikografiya termini bilan nomlanuvchi tilshunoslik bo‘limi quyidagi ijtimoiy vazifalarni bajarishi aytib o‘tilgan: 1) ona tilini va boshqa tillarni o‘rgatish; 2) ona tilini tasvirlash va me’yorlashtirish; 3) tillararo munosabatlarni ta’minlash; 4) til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish[209]. Bundan tashqari lug‘atlar maqsadi va mo‘ljaliga ko‘ra quyidagi terminlar bilan ataluvchi ikki turga bo‘linishi ko‘rsatilgan: 1) umumiy lug‘at; 2) maxsus lug‘at. “Umumiy lug‘at keng o‘quvchilar ommasiga, maxsus lug‘at esa tor doiradagi kishilar – alohida

[208] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.156.
[209] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.160.

soha mutaxassislariga mo‘ljallangan bo‘ladi”[210]. Yuqorida ko‘rsatilgan har ikki tur lug‘atlari yana ikki turga: 1) ensiklopedik lug‘at; 2) filologik lug‘atlarga bo‘linadi. Ushbu darslikda lug‘atlarni *umumiy ensiklopedik lug‘at*, *maxsus ensiklopedik lug‘at* hamda *umumiy filologik lug‘at, maxsus filologik lug‘at* kabi terminlar bilan beriluvchi turlarga bo‘lib o‘rganish maqsadli bo‘lishi ta’kidlangan. Umumiy filologik lug‘atlarga *izohli, imlo, orfoepik, tarjima lug‘at* kabilar kiradi. Maxsus filologik lug‘atlarga esa *morfem lug‘at, chastotali lug‘at, ters lug‘at, o‘zlashma lug‘at, frazeologik lug‘at, onomastik lug‘at, dialektal lug‘at, terminologik lug‘at, tarjima lug‘at* kabi terminlar bilan ataluvchi lug‘atlar mansubdir.

Leksikografik terminlarni tahlil qilish jarayonida lug‘atlarning turlarga bo‘linishida o‘zaro farqli jihatlar borligi ko‘zga tashlandi. Xususan, eng avvalo, lug‘atlarning qirg‘iz tili darsligida *tushunchalar lug‘ati* hamda *lingvistik lug‘at* kabi turlarga bo‘linishi o‘zbekcha darslikda uchramaydi. O‘zbekcha darslikda esa lug‘atlar dastlab, *umumiy lug‘at* hamda *maxsus lug‘at* kabi turlarga bo‘linishi ko‘rsatilgan. Bu kabi bo‘linish esa qirg‘izcha darslikda uchramaydi. Qiyoslanayotgan qirg‘izcha darslikda lingvistik lug‘atlar *bir tilli* hamda *ikki tilli* terminlari bilan nomlanuvchi lug‘atlar ham mavjud bo‘lib, bunday lug‘atlar o‘zbekcha darslikda mavjud emas. O‘zbekcha darslikda keng va tor doiradagi o‘quvchilarga mo‘ljallangan *ensiklopedik lug‘at va filologik lug‘at* kabi terminlar bilan nomlanuvchi lug‘at turlari mavjud. Qirg‘izcha darslikda ensiklopedik lug‘atlar tushunchalar lug‘ati tarkibiga kiritilgan. Filologik lug‘at nomi bilan nomlanuvchi lug‘atlar qirg‘iz leksikografiyasida uchramaydi. Bundan tashqari yana tilshunoslik bilan bog‘liq bo‘lgan lug‘atlarning har ikki darslikda farqli jihatlari mavjuddir.

Leksikografik terminlarni qiyoslash natijasida terminlarning asosiy mazmuni va vazifasi mushtarak ekani, biroq lug‘atlarni tasniflash mezonlari hamda terminologik nomlanishlarda muayyan farqlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, qirg‘iz tilshunosligida lug‘atlar *tushunchalar lug‘ati va lingvistik lug‘atlar* tarzida ajratilsa, o‘zbek tilshunosligida *umumiy* va *maxsus* lug‘atlar, *ensiklopedik* hamda *filologik* lug‘atlar tarzida tasniflanadi. Bu kabi farqli jihatlar terminologik tizimlarning o‘ziga xos rivojlanish bosqichlari va milliy an’analari bilan bog‘liqdir.

Biz yuqorida o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan darsliklardan leksik-frazeologik, leksikografik terminlarni

[210] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.160.

qiyosiy-tipologik tahlil qilish natijasida o‘zbekcha darslikda leksikologiyaga oid 57 ta, frazeologiyaga doir 4 ta, leksikografiyaga doir 13, hammasi bo‘lib esa 74 ta termin ishlatilganligini aniqladik. Qirg‘izcha darslikda leksikologiyaga doir sodda terminlar 20 ta, qo‘shama terminlar 5 ta, birikmali terminlar 25 ta, jami 50 ta termin, frazeologiya mavzusida esa 40 ta, leksikografiya mavzusida 55 ta termin qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qirg‘iz leksikografik terminlarining qiyosiy tahlili ikki qardosh xalq o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy aloqalarni mustahkamlashga, milliy tillarni saqlash va rivojlantirishga, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-siyosiy, tarixiy va madaniy ahamiyatga ham egadir. Shu bois, o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslarining hamkorligini yanada kengaytirish, qo‘shma ilmiy loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish bugungi globallashuv davrining talablaridan biri hisoblanadi.

2.3. O‘zbek va qirg‘iz tillarida termin yasalishidagi umumiyliklar va farqli jihatlar

Morfemik terminlarning tahlili

O‘zbek va qirg‘iz tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, har ikki til ham morfologik xususiyatiga ko‘ra agglyutinativ tillar hisoblanadi. So‘zlarning tarkibi asos va qo‘shimchadan iborat bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida so‘z tarkibini o‘rganadigan bo‘lim *morfemika* termini bilan nomlanadi. “Morfemika (yunoncha morphe – “qism”, “shakl”). Ma’lumki, o‘zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o‘laroq, o‘zak mustaqil ma’no anglatish xususiyatiga ega. So‘zning o‘zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo‘llanmaydi va leksik ma’no anglatmaydi. Shuning uchun ular *morfema* deyiladi. Masalan, *sholikorlardan* so‘zi *(sholi), (-kor), (-lar), (-dan)* qismlaridan iborat[211].” O‘zbekcha darslikda morfemika terminiga berilgan ta’rifga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ushbu bo‘limda o‘rganiladigan asos va qo‘shimcha *morfema* termini bilan nomlanishini ko‘ramiz. Qiyoslanayotgan qirg‘izcha darslikda so‘zlarning tarkibini o‘rganuvchi bo‘lim tilshunoslikning morfologiya bo‘limi tarkibiga kiritilgan bo‘lib, *сөз курамы* termini bilan nomlangan.

O‘zbek va qirg‘iz tillarida so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lgan asos va qo‘shimchalarni ifodalovchi terminlarning nomlanishi bir-biridan farq

[211] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.172.

qilsa-da, ular mazmunan yaqindir. Qiyoslasak, o‘zbekcha darslikda – *o‘zak,* qirg‘izcha darslikda – *негиз* termini bilan nomlangan. *O‘zak* “o‘zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o‘laroq, o‘zak mustaqil ma’no anglatish xususiyatiga ega[212]”. Уңгу “Сөз уңгудан башталат: ***уч+кун, мал+чы,*** *кий+им, тоо+до+гу+лар.* Уңгу дайыма өз алдынча мааниге ээ: ***оюн, көңүл, арт, кес, көк, от, жый***” [213]. Har ikki tildagi so‘zning ma’no anglatadigan qismiga berilgan ta’riflar mazmun jihatidan yaqindir. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida so‘zning o‘zagi mustaqil ma’noga egaligi va bu ma’noni qolgan qismlarsiz ham anglata olish xususiyati bilan boshqa tarkibiy qismlardan ajralib turadigan birlik *leksema* termini bilan nomlanishi aytib o‘tilgan. Yana darslikda o‘zi mustaqil qo‘llana olmaydigan, so‘zga qo‘shilib turli xil so‘zlarni shakllantirish xususiyatiga ega bo‘lgan birlik *morfema* termini bilan atalishi, uning nutqiy ko‘rinishi esa *qo‘shimcha* termini bilan nomlanishini ta’kidlab o‘tgan.

Qirg‘izcha darslikda esa bu termin *мүчө* deb nomlangan bo‘lib, o‘z navbatida qo‘shimchalar *куранды мүчө, уланды мүчө* kabi terminlar bilan nomlanuvchi guruhlarga bo‘linishi aytilgan. Morfemalar har qanday tilning asosiy qurilish materiali hisoblanadi. Ular har doim tilning eng kichik ma’noli birliklari sifatida til tizimining mustahkam poydevorini tashkil etadi. O‘zbek va qirg‘iz tillarining morfemik tizimida ko‘plab o‘xshashliklar mavjud. Jumladan, “Кыргыз тили сөздөрдүн морфологиялык түзүлүшү боюнча мүчөлөмө тилдердин тобуна кирет. Мүчөлөмө тилдерде сөздөрдүн курамдык бөлүктөрү (морфемалар) белгилүү тартипте гана тизмектешет”[214]. Ushbu ta’rifdan ko‘rishimiz mumkinki, qirg‘iz tili ham affiksli, ya’ni agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. Lekin har bir tilda o‘zak va qo‘shimchaning so‘zdagi tartiblanishi o‘ziga xosdir. O‘zbekcha darslikda “So‘zning morfemik strukturasidagi o‘zgarish” deb nomlangan mavzuda so‘zlarning morfemik tarkibi o‘zgarishi natijasida *tublashish, yaxlitlanish, soddalashish, birlashish* kabi terminlar bilan nomlanuvchi hodisa yuz berishi haqida ma’lumot berilgan. “Ularning har xil ko‘rinishi bor: 1) so‘z va qo‘shimcha birlashib, so‘z tublashishi mumkin: *yuksa**l**, yuksa**k**, qishlo**q**, ko‘rpa**cha**;* 2) so‘z va qo‘shimcha birlashib, yaxlitlanishi mumkin: biron, biror, bezor; (qo‘shimcha bunday zichlashishi natijasida o‘z invarianti – morfemasidan uzilishi mumkin);

[212] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.172.
[213] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.197.
[214] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.194.

3) so‘z va qo‘shimcha orasidagi aloqa soddalashishi mumkin: yumshoq, qattiq; 4) so‘z qo‘shimcha holiga kelishi, murakkab qo‘shimchalar bir-biriga qo‘shilib ketishi, ya’ni birlashishi mumkin: borib yotibdi – borib yatipti –boryotipti– boryapti; ning + i=niki[215]”. Qirg‘izcha darslikda so‘z va qo‘shimcha birlashib, yaxlitlanish holati berilgan: бүгүн – бул+күн, быйыл – бул жыл[216]. Bunday so‘zlarning tuzilishida nima uchun fuziya hodisasining ko‘rinishlari kuzatiladi? Bunday hollarda asos bilan qo‘shimchalarning birlashishi, ya’ni oldinga va orqaga o‘xshashlik hodisalarining natijasida so‘zlar qisqarib, siqilib, bir-biriga yondashadi *(карта < карата), баам < ба+-ым, минт < мындай + эт)*. Natijada, asos va qo‘shimcha yoki bir-biriga qo‘shilgan ikki so‘zning dastlabki shakli ham, talaffuz xususiyati ham o‘zgarib, so‘z yangi ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bunday so‘zlarni tarkibiy morfemalarga ajratish maxsus tayyorgarligi kam odamlar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari qirg‘iz tilida so‘z qo‘shimcha holiga kelishi, murakkab qo‘shimchalar bir-biriga qo‘shilib ketishi, ya’ni birlashish holati ham kuzatiladi: *бара жатат – бараатат*[217].

“Morfemalarning funksional-semantik tasnifi” deb nomlanuvchi mavzuda esa morfemalar funksional-semantik xususiyatiga ko‘ra *derivatsion morfema* hamda *grammatik morfema* terminlari bilan nomlanuvchi guruhlarga bo‘lingan. “Derivatsion morfema so‘zga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qiladi. Yangi so‘z yangi lug‘aviy va grammatik ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, *paxta* leksemasi *-chi* affiksini olib, *paxtachi* so‘zi vujudga keladi”[218]. Ushbu ta’rifda o‘zbek tilidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida *derivatsion morfema* termini bilan atalishini ko‘ramiz. Grammatik morfemalar esa, *lug‘aviy shakl hosil qiluvchi morfema; sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema; lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema* terminlari bilan nomlanuvchi guruhlarga bo‘lingan. Qirg‘iz tilidagi darslikda bu kabi bo‘linish berilmagan. Lekin I.Abduvaliyevning 2008- yilda nashr etilgan “Кыргыз тилинин морфологиясы” degan darsligida bu haqda batafsil berilgan[219]. Bundan tashqari yana o‘zbekcha darslikda morfemalar struktur tasnifiga ko‘ra: *sodda(-chi,-lar,-roq,-niki)* va *murakkab(-garchilik, -gacha, -chilik)* morfemalarga bo‘linishi keltirilgan

[215] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.174.
[216] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.246.
[217] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.246.
[218] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.174.
[219] Абдувалиев И. Кыргыз тилинин морфологиясы. –Бишкек, 2008. 23-25-бетлар.

va shu terminlar bilan nomlangan. Morfemaning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari quyidagicha terminlar bilan nomlandi: *morfemik polisemiya, morfemik omonimiya, morfemik sinonimiya(derivatsion sinonimiya,grammatik sinonimiya), morfemik antonimiya. “Morfema variantlari”* termini bilan nomlanuvchi bo‘limda morfemalarning nutqda turli variantlari: *poetik variant*(bog‘in mevasi), *tarixiy variant(manim), dialektal variant(kitobing), fonetik variant(mening)* mavjudligi va shu terminlar bilan atalganligi aytilgan.

O‘zbek va qirg‘iz tillarida morfemik terminlarni qiyosiy o‘rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki madaniyatlararo aloqalar, shuningdek, ikki tilli lug‘atlar yaratish uchun ham ahamiyatlidir. Bu ikki tildagi morfemik terminlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlarni o‘rganish orqali, turkiy tillar oilasining rivojlanish tarixi va kelajagi haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

O‘zbek va qirg‘iz tilidagi so‘z yasalish qonuniyatiga doir terminlar tahlili

O‘zbek va qirg‘iz tillaridagi so‘z yasash qonuniyatlari tilshunoslikning eng muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, tilning leksik boyligini shakllantirish va kengaytirishning asosiy manbasi hisoblanadi. Har qanday til, xususan, barcha turkiy tillar uchun so‘z yasalish jarayoni tilning ichki rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi va tilning lug‘at tarkibini boyitadi. “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida so‘z yasalish bo‘limi *derivatsiya* termini bilan nomlangan. “Tilshunoslik an’anasida derivatsiya (lotincha derivatio – “ayrilish”) so‘z yasash jarayoni deganda so‘z yasash asosi va hosila orasida denotativ (atash, nomlash) ma’nolarda farqning bo‘lishi tushuniladi[220]”. Darslikda yana *relyatsiya* termini ham qo‘llanilgan bo‘lib, “relyatsiya (lotincha relatio – “xabar”) degan ma’noni anglatadi. Bunda asos va hosila orasida denotativ ma’nodagi farqning yo‘qligi tushuniladi.”[221]. O‘zbek tilida derivatsiya hodisasi so‘zning asosiga turli xil yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida sodir bo‘ladi. Bunda nomlanish ham, ma’no ham o‘zgarmaydi. Shuning uchun derivatsiya *leksik hodisa* termini bilan ham yuritiladi. *Relyatsiya* hodisasida esa borliqdagi ayni bir narsani atashidan hosil bo‘ladi: *qush, qushni*. *Relyatsiya* termini bilan nomlanuvchi hodisa odatda grammatik hodisalar sirasiga kiritiladi.

“Азыркы кыргыз адабий тили” darsligida ***сөз жасоо*** **termini so‘zlarning yasalish tizimini o‘rganishga doir mavzu nomi bo‘lib**

[220] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.177.
[221] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.177.

keltirilgan. “*Сөз жасоо* деген термин эки түрдүү мааниде колдонулат. Ал, биринчиден, туунду жана татаал сөздөрдүн кантип жасалаарын, анда кандай каражаттар жана ыкмалар пайдалана тургандыгын билдирсе, экинчиден, туунду жана татаал сөздөрдүн табиятын иликтеп үйрөтүүчү тил илиминин бир бөлүмүн билдирет”[222]. Terminga berilgan ushbu ta’rifga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qirg‘iz tilida so‘z yasalishi atamasi ikki xil ma’noda, ya’ni birinchidan, yasama va qo‘shma so‘zlarning qanday yasalishi, bunda qanday vosita va usullardan foydalanilganligi nazarda tutilsa, ikkinchidan yasama hamda qo‘shma so‘zlarga xos bo‘lgan ma’noviy xususiyatlar o‘rganilishi aytilgan.

O‘zbek va qirg‘iz tillari o‘rtasidagi genetik yaqinlik ularning so‘z yasalish tizimlarida ham ko‘p o‘xshashliklarni keltirib chiqaradi. Biroq, har bir tilning o‘ziga xos rivojlanish yo‘li, geografik joylashuvi va boshqa tillarga bo‘lgan ta’siri ularning so‘z yasalish jarayonida ba’zi farqlarni ham yuzaga keltiradi. Terminologiya esa har qanday tilning ilmiy-texnikaviy salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. So‘z yasalish qonuniyatlari asosida yaratilgan terminlar tizimi fanning turli sohalarida aniq va izchil muloqotni ta’minlaydi. Shu bois o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi so‘z yasalish qonuniyatlari asosida yaratilgan terminlarni qiyosiy o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy til siyosati uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, qiyoslanayotgan o‘zbekcha darslikda ushbu mavzuga doir *so‘z yasash qolipi, so‘z yasash asosi, so‘z yasash vositasi, so‘z yasash usuli, hosila* kabi terminlar ham berilgan bo‘lib, bu terminlarning har birining o‘ziga xos funksiyasi mavjuddir. “So‘z yasash qolipi ikki tomonli – shakl va mazmun tomonlaridan iborat lisoniy birlikdir. Chunonchi, [ot+-chi = ot anglatgan narsa/hodisa… bilan aloqador ish-harakatni bajaruvchi shaxs/predmetni atovchi ot] so‘z yasash qolipida shakl tomoni [ot+-chi …], mazmun tomon esa […. ot anglatgan narsa/hodisa… bilan aloqador ish-harakatni bajaruvchi shaxs / predmetni atovchi ot] so‘z yasash qolipining shakl tomoni so‘z yasash asosi va so‘z yasash vositasi/usuli dan iborat, uning mazmun tomonini esa leksik-grammatik xususiyatlar majmuasi sifatida olingan hosila tashkil etadi”[223]. Qirg‘izcha darslikda so‘z yasalish tizimini ilmiy tushunish uchun unda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalarni quyidagi terminlar orqali bilish zarurligi aytilgan**: *сөз жасоо*** *мааниси, негиз*

[222] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.196.
[223] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.180.

жана анын түрлөрү, куранды мүчө, туундулук катыш (отношение мотивированности), сөз жасоо тизмеги, сөз жасоо уясы, сөз жасоо тиби[224]. ***Сөз жасоо*** *мааниси* termini bilan nomlanuvchi mavzuda tildagi so‘z yasalish doirasi so‘z yasalish ma’nosi bilan belgilanadi. Bu ma’no esa bir emas, bir necha so‘zlarga teng taqsimlanadi. Shu jihati bilan so‘z yasalish ma’nosi so‘z turkumining umumiy kategorik ma’nosiga o‘xshaydi. Biroq kategorik ma’no butun bir so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa, so‘z yasovchi ma’no faqat shu turkumdagi ayrim so‘zlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham so‘z yasalish imkoniyatlari tor doiradadir. Masalan, qirg‘izcha ***агар, көгөр, карар, жашар, кыскар*** **kabi ot so‘z turkumiga oid so‘zlardan yasalgan yasama fe’llar asos bilan ifodalangan belgiga ega bo‘lish ma’nosini ifodalaydi. Bu yuqoridagi tilga olingan yasama so‘zlarning so‘z yasovchi ma’nosidir. Bu ma’no esa o‘zlari hosil bo‘lgan** *ак, көк, кара, жаш, кыска* kabi asos so‘zlarning ma’nosidan farq qiladi. O‘zbekcha darslikda *so‘z yasash ma’nosi* termini ifodalagan mazmunni beradigan termin uchramaydi. *Негиз* terminiga qirg‘zcha darslikda quyidagicha ta’rif berilgan. ***“Сөздүн негизи –*** сөздүктөгү сөз. Ал уланды мүчөнү алып таштагандан кийин калган сөздүн бөлүгүнө дал келет”[225]. Qirg‘iz tilshunosligida so‘zning negizi bu lug‘atdagi so‘z hisoblanadi. U so‘zdan so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchani olib tashlagandan keyin qolgan so‘z qismi hisoblanadi. Darlikda so‘zning o‘zagidan negiz farq qilishi alohida ta’kidlangan. O‘zak boshqa morfemalarga qismlarga ajralmaydi. Negiz esa o‘zakdan farqli o‘laroq yana boshqa morfemalarga ajraladi. O‘zbek oliy ta’lim darsliklarida *negiz* termini ishlatilmagan. Lekin umumta’lim maktab darsliklarida oxirgi so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishidan oldingi qism *negiz* termini bilan nomlanishi aytilgan. Masalan: *suvchilik* so‘zida *suvchi* negiz hisoblanadi. Qirg‘izcha darslikda negiz turli vositalardan yasalgan yoki yasalmaganiga qarab quyidagi terminlar bilan nomlanuvchi guruhlarga bo‘linadi: ***тубаса негиз, туунду негиз жана түзүүчү негиз.*** **Qirg‘iz tilshunosligidagi** ***тубаса негиз*** **terminining ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘zning tub, asos qismi hisoblanadi. O‘zbekcha darslikda tarkibida hech qanday qo‘shimcha mavjud bo‘lmagan so‘z** ***asos*** **yoki** ***o‘zak*** **termini bilan nomlanadi.** *Туунду негиз* – “***Туунду негиз –*** башка сөздөн жасалган сөз, башка бир негизге куранды мүчөнүн жалганышы же бир нече негиздин бир

[224] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.196.
[225] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.197.

бутүндүккө биригиши аркылуу жасалган, маниси жана турпаты жагынан ошол бирдиктерге көзкаранды болгон негиз”[226]. Terminga berilgan izohda asosga yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yasalgan yasama so‘z yoki bir necha asosning qo‘shilishidan yasalgan ma’nosi va shakli tomonidan o‘sha birliklarga bog‘langan negiz ekanligi tushiniladi. Mana shu o‘rinda qirg‘iz tilshunosligida ushbu terminning milliylashganini ko‘ramiz. Agar ushbu termini so‘zma-so‘z tarjima qilsak, *tug‘ilgan asos(so‘z)* ma’nosini beradi. Masalan: ***кыргыч, уйчу, бакчы.*** **Bu so‘zlarning asosi *кыр, уй, бак* hisoblanadi. Ularga *-гыч, -чы* qo‘shimchalarining qo‘shilishidan yangi so‘z yasalgan. *беш жылдык, топ таш, калем сап* kabi misollarda esa ikki asosning bi-biriga birikuvidan yasama so‘z yasalgan. Yangi yasalgan so‘zlarning ma’nosi dastlabki asosning ma’nosiga bog‘liq bo‘ladi.** *Түзүүчү негиз* – ushbu termin yasovchi asos ma’nosini anglatadi. Asosga so‘z yasovchi qo‘shimchaning qo‘shilishidan yasaladi. Masalan: ***балыкчы, шыпыргы, илгич.*** **Bu so‘zlarning asosi *балык, шыпыр, ил*** bo‘lib, ularga ***-чы, -гы, -гыч*** **qo'shimchalari qo‘shilishidan yangi so‘z hosil bo‘lgan.** *Түзүүчү негиз* – yana yangi so‘zlarning yasalishi uchun asos vazifasini ham o‘taydi. Bu termin ifodalagan ma’no o‘zbek tilshunosligidagi *negiz* termini bergan ma’noga teng keladi. *Туундулук катыш* – “Сөз жасоодогу борбордук түшүнүк – туундулук катыш. Ал түзүүчү негизге бир же бир нече туунду сөздүн маани жана форма жактан шартталып тургандыгын билгизет”[227]. Terminga berilgan ta’rifning ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, so‘z yasalishida markaziy tushuncha yasama so‘z hisoblanadi. Yasama so‘zga turli xil so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilsa-da, ularning asosi bitta bo‘ladi. Ular tuzuvchi negizga bir yoki bir nechta yasama so‘zning mazmun va shakl jihatdan shartlanganligini anglatadi. Masalan: ***чөптү ото, чөптү оттo.*** **Bu yerda yasama *so‘zlar: -ото<от+о, оттo<от+ла.* Yasama so‘zlarning ma’nosini izohlaydigan bo‘lsak, birinchisida, *ото* –** чоптон арылтуу, демек, жашылча-эгин эгилген жерди отоо, чоптон арылтуу (sabzavot ekilgan yerni yovvoyi o‘tlardan xalos etish, o‘tamoq); ikkinchida, ***оттo*** **-** чоптон, азыктануу (мал жөнүндө) (chorva mollarini o‘tlatish, o‘tlamoq) ma’nosida kelgan. Qirg‘izcha darslikda berilgan ushbu misollardan shu narsa ayon bo‘ladiki, *туундулук катыш* termini o‘zbekchadagi *o‘zakdosh so‘zlar* termini bergan ma’noni anglatadi. Qirg‘izcha ***куранды мүчө*** terminini

[226] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.197.
[227] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.198.

o‘zbekchaga tarjima qilsak, *quralgan qo‘shimcha* degan ma’noni beradi. *Quramoq* fe’liga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagiga ta’rif berilgan. “**Қурамоқ** – турли қисм ёки унсурларни бир-бирига уламоқ, бириктирмоқ; улаб, қўшиб, бирор нарса ҳосил қилмоқ. *Кўрпа қурамоқ”*[228]. Bu izohdan ko‘rish mumkinki, ushbu termin ham qirg‘izchada milliylik tusini olgan. ***Куранды мүчө*** bu termin bilan nomlanuvchi qo‘shimcha so‘zga qo‘shilib, so‘zning lug‘aviy ma’nosini ham, shaklini ham o‘zgartirib, yangi so‘z yasaydi. Masalan: *өрт (зат, от) > өрттө (этиш, fe’l), бас (этиш, fe’l) > басма (зат, от)*. Bunday yasalishda so‘z bir turkumdan ikkinchi turkumga o‘tadi. Qiyoslanayotgan qirg‘izcha darslikda *сөз жасоо тизмеги (so‘z yasash tizimi, qatori), сөз жасоо уясы (so‘z yasash uyasi), сөз жасоо жолдору (so‘z yasash yo‘llari), сөз жасоонун айкашу ыкмасы (so‘z yasashning analitik yoki sintaktik usuli), сөз жасоонун лексика-семантикалык ыкмасы (so‘z yasashning leksik-semantik usuli), сөз жасоонун фонетикалик ыкмасы (so‘z yasashning fonetik usuli), сөз жасоонун морфологиялик ыкмасы (so‘z yasashning morfologik usuli)* kabi mavzularda qirg‘iz tilida so‘z yasalishiga doir ma’lumotlar keltirilgan. Ularning har biriga to‘xtalib o‘tsak.

“С*өз жасоо тизмеги*”, ya’ni so‘z hosil qilish tizimi yoki qatori, bu uzluksiz hosil qilish munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar zanjiri hisoblanadi. Hosila so‘z bilan hosil qiluvchi so‘z o‘rtasidagi munosabat doimo faqat ikki so‘z bilan cheklanib qolmaydi. Chunki hosil qilish munosabatida turgan ikki so‘zdan biri ikkinchisiga nisbatan tuzuvchi negiz bo‘lsa, ikkinchisi birinchisiga nisbatan hosil qiluvchi negiz bo‘ladi. Shu bilan birga, hosil qiluvchi negiz ham boshqa bir so‘zga nisbatan hosil qilish munosabatida bo‘lib, o‘sha so‘zning hosil qiluvchi negizi vazifasini bajarishi mumkin. Masalan: “ата” (ata, nomla) fe’li “-а" qo‘shimchasi orqali “ат” so‘zidan yasalgan: ата < ат + а. Demak, bu yerda “ата” – hosil bo‘lgan so‘z, “ат” – hosil qiluvchi so‘z. Ularning o‘rtasidagi hosil qilish munosabati ushbu ikki so‘z doirasi bilan cheklanadi. “Атактуу” (atoqli) so‘zidagi hosil qilish munosabati “ата” so‘zidan farq qiladi. Xususan, “атактуу” so‘zi “атак” so‘zidan yasalganligi sababli, birinchisi hosila negiz, ikkinchisi esa hosil qiluvchi negiz hisoblanadi. Shu bilan birga, “атак” so‘zi ham “ата” fe’lining hosilasi hisoblanadi, demak, “атак” so‘zi “ата”ga nisbatan hosila negiz bo‘lsa, “ата” so‘zi “атак” so‘ziga nisbatan hosil qiluvchi negiz bo‘ladi.

[228] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.379.

Shuning uchun ushbu misoldagi to‘rt so‘z bir-biri bilan hosil qilish munosabati orqali bog‘lanib, quyidagi so‘z yasash qatorini tashkil qiladi: *атактуу < атак < ата < ат*.

Сөз жасоо уясы. So‘z yasash tizimini tasvirlashdagi yana bir tushuncha – so‘z yasash uyasi. U tub negiz, hosila negiz, hosil qiluvchi negiz, hosil qilish munosabati, so‘z yasash tizimi, qatori kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi va so‘z yasash tizimining tildagi murakkab hodisa ekanligini tasdiqlaydi. Demak, so‘z yasash uyasi deb bir o‘zakdan tarqalgan va hosil qilish munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan hosila va qo‘shma so‘zlarning so‘z yasash zanjiri, ya’ni to‘plami ataladi.

Ta’rif tasdiqlayotgandek, so‘z yasash uyasiga bir o‘zakdan tarqalgan o‘zakdosh va qo‘shma so‘zlar birlashadi. Tilda har bir o‘zakning so‘z yasash uyasi tarkib va hajm jihatidan bir xil emas, har xil bo‘ladi. Masalan, bosh so‘zidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yasalgan hosilalar turkiy tillarda o‘n so‘zdan ham kamroqni o‘z ichiga oladi. Qolgan yuzlab hosilalar bosh o‘zagidan emas, balki ushbu o‘zakli boshqa hosil qiluvchi asoslardan yasaladi. Bu o‘z-o‘zidan so‘z yasash uyasining hajmi va tarkibining murakkab ekanligini ochiq ko‘rsatadi. Misol uchun, tildagi so‘z yasash masalasini chuqur o‘rgangan qozoq olimlari bosh so‘zining so‘z yasash uyasi 92 ta so‘z yasash qatori va 143 ta hosila so‘zni o‘z ichiga olishini aniqlashgan. Qizig‘i shundaki, bu hisob-kitoblarda bosh so‘zi ishtirok etgan qo‘shma so‘zlar hisobga olinmagan ekan. Qirg‘iz tilida esa баш o‘zagining so‘z yasash uyasi taxminan 130 ta hosila va qo‘shma so‘zlarni tashkil qiladi.[229]

Сөз жасоо тиби. So‘z yasash tipi deb hosila so‘zlarni alohida-alohida guruhlarga birlashtirishga imkon beruvchi qoida-shartni aytamiz. So‘z yasash tipini aniqlashda, qoida sifatida, bir emas, balki bir nechta hosila so‘z solishtirish obyekti sifatida olinadi va quyidagi uchta shartning bir vaqtning o‘zida bajarilishi talab qilinadi: birinchidan, solishtirilayotgan hosila so‘zlarning hosil qiluvchisi so‘z turkumlik belgilari bo‘yicha bir xil bo‘lishi zarur; ikkinchidan, solishtirilayotgan hosila so‘zlarning so‘z yasash ma’nolari ham bir xil bo‘lishi zarur; uchinchidan, solishtirilayotgan hosila so‘zlar bir xil qo‘shimcha vositasi orqali yasalgan bo‘lishi zarur. Qo‘shma so‘zlar bo‘lsa, bir xil vositalar orqali tuzilishi shart. Agar ushbu uchta shartdan birortasi bajarilmay qolsa, solishtirilayotgan hosila so‘zlar bir tipga mansub bo‘lmaydi. Masalan, *койчу, уйчу, арызчы, ушакчы, кансыра, алсыра, уйкусура* kabi hosila so‘zlarning tuzuvchi negizlari, ya’ni asoslari *(кой, уй,*

[229] Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015. – Б.200.

арыз, ушак, кан, ал, уйку) so‘z turkumlik belgilari bo‘yicha bir xil, hammasi ot so‘z turkumiga mansub. Bu – birinchi sharti. Ikkinchi shart bo‘yicha solishtirilayotgan hosila so‘zlar quyidagi to‘rt xil so‘z yasash ma’nosiga ega:

- *койчу, уйчу* – asos orqali ifodalangan chorvani boqib, bunday ishni kasb qilib olgan odam;
- *арызчы, ушакчы* – asos orqali ifodalangan narsa bo‘yicha jamiyatga yot, salbiy xatti-harakat qilishga o‘rganib qolgan odam;
- *кансыра, алсыра* – asos orqali ifodalangan narsa yoki sifatning yo‘qolishi, so‘lishi;
- *уйкусура* – asos orqali ifodalangan narsa yoki sifatning paydo bo‘lishi, kuchayishi.

Bular so‘z yasashning ikkinchi sharti bo‘yicha hosila so‘zlarning to‘rt xil ma’no turini tushuntiradi. Har bir tur o‘ziga xos semantik xususiyatga ega bo‘lib, asos so‘zga qo‘shilgan ma’no va funksiyani ifodalaydi.

“Hozirgi o‘zbek tili” darsligida so‘z yasash qoliplarining turlari quyidagi terminlar bilan nomlangan. Birinchisi ***affiksal so‘z yasash qolipi*** deb nomlanib, uning o‘zi ham *suffiksal(ot+chi=ot)* hamda *prefiksal (be+ot=sifat)* terminlari bilan nomlanuvchi turlarga bo‘lingan. Ikkinchisi ***yoramchi/ko‘makchi so‘zli so‘z yasash qolipi****(ot+bo‘l=o‘timsiz fe’l)*, uchinchisi ***takror usulli so‘z yasash qolipi*** (numerativ+to‘liq takror = daraja miqdor ravishi), to‘rtinchisi ***qo‘shma so‘z beruvchi so‘z yasash qolipi*** (shaxs nomi+o‘timli/o‘timsiz fe’lning aniq/orttirma/o‘zlik nisbat asosi+di=so‘z yasash asosi bilan aloqador marosim nomi ma’noli ot), beshinchisi ***tarkibi(qo‘shma) so‘z beruvchi qolip*** *(o‘nlikni atovchi sanoq son + birlikni atovchi sanoq son = o‘n birdan to‘son to‘qqizgacha sanoq son)*[230]. Ushbu yasalish qoliplarining turlaridan ko‘rish mumkinki, har bir turning bajargan funksiyasi o‘ziga xosdir. Yana darslikda *yasama* hamda *yasalgan* terminlari bilan ataluvchi so‘z yasalishiga doir tushunchalar mavjud. Quyida bu terminlar izohlagan ma’noni ko‘rib o‘tamiz. “***Yasama*** so‘z sof nutqiy hodisa bo‘lib, uning ma’noviy imkoniyatlari so‘z yasash qolipining qobiliyati bilan belgilanadi va nutqda/matndagina muayyanlashadi. Chunonchi, *uchuvchi* yasama so‘zi *qush, qurilma, mashina* … kabi so‘zlarning har biri bilan birikkanda o‘ziga xos ma’no kasb etadi”. “***Yasalgan*** so‘z ma’noviy ixtisoslashgan, leksemalanishning birinchi bosqichiga yuz tutgan va til jamiyati a’zolari xotirasida “qotib qolgan”,

[230] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.181.

shu shaklga bog‘langan ma’noga ega bo‘ladi. Chunonchi, *uchuvchi* – samolyotni boshqaruvchi shaxs, yoki *suvchi* – mirob, qishloq xo‘jaligida sug‘orish ishlari bilan band mutaxassis shaxs[231]”. Tahlilga tortilgan ushbu darslikda so‘z yasovchi qo‘shimchalardan tashqari “shaklda lisoniy tizimda semantik va sintaktik qobilyatning darajasiga ko‘ra *lug‘aviy, sintaktik va lug‘aviy sintaktik(funksional)*[232] terminlari bilan ataluvchi qo‘shimchalarning mavjudligi haqida ma’lumot keltirilgan.

Qiyoslanayotgan tillarda morfemik hamda so‘z yasalishiga oid terminlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilning terminologik tizimi turkiy til asoslariga tayangan holda shakllangan bo‘lib, ularning nazariy negizi va lingvistik mohiyatida sezilarli o‘xshashliklar mavjuddir. Buning asosiy sababi o‘zbek va qirg‘iz tillarining agglyutinativ tuzilishga ega bo‘lishi hamda morfologik qurilishning umumiy qonuniyatlarga asoslanishidir. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra o‘zbekcha darslikda 24 ta morfemikaga oid, 30 ta so‘z yasalishi(derivatsiya)ga oid terminlar keltirilgan. Qirg‘izcha darslikda esa 50 ta so‘z yasalishiga oid terminlar qo‘llanilgan bo‘lib, alohida morfemik terminlar keltirilmagan. Morfema, o‘zak, qo‘shimcha, derivatsiya, grammatik shakl, yasama so‘z kabi fundamental tushunchalar har ikki tilda ham deyarli bir xil nazariy mazmunni ifodalaydi. Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, terminlarning mazmuniy ekvivalentligi ularning nomlanishida to‘liq moslikni anglatmaydi. O‘zbek tilshunosligida xalqaro terminlar (morfema, derivatsiya, grammatik morfema, derivatsion morfema, relyatsiya) faol qo‘llanilgan bo‘lsa, qirg‘iz tilshunosligida ko‘plab terminlarning milliylashgan shakllari (мүчө, куранды мүчө, туунду негиз, түзүүчү негиз, сөз жасоо мааниси, сөз жасоо уясы, сөз жасоо тизмеги, сөз жасоо тиби) ustunlik qiladi. Bu esa ushbu mavzu yuzasidan qirg‘iz terminologiyasida milliy termin yaratish tamoyili kuchliroq ekanligini, o‘zbek terminologiyasida esa xalqaro lingvistik terminlardan foydalanish an’anasi ko‘proq ekanligini ko‘rsatadi.

So‘z yasalishiga oid terminlar tahlili ham ikki til o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni yaqqol namoyon etadi. Har ikkala til so‘z yasashni tilning leksik boyligini kengaytiruvchi asosiy vosita sifatida baholaydi. Lekin o‘zbek tilshunosligida so‘z yasash qolipi, so‘z yasash asosi, so‘z yasash vositasi, hosila, yasama so‘z, yasalgan so‘z kabi terminlar markaziy o‘rin egallaydi. Qirg‘iz tilshunosligida esa *сөз*

[231] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.181-182.
[232] Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.186.

жасоо мааниси, *сөз жасоо тизмеги*, *сөз жасоо уясы*, *сөз жасоо тиби*, *туундулук катыш* kabi terminlar orqali derivatsion tizimning paradigmatik va struktur munosabatlari kengroq yoritilgan. Ayniqsa, **сөз жасоо уясы** va **сөз жасоо тизмеги** terminlari orqali hosila so‘zlarning o‘zaro derivatsion bog‘liqligini tizimli ravishda ifodalash qirg‘iz tilshunosligining o‘ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil davomida o‘zbek tilshunosligida morfemalarning funksional-semantik, struktur hamda shakl-ma’no munosabatiga asoslangan tasnifi(derivatsion morfema, grammatik morfema, sodda va murakkab morfema, morfemik polisemiya, morfemik omonimiya, morfemik sinonimiya, morfemik antonimiya) nisbatan mukammal ishlab chiqilgani kuzatildi. Qirg‘iz tilshunosligida esa terminlarning amaliy qo‘llanilishi hamda derivatsion munosabatlarni izohlashiga ko‘proq e’tibor qaratilganlini aniqladik. Shuningdek, qiyosiy tahlil ikki til terminologiyasining shakllanishida turli omillar ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlab beradi. Yasalish tizimiga oid terminlar o‘zbek tilshunosligida rus va Yevropa lingvistik maktablari ta’sirida shakllangan bo‘lsa, qirg‘iz tilshunosligida milliy til imkoniyatlari asosida yangi terminlar yaratishga intilish kuchliroq namoyon bo‘lgan.

Bob bo‘yicha xulosa

1. Mazkur bobda oliy ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan “Hozirgi o‘zbek tili” va “Азыркы кыргыз адабий тили” darsliklaridagi o‘zbek va qirg‘iz tilshunosligiga oid terminlar qiyosiy-strukturaviy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, morfemika hamda so‘z yasalishiga oid terminlarning shakllanishi, semantik mazmuni, struktur xususiyatlari va qo‘llanish tamoyillari qiyosiy aspektda o‘rganildi.

2. O‘zbek va qirg‘iz tillari umumturkiy genetik asosga ega bo‘lgani sababli ularning lingvistik terminologik tizimida sezilarli umumiyliklar mavjud. Har ikki tilda qo‘llanilayotgan tilshunoslik terminlarining katta qismi mazmun-mohiyati, ilmiy vazifasi va funksional qo‘llanishi jihatidan o‘zaro mos keladi.

3. O‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarining nomlanishi, tasniflanishi va izohlanish usullarida muayyan farqlar mavjudligi ham aniqlandi. Bu tafovutlar, avvalo har ikki tilning fonetik tizimi, grammatik qurilishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, milliy til siyosati hamda tilshunoslik maktablarining metodologik yondashuvlari bilan

bog‘liqdir. Jumladan, qirg‘iz tilshunosligida singormanizm, cho‘ziq unlilar va fonetik uyg‘unlik hodisalari terminologik tizimda alohida o‘rin egallasa, o‘zbek tilshunosligida fonologik paradigma, fonemalarning oppozitsion munosabatlari, korelyativ belgilar va fonetik jarayonlarning struktur tavsifi kengroq yoritilgan.

4. Leksikologiya, frazeologiya va leksikografiyaga oid terminlarning qiyosiy tahlili ushbu sohalarda ham terminologik birliklarning asosiy qismi umumturkiy va xalqaro ilmiy an’analar negizida shakllanganligini ko‘rsatadi. Biroq ayrim terminlarning ifodalanish shakli, semantik hajmi va qo‘llanish chastotasida milliy xususiyatlar kuzatiladi. Morfemika hamda so‘z yasalishiga oid terminlar tahlili har ikki tilda derivatsion jarayonlarning umumiy qonuniyatlari mavjudligini, ammo affikslarning funksional tavsifi va ayrim terminlarning nomlanishida o‘ziga xos farqlar saqlanib qolganligini ko‘rsatdi.

5. Har ikki tildagi oliy ta’lim darsliklarining qiyosiy tahlili ularning ilmiy-metodik yondashuvida ham ayrim farqlarni aniqlash imkonini berdi. Qirg‘iz tili darsliklarida nazariy masalalarga kengroq o‘rin ajratilgan bo‘lib, terminlarning lingvistik asoslari atroflicha sharhlangan, o‘zbek tili darsliklarida esa terminlarning tizimli tavsifi, struktur tasnifi va amaliy qo‘llanishiga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Har ikki yondashuv ham zamonaviy tilshunoslik talablari nuqtayi nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

6. Olib borilgan qiyosiy-strukturaviy tahlillar o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminologiyasi yagona turkiy ilmiy an’analar asosida shakllanganligini, terminlarning aksariyati semantik va funksional jihatdan mushtarak ekanligini, mavjud tafovutlar esa har bir tilning milliy taraqqiyoti va lingvistik rivojlanish qonuniyatlari natijasida yuzaga kelganligini tasdiqladi. Tahlil natijalari ikki qardosh til terminologiyasini o‘zaro uyg‘unlashtirish, terminlarni standartlashtirish, ikki tilli terminologik lug‘atlar yaratish hamda turkiy tillar qiyosiy terminologiyasini rivojlantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XOTIMA

Tilshunoslikda terminologiya masalasining o‘rganilishi milliy tilning ilmiy salohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy ilmiy tafakkurni ifodalash imkoniyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Terminlar muayyan fan yoki kasb-hunar sohasiga oid tushunchalarni aniq ifodalash bilan birga, ilmiy bilimlarni tizimlashtirish, tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilash va ilmiy kommunikatsiyaning izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois terminologiyani oddiy leksik birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zining ichki qonuniyatlari, rivojlanish tamoyillari va me’yorlashtirish mexanizmlariga ega bo‘lgan yaxlit hamda dinamik lisoniy tizim sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur monografiyada o‘zbek va qirg‘iz tillaridagi tilshunoslik terminlari qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etilib, ularning shakllanishi, taraqqiyoti, struktur-semantik xususiyatlari, etimologik tarkibi, termin yasash modellari hamda milliy va xalqaro terminlarning o‘zaro munosabati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ushbu masalalarning ikki qardosh til materiallari asosida kompleks tarzda o‘rganilishi terminologik tizimlarning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash imkonini berishini ko‘rsatdi.

Olib borilgan tahlillar o‘zbek va qirg‘iz tillari terminologik tizimlarining umumturkiy leksik qatlam negizida shakllanganini ko‘rsatdi. Har ikki til terminologiyasining rivojlanishida qadimgi turkiy yozma an’analar, Sharq ilmiy-madaniy muhiti, arab-fors tillari ta’siri, sovet davrida rus tili orqali kirib kelgan xalqaro terminlar hamda mustaqillik yillaridagi milliy terminologik siyosat muhim omillar sifatida namoyon bo‘lgan. Biroq mazkur umumiy tarixiy manbalar har ikki tilning o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyoti bilan uyg‘unlashib, milliy terminologik tizimlarning farqli xususiyatlarini ham yuzaga keltirgan.

Terminologik tizimlarning tarixiy taraqqiyotini shartli ravishda dastlabki shakllanish, milliy terminologiyaning qaror topishi, sovet davri va mustaqillik davri kabi bosqichlarda kuzatish mumkin. Ayniqsa, sovet davrida ilm-fanning barcha sohalari bo‘yicha terminologik tizimlarning jadal shakllangani, rus tili orqali ko‘plab xalqaro terminlarning o‘zbek va qirg‘iz tillariga kirib kelgani bilan bir qatorda, ayrim milliy terminlarning iste’moldan chiqib ketgani kuzatiladi. Mustaqillik davrida esa davlat tillarining mavqeyi mustahkamlanishi bilan milliy terminlarni

qayta tiklash, yangi terminlarni ichki til imkoniyatlari asosida yaratish va mavjud terminlarni me’yorlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi.

Qiyosiy-tipologik tahlil o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminlarining aksariyati umumiy ilmiy tushunchalarni ifodalashini, shu sababli ularning semantik mazmunida sezilarli mushtaraklik mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, terminlarning nomlanishi, tasniflanishi va izohlanishida muayyan farqlar mavjud. Bu tafovutlar, avvalo, har ikki tilning fonetik tizimi, grammatik qurilishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, milliy til siyosati hamda tilshunoslik maktablarining metodologik yondashuvlari bilan bog‘liq.

Fonetika terminlari tahlili ham mazkur fikrni tasdiqlaydi. O‘zbek tilidagi “tovush” terminiga qirg‘iz tilida “тыбыш” muqobil bo‘lib, har ikki termin mohiyatan bir ilmiy tushunchani ifodalaydi. Biroq mazkur tushunchaning tavsifi, tarkibiy jihatdan yoritilishi va unga aloqador terminlarning tizimlanishida ikki darslik o‘rtasida farqlar mavjudligi aniqlandi.

Leksikologiya, frazeologiya va leksikografiyaga oid terminlarning qiyosiy tahlili ham terminologik birliklarning asosiy qismi umumturkiy va xalqaro ilmiy an’analar negizida shakllanganini ko‘rsatdi. Biroq ularning ifodalanish shakli, semantik hajmi va qo‘llanish chastotasida milliy xususiyatlar mavjud. Morfemika va so‘z yasalishiga oid terminlarda esa har ikki tilda derivatsion jarayonlarning umumiy qonuniyatlari mavjudligi bilan birga, affikslarning funksional tavsifi va ayrim terminlarning nomlanishida o‘ziga xosliklar saqlanib qolgan.

So‘z yasalishiga oid terminlar qiyosi o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik maktablarining metodologik yondashuvlaridagi ayrim farqlarni ham ko‘rsatdi. O‘zbek tilshunosligida “so‘z yasash qolipi”, “so‘z yasash asosi”, “so‘z yasash vositasi”, “hosila”, “yasama so‘z” kabi terminlar faol qo‘llansa, qirg‘iz tilshunosligida derivatsion munosabatlarni ifodalovchi “сөз жасоо уясы”, “сөз жасоо тизмеги”, “сөз жасоо тиби” singari terminlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu hol qirg‘iz tilshunosligida milliy til imkoniyatlari asosida termin yaratishga intilishning kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda o‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida termin tanlash strategiyalarida ham muayyan farqlar borligi aniqlandi. O‘zbek tilshunosligida Yevropa lingvistik an’analari hamda qayta tiklangan arab-fors qatlamiga mansub terminlardan foydalanish nisbatan faol bo‘lsa, qirg‘iz tilshunosligida sof turkiy, xususan, qirg‘iz tilining ichki imkoniyatlari asosida termin yaratishga intilish kuchliroq namoyon

bo‘ladi. Shu bilan birga, har ikki tilda milliy terminlarni tiklash va faol muomalaga kiritish jarayoni mustaqillikdan keyingi davrda sezilarli darajada kuchaygan.

Qiyosiy tahlil jarayonida oliy ta’lim darsliklarining ilmiy-metodik xususiyatlarida ham ayrim tafovutlar mavjudligi kuzatildi. Qirg‘iz tili darsliklarida nazariy masalalarga kengroq o‘rin ajratilib, terminlarning lingvistik asoslari batafsil sharhlangan bo‘lsa, o‘zbek tili darsliklarida terminlarning tizimli tavsifi, struktur tasnifi va amaliy qo‘llanishiga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Mazkur ikki yondashuvning har biri tilshunoslik ta’limi va terminologik bilimlarni shakllantirish nuqtayi nazaridan muayyan ilmiy-metodik ahamiyatga ega.

Umuman, tadqiqot natijalari o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminologiyasi o‘rtasidagi mushtarakliklar ikki tilning genetik qarindoshligi, umumiy tarixiy-madaniy ildizlari va uzoq yillar davomida mushtarak ilmiy makonda rivojlanganligi bilan izohlanishini ko‘rsatdi. Farqli jihatlar esa, asosan, milliy tilning ichki imkoniyatlari, tarixiy taraqqiyot, til siyosati, ilmiy maktablar va termin yaratish an’analari bilan belgilanadi.

Mazkur monografiyada qo‘llangan qiyosiy-tipologik yondashuv terminologik birliklarni faqat tashqi shakliy o‘xshashlik asosida emas, balki ularning kelib chiqishi, strukturasi, semantik mazmuni, funksional xususiyati va terminologik tizimdagi o‘rni asosida tahlil qilish imkonini berdi. Bunday yondashuv qarindosh tillarning ilmiy terminologiyasidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash bilan birga, har bir tilning milliy o‘ziga xosligini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminologiyasini yanada takomillashtirish uchun bir qator istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Jumladan, ikki til terminologiyasini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan yangi tadqiqotlarni amalga oshirish, ikki tilli lingvistik lug‘atlar yaratish, umumiy terminologik elektron bazalarni shakllantirish, terminlarning muqobilligi va qo‘llanish me’yorlarini belgilash, milliy va xalqaro terminlarning o‘zaro nisbatini ilmiy asosda tartibga solish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur tadqiqotda aniqlangan umumiylik va farqlar turkiy tillar terminologiyasini kengroq qiyosiy planda o‘rganish uchun ham muhim ilmiy asos bo‘la oladi. Kelgusida o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon va boshqa turkiy tillarning lingvistik terminologiyasini yagona qiyosiy-tipologik mezonlar asosida

tadqiq etish turkiy tillar terminologik tizimining umumiy taraqqiyot qonuniyatlarini yanada teranroq ochib berishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminologiyasi bir tomondan umumturkiy lisoniy va tarixiy-madaniy asosga ega bo‘lgan mushtarak tizim sifatida, ikkinchi tomondan esa har bir xalqning milliy tafakkuri, ilmiy an’analari va til taraqqiyoti bilan belgilanadigan o‘ziga xos hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning qiyosiy-tipologik tadqiqi qardosh tillarning nafaqat bugungi terminologik holatini, balki kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini ham belgilash uchun muhim nazariy va amaliy imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur monografiyada amalga oshirilgan tahlillar shu jihatdan o‘zbek va qirg‘iz tilshunoslik terminologiyasining umumiy va xususiy xususiyatlarini yaxlit tizimda ko‘rsatishga, terminlarning shakllanish va rivojlanish omillarini aniqlashga hamda qardosh turkiy tillar terminologiyasini tadqiq etishning samarali ilmiy yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aristotle. (1984). *The Complete Works of Aristotle: The Revised Oxford Translation*. Edited by Jonathan Barnes. Princeton: Princeton University Press.
2. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and pplications.Amsterdam: John Benjamins, Comptes rendus. 1998. –582 b.
3. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi.–Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 136 b.
4. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi//O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019. –117 b.
5. Danilenko V. P. Rus terminologiyasi: lingvistik tavsif tajribasi // Русская терминология: опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977.
6. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977.
7. Ercilasun A. B. Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri Sözlüğü. Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1991. 2 jild.
8. Gerhard Budin. Wüsters Allgemeine Terminologielehre – ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaft, Logik, Ontologie, Informatik und den Sachwissenschaften. Publication sur OpenEdition Books : 13 janvier 2025. – 252 b.
9. Juan C.Sager. A Practical Course in Terminology Processing. John Benjamins publishing company Amsterdam/Philadelphia. 1990. – 255 b.
10. Khodjaeva D. Lexicographic analysis of linguistic terms (on the basis of materials of explanatory dictionaries of the English, Russian and Uzbek languages)//International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020/1/15, Issue 6.
11. Muhamedova S. va b. Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 157 b.
12. Muhiddinova X., Xudayberganova D., Umirov I., Jiyanova N., Yusupova T. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. –201 b.
13. Mustafayeva S. Xitoycha-o‘zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2014. – 111 b.
14. Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy- tipologik tadqiqi. Nomz.disser...–Toshkent, 2009.

15. Otamirzayeva S., Yusupova M. O‘zbek tili. (Fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiya). – Toshkent, 2004.
16. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M, Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva D.N. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023.
17. Абдувалиев И. Кыргыз тилинин морфологиясы. –Бишкек, 2008.
18. Акжалова З.П. Англис жана кыргыз тилдериндаги коомдук жана спорттук терминдердин лингвистикалык негиздери. Филология илимдеринин кандидаты окумуштуулук даражасын изденип алуу учун аткарилган диссертациясинын автореферати. – Бишкек, 2007.
19. Ахманова О. С. Словарь омонимов русского языка / О.С.Ахманова. – 3-е изд., стереотип. – М.: Рус. яз., 1986. –С.474.
20. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанлари докт. дис... автореф. –Тошкент, 2016.
21. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри дисс. – Т., 2016. – 255 б.
22. Аҳатова М. Ўзбек тили ёғочсозлик терминологияси. Филол. фанлари номзоди … дисс. автореф. – Т., 2004.
23. Аширбаев Т., Нармыраева К. Тил илимине киришүү. –Бишкек, 2023.
24. Б. М. Юнусалиев. Киргизская лексикология. –Фрунзе, 1959. Киргизское государственное учебно-педагогическое издательство. Часть 1. – С. 97-101.
25. Базарова Д. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент, 1978.
26. Гак Владимир Григорьевич. Француз ва рус тилларининг қиёсий типологияси//Дарслик. – Тошкент: Bookmany print, 2025.
27. Голованова, Е. И. Когнитивное терминоведение: учебное пособие. Челяб. гос. ун-т. Челябинск: Энциклопедия, 2008. – С.70.
28. Головин Б. Н., Кобрин Р. Ю. Лингвистические основы учения о терминах: учебное пособие для филологических специальностей вузов. – Москва: Высшая школа, 1987. –104 с.
29. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. –М.: Академия, 2008. –С.25.

30. Ғуломова Г. Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филология фанлари номзоди ... диссертация: – Тошкент, 2005.
31. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.
32. Даниленко В. П. Лексико-семантические и грамматические особенности слов-терминов /В.П. Даниленко // Исследования по русской терминологии: сб. ст. –М.: Наука, 1971.–С.11.
33. Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе. Дисс. … д-ра филол. наук. – Т.: 1988. –336 б.
34. Джамалханов Х. Из истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии. Автор. дисс…канд.филол.наук. – Ташкент, 1966.
35. Джурабаева З. Ўзбек тилида экологик терминлар. Филол.фан. бўйича фалсафа докри...дисс. автореф. – Тошкент, 2018.
36. Жалилов А. Кыргыз тили. 1-бөлүк. Тил илиминен маалымат, фонетика, графика, орфография, лексикология. – Бишкек, 1996. – 232 б.
37. Жороев И. М. Тил илимине кириш. жогорку окуу жайлардын студенттери /ч/н. –Ош, 2014. – 161 б.
38. Закирова В. Кыргыз тилиндеги грамматикалык терминдер. –Фрунзе: «Илим» басмасы, 1976.
39. Закирова Е.С· Некоторые вопросы терминоведения и терминографии как компонентов общей теории языка для специальных целей. Гуманитарные науки. Том 7, № 1-6 (2013).
40. Исломов И. ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини: Филол. фан. док-ри дисс... – Қарши, 2021. – 210 б.
41. Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 128 б.
42. Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 44 б.
43. Каримов К.Соҳага оид терминларнинг ўзбек тилшунослигидаги тадқиқи. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali// 14-son 20.12.2022-yil.

44. Касымов А. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке. Автор. дисс…канд.филол.наук. – Ташкент, 1982.
45. Касымова М.Х. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1985.
46. Климовицкий Я. А Некоторые методологические вопросы работы над терминологией науки и техники / Современные проблемы терминологии в науке и технике: сб. ст. – М.: Наука, 1969. –С.35.
47. Константин Геннадьевич Красухин. Из истории исторической лингвистики: Бодуэн де Куртенэ и языковые изменени. Вопросы языкознания. – В.98. 2021. №2.Рр.98–122.
48. Кошуева М. Ж., Роль к. тыныстанова в истории формирования киргизской терминологии. Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice. – В.685.
49. Кыргыз тилинин жазма грамматикасы. Азыркы кыргыз адабий тили. –Бишкек. Аврасия пресс, 2015.
50. Кыргыз тилинин жазуу эрежелери. –Бишкек, 2013.
51. Қодирова Х.Б. Атама ва изоҳ (Миллий тасвирий ва амалий санъат атамаларининг ўзбекча-русча-инглизча изоҳлаш масаласи) Монография. –Тошкент, 2019.
52. Қўчқортоев И., Исабеков Б.Туркий филологияга кириш. –Тошкент:Ўқитувчи, 1984.
53. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд. 3- е изд.. – М.: Издательство ЛКИ, 2007. – 256 с.
54. Лейчик В.М. Проблемы отечественного терминоведения в конце XX века // Вопросы филологии. – Москва, 2000. –С.20.
55. Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. –М.: Наука, 1970. –С.19.
56. Ломоносова М.В. Определение термина в современной лингвистике и его роль в языке. Студенческий научний форум. 2017. – С.41.
57. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 b.
58. Маджаева, С. Медицинские терминосистемы: становление, развитие, функционирование (на материале предметных областей медицины сахарный диабет и СПИД). Астрахань: АГМА, 2012. –С.13.

59. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б.104.

60. Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминлари луғатини тузиш юзасидан баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1963.

61. Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси. Филол. фанлари номзоди … дисс. автореф. – Т., 1986. –27 б.

62. Мирзахмедова Ҳ.В. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясалиш усуллари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 45 б.

63. Мухитдинова Х., Худойберганова Д., Умиров И., Жиянова Н., Юсупова Т. Ҳозирги ўзбек адабий тили.–Тошкент: ILM ZIYO, 2004. –Б.47.

64. Муратова Е.Ю. Основы сравнительно-типологического языкознания. Учебно-методический комплекс по учебной дисциплине. ВГУ имени П.М. Машерова, 2022. – С.44.

65. Мусаев С.Ж., Мусаева Т.С. Кыргыз адабий тили: улуттук доорго чейин жана улуттук доордо. – Бишкек, 2022.

66. Мустафаева С.Т. Хитой тилшунослик терминологияси: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 42 б.

67. Нармырзаева К. Тил илимине киришүү. – Ош, 2020. – Б.60-65.

68. Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик тадқиқи: Филология фанлари буйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Т., 2017. – 154 б.

69. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номз. … дисс. автореф. – Т.: 2009. – 26 б.

70. Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий типологик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2009. – 25 б.

71. Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол. фанлари номзоди … дисс. автореф. – Т., 2005. – 23 б.

72. Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 2000. – 24 с.

73. О.С. Абдыкаимова, А.С. Токтоназарова. Основные вопросы образования специальной терминологии в лексико-семантической системе языка. Вестник КРСУ, 2020. Том 20. № 2. – С.115.

74. Орузбаева Б., Турсунова А., Сыдыков Ж., Акматалиев А., Мусаев С., Садыков Т. Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек, 2015.

75. Орузбаева Бүбүйна Өмүрзаковна. Лингвистикалык терминдердин орусча - кыргызча сөздүгү. –Фрунзе: Издательство Тилим, 1972.

76. Осмонкулов, А.О. Основы методики обучения звуковой системе киргизского языка в школе: Для студентов-филологов и учителей / А. Осмонкулов. - 2-е изд., перераб. и доп. – Фрунзе: Мектеп, 1986. – 297 с.

77. Пардаева И.Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол. фанлари номз. дисс. …автореф. – Т., 1994.

78. Пўлатов И.,Тўхтасинова О.Тилларни типологик ўрганиш//Ўқув қўлланма.–Тошкент: Тафаккур, 2009.

79. Пулатова О.М. Истоки формирования и дальнейшего развития терминологии танцевального исскуства узбекского язика. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Т., 1992.

80. Расулов Р., Суюнов Б., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2010.–Б.47.

81. Расулов Р., Ҳусанов Н., Муйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати.//Ўқув қўлланма. –Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2006. –Б.45.

82. Рафиев А.Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. –Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.6.

83. Реформатский А А. Введение в языковедение: учеб. для филол. фак. пед. ин-тов / А. А. Реформатский. – 4-е изд-е, испр. и доп. – М.: Просвещение, 1967. – С.110.

84. Розенталь Д. Э., Теленкова М. А. Словарь-справочник лингвистических терминов. 3-е изд., испр. и доп. Москва: Просвещение, 1985. –399 с.

85. Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 174 с.

86. Собирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол.фан.бўй.фал.док-ри (PhD) дисс... – Тошкент, 2022. – 179 б.

87. Суперанская А В. Общая терминология: вопросы теории / А.В. Суперанская, Н. В. Подольская, Н.В.Васильева. – 6-е изд. – М.: Либроком, 2012. –С.11.
88. Турсунова О. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланган ҳуқуқий терминларнинг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2007.
89. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.379.
90. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т.:«Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 1996. –Б.323.
91. Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фанлари номзоди … дисс. автореф. –Т., 1994.
92. Усмонов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. – Т.: Адолат, 1993. – 141 б.
93. Ходжаева Д.И. Тилшунослик терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари изоҳли луғатлари мисолида): Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2018. – 53 б.
94. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. –168 б.
95. Ҳотамов Н.Т. Развитие узбекской литературоведческой терминологиии в советский период: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1971.
96. Циткина Ф.А. Терминология и перевод: К основам сопоставительного терминоведения. – Львов, 1988.
97. Ш. Шоабдураҳмонов, М. Асқарова, А.Ҳожиев, И. Расулов, Х. Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
98. Шелов С.Д. Владимир моисеевич лейчик: ученый и человек. Терминоведение. К юбилею В.М. Лейчика 2024. –С.356.
99. Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Филол.фан. бўйича фалсафа док-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2020.
100. Юлдашев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ватартибга солиш. Филол.фанлари док-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2005.

MUDARIJA

SO‘ZBOSHI 3

I BOB. QIYOSIY-TIPOLOGIK TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIYA MASALALARI 6

1.1.Termin va terminologiya tushunchasining nazariy asoslari 6

1.2. Qiyosiy tilshunoslik va tipologiyaning ilmiy-metodologik tamoyillari 37

1.3. O‘zbek va qirg‘iz tilshunosligida terminologik tizimlarning shakllanishi 52

Bob bo‘yicha xulosa 66

II BOB. OLIY TA’LIM DARSLIKLARIDA O‘ZBEK VA QIRG‘IZ TILSHUNOSLIK TERMINLARINING QIYOSIY-STRUKTURAVIY TAHLILI.....68

2.1. Fonetik, grafik, orfoepik, orfografik terminlar tahlili 68

2.2. Leksik-frazeologik, leksikografik terminlarning qiyosiy-tipologik tahlili 99

2.3.O‘zbek va qirg‘iz tillarida termin yasalishidagi umumiyliklar va farqli jihatlar 119

Bob bo‘yicha xulosa 130

XOTIMA..... 132

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 136

Ubaydullayeva Maftuna Azamatovna

TURKIY TILLAR TERMINOLOGIYASI TIZIMIDA O‘ZBEK VA QIRG‘IZ TILSHUNOSLIK TERMINLARINING O‘RNI

Monografiya

ISBN 978-9910-292-63-7

Muharrir: S. Karimova
Musahhih: Sh. Abduraximov
Tex.muharrir: U. Isakov

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,
140117, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43.

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosmaxona tasdiqnomasi:

4268

Bosishga ruxsat etildi: 30.06.2026-yil.
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.
“Times New Roman” garniturasi. Ofset bosma usuli.
Hisob nashriyot t.:9,0. Shartli b.t.: 7,8.
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma №686.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.
140117, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy.